

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK PEDAGOGIKA INSTITUTI

“IJTIMOIY FANLAR”KAFEDRASI

SOTSIOLOGIYA

fani bo'yicha

MA'RUZALAR MATNI

Tuzuvchilar:

dots.X.O'rinboyev

ass. A.Nurmatov

Namangan 2017

1-MAVZU: SOTSILOGIYA FAN SIFATIDA

Reja:

1. Sotsiologiya mustaqil ijtimoiy fan sifatida.
2. Sotsiologiyaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.
3. Sotsiologiyaning tarkibiy tuzilishi.
4. Hozirgi davrda sotsiologiya fanini o'qitishning zarurligi.

Vatanimiz mustaqillikka erishgach, boshqa sohalar kabi milliy ta'lim tizimida ham chuqur islohotlarni amalga oshirish imkoniyati yaratildi. Natijada t'limning ijtimoiylashuvi, insoniylashuvi (gumanizasiyalashuvi) kuchaymoqda. Bu borada katta katta mas'uliyat ijtimoiy-gumanitar fanlar zimmasiga tushadi.

Sotsial-gumanitar bilimlarni egallash jarayonlarida muhim o'rinni sotsiologik ta'limotlar egallaydi. Sotsiologik ta'limning muhim funksiyalaridan biri – bu, sotsial tafakkurni shakllantirish, sotsiologik muammolarni tushunish, ularning kelib chiqish manbalarini aniqlash va bartaraf etish yo'llari hamda imkoniyatlarini qidirib topishdan ham iborat. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining rivojlanish imkoniyatlarini sotsiologiya fani doirasida tahlil qilish, o'rganish va olingan ilmiy-nazariy xulosalardan amaliyotda foydalanish muhim masalalardan biriga aylanmoqda.

Mustaqil O'zbekistonning kelgusidagi ijtimoiy taraqqiyot yo'nalishini o'rganish ko'p jihatdan sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish va bu jarayondagi xulosalarni umumlashtirgan holda mamlakat ichki siyosatining yo'nalishini belgilashda foydalanish muhim masalalardan biriga aylanmoqda. Shu tufayli respublikamizda Sotsiologiya fanini yanada rivojlantirishga katta ahamiyat berilib, u barcha oliy o'quv yurtlarining turli mutaxassisliklari uchun o'rganilishi shart bo'lgan fan darajasiga qo'tarildi.

«Sotsiologiya», «sotsiolog», «sotsiologik tadqiqot natijalari» kabi terminlar bizning har kungi hayotimizga singib bormoqda. Sotsiologiya va sotsiologik tadqiqotlar ilmiy jurnal va monografiyalar monopoliyalaridan chiqib bormoqda. Hozirda sotsiologik tadqiqotlar natijalari ilmiy ommabop gazeta va jurnallarda, radio va televidenie orqali e'lon qilinib borilmoqda. Sotsiologik tadqiqotlardan ijtimoiy fikrni hisobga olish, siyosiy partiyalar, liderlar, ularning dasturlari, sotsial tashkilotlarning ommabopligini davlat siyosatini ishlab chiqishda va h.k.da asosiy instrument sifatida foydalaniladi.

Sotsiologiya eng yosh ilmiy fanlardan hisoblanadi. Sotsiologiya (lotincha **societas** – jamiyat va yunoncha **logos** – ta'limot) – so'zlaridan olingan bo'lib, jamiyat haqidagi fan ma'nosini anglatadi. Bundan xulosa chiqadiki, sotsiologiya – jamiyat haqidagi fan. Amerika sotsiologi Dj.Smelzer «Sotsiologiya» darsligida shunday ta'rif bergan. Lekin bu juda abstrakt ta'rifdir, chunki jamiyatni juda ko'p fanlar o'rganadi: Sotsial falsafa, siyosiy iqtisod, demografiya, tarix, antropologiya va b. Sotsiologiyaning ob'ekti – «sotsial» deb atalgan barcha xususiyat, aloqa, munosabatlar hisoblanadi. Rus olimi Osipov fikricha, **sotsial** - bu individlar yoki guruhlar tomonidan konkret sharoitlarda o'zaro hamkorlik jarayonida umumlashtirilgan, ularning bir-biriga bo'lgan munosabatlarida, jamiyatda tutgan o'rnida, ijtimoiy hayotdagi hodisa va jarayonlarga bo'lgan

munosabatlarida namoyon bo'ladigan u yoki bu xususiyat va xossalarning majmuidir. Sotsial hodisa yoki jarayon, o'zaro ta'sir natijasida vujudga keladigan sotsial aloqalar, sotsial munosabatlar va ularni tahlil etish usuli sotsiologik tadqiqot ob'ekti hisoblanadi.

Sotsiologiyani jamiyat haqidagi fan deb hisoblash mumkin. Jamiyatni o'rganuvchi har bir fan uning tabiatiga va asosiy qiziqishiga yaqin bo'lgan, o'zining tadqiqot predmetiga egadir. Jamiyat haqidagi ushbu fanlar tizimida sotsiologiyani ajratib turgan narsa shuki, birinchi navbatda jamiyat ijtimoiy tizimining turli bosqichlarida shaxs, oila, mahalla, maktab, institut, korxona, tashkilot, tuman, shahar, viloyat butun mamlakat, xamda yalpi jamiyatda shakllanadigan ijtimoiy o'zaro munosabatlar va insoniy munosabatlar o'rgaadi. «Shuning uchun sotsiologiya jamiyatni emas, balki, jamiyatni tashkil etuvchi uning asosida ishlab turuvchi va rivojlanuvchi ijtimoiy materialni o'rganadi» (O. Kont).

Jamiyat haqidagi fanlar umumiy tizimida sotsiologiya fani xususiyatini yuqorida zikr etilgandek tushuntirish, hozirgi zamon sotsiologiyasining predmetini shunday ta'riflashning imkonini beradi:

Sotsiologiya jamiyatni murakkab ijtimoiy organizm sifatida o'rganadi. Sotsiologiya jamiyatni mavjud tarkibiy tuzilmalari mohiyati, ularning harakat tendensiyalari va taraqqiyot qonuniyatlarini sosial tashkil etilgan tizimda tadqiq etadi. Shuningdek, sotsiologiya asosiy e'tiborni jamiyatni xar xil ijtimoiy va hududiy tuzum bosqichlarida vujudga keladigan keng ma'nodagi insonlararo munosabatlari va jamoatchilik fikrini o'rganishga qaratuvchi fandır.

Sotsiologiya fani jamiyatning turli sohalari iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy-axloqiy va boshqa tarmoqlarida tadqiqotlar o'tkazadi.

O'zbekiston sharoitiga moslab, zamonaviy sotsiologiyada biz quyidagi o'rganish obektlarini ajratamiz:

I. Ijtimoiy bosqich: 1. Jamiyat; 2. Ijtimoiy qatlam; 3. Ijtimoiy guruh; 4. Mahalla; 5. Oila; 6. Shaxs;

II. Milliy bosqich: 1. Millat; 2. Elat; 3. Etnik guruh; 4. Avlod; 5. Milliy oila; 6. Indivud;

III. Tarmoqlar bosqichi: 1. Iqtisodiyot; 2. Siyosat; 3. Madaniyat; 4. Fan; 5. Ta'lim; 6. Ma'naviyat va ma'rifat; 7. Ekologiya va boshqalar

IV. O'ududiy bosqich: 1. Mintaqa; 2. Mamlakat; 3. Viloyat; 4. Shahar; 5. Tuman; 6. Eshloq; 7. Mahalla.

Mamlakatimizda sotsiologiyaning roli ortib bormoqda, bu fanga umumiy qiziqish kuchaymoqda. Buni tushunish mumkin, chunki O'zbekistonda hozir yangi ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy iqlim shakllandi. Ijtimoiy hayotning barcha jabxalarida o'zgarishlar kuzatilmoqda, sosial tarkibda o'zgarishlar qayd qilinmoqda, yangi ijtimoiy institutlar va munosabatlar paydo bo'lmoqda. Vatanimizda sotsiologiya xech qanday to'siqsiz rivojlanish va mustaqil ijtimoiy fan sifatida o'zini anglash imkoniyati tug'ildi. Jamiyatimizda kuzatilayotgan ijtimoiy o'zgarishlar va jarayonlar sotsiologiya fanining diqqat markazida turibdi.

Sotsiologik fikrlashning eng muhim jihati jamiyat hayotida inson shaxsini tushunishdan iboratdir. Shaxsga bo'lgan sotsiologik nuqtai nazarning o'ziga hosligi shundan iboratki, bu fan unga ijtimoiy voqeilikni o'zgartiruvchi faol

mavjudot sifatida qaraydi. Ijtimoiy institutlar ko'p jixatdan inson ahloqini ifodalaydi, ammo ayni shu vaqtning o'zida ular inson faoliyatining ifodasi va individlarning o'zaro ijtimoiy ta'siri xosilasidir.

Jamiyat to'g'risidagi xozirgi bilimlarning o'ziga hos xususiyati shundan iboratki, ular sotsiologik fikrlashning kuchli ta'siri ostidadir. Jamiyatimizda kuzatilayotgan murakkab jarayonlarni sotsiologik tahlilsiz to'g'ri tushunish mumkin emas.

Mamlakatimizda sotsiologiyaning keyingi rivojlanishi va takomillashtirilishi jamiyatni chuqur o'rganish va anglash, jamiyat oldida turgan o'tish davrining murakkab muammolarini ancha samaraliroq yechishga imkon beradi.

Insonni barcha davrlarda nafaqat uni o'rab turgan tabiatning jumboqlari va xodisalari, balki odamlar hayoti bilan bog'langan muammolar ham qiziqtirib kelgan. Nima uchun odamlar yakka yashashni istamaydilar? Ular orasida chegara o'tkazilishini nimalar majbur qiladi? Nima uchun ba'zilar ko'p ne'matlardan foydalanadi, ba'zilar esa bunday imkoniyatlar yo'q?

Shunga va shunga o'xshash ko'plab savollarga javob qidirish o'tmishdagi donishmandlar va olimlarni ular yashab turgan jamiyatni o'rganishga undagan va hayotning o'zi qo'ygan savollarga javob izlashga undagan. Sotsiologiyaga oid eng birinchi bilimlarni olimlar va donolar fikrlarida topish mumkin. Lekin o'sha davrdagi tadqiqotlar to'la va uzluksiz bo'lmagan. Jamiyatni tahlil qilish, guruhdagi inson xulqini o'rganish to'la-to'kis olib borilmas edi. Insonlar orasidagi munosabatlarning mushkullanishi, murakkab tashkilotlarning paydo bo'lishi jamiyat oldida turgan muammolarni amaliy hal qilish ehtiyojini kuchaytirdi.

«Sotsiologiya» atamasi fransuz tilidan «jamiyatni va ijtimoiy munosabatlarni ilmiy o'rganish» ma'nosini anglatadi.¹ Bu tarif ushbu fan nimani o'rganishi to'g'risida faqat umumiy tasavvur beradi. O'zining salkam yarim asrlik rivojlanishi davomida sosioogiya o'zining mazmuni va uslublari, qo'llaydigan atamalari bo'yicha turli ilmiy maktab va yo'nalishlar tarafdorlari orasida kuchli to'qnashuvlardan iborat qiyin yo'lni bosib o'tdi. Lekin bu turlicha yondoshuvlarning maqsadi bitta- insonni, uni o'rab turgan ijtimoiy borliqni, uning ijtimoiy fikrlash madaniyatini chuqurroq tushunishdan iborat. Shuning uchun mashhur rus-amerikalik sotsiologi P. Sorokin ta'biri bo'yicha bu fanni «o'ziga mos muxitda yashovchi odamlarning xulqini o'rganuvchi» fan deya ta'riflash mumkin.

Sotsiologiyaning obekti va predmeti nimadan iborat? Dastavval sotsiologiya nafaqat ijtimoiy, balki tabiiy fanlar bilimlarini mujassam qiluvchi umumiy fan deb tushunilar edi. Bu yondoshuv XIX asrning G'arbiy Yevropa sotsiologlarining ishlarida yetakchi edi. Bu sotsiologlarning fikrlari bo'yicha sotsiologiya uchun boshlanqich fan ijtimoiy hayot asoslarini aniqlab beruvchi va inson tabiati o'zgarmas hossalari to'g'risida bilim beruvchi biologiya fanidir. O'sha davr olimlarining nuqtai nazari bo'yicha, ijtimoiy hayotning rang-barangligi - bu jismoniy, aqliy, ma'naviy va siyosiy harakatlari bo'lgan asosiy tomonlarning turlaridir.

Keyinchalik fransuz sotsiologi E. Dyurkgeym ta'kidlagan ediki, ijtimoiy sohalar o'ziga hos xususiyatlari bilan ajralib turgan faktlardan iborat- bu

¹ Smelzer Neyl. Sosiologiya. M.Feniks, 1994, 659 b.

«fikrlash, faoliyat va sezish usuli, individ tashqarisida joylashgan va o'ziga bo'ysindiruvchi kuchga ega bo'lgan, buning natijasida ular bunga bog'lanib qolgan»².

Mashhur nemis olimi Maks Veber ongni ijtimoiy harakat omili deb ta'riflagan edi. U madaniyat haqidagi fanlarni (ularga sotsiologiyani ham kiritgan edi) va tabiat haqidagi fanlarni ajratgan. M. Veberning fikricha, inson ongli mavjudotligini na tarixchi, na sotsiolog, na iqtisodchi inkor eta oladi. Aynan shu yerda ijtimoiy fanlar ob'ekting tabiat xodisalaridan farqi mavjud. M. Veber fikricha³, sub'ektiv ma'noga ega bo'lgan individ yoki individlar xulqidan tarkib topgan harakat, sotsiologiyaning predmetidir. «Sotsiologiya... shunday fanki, deb yozgan edi M. Veber, ijtimoiy harakatni... tushunishni xohlaydi va buning asosida uning sabablarini tushuntirib beradi...»⁴.

Sotsiologiya obekti va predmetini zamonaviy tushunish ikkita yo'riqdan iborat. Birinchisi - jamiyat bu tabiiy biologik asosga tenglashtirilmaydigan aloxida turdagi ijtimoiy-madaniy borliqdir. Inson- bu shunday mavjudotki, uning umr ko'rishi yashash ijtimoiy sharoitlari, yetakchi axloq va madaniyat bilan chambarchas bog'langandir.

Ikkinchisi - tabiiy dunyoni o'rganishda o'zining samaradorligini isbotlagan bilish yo'llari va usullaridan foydalanish zarurligidan iborat. Bu yerda tabiiy fanlarda qo'llaniladigan usullardan ongsiz foydalanish emas, balki olingan natijalarni albatta tajriba asosida tekshirish, aniqlik va jiddiylikka intilish, tabiiy fanlardagi umumiy mantiqni qabul qilish nazarda tutilmoqda.

Shularni nazarda tutib, sotsiologiyaning o'rganuvchi ob'ekti sifatida guruhlar, ijtimoiy institutlar, jamiyatni tashkil qiluvchi ijtimoiy munosabatlar va harakatlari dunyosi, deb ta'riflash mumkin.

Boshqa fanlar singari, sotsiologiya insonni o'rab turgan butun dunyosini o'rganmaydi, balki jamiyatning, u yoki bu tizimning bir tarkibiy qismi sifatida kuzatilayotgan jarayonlarini, ularning eng muhim va o'ziga xos bo'lgan xossalarini o'rganadi. Boshqacha qilib aytganda, xususiy ijtimoiy jarayonlarni butunlikka, jamiyatga taalluqli deb hisoblaniladi. Mashhur amerikalik sotsiolog T. Parsons ta'kidlagan ediki, sotsiologiya boshqa ijtimoiy fanlardan farqli o'laroq, «butun jamiyatga, ijtimoiy tizimlarning birlashuviga taalluqli bo'lgan tizim va jarayonlarni o'rganadi»⁵. Zero, sotsiologni iqtisodiyotda foyda maromlari qiziqitirmaydi, balki uni butun jamiyatda pul qanday rol o'ynaydi, yoki ijtimoiy jarayonlarni boshqarishda pulning o'zni qanchalik ahamiyatga ega ekanligi qiziqtiradi. Sotsiologiya shaxsni jamiyatda bajarayotgan faoliyati, o'zlashtirilgan maqomlarini ijtimoiy tizim jarayonlari bilan chambarchas bog'liqlikda o'rganadi.

Sotsiologiyaning o'rganish predmeti inson hayoti tarzining konkret va hayratomuz voqealari, odamlarning jamiyatdagi takroriy xulq namunalari hisoblanadi.⁶ Vaholangki, oilada, ko'chada, transportda, do'konda, ishxonada, o'quv auditoriyasida- xullas barcha vaziyatlarda inson hulqining takrorlanuvchan ko'rinishlarini kuzatishimiz mumkin. Masalan, odam do'konga kirganda, sotuvchidan qanday muomala kutishini biladi. Xuddi shunday

² Dyurkgeym E. Sosiologiya metodi. M.:Kanon, 1995. 31bet.

³ Veber. M. Issledovaniya po metodologii nauki. M., 1980. 43 bet.

⁴ Amerikanskaya sosiologiya. Perspektivi, problemi, metodi. Pod red. T. Parsona. M.: 1972. S.364.

⁵ Amerikanskaya sosiologiya. Perspektivi, problemi, metodi. Pod red. T. Parsona. M.: 1972. S.364.

⁶ Amerikanskaya sosiologiya. Perspektivi, problemi, metodi. Pod. red. T. Parsona-M.: 1972. S. 364.

auditoriyaga kirgan o'qituvchi ham talabalardan qanday muomala kutishini oldindan biladi. Aynan shu holatda talabalar ham o'qituvchidan kasb mahoratini ishga solgan holda ma'ruza o'qish, amaliy mashQulotlar o'tkazish va talabalarining bilimini obektiv baholashini kutadi. Aytish mumkinki, o'qituvchi bilan talabalar orasida o'zaro bog'liqlik bor va bu bog'likliklar ular tahsil olayotgan o'quv dargohining ijtimoiy mavqeihanda jamiyat oldidagi vazifalaridan kelib chiqadi. Ijtimoiy mavqe shaxslarning huquq va majburiyatlarini ifodalaydi. Odamlarning o'zaro hamkorligi va bajaradigan vazifalarining mazmunini ularningmazkur tashkilotlarda egallab turgan ijtimoiy mavqelari aniqlab beradi. O'z navbatida, odamlarning konkret harakatlari jamlanmasisotsiologiyada «ijtimoiy rol» atamasi bilan ifodalanadi. Ijtimoiy rol ijtimoiy mavqe (status) ning amal qilishini ifodalaydi. Zero, jamiyatdagi inson hulqi, ijtimoiy tashkilotlar qabul qilgan ijtimoiy normalar orqali boshqariladi. Bular nafaqat jamiyatda qabul qilingan qonunlar, an'analar, balki, maxsus normativ topshiriqlar, aytaylik, u yoki bu jamoada qayd qilingan nizomlarda, buyruqlarda ifodalangan bo'lishi mumkin.

Ko'rsatilgan uchalaatama - mavqe, rol va norma sotsiologiyaning asosiy tushunchalaridan hisoblanadi, ular yordamida har qanday shaxs yoki ijtimoiy tashkilotlarning xususiyatlariga chizgi berish mumkin.

Jamiyatdagi ijtimoiy tashkilotlar va insonlarning hulq-atvorlari mexanizmlarini tushuntirish uchun o'sha jamiyatning ijtimoiy tizimini tahlil qilish lozim. Ammo, zamonaviy sotsiologiya jamiyatdagi ijtimoiy tizimni tadqiq etish bilan chegaralanib qolmaydi, uning taraqqiyoti va o'zgarishlarini ham bashorat qiladi. O'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, birinchidan, jamiyat hayotining muhim bo'lgan sohalari - iqtisodiyot (mehnat sharoitlari), ekologiya va demografiyaga oid holatlar jiddiy e'tibor bilan o'rganilmoqda. Ikkinchidan, sotsiologik tadqiqotlar jamiyatda demokratiyani rivojlantirish, hokimiyat masalalari, aholini boshqaruv ishlarda ishtiroki bilan bog'liq bo'lgan siyosiy jarayonlar va harakatlarning mazmun va mohiyatini ochib berishga imkon yaratadi.

Uchinchidan, sotsiologiya jamiyat ma'naviy hayotini faol o'rganadi. Bunda uning tadqiqot predmeti bo'lib ma'rifiy, madaniy, ilmiy, adabiy, ijodiy, diniy va boshqa sohalarning muammolari xizmat qiladi.

Demak, sotsiologiya ijtimoiy hayotning bir sohasi bilan chegaralanib qolmay, u inson mansub bo'lgan barcha guruhlar, qatlamlar, jamoalar, muassasalar, hamda odamlarning kundalik-maishiy hayotlari masalalari bilan ham qiziqadi. Boshqacha qilib aytganda, sotsiologiyaning bosh maqsadi - bu inson va unga aloqador ijtimoiy tashkilotlarning xatti-harakatlarini oqilona tarzda tushuntirishdir. Buning natijasida esa jamiyatda mavjud bo'layotgan muammolar o'ziga xos yechimini topadi.

Sotsiologiya jamiyatni umumiy mavhumlik emas, balki konkret voqelik deb ta'rif etadi. Bunda u o'ziga xos atama va tushunchalardan foydalanadi. Masalan, agarda faylasuf obektiv voqelik haqida mavhumroq gapirsa, sotsiolog bu voqelikni to'ldirib, empirik natijalarga tayangan xolda izohlaydi. Agar madaniyat tushunchasi faylasuf uchun inson ruhining mahsuli bo'lsa, sotsiolog uchun - u hulq-atvorning real natijasi, xarakatlarning muvofiqlashtiruvchi tizimidir.

Sotsiolog konkret insonga yaqin turishga harakat qiladi va uni ko'proq ilmiy asosda kundalik hayotni konkret o'rganish qiziqtiradi. Sotsiolog biror bir xodisani o'rganayotganida unga ta'sir ko'rsatayotgan aniq mexanizmga asosiy

e'tiborni qaratadi. Masalan, mehnat faoliyati motivasiyasini ko'rib chiqayotgan sotsiolog mehnat jarayonida moddiy rag'batlar qanday ahamiyat kasb etishini amaliy jihatdan ochib beradi. Shu nuqtai nazardan sotsiolog nafaqat miqdoriy, statistik ma'lumotlarga, balki ularning sifatiy tasnifiga ham tayanadi.

Sotsiologni bir marotaba ro'y beradigan va noyob hodisalar emas, balki qonuniyatli, doimiy va tipik (takrorlanuvchi) hodisalar qiziqtiradi.

«Sotsiologiya» termini fanga fransuz faylasufi **Ogyust Kont** tomonidan kiritilgan bo'lib, ushbu termin ilk bor uning «Pozitiv falsafa kursi» asarida (1839) qo'llanilgan.

Sotsiologiya esa bu pozitiv bilimlar cho'qqisidir. U o'z tadqiqotlarida pozitiv uslubga suyanadi. Pozitiv uslub kuzatishlardan to'plangan tajriba va tadqiqotlarni taqqoslash, ishonchli, tekshirilgan, e'tiroz tug'dirmaydigan empirik ma'lumotlar majmuini nazariy tahlil etishga suyanagan. O.Kont tomonidan jamiyat haqidagi fanni shakllantirishda mehnat taqsimoti va kooperasiyalashning zarurligi haqidagi qonunning ochib berilishi navbatdagi muhim yakun bo'ldi. Bu omillar jamiyat tarixida juda katta ijobiy ahamiyatga ega. Shu tufayli sotsial va kasb-korlik guruhlar yuzaga keladi, jamiyatning xilma-xilligi o'sadi va odamlarning moddiy farovonligi ko'tariladi.

O. Kont o'z qarashlaridan kelib chiqib, Sotsiologiya ni ikki qismga: sotsial turg'unlik va sotsial jo'shqinlikka bo'ladi.

Sotsial turg'unlik ijtimoiy tuzumlarning amal qilish sharoitlari va qonuniyatlarini o'rgatadi. O. Kont Sotsiologiyasining ushbu bo'limida asosiy ijtimoiy institutlar: oila, davlat, din, ijtimoiy guruhlarining ijtimoiy funksiyalari va ularning birdamlik va hamkorlikni o'rnatishdagi rollari ko'rib chiqilgan. Sotsialjo'shqinlikda O. Kont insonni ma'naviy, aqliy rivojlantirishning muhim omili bo'lgan ijtimoiy taraqqiyot nazariyasini rivojlantiradi.

Sotsiologiya – jamiyatni sotsial sistema sifatida, shu sistemani uni tashkil etuvchi elementlari: shaxslar, sotsial birliklar, institutlar orqali funksiyalarini bajarishi va rivojlanishini o'rganadigan fan. **Sotsiologiya** – jamiyatda turli o'rinni egallavchi, jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hayotida turli tarzda ishtirok etuvchi, nafaqat daromad darajasi, balki daromad manbai, ehtiyoj qondirish sifati, sohasi, hayot tarzi bilan farqlanadigan, shuningdek qadriyatlar tizimi, xulq-atvor uslubi va motivlari bilan farqlanadigan insonlar guruhlarini, ular o'rtasidagi munosabatlarni va bu munosabatlardan kelib chiqadigan hodisa va jarayonlarni o'rganadigan fan.

Sotsiologiya ijtimoiy hayotni u yoki bu shaklda va sohada o'rganar ekan, u avvalo sotsial voqelik haqidagi bilimlarni shakllantirish, sotsial rivojlanish jarayonlarini tasvirlash, tushuntirish, o'zining asosiy metodologiyasini va sotsiologik tadqiqot metodlarini ishlab chiqish kabi ilmiy muammolarni hal etadi.

Sotsiologiyaning jamiyat hayoti bilan xilma-xil aloqasi, uning ijtimoiy burchi birinchi navbatda u bajarayotgan funksiyalar bilan aniqlanadi. Har qanday fanlar kabi sotsiologiyaning eng asosiy funksiyalaridan biri **nazariya va amaliyotning birligidir.**

Sotsiologik tadqiqotlarning ko'pchilik qismi amaliy muammolarni hal etishga yo'naltirilgan. Sotsiologiyaning amaliy yo'naltirilganligi shunda nomoyon bo'ladi, u ijtimoiy jarayonlarning rivojlanish mayllari haqidagi ilmiy asoslangan ma'lumotni ishlab chiqishga qodir. Mana shunda uning **oldindan aytib berish funksiyasi** namoyon bo'ladi.

Jamiyat hayotida sotsiologik tadqiqotlardan ijtimoiy hayotning turli sohalarini rivojlantirishni rejalashtirishda foydalanish katta ahamiyatga ega. Sotsial rejalashtirish ijtimoiy tizim qanday bo'lishidan qat'i nazar hamma mamlakatlarda rivojlangan.

Sotsiologiya **mafkuraviy funksiyani** ham bajaradi. U:

- birinchidan, tabiiy-tarixiy jarayonlarni anglash, jamiyat taraqqiyotining yaqin oradagi maqsadlarini va istiqbollarni ishlab chiqishga qaratilgan;

- ikkinchidan, ilmiy va mafkuraviy munozarani boshqa qarashlar tizimi orqali olib borish;

- uchinchidan, aholi o'rtasida ilmiy va milliy mafkurani tarqatish;

- to'rtinchidan, malakali mutaxassislarni tayyorlash, ular tomonidan ilmiy mafkurani har tomonlama o'zlashtirish imkonini beradi, shuningdek, odamlar o'rtasida munosabatlarni shakllantirishga, uyg'un hissiyotlarni ijtimoiy munosabatlarga xizmat qildirib yaxshilashga ham yordam berishi mumkin.

Shu tufayli sotsiologiya **insonparvarlik funksiyasini** ham bajaradi.

Qonun deganda, odatda, aniq vaziyatda umumiy, zaruriy va takrorlanishga xos bo'lgan jiddiy aloqa yoki munosabatlar tushuniladi.

Sotsial qonuniyat – sotsial voqelik va jarayonlarning jiddiy zaruriy aloqasini aks ettiradi.

Sotsial qonunlar munosabatlarni aks ettiradi. Bu xalqlar, millatlar, sinflar, sotsial-kasb-korlik guruhlari, shahar va qishloq, shuningdek, jamiyat va oila, jamiyat bilan shaxs o'rtasidagi munosabatlarni belgilaydi. Sotsial qonunlarga asoslangan holda odamlar, o'z hayotiy faoliyatlari uchun zaruriy bo'lgan sharoit ta'siri ostida uni qo'llaydilar.

Tabiat qonunlari kabi sotsial qonunlar voqealarning tabiiy harakati davomida paydo bo'ladi. Ular ko'pchilik individlarning ijtimoiy vaziyatda va ob'ektiv aloqalarda maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatishi natijasi hisoblanadi, ya'ni odamlar yashaydilar, moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratishda qatnashadilar; mahsulotni ayirboshlaydilar, taqsimlaydilar va iste'mol qiladilar, bolalarni dunyoga keltiradilar va tarbiyalaydilar, ularning irodasi va ongi bilan bog'liq bo'lmagan holda qonuniy voqealar zanjiri yuzaga keladi.

Sotsial qonun va qonuniyatlarni tadqiq etish, demak, sotsial soha turli elementlari o'rtasidagi zaruriy aloqalarni o'rnatishdir.

Sotsiologik qonunlar sotsial sistemaning turli bosqichlarida namoyon bo'luvchi turli xil sotsial birliklar, tashkilotlar va institutlarga birlashgan odamlar o'rtasidagi muhim, takrorlanib turuvchi o'ziga xos aloqalardir.

Sotsiologik qonunlar 2 turga bo'linadi: **umumiy va xususiy qonunlar**.

Umumiy sotsiologik qonunlar:

a) barcha sotsial sistemalarning rivojlanishi davomida amal qiladi;

b) sotsial tizimlarning sotsial muhitda amal qiluvchi boshqa qonunlari mohiyatini aniqlab berib, fundamental asoslarini aks ettiradi.

Sotsial munosabatlarning ishlab chiqarish usullariga tobeligini ifodalovchisi ham umumsotsiologik qonunlardir.

Sotsial munosabatlarning ishlab chiqarish-iqtisodiy munosabatlariga nisbatan faol roli ham muhim sotsial qonuniyatdir. Masalan, sotsial birliklarda odamlar munosabatlarining yaxlitlanishi, jamoada shunga mos muhitning yaratilishi ishlab chiqarish rivojiga, umumiy holda jamiyatga ham bevosita ta'sir qiladi.

Ehtiyoj va qiziqishlarning sotsial shartlanganligi ham umumsotsiologik qonuniyatga kiradi.

Shaxs shakllanishi sotsial mohiyatining roli ham umumsotsiologik qonunlar orqali o'rganiladi.

Umumiy qonunlar hamma ijtimoiy tizimlarda amal qiladi. Masalan, qiymat qonuni va tovar-pul munosabatlari. O'ziga xos qonunlarning amal qilishi bitta yoki bir nechta sotsial tizimlar bilan cheklangan (masalan, bir jamiyat turidan ikkinchisiga o'tish).

2. Xususiy (maxsus) qonunlar. Sotsial tizimning alohida tuzilish sohalarda amal qiladi. Masalan, sotsial birliklar o'ziga xos hayot va faoliyat tarziga ega: sinfiy, milliy, oilaviy-kundalik va boshqalar.

Sotsial rivojlanish qonunlari ob'ektiv bo'lib, inson ongi, irodasiga bog'liq bo'lmagan holda amal qiladi. Lekin ijtimoiy hayotda hech narsa insonsiz amal qilmaydi. Shuning uchun sotsial qonunlar inson faoliyati qonunlaridir. Ularning xatti-harakatlari mexanizmi esa – omma va insonlarning, sotsial sub'ektlarning determinasion mexanizmidir.

Bu jihatdan qaraganda Sotsiologiyaning umumiy qonuniyatlari: ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarda amal qiladi.

Qonunlarni ularning namoyon bo'lishiga qarab **dinamikaga** oid (jo'shqin) va **statikaga** (turg'un) oid deb ajratib o'rganish mumkin.

Dinamikaga oid qonunlar ijtimoiy o'zgarishlarning omillari va shakllari, yo'nalishlarini belgilaydi hamda aniq vaziyatda voqealarning davomiyligini anglatadi.

Statikaga doir qonunlar dinamik qonunlardan farq qilib, ijtimoiy voqelik bog'lanishini qat'iy belgilamasdan, o'zgarishlarning yo'nalishini aks ettiradi.

Sotsiologiyaning strukturasi. Struktura bu fandagi asosiy elementlarning joylashishi, munosabati va tartibidir. Struktura bevosita fanning rivojlanish darajasi va uning elementlariga bog'liqdir. Fanning rivojlanib borish davrida uning elementlari bir tizimga to'planib, bu tizim orqali esa bilimlarni tashkil qilish vositaliligi ta'minlanadi. Buning natijasida esa nazariy, metodologik va boshqa elementlar o'rganilayotgan voqelikni yaxlit ko'rinishda aks ettiradi.

Sotsiologiya nisbatan yosh va rivojlanayotgan fan bo'lganligi sababli u hali yetuk ilmiy tizim sifatida to'liq shakllanib bo'lgani yo'q. Uning strukturasi haqida turli adabiyotlarda turlicha yondashuvlar mavjud:

1-yondoshuvga ko'ra sotsiologiyaning strukturasi:

1)Umumsotsiologik nazariyalarni bevosita tadqiq etishga muljallangan yo'nalish

2)Maxsus sotsiologik nazariyalar asosiga qurilavchi tadqiqot yo'nalishi

3)Bevosita empirik sotsiologik tadqiqotlar

2-yondoshuvga ko'ra sotsiologiya makro- va mikrosotsiologiyaga bo'linadi.

Makrosotsiologiya – tarixan uzoq davom etadigan jarayonlar,yirik masshtabli sotsial sistemalarni tadqiq etadi. **Mikrosotsiologiya** esa insonlar hatti-xarakatlarini, bevosita ularning o'zaro munosabatlarini va bu munosabatlardan kelib chiqadigan hodisa va jarayonlarni o'rganadi.

3-yondoshuvga ko'ra sotsiologiya strukturasida fundamental va amaliy yo'nalishlarni, nazariy va empirik tadqiqotlarni, maxsus va tarmoq sohalarni ajratib ko'rsatish lozim.

Umumsotsiologik nazariya sotsial tizim rivojlanishining umumiy qonunlarini aks ettiradi, sotsiologik tadqiqotlarning metodologiyasi bo'lib xizmat qiladi. Har qanday umumsotsiologik nazariya falsafa, ayniqsa sotsial falsafa bilan uzviy bog'liq. Ijtimoiy falsafaning tamoyillari umumsotsiologik teoriyaning fundamenti sifatida namoyon bo'ladi.

Maxsus sotsiologik teoriya esa alohida sotsial tizimning rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini alohida sotsial birliklar, sotsial tashkilotlar va sotsial institutlarning rivojlanishi va qayta barpo etilishida namoyon bo'lishini aks ettiradi. Har bir yo'nalish o'zining maxsus sotsiologik teoriyalar tomonidan ishlab chiqiluvchi kategorial-tushunchaviy apparat yordamida tadqiq etilishi mumkin bo'lgan xususiyatga ega.

Aniq sotsiologik tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, sotsiologik tadqiqotlar sotsial munosabatlarning aniq turlarini, turli sotsial faktlarni o'z ichiga so'rov, hujjatlarni tahlil qilish, sotsial eksperiment, kuzatish, matematik modellashirish va h.k. kabi aniq metodika va texnika yordamida o'rganadi. Binobarin, bu tadqiqotlar faktlarni ta'riflash va e'tirof etish bilan cheklanib qolmasdan, balki o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarning ichki qonuniyatlarini ochib berishga va rivojlanish samaralarini aniqlashga, ularning boshqa hodisa va jarayonlar bilan, shuningdek umuman sotsial sistema rivojlanishi qonuniyatlari bilan bog'liqligini o'rganadi.

Empirik sotsiologik tadqiqot sotsial muammoni har tomonlama,to'liq holda o'rganadigan.maxsus ishlab chiqilgan metodologiya, metodika va ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilishga tayanadigan tadqiqotdir.

Amaliy sotsiologiya – sotsial amaliyot ehtiyojiga yo'naltirilgan sotsiologik tadqiqotlar bo'lib, ular o'z maqsadi, mantiig'i va ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish metodologiyasi, metodikasi va texnikasiga tayanadi.

Empirik va amaliy sos-k tadqiqotlarning farqli tomonlari:

-Empirik tadqiqotlar bilimlarni ko'paytirish, to'plashga qaratilgan bo'lib ular qaysidir xususiy teoriyalarni yo tasdiqlaydi yoki inkor qiladi. Amaliy tadqiqotlar, aksincha yangi bilimlarni orttirish emas, balki qaysidir xususiy teoriyadan foydalanib, ularni konkret ob'ektga amaliy jihatdan qo'llaydilar.

-Empirik tadqiqotlar albatta reprezentativ bo'lishi lozim.

-Empirik tadqiqotlarda tadqiqot ob'ekti ko'p bo'lishi mumkin, amalliy tadqiqot reprezentativ bo'lishga majbur emas, u aniq bir ob'ektda o'tkaziladi.

Hozirgi kunda respublikamizda «Ijtimoiy fikr» (1999) jamoatchilik fikrlarni o'rganish markazi faoliyat ko'rsatmoqda. Uning barcha viloyatlarda va tumanlaridagi shaxobchalarida mutasaddi ilmiy xodimlar, sotsiologlar jamiyat hayotini o'rganish, aholi ichiga tobora chuqurroq kirib borishda jonbozlik ko'rsatmoqdalar.

Ijtimoiy va gumanitar fanlar tizimida sotsiologiya alohida o'rinni egallaydi. Bu bir nechta holatlar bilan belgilanadi. Chunonchi u:

- jamiyat haqidagi, uning hodisalari va jarayonlari haqidagi fan hisoblanadi;
- o'z ichiga umumiy sotsiologik nazariyalarni yoki hamma ijtimoiy-gumanitar fanlarning nazariya va metodologiyasi hisoblangan jamiyat nazariyasini;
- jamiyat va inson hayotiy faoliyatining turli tomonlarini o'rganuvchi ijtimoiy-gumanitar va sotsial sohani o'z ichiga olib, hayotning u yoki bu sohasini tadqiq etuvchi qonuniyatlar majmuidan tashkil topadi;
- inson va uning faoliyati, texnik va uslubiy jihatdan ishlab chiqilgan sotsiologik tadqiqotlar, gumanitar va ijtimoiy fanlar tomonidan zaruratga ko'ra o'rganiladi va hisobga olinadi.

Falsafa, iqtisodiyot, tarix, siyosatshunoslik, psixologiya fanlari sotsiologiyaning shakllanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa shuki, sotsiologiyaning falsafa bilan uzviy aloqasi shunda ko'rinadiki, umumsotsiologik nazariyalar va amaliy sotsiologik tadqiqotlar ma'lum metodologik asosga tayanadilar. Shunday asosni esa falsafa fani yaratadi. Sotsiologiya falsafaga nisbatan mustaqillikni shunga asoslanib e'lon qiladiki, u o'z oldiga ijtimoiy muammolarni, voqelikni ilmiy, anglash usuli asosida hal etish vazifasini qo'yadi.

Sotsiologiya statistika fani bilan ham mustahkam aloqada rivojlanadi. Bu ikki fanning o'zaro aloqalari shu qadar yaqinki, sotsiologiyaning rivojlanishini statistik yondashuvlarsiz tasavvur qilish qiyin. Sotsiologiya shuningdek, iqtisodiy nazariya, boshqaruv nazariyasi, tarix, pedagogika» huquqshunoslik, siyosatshunoslik kabi fanlar bilan ham mustahkam aloqada rivojlanadi.

Sotsiologiya mustaqil ijtimoiy fan sifatida o'z metodologiyasi va nazariyasiga egadir. Sotsiologiya fani umuminsoniy va milliy qadriyatlar mutanosibligiga tayanuvchi metodologiya asosida ish yuritadi

Sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi mazmunini bir jihatdan xalqimizning tarixiy, ma'naviy qadriyatlari sanalmish Qur'oni Karim, O'adisi Muborak, sharqning ulug' allomalari Forobiy, Ibn Sino, Hazrati Bahouddin Naqshbandiy, At-Termiziy, Imom Al-Buxoriy, Amir Timur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Alisher Navoiy va boshqa ulug' mutafakkirlar asarlarida ilgari surilgan fikrlari tashkil etsa, ikkinchi jihatdan, nazariy ildizlarini Antik davr va progressiv G'arb falsafasining buyuk namoyandalari asarlarida ilgari surilgan tadrijiy taraqqiyot qonuniyatlarini ifodalovchi umuminsoniy nazariyalar tashkil etadi. Ayni chog'da mazkur fan metodologiyasining muhim yo'nalishi sifatida inqilobiy dialektikadan tadrijiy taraqqiyot yo'liga tayanib ish

yuritayotgan zamonamizning ulug' davlat arboblari qarashli fikrlar asos bo'lib xizmat qiladi.

Sotsiologiyadagi taraqqiyotning evolyusion tadrijiy usuli olam tuzilishining hamda uni anglashning ilmiy asoslangan yo'li sifatida bilishga yordam beradi. Ayni chog'da ijtimoiy fanlarga xos bo'lgan ehtiyoj va tasodif, umumiylik va xususiylik, miqdor va sifat, o'zgaruvchanlik va barqarorlik kabi umumfalsafiy kategoriyalarga ham mustahkam tayanib ish tutadi.

Sotsiologiya fani olamni anglash jarayonini chuqurroq o'zlashtirish maqsadida tarix, falsafa, psixologiya, pedagogika, etnografiya, san'atshunoslik va jamiyatshunoslik fanlari bilan yaqin hamkorlikda faoliyat yuritadi. Zero, har qanday amaliyotga murojaat, har bir ilmiy tahlil natijaviy mo'ljalni nazarda tutmog'i, ob'ektiv voqelik xususidagi bilimlarimizni kengaytirmog'i, ijtimoiy muammolarni hal etishga ko'maklashmoqi, taraqqiyot istiqbollarini aniqroq belgilashga yordam bermog'i lozimdir.

Sotsiologiya fanining tobora taraqqiy etishi ilmning differensiallashuvi, ko'plab alohida va maxsus sotsiologik nazariyalarning tarkib topishiga ham olib keladi. Masalan, siyosat sotsiologiyasi, iqtisod sotsiologiyasi, san'at sotsiologiyasi va boshqalar shular jumlasidandir. Ammo bunday «parchalanish» umumiy tahlil ahamiyatini susaytirmaydi, balki mavhum mushohada chegaralarini yana kengaytirish imkonini beradi.

Sotsiologiya fani takomili umumiy va ijtimoiy psixologiya fanlari bilan ham yaqin hamkorlikda bo'lishni taqozo etadi. Zero, u yoki bu jamoadagi mehnat unumdorligini o'rganishni maqsad qilib sotsiologik tadqiqot o'tkazilayotganda mazkur jamoa tarkibidagi indvidlarning hatti-harakatlari motivlarini aniqlash, ularni temperamentlari xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ilmiy xulosa qilishda, odamlar bilan jamoada muomala qilishni tashkil etish va ijtimoiy xulqni boshqarishda, albatta, ijtimoiy psixologiya qonuniyatlarini chetlab o'tish mumkin emas.

Sotsiologiya fanining huquqshunoslik va iqtisod ilmi qonuniyatlarini ham chetlab, ilmiy faoliyat yuritishi maqsadga muvofiq emasdir. XIX asrda faoliyat yuritgan sotsiologiya ilmi asoschilarining deyarli barchasi ijtimoiy fanlarni chuqur o'zlashtirish va qator falsafiy-gumanitar asarlar yaratish asnosida yangi tug'ilajak sotsiologiya fani sarhadlarini belgilab berganlar.

Sotsiologiya fani statistika fani bilan ayniqsa yaqin aloqada rivojlanadi. Har bir sotsiolog muayyan mavzuda sotsiologik tadqiqot o'tkazishni maqsad qilib qo'yar ekan, u albatta, shu sohadagi predmetning konkret holati va ahvolini, real voqelik manzarasini statistika manbalaridangina topa oladi. Keng ko'lamdagi konkret sotsiologik tadqiqotlarning sotsiolog tomonidan statistik idoralar xodimlar bilan hamkorlikda o'tkazilishi ijobiy samaralar berishi shubhasizdir.

So'nggi yillarda sotsiologiya fanida konkret sotsiologik tadqiqotlar amaliy natijalarining hayotga faolroq va ko'proq tadbiq etila borishi uning ahloq, estetika, meditsina va pedagogika, rejalashtirish nazariyasi va boshqaruv singari fanlar bilan aloqasini yanada mustahkamlamoqda.

Sotsiologiya fani atigi bir asr muqaddam falsafadan ajralib, mustaqil fan sifatida taraqqiy etayotgan bo'lsa-da, ularning aloqasi uzviydir. Falsafa sotsiologiyani nazariy-metodologik asosini tashkil etadi. Bu ikki fan aloqasi xususida ulug' alloma Abu Nasr al-Farobiyning ijtimoiy fanlarga, xususan sotsiologiya faniga oid quyidagi fikrlari e'tiborga loyiqdir. «Har bir falsafiy ilmni o'rganishga azm qilgan kishi quyidagi talablarni to'la bajarmog'i lozimdir:

- birinchisi - falsafadagi mavjud maktablar nomlarini va mazmunini bilib olish;

- ikkinchisi - o'qilgan har kitobning maqsadini tushunib yetmoq;

- uchinchisi - falsafiy o'rganishga asos bo'luvchi ilmlarni o'zlashtirmoq;

- to'rtinchisi - falsafani o'rganishdan maqsad nima ekanligini bilmoq;

- beshinchisi - falsafa sirlarini o'rganish borasida tanlangan yo'lni aniq bilib olmoq;

- oltinchisi - Aristotelning har kitobidan uning o'ziga xosligini aniqlay olmoq;

- yettinchisi - kitobdagi noaniqliklarni bartaraf etishni Aristotel asarlari orqali bilib olmoq;

- sakkizinchisi - falsafiy bilimlarga ega bo'gan kishining jamiyatda tutishi lozim bo'lgan o'rni va xolatini bilmoq;

- to'qqizinchisi - Aristotel kitoblarini o'rganishga jazm qilgan kishi uchun zarur asbob va jismlarga ega bo'lmoq.⁷

Har qanday yetuk olim, u qaysi soha yuzasidan nazariy bilimlar olayotganligidan qat'iy nazar, quyidagi uch talabga to'la rioya qilmog'i lozim:

a) o'z fanining barcha qoidalari va uslublarini to'liq o'zlashtirgan bo'lmog'i;

b) o'zi tanlagan bilimlari sohasida mazkur qoidalar va uslublarni qo'llash natijasida yuzaga keladigan xulosalar va hamma fikrlarni to'la izohlab berishi va tushuntirish darajasidagi zaruriy bilimlarga ega bo'lmog'i;

v) musiqiy san'at bobida mualliflarning xatolarini tushunmoq va ko'rsatib bermog', ularning to'g'ri yoki noto'g'ri nuqtai nazarlarini farqlay olmoq hamda mehnatni to'la aniqlab bormoqi lozim.⁸

Yuqoridagi ikki fikrdan ma'lumki, Farobiy har qanday ilmning va ilm sohibining muayyan qobiq orasida cheklanib qolmasligi lozimligini, balkikeng ko'lamli mushohada qila biluvchi, muayyan fanga yaqin bo'lgan ilmlar va nazariyalar tanish bo'lishining ahamiyatini ta'kidlagan.

Sotsiologiya fani tarkibiy tuzilishi jihatidan uchta katta qismga ajratib o'rganiladi:

1. Umumsotsiologik nazariyalarni bevosita tadqiq etishga mo'ljallangan yo'nalish.

2. Maxsus (xususiy) sotsiologik nazariyalar asosiga quruluvchi tadqiqot yo'nalishi.

3. Bevosita empirik sotsiologik tadqiqotlar.

Sotsiologiya fani jamiyat istiqboli xususida sosial utopiyaga asoslangan nazariyaga suyanmasdan, balki jamiyat taraqqiyotining bugungi ijtimoiy-

⁷ Xayrullaev M.M. Abu Nasr al-Farabi, M.: Nauka, 1982, 108-bet.

⁸ Xayrullaev M.M. Abu Nasr al-Farabi, M.: Nauka, 1982, 135-bet.

iqtisodiy holatini atroflicha o'rganish asosida yaqin kelajakda bu taraqqiyot tarkibi va mazmunidagi tadrijiy o'zgarishlar manzarasini ilmiy asoslab beradi.

Sotsiologiya fanining mahsus nazariyalarga asoslanuvchi yo'nalishlari asosan quyidagilardan iboratdir:

1. Ijtimoiy ong shakllarini o'rganuvchi (dunyoqarash, ilm-fan, san'at, madaniyat, ahloq, huquq, psixologiya, din)sotsiologiya.
2. Ijtimoiy faoliyat shakllarini o'rgunuvchi (mehnat, turmush tarzi, hordiq, ijtimoiy-siyosiy faoliyatlar)sotsiologiya.
3. Aholivaxalqlar (demografiya, etnografiya, migrasiya, lingvistikava h.k.)sotsiologiyasi.
4. Ijtimoiy taraqqiyot (jamiyat va jamoa nazarda tutilmoqda), ijtimoiy o'zgarishlar, ijtimoiy tuzilishlar sotsiologiyasi.
5. Ijtimoiy institutlar (oilalar, yetimxonalar, qariyalar uylari va h.k.) sotsiologiyasi.
6. Ijtimoiy guruhlar (qurolli kuchlar, yoshlar, pensionerlar, ayollar va h.k.)sotsiologiyasi.
7. Ommaviy axborot vositalari (matbuot, radio, televidenie), jamoatchilik fikri sotsiologiyasi.
8. Siyosat sotsiologiyasi (davlat, xalqaro munosabatlar, milliy harakatlar va h.k.).
9. Joy va muhit sotsiologiyasi (regionlar, shaharlar, qishloqlar, ekologiya va h.k.).
10. Shaxsni shakllantirish sotsiologiyasi (ta'lim, tarbiya, sport va h.k.)
11. Kasblar sotsiologiyasi (injenerlik, agronomlik, meditsina va h.k.).
12. Qiziqishlar sotsiologiyasi (klublar, madaniyat uylari va boshqa joylardagi xavaskorlik to'garaklari, filatelistlar, bukinistlar va h.k.).

Sotsiologiya fani sohaviy tasnif etilganda, turli yo'nalishlar mohiyatiga ega bo'lgan ilmiy tarmoqlarga bo'linadi (1-sxema).

Birinci bosqichdagi ilmiy tarmoqlar qatoriga umumnazariy, umummetodologik va sotsiologik fanlarni kiritish mumkin. Ular jumlasiga: akademik, matematik, tarixiy, amaliy va mintaqaviy sotsiologiya sohalari kiradi.

Ikkinchi bosqichdagi zamonaviy sotsiologik ilmiy tarmoqlar qatorida shaxs sotsiologiyasi, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, demografik, ekologik hamda institusional sohalarni ko'rsatish mumkin.

Uchinchi bosqichdagi sotsiologik ilmiy tarmoqlar turli xil sohaviy hamda ilmiy sotsiologik yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Ular quyidagilar: ta'lim, madaniyat, fan, din, san'at va boshqa sotsiologik yo'nalishlar.

To'rtinchi bosqichdagi sotsiologik ilmiy tarmoqlar qatoriga regional va jamoaviy xususiyatga ega bo'lgan yo'nalishlarni kiritish mumkin. Ular quyidagilar: yoshlar, oilalar, shahar va qishloq sotsiologiyasi.

Hozirgi zamon sotsiologik tarmoqlar tizimida jamoatchilik fikri sotsiologiyasi muhim o'rin tutadi va katta ahamiyatga egadir. Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi ijtimoiy hayotdagi barcha sohalar va umumnazariy, metodologik va xususiy sotsiologik maktablar bilan bevosita bog'liqlikda ish tutadi.

Shunday qilib, murakkab umumiy va xususiy sotsiologik fanlardan iborat bo'lgan zamonaviy sotsiologiya tizimi uni ko'plab ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan keng aloqalarni taqozo etadi. Bu aloqalar ham umummetodologik bosqichda, ham maxsus hususiy fanlar va ilmiy yo'nalishlar bo'yicha olib boriladi, bu esa uni zamonaviy ijtimoiy-gumanitar fanlari tizimidagi o'rnini aniqlab beradi(2-sxema).

Sotsiologiya ijtimoiy-gumanitar fanlari ierarxiyasida eng yuqori bosqichni egallaydi. Falsafa va tarix bilan birgalikda, u ijtimoiy fanlar tizimining umummetodologik negizini shakllantiradi.

Lekin shu bilan birga ushbu tizimda jamiyat rivojlanishi qonuni va qonuniyatlarini o'rganuvchi umumfundamental bo'lgan falsafaning alohida o'rnini ta'kidlab o'tish lozim.

Antik dunyo sotsiologiyasi, jahon sotsiologiya maktabining nazariy-ma'naviy poydevori va unga doimiy ilhom baqishlovchi bebaho obidasi hisoblanadi.

Antik dunyo hayotiga insonni inson tomonidan sotish va sotib olish tartibotlarining kirib kelishi bilan tabiatni o'zlashtirish, tabiat bilan hamkorlik qilish va u bilan uyg'unlashish o'rniga insonni ekspluatasiya qilish davri boshlandi. Bu esa antik davr uchun xos bo'lgan insonning ma'naviy hurliigi davrining tanazzulga yuz tutishiga sabab bo'ldi.

Antik davr sotsiologiyasi o'zi yuzaga kelgan davr ijtimoiy tuzumi va tartibotlari, davlat va jamiyat qurilishi, ana shu tizimlardagi shaxslarning o'ri va roli, siyosiy va ma'naviy hayot jarayonlarining yorqin va real ifodalovchisi sifatida g'oyatda saboqlidir.

Antik davr sotsiologiyasining ilk namunalari Kichik Osiyoning G'arbiy sohillari - Ioniya o'lkasi shaharlarida yashovchi greklar tomonidan dunyoga keltirildi.

Antik dunyo sotsiologiyasini yuzaga kelishi hamda taraqqiyot tendensiyalari xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uni shartli ravishda quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Eng qadimgi grek sotsiologiya maktabi. Bu guruhga eramizdan oldingi XII asrda yashab ijod etgan Gomerdan boshlab eramizdan oldingi VI asrgacha amal qilgan Milet (kichik Osiyodagi eng yirik shahar) maktabi vakillari (Fales, Anaksimandr, Anaksimen) hamda Gresianing turli shaharlarida yashab faoliyat yuritgan Ksenofan Pifagorning sotsiologik qarashlarini kiritish mumkin.

Eng qadimgi grek sotsiologiyasi mustaqil ijtimoiy-nazariy tadqiqot predmeti sifatida emas, balki aniq tabiiy fanlar, ya'ni matematika va tabiatshunoslik bergan ilk tadqiqot natijalari bilan ijtimoiy fanlar, xususan mifologiya va san'at borasida erishilgan dastlabki tafakkur mahsullarining uyg'unlashuvi oqibatida yuzaga kelgan.

Milet filosoflarining to'ng'ich vakili Falesning fikricha, jamiyat va tabiatning asosini dastlabki tarkibiy modda xisoblangan suv omili tashkil etadi. Uning ta'kidlashicha, tabiatdagi ja'mi o'zgarishlar suv va suyuqliklar tufayli ro'y beradi. Suv tufayli tarkib topgan hamma narsada jon mavjuddir. Tabiatdagi ja'miki narsalar esa suv ishtirokida yuzaga kelganligi sababli ularning hammasida jon bor. Fales fikrining isboti uchun yantar toshini misol qilib

keltiradi. Falesning xammanarsada jon borligi G'oyasi tabiat va jamiyatga insoniy yondoshuvning ilk kurtaklari shakllanishiga turtki bo'ldi.

Milet maktabining yana bir yirik namoyondasi Anaksimenes olamning asosini tashkil etuvchi dastlabki modda sifatida havoni ilohiylashtiradi, havoning tabiatda yig'ilishi va siqilishi natijasida suv, tuproq, tosh va olovdan iborat zaruriy qismlar yuzaga keladi. Havo Anaksimenes nazarida dunyoni o'rab turgan nafas bo'lib, bu narsa tabiatdagi ja'miki narsalarga o'z ta'sirini o'tkazib turadi. Havo insonning amal qilish makoni hisoblanadi va havosiz qolgan paytda har qanday jism tarkibiy va mazmuniy o'zgarishga yuz tutadi.

Qadimgi grek sotsiologlari orasida Samos shahrida tug'ilib faoliyat yuritgan Pifagor alohida o'rin tutadi. Pifagor yashagan davrda turli-tuman primitiv arxaiik diniy mutaassiblik o'rniga nisbatan umumiyroq mohiyat kasb etuvchi xudolarga sig'inish taomilga kira boshladi. Pifagor nuqtai nazariga ko'ra, olam abadiy bo'lib, insondagi ruh ma'lum muddatdan so'ng boshqa narsalarga ko'chadi. Pifagor ana shu ta'limot asosida olamdagi hamma narsaning jisman va ruhan qarindosh ekanligini isbotlashga uringan. Pifagorning tabiat va jamiyatdagi «jon»ning ko'chib yurishi G'oyasi hamda atrof-muhitdagi ja'miki narsalarning birligi va qarindoshligi dunyoni o'zaro murosas muvozanatida saqlashga dav'at etuvchi sotsiologik qarashlar sifatida insoniyat tarixida muayyan rol o'ynaydi.

2. *Grek demokratiyasi ravnaqi davri sotsiologiyasi.* Bu bosqich jamiyatshunoslari safiga Geraklit, Parmenid, Zenon, Empedokl, Anaksagor, Protagor, Gorgiy va boshqalarni kiritish mumkin.

Atoqli grek mutafakkiri Geraklit fikriga ko'ra, hamma narsalar tabiatda faqat bir narsadan yaralgan va shu birlamchi narsaga albatta qaytadi. Bu birlamchi asos esa «olov»dir. Zero, olov tabiatdagi eng faol o'zgaruvchan xodisadir.

Geraklit tabiat va jamiyatdagi qarama-qarshiliklar shunchaki o'zaro raqobat xolida bir-biriga aylanib turadi. Ular mohiyatan yagona asos (olov) dan iborat bo'lganligi sababli, bu modda va xodisalar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar o'zgaruvchandir va doimiy xususiyatga ega emasdir. Geraklit ilk daf'a donishmandlik va aqlni ilm va bilimdan farqlay bildi. Ko'p bilimlilik kishini aqlli, donishmand qilavermaydi. Agar ko'p bilim olish kishini oqil qilganida Gesiod va Pifagor ham aqlli, donishmand bo'lishar edi»⁹, deb yozadi.

Geraklitning ijtimoiy qarashlari Parmenid va uning shogirdi Zenon tomonidan tanqid ostiga olinib, dunyo o'zgaruvchan emas, aksincha, o'zgarmas mohiyatga ega ekanligini asoslashga urindilar.

Grek madaniyatining yirik namoyondasi Empedokl ilm va ma'rifatning ijtimoiy foydalilik funksiyasini asoslab berdi. U ilm qilish bu befoyda mohiyatlar xususida bahs yuritish emas, balki uni inson ongiga xizmat qildirishdan iborat, deb bildi.

Empedokl fikriga ko'ra, jamiyat xodisalarini o'zaro birlashtiruvchi va ajratib yuboruvchi ikki kuch boshqarib turadi. Kishilarni o'zaro birlashtiruvchi, ularni eng insoniy faoliyatga boshlovchi kuch - muhabbat (Empedokl bu kuchni ayni

⁹ G.F.Asmus. Antichnaya filosofiya. M., Visshaya shkola, 1999. Str.22.

vaqtda mehr, hurmat, garmoniya va hatto Afrodita ham deb atagan) bo'lib, odamlarni ajratib yuboruvchi kuch bu - nafrat, hasad, johillikdir.

Empedokldan farq qilib, Anaksagor insonning ilm-ma'rifatga intilishidan ko'zlangan bosh maqsad - atrof muhitni o'rab turgan borliq hamda kosmos mohiyatini anglashdan iborat, deb bildi. U «ilm ilm uchun» degan aqida asosida ish tutdi.

3. Antik dunyo olamining «oltin davri». Bu davrdagi sotsiologik qarashlarni ilgari surgan mutafakkirlar qatoriga insoniyatning buyuk daholari Sokrat, Levkip, Demokrit, Platon, Aristotel va boshqalarni kiritish mumkin.

Sokrat(*Suqrot*) ning sotsiologik qarashlarida tabiat va jamiyat jarayonlarida shunchalik ishtirok etish emas, balki unda qanday qilib yaxshi yashash, kamolotga erishish uchun san'at sirlarini bilish zarurligi g'oyasi yetakchidir. Bilim muayyan turdagi predmetlar va hodisalarning umumiylik xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir. Bilim predmet haqidagi tushuncha bo'lib, bilish tushunchani aniqlashdan boshlanadi.

Sokratning nuqtai nazariga ko'ra, inson faoliyati uning yaxshilik, savob, oriyat, insof haqidagi tushunchalari mazmunidan iborat bo'lib, bu tushunchalarni shaxs qanday tushunishi katta ahamiyatga ega. Shunday ekan, inson faoliyatini yaxshilash uchun uning fe'l-atvorini va tarbiya to'g'risidagi qarashlari, tushunchalarini tartibga solish zarurdir.

Sokratning buyuk shogirdiPlaton ijtimoiy taraqqiyot va inson mavqei xususida bebaho fikrlar bayon etgan. Platon o'zining «Fileb» deb nomlangan asarida insonning ezgulikdan iborat faoliyati quyidagi talablarni bajarish asnosida ro'y berishi aytiladi: 1) ilohiy g'oya mohiyatini anglash; 2) ilohiy g'oya talablarini hayotga singdirish; 3) tafakkur va bilimlarga ega bo'lish; 4) ilm va san'atning biror turini egallash, to'g'ri fikr qilish masalasiga ega bo'lish; 5) toza, halol hissiyot vositalardan, masalan, musiqa tovushi, tasviriy san'atdan zavq-rohat ola bilish. Platonning uqtirishiga ko'ra, to'g'ri fikr qilish malakasiga ega bo'lish deganda biror bir hayotiy voqea tahlili chog'ida masalaning avval yaxshilik tomonida ro'y berganligini tushuntirishga intilish, agar bunday tushunishga imkon bo'lmasa, mazkur hodisaning yuz berganligi mohiyatini anglashga intilish, demakdir.

Platon ezgulikni anglash - xudoni anglash, ezgulik tabiatiga ega bo'lish esa xudo mohiyatiga tegishli bo'lish, uning uzviy bir qismiga aylanish, deb o'rgatadi.

Platon insonning ijtimoiy o'rnini belgilashda har bir kishi dastavval o'z davlatining fuqarosi bo'lishi lozim, deb ta'kidlaydi.

Platon murakkab ijtimoiy-siyosiy muhitda yashaganligi sababli ideal davlat qurilishi orzusida yashagan. Uning ezgulik asosiga qurilgan ideal davlat tuzumi quyidagi fazilatlarga ega bo'lishi lozim: 1) donishmandlik; 2) jasorat; 3) har ishda oqilona me'yorni saqlay bilish; 4) adolat.

Davlat tizimini uch xil strata - ijtimoiy tabaqa - hukmdorlar, G'arbiylar va ishlab chiqarishda band bo'lgan mehnatkashlar donishmand boshqaruvchi guruh rahbarligida gormonik tuzumni tashkil etadilar.

Platon Akademiyasining yetuk tolibi, jahon ijtimoiy tafakkur olamiga hissa qo'shgan mutafakkir Aristotel hisoblanadi.

Aristotel o'z davridagi mavjud stratifikasion, ya'ni ijtimoiy tabaqalashuv tartiblarini qo'llab-quvvatlaydi. Aristotel komil inson, komil fuqaro, adolatli davlat xususidagi qarashlarini ilmiy asoslashga intildi. Komil inson tarbiyasi shaxsning o'z davlatiga bo'lgan yuksak vatanparvarligini, o'z ijtimoiy-siyosiy tuzumiga sadoqatni shakllantirishdan boshlanadi. Komil fuqaro tarbiyasi esa har tomonlama mukammal davlat tartibotini yuzaga keltirishdan boshlanadi.

Demak, komillik tizimidagi «davlat - fuqaro - inson» tartiboti Aristotelning davlat va jamiyatni mukammallashtirishdan iborat sotsiologik konsepsiyasini tashkil etadi. U jamiyat a'zolarining ma'naviy-mafkuraviy tarbiyasi masalasida umumdavlat nuqtai nazarida turdi. Jamiyatning tarbiyaviy vazifasi xususiy shaxslar yoki alohida guruhlar qo'lga topshirib qo'yilmasligi lozim. Aristotel davlat va jamiyatning ideal maqsadlari mushtarak, umumiy bo'lganligi sababli ham mazmuniy asosi bir xil bo'lgan tarbiyaviy tizim ishga tushmog'i zarur, deb hisoblaydi.

Ijtimoiy jarayon, Aristotel ta'biriga ko'ra, imkoniyatlardan natijalarga o'tishga bo'lgan intilishdir. Odamlar ijtimoiy jarayonda qancha ko'p ishtirok etsalar, davlat va jamiyatning ijtimoiy-siyosiy asoslari shunchalik mustahkamlanib boradi.

Kishilarning ijtimoiy jarayonlarda yakdil va ommaviy ishtiroki adolat, insof, sadoqat singari tushunchalarga ega bo'lgan umumiy qarashlarni tarkib toptiradi. Davlat tuzumi hamda jamiyatning barqarorligini saqlash uchun kishilarga mavjud ijtimoiy tuzumga nisbatan tug'ilishi mumkin bo'lgan siyosiy-ahloqiy va iqtisodiy-ma'naviy havflar xususida ma'lumotlar berib borish hamda ularda xavotirlik kayfiyatini shakllantirib bormoq zarur. Shundagina ular davlat va jamiyat mustahkamligi ustida qayg'ura boshlaydilar.

Davlat boshqaruvida ishtirok etishga ishtiyoqmand va amaldorlik da'vosida bo'lganlar quyidagi sifatlarga ega bo'lishlari lozim: «Mavjud davlat tuzumini chin dildan sevmog'i, katta kuch va energiyaga ega bo'lmog'i,..., odamlarga xayrixoh va adolatli bo'lmog'i, asosiy faoliyat mezonini deb odamlar manfaatini davlat manfaatlari bilan uyg'un xolda xalq etish malakasiga ega bo'lmog'i lozim»¹⁰.

Har qanday mamlakatdagi ijtimoiy tartibsizliklar, inqirozlar va davlat to'ntarishlari ijtimoiy tenglikning buzilishidan kelib chiqadi. Ammo tenglik tushunchasi o'z mazmuniga ko'ra ham miqdor jihatdan, ham mavqe-martabaga ko'ra farqlanadi. Mavqega ko'ra tenglik jamiyatdagi o'nta obro'li shaxs mavqei 100-200ta oddiy fuqarolarning mavqeiga mos bo'lishi mumkin. Shu boisdan mavqeni hisobga olib ijtimoiy tenglikni amalga oshirish jamiyatda barqaror muhitni saqlash imkoni beradi. Miqdoriy tenglikni ta'minlash uchun esa davlat boshqaruvini amalga oshirishda u yoki bu xudud vakillaridan teng miqdordagi amaldorlarni vazifalarga tayinlashni to'g'ri yo'lga qo'yish zarurdir.

¹⁰ Aristotel sochinenie , T.4, S.53.

Demokratik asoslardagi davlatlarda hokimiyatni egallash uchun qilinadigan to'ntarishlar odatda demagoglar tomonidan amalga oshiriladi.¹¹ Aristotel jamiyatning ijtimoiy stratifikatsiyasi tizimida barqarorlik, turg'unlik mezoniga amal qilishi zarurligini ta'kidlaydi. Har bir shaxs nafaqat mavjud davlat tuzumiga, balki o'z ijtimoiy tabaqasiga ham sodiq qolishi hamda o'z kasbi-kori, xizmat sohasi doirasida kamolotga intilishi lozim. Kishilarning bir sohadan boshqa sohalarga, bir ijtimoiy mavqe doirasidan boshqasiga o'tishi davlat tartibotlariga umumiy ishonchni pasaytiradi.

Aristotel davlat tuzumini olti xil ko'rinishga tasniflab, ulardan uchasi (monarxiya, aristokrat va politiya) to'g'ri va uchasi (tiraniya, oligarxiya va demokratiya) noto'g'ri davlat tuzumlari, deb hisoblaydi.

Aristotelning tiraniya, oligarxiya va demokratiya asosidagi davlat tuzumlarini noto'g'ri deb tasniflashiga asosiy sabab, bunday davlat tuzumlarida hokimiyat tepasiga zolim shaxslar (tiraniya), boylikka hirs qo'ygan nomunosib shaxslar (oligarxiya) va demokratiya tuzumida garchi ko'pchilik ozchilik ustidan xukmron bo'lsa-da, ba'zan ijtimoiy-genetik kelib chiqishi betayin bo'lgan ayrim fuqarolar ham kelib qolishi mumkin, deb xavotirlanadi. Natijada uzoq davr mobaynida umumiy erishilgan jamiyat farovonligi ham tanazzulga yuz tutadi.

Xullas, Aristotel antik dunyo sotsiologiyasi tarixini eng mazmundor davri bo'lmish grek sotsiologiya maktabiga mantiqiy yakun yasagan. Uning sotsiologik qarashlari dastlab qadimgi Rimning sotsiologiya maktabi namoyondalari (Siseron, Lukresiy, Vergiliy, Gorasiy, Ovidiy) ga hayotbaxsh ilhom bag'ishladi, so'ngra esa o'rta asrlar sharqining buyuk mutafakkirlari Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ibn Rushdlar dunyoqarashlariga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Sharq xalqlarining hayotga bo'lgan sotsiologik qarashlari mohiyat e'tiboriga ko'ra, G'arb sotsiologlarining ijtimoiy yondoshuvlaridan farq qiladi. Qadimgi sharq kishisi uchun o'zlikni anglash, ma'naviy komillikka erishish, ozodlik tushunchasi moddiy borliqdan voz kechish, tashqi dunyo tashvishlarini inkor etish, o'zlikda sokinlik topishga intilish harakatlaridan iboratdir.

Sharq kishisi uchun individualizm hamisha halokat, jamoada uyg'unlashuv esa sokinlik va bexavotirlik omili bo'lib kelgan. Jamoaviy xavfsizlikni ta'minlash ehtiyoji sharqda juda qadimgi davrlardayoq davlatchilik tizimlarini tarkib toptirdi. Shuningdek, sharqda iqtisodiy murakkabliklar, ob-havo, suv muammolarining keskinligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining faqat sug'orish vositasida yetishtirilishi, ularni saqlash masalalari muayyan markazlashgan idora tizimlarini tarkib toptirish hamda boshqarish zaruratini kun tartibiga chiqargan. Bu esa eramizdan oldingi III ming yillikning o'rtalaridan boshlab Misr, Xindiston, Mesopatomiya, Xitoyda davlatchilikning mustahkam an'analari yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Sharq davlatchiligi negizida ijtimoiy birlik mutloqlashtirilar, jamiyatda jamoaviy yaxlitlik amal qilar, alohida shaxslarning o'zligini jamoa ixtiyoridan tashqarida individual namoyon etishi ma'qullanmas edi. Shaxslararo siyosiy, iqtisodiy, ahloqiy qarashlar birligi, mutlaq yakdillik

¹¹ Aristotel, Soch. T.4, S. 53.

sharq birdamligi va hayotiyligining ma'naviy asosini ifoda etar edi. Sharq davlatlarida xudo davlat boshqaruvchisi obrazida talqin etib kelinar edi. Masalan, Xitoyda imperatorni ilohiy osmon farzandi sifatida, Misrda Fir'avn xudo-iloh tarzida, Shumerda esa podshoh xudoning aynan o'zi, deb talqin etib kelingan. Fir'avn va podshohlar xukmi nafaqat jamiyatga, balki tabiatga ham ta'sir eta oluvchi kuch sifatida tushunilgan. Shu boisdan ham ekin ekish chog'ida birinchi omoch yurgizish, hosilning birinchi mahsulini olish, biror bino qurilishida ilk tosh yoki Qishtni ramziy baraka, quvvat beruvchi ilohiy kuch sifatida podshoh tomonidan qo'yilishi, farzandlarga ism qo'yishda podshohga murojaat etish odatlarining ildizlari xukmdorlarni xudo bilan aynan bir xil voqelik, deb anglashdan tug'ilgandir.

Insoniyat tarixida ilk daf'a xudo darajasida emas, alohida, yetuk shaxslar sifatida Gomer, Muso, Konfusiylar, Zardusht, Budda singari shaxslar tarix sahnasiga chiqdilar.

Zardo'shtlik dinining asosi bo'lgan «Avesto» eramizdan oldingi VII asrda yaratilgan bo'lib, Avesto so'zi «Upasta», ya'ni qonun-qoidalar, me'yoriy asoslar ma'nosini anglatadi. «Avesto»ni Zardusht Spitamalik Purishasp o'g'li yaratgan va hozir biz yashayotgan xududda yakkaxudolikka asos solgan. U Axura Mazdani tabiatni yaratuvchisi va boshqaruvchisi sifatida talqin etadi. Axura Mazda «Oliy daholi xukmdor» degan ma'noni anglatib, odamlarni yovuz kuchlarga, ijtimoiy ahloqiy illatlarga qarshi kurashishga chorlagan. Axura Mazda jamiyat kuchlarini faollikka undovchi kuch sifatida ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotda dadil quyilgan qadam bo'ldi. Zero, iymon-e'tiqodli inson hamisha ezgulik uchun kurashchan bo'lishi lozim.

Avesto asarida ifodalangan monoteistik diniy-falsafiy kategoriyalar va tushunchalar, dunyoni ramziy talqin etish usullari keyingi davrlarda insoniyat hayotiga kirib kelgan va takomillashgan konfessiyalarda mustahkam o'rin olib keladi. Undagi yetti iqlim, yetti qavat osmon, oxir zamon, pulsirotni, farishta, shayton, dev, savob, gunoh dunyodagi ikki qarama-qarshi kurashuvchi kuchlar, ezgulik va jaholat, yaxshilik va yomonlik, yoruqlik va zulmat tushunchalari shular jumlasidandir.

Yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash, ijtimoiy jarayonlarni konfliktologik yondoshuv orqali xalq etishga urinishlar mitraizm oqimi shaklida G'arbiy Yevropa va butun Rim imperiyasidan tortib Ahamoniylar, Kushon va Sosoniylarning buyuk imperiyalari amal qilgan davrlarda ham o'z ta'sirini o'tkazib keldi.

Eramizning III va IV asrlariga kelib, mitraizmning qarama-qarshilik g'oyalaridan toliqqan insoniyat sabr-toqat, hamkorlik, mehr-muhabbat g'oyalarini asos qilib olgan xristianlik, keyinchalik esa islom dinlariga e'tiqod qila boshladi. Darhaqiqat, insoniyat tabiatan kurashga, doimiy mojarolarga emas, sabr-toqatga, itoat va hamkorlikka, tinchlikka moyildir.

Sharq sotsiologiyasi maktabida Xitoy mutafakkirlarining ijtimoiy qarashlari alohida o'rin tutadi. Eramizdan oldingi Sin va Xan davrlarida Xitoyda kuchli markazlashgan imperiyalar tarkib topdi. Bu davr uchun xarakterli xalq shundan iboratki, imperiyagacha bo'lgan davrda amal qilgan «ixtilofdagi hukmdorlar»

tarqoq mafkuralarining Xitoyni buyuk davlat darajasida yuksalilishiga xizmat qiluvchi yangi milliy g'oya bilan birlashuvi, ya'ni osmon obrazining ilohiy ramz sifatida qabul qilinishi bo'ldi. Binobarin, diniy mutaassiblik va kosmologiya g'oyalari Xitoy xukmdorlarini azaldan osmoniy xukmdor mavqeiga yuksalish orzulari yo'lida xizmat qilib kelar edi. Xitoy va butun Sharq mamlakatlariga xos bo'lgan ramzlar ilohiyligiga ishonish esa kosmologiya goyasining qabul qilinishiga turtki bo'ldi. Bu rasmiy mafkuraning mohiyati tabiat va jamiyat jarayonlariga osmon fe'l-atvoridan kelib chiqqan holda yondoshish va baho berishga intilishdan iboratdir. Osmoniy tabiat dastavval osmon farzandi imperatorga xos bo'lib, u jamiyatda kechuvchi ziddiyatlar, muammolarga ortiqcha aralashmaydi. Ba'zida esa ijtimoiy ziddiyatlar haddan oshgan kezlarda bamisoli osmoniy o't - momaqalldiroq, yohud dovul singari ana shu ixtilofiy xollarga keskin zarba berib turadi.

Kosmologik g'oyalar asta-sekin osmoniy imperiyaning har bir jabhasida ma'lum bir ramziy belgilar tarzida ifodalanib, rasmiy muloqotlar, marosimlar hamda bayramlarda ham namoyon bo'la boshladi. Osmoniy hukmdorning ramziy tamg'asida uch gorizontali chiziq, ya'ni osmon, yer va insondan iborat mohiyatlarni ifodolovchi chiziqlarni, ya'ni hukmdor iznini ifodolovchi bir vertikal chiziqkesib o'tishini aks ettirib turardi.

Xitoyda Konfusiy ahloqiga binoan inson dunyo tartiboti tizimida favqulodda o'rin tutishi, umumiy dunyo taqdiri uchun mas'ullik hissining cheksizligi targ'ib etilsa, kosmologiya g'oyasida siyosat va kosmik ritm o'rtasida murosa o'rnatilishi asoslandi. Xitoy siyosati esa «inson o'ziga nima» deb emas, «inson davlat uchun nima» degan savolga javob izlar edi. Inson jamiyatda faqat o'z qobiliyatiga tayanib, qachon undan foydalanishlari muddatini kutib yashashga mahkum etilgan edi. Shu boisdan ham Xitoyda davlat ja'miki jarayonlarni boshqaruvchi kuch sifatida jamiyatda har bir individning ijtimoiy mavqeini ham belgilab boruvchi omil vazifasini o'tar edi.

Konfusiy osmoniy g'oya nazariyasini sotsiologik tadqiq etgan holda ma'rifiy bo'yoqlar bilan yanada rivojlantirdi. Uning nuqtai nazariga ko'ra, jamiyatni mustahkam munosabatlar tizimiga ega bo'lgan oilaga o'xshatish mumkin. U odamlar o'rtasidagi munosabatlar tizimini besh ko'rinishga ajratadi. Ular quyidagilar: 1) ota va farzand; 2) er va xotin; 3) aka-ukalar; 4) turli oilalar va nihoyat, 5) hukmdor va fuqarolararo munosabatlar. Inson, Konfusiy fikriga ko'ra, nima hayoliga kelsa shuni qilishga emas, balki jamiyat tomonidan belgilab qo'yilgan, ijtimoiy tabaqa mohiyatidan kelib chiquvchi majburiyatlarni bajarishga mas'uldir.

Konfusiy jamiyatni boshqaruv masalasida shunday degan edi: «Agar meni hukmdorlardan birortasi jamiyatni boshqaruv ishiga jalb etgudek bo'lsa, 12 oyda ishda ijobiy o'zgarishlar yasagan va uch yil mobaynida boshqaruv ishini tubdan takomillashtirgan bo'lur edim»¹².

Afsuski, Xitoy hukmdorlaridan hech biri uning xizmatidan foydalanishni lozim topmagan. Konfusiy nuqtai nazariga ko'ra, har bir shaxs o'ziga

¹² Istoriya sotsiologicheskix ucheniy, Drevniy Vostok. M.: Izd. ANSSSR, 1950, s230.

belgilangan ijtimoiy mavqe doirasida sidqidildan faoliyat yuritishi, ya'ni ota ota o'rnida, farzand farzand sifatida, hukmdor esa hukmdordek ish qilishi lozim.

Konfusiylar kishilarni jamiyatda egallab turgan o'rinlarini, ijtimoiy mavqelarini o'zgartirishlariga qarshi turgan. U insonlarning o'z ijtimoiy mavqelarini o'zgartirish yo'lidan emas, balki shu mavqe mazmunini teran bilimlar bilan boyitishga chaqiradi. Bilimlar kishiga nafaqat ma'lumotli bo'lish uchun, balki to'g'ri ish tutish, oqil xatti-harakatlar qilish uchun ham kerakdir.¹³

Konfusiylar sharq mutafakkirlariga xos xususiyatlarni namoyon etib, jamiyatda kishilar turli ijtimoiy tabaqalarda yashashlarini ma'qullagan holda, bu tabaqalar o'rtasida doimiy murosa, kelishuv bo'lishini, ziddiyatlarga aslo yo'l qo'ymaslik zarurligini uqtiradi. Konfusiylar ham ijtimoiy taraqqiyot davlatlararo va tabaqalararo konsensus-yakdillik, hamfikrlilik amalga oshgandagina yuz berishiga qat'iy ishonadi.

Qadimgi Sharq falsafasi, uning teologik asoslari qadimgi Movarounnahr xududida yashovchi xalqlarning ijtimoiy jarayonlarga munosabatlari va fikrlash tarziga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatgan. Xususan, o'zbek xalqi va uning boy ma'naviyatining shakllanishiga islom dinining kirib kelishi va uning xalq tomonidan qabul qilinishi o'ziga xos xodisa bo'ldi, deb hisoblash mumkin. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'zbek xalqi Islom diniga o'z milliy xususiyatlari, urf-odatlarini, turmush tarzi, an'analarini bilan kirib keldi. Bu esa qabul qilingan islom teologiyasi nazariyasiga tegishli aniqliklar va tadriijiy o'zgartirishlar kiritilishini taqozo eta boshladi.

Movarounnahr jamoatchilik fikri tarixini o'rganishda Abu Mansur al-Moturidiyning o'rnini beqiyosdir. Sunniylik asosidagi islomdagi katta yo'nalishni tashkil etuvchi Moturidiya maktabining asoschisi Abu Mansur al-Moturidiy asarlariga nafaqat dinshunoslik, balki jamiyat, jamoa, ijtimoiy jarayonlar va xususan shaxs haqidagi ta'limot sifatida yondoshish, ularni Movarounnahr xalqlari hayot tarzi, mentalitetiga muvofiq keluvchi, ularni g'oyaviy, e'tiqodiy yakdillikka undovchi yaxlit ilmiy sotsiologik konsepsiya sifatida baholash va har tomonlama o'rganish maqsadga muvofiqdir. Ulrix Rudolf shaxsning islom e'tiqodi doirasidagi faoliyati, erkin fikrlash huquqi va imkoniyatlarini atroflicha asoslagan Al-Moturidiy qarashlarini oqilona me'yori, inson sha'ni, mavqeiga eng muvofiq keluvchi nazariya deb baholaganda, buyuk hamyurtimizning xarakterli qirralarini ochib berdi. Darhaqiqat, inson shaxsi va mavqei masalasi, uni turli ijtimoiy-siyosiy, kerak bo'lsa, diniy tazyiqlardan himoya qiluvchi Al-Moturidiyning *murosaviy muvozanat konsepsiyasini*, islomni anglash jarayonlaridagi ijobiy jihatlarni yig'indisigina emas, balki Movarounnahrda real ijtimoiy-siyosiy muhit, xalq turmush tarzi, mentaliteti, boy madaniy-tarixiy tajribasi bilan boyitilgan insoniy yondashuvlar sintezi, deb baholash maqsadga muvofiqdir. Al-Moturidiy jamoa va jamiyatning voqelik mohiyatini ramzlarda talqin etishga diqqatni qaratadi. Insonning intellektual kamoloti, shartlilik, ramzlarga ko'chish darajasiga, o'zlikni nechog'li mavhumlashtirishga

¹³ Istoriya sotsiologicheskix ucheniy, Drevniy Vostok. M.: Izd. ANSSSR, 1950, 228-bet.

bog'liqligini, bu esa o'z navbatida mohiyatni shunchalar to'g'ri anglash imkoniyatini berishini asoslab beradi.

Al-Moturidiy *jabariylarning*, insonni hamma amallari oldindan uning taqdirida yozib qo'yilgan, shu boisdan u o'zi qilayotgan ishlarga mas'ul emas, degan nuqtai nazarini ham, *qadariylarning*, Olloh inson faoliyatlari va amallarining himoyachi emas, degan nuqtai nazarini ham asosli tanqid qilib, inson yaxshi va yomon amallarini o'z erkiga ko'ra tanlashi va bu yo'lda Ollohning madadini olishi nazariyasini ilgari suradi. Shu asoslarda Al-Moturidiy Movarounnahr jamoatchilik fikrining ma'naviy asoslari kuchli insoniy mazmun bilan boyitilishiga katta hissa qo'shadi.

Al-Moturidiy insondagi ixtiyor, tanlash imkoniyati jamoaga qarshi yo'naltirilmasligi, shaxs davlat oldida mas'ul bo'lgani kabi, davlat ham shaxs oldida mas'ul bo'lishini nazariy asoslaydi. Shuningdek, Al-Moturidiy shaxsning tanlash va iroda erkinligi jamoaviy iroda oldida ustuvor kuch emasligi, jamoaviy iroda shaxsdan yuqori turishini asoslaydi. E'tiqod qiluvchi o'z ixtiyori bilan jamoaga qarshi turmasligi lozim. Chunki, umumiylikda xususiylikka ko'ra haqlik hissasi ko'proqdir. Mazkur da'vat Moturidiy qarashlarining Movarounnahr xalqlari mentalitetiga islom e'tiqodini muvofiqlashtirish, islomni yanada inson manfaatlariga yaqinlashtirish rag'batidan yuzaga kelgan, deb hisoblash mumkin.

Xulosa sifatida Al-Moturidiy Movarounnahr ijtimoiy fikriga ko'rsatgan ta'sirini quyidagi yo'nalishlarda qayd etish mumkin:

a) Al-Moturidiy Movarounnahrda jamoatchilik fikri shakllanishining o'ziga xosligini inobatga olib, umumiy fikrga kishilarni ongli tarzda, ixtiyoriy ravishda birlashishga da'vat etgan. Bunday fikr birligi islomiy e'tiqodda ham, hayotiy-ahloqiy sohalarida ham, mafkuraviy siyosatda ham insonlarning yakdillikka erishishlarida namoyon bo'ladi;

b) Al-Moturidiy Movarounnahr uchun xos bo'lgan mohiyatni aksariyat ramzlarda talqin etish xususiyatiga, bu borada, chuqur ildiz otgan ijtimoiy maylga diqqatni jalb etadi. Insonning intellektual kamoloti shartliliklar, ramzlarga ko'chish darajasiga, o'zlikni nechog'li majoziylashuviga bog'liqligiga, bu esa o'z navbatida mohiyatni shunchalar teran anglash imkonini berishini asoslab beradi;

v) Al-Moturidiy Movarounnahrda ijtimoiy muhit barqarorligi jamiyatdagi ma'naviy to'laqonlilikini ta'minlash, mavjud turmush tarzi, an'analar, xalq marosim va urf-odatlar, milliy mentalitet, etnik, ruhiy-intellektual o'ziga xosliklarga tayangan holda amalga oshuviga ishonadi. Zero, Abu Hanafiya mazhabining mohiyati ham islom ta'limotining real voqelik bazisida amal etishi, shu bazis negizida yangi e'tiqod, ijtimoiy ong yo'nalishining shakllanishi va takomil topishini asoslaydi.

g) Abu Mansur al-Moturidiy amalga oshadigan barcha sa'y-harakatlar, qolaversa, ana shu sa'y-harakatlarning ma'naviy-ruhiy ifodasi sifatida namoyon bo'luvchi, hamda qayta faoliyatlar yuzaga kelishiga asos bo'luvchi jamiyatning umumiy ijtimoiy fikri ikki tomonlama tarzda ruy berishini asoslab beradi. Ya'ni, bir tomondan, har bir alohida shaxs taqdirining azaliy hukm asosida ro'yobga

chiqishi hamda amal etishi e'tirof etilgan holda har qanday holatda ham shaxsning erkin tanlash imkoniyati saqlanib qolishini atroflicha asoslaydi. Bu nuqtai nazar, ya'ni ijtimoiy voqelikka erkin yodashuv va ixtiyoriylik nazariyasini jamiyat doirasida zo'rlik, zo'ravonlik hodisalari bilan o'zaro muvofiqlasha olmaslik g'oyasini Abu Rayhon Beruniy davom ettirgan edi. Uning «odamlarning kuchsizligi ham o'zidan zaif bo'lgan birovlariga egalik va raislik qilishdan holi emas» (Beruniy A.R. Tanlangan asarlar, 1. tom, 51-53 betlar) degan nuqtai nazari Abu Mansur al-Moturidiyning inson ozodligi, Olloh oldida o'z taqdirini yaratishda erkinligi G'oyasining uzviy va mantiqiy davomidir;

d) Abu Mansur al-Moturidiy Qur'oni Karimdagi din isbot talab dalillarga emas, balki e'tiqod va ishonchga asoslanishi lozimligini har tomonlama tavsiflab, jamiyatdagi ijtimoiy fikr barqarorligi ham tazyiq va kuch vositasida emas, balki o'zaro hamjihatlik, hamkorlik negizida amal qilishi g'oyasini ilgari suradi. Ulug' mutafakkir o'zi yashagan davrdagi murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar, diniy ziddiyatlar, e'tiqodiy qarama-qarshiliklar muhitida oqilona o'rta me'yor. murosaviy muvozanat konsepsiyasini ishlab chiqqanligi va ana shu to'laqonli nazariy ta'limot vositasida Abu O'anifa tomonidan asoslangan sunniylik mazhabining Movarounnahrda keng yoyilishiga hissa qo'shdi.

Movaraunnahrda tabiat va jamiyatni sotsiologik anglash va o'rganish ulug' mutafakkir Al-Forobiy tomonidan jiddiy kengaytirildi. U Abu Mansur al-Moturidiy tomonidan ilmiy-teologik jihatdan asoslangan inson erki nazariyasini yanada rivojlantirdi. U o'zining «Fozil odamlar shahri» asarida insondagi insonlik mohiyati o'zlikni anglashdan boshlanishi, fozil shaxs voqea va xodisalarning mohiyatini idrok eta bilishini, mohiyatga intilish haqni tanish ekanligini, insonga berilgan ruh aqlni rivojlantirishga, unga quvvat bag'ishlashga mas'ul ilohiy kuch ekanligini, aql esa inson tomonidan narsalarni mohiyatan tanlab farqlashga ko'mak berishini asoslab beradi.

Forobiy olamni anglashda *vorisiylik* omilini juda katta kuchga ega ekanligini alohida qayd etadi. Uning fikriga ko'ra, inson barcha haqiqatlarni o'zining qisqa umri davomida anglashga, tabiat va jamiyatning barcha siru-asrorlarini tushunib, idrok eta olishga qodir emas. Shu boisdan u o'zidan oldinga ajdodlari tomonidan bildirilgan fikr-xulosalarni boricha shubhalanmay o'zlashtirishi zarurligi, ilm-ma'rifat bobida yetuk donishmandlar fikrlariga ergashishi lozimligini alohida ta'kidlaydi. Forobiy jamiyatning boobro' shaxslari, olimlari, oqil kishilari ijtimoiy taraqqiyotning harakatlan-tiruvchi kuchlaridir, deb hisoblaydi. Forobiy o'sha paytdayoq ijtimoiy fikrning ahamiyati katta ekanligini chuqur anglab, zamonaviy sotsiologiyada ko'p qo'llanuvchi ekspertlar, ya'ni o'z davrining yetuk donishmandlari fikrlariga tayanib ish tutish zarurligiga urQu beradi. «Donishmandlarga ishonib, ularga ergashuvchi odamlar o'sha narsalarni donishmandlar bilganday bilib oladilar. Zero, donishmandlarning bilimlari, eng exshi bilimlardur»¹⁴.

¹⁴ Abu Nasr Farobiy, Fozil odamlar shapri., T. 1993 yil, 167-bet.

Birinchi ming yillikning so'ngida (973 yil, 4 sentyabr) tavallud topgan ulug' bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniy ham sotsiologiya nazariyasini rivojlantirish ishiga ulkan hissa qo'shdi. Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» deb nomlangan qomusiy kitobini to'la ma'noda insoniyat tarixining o'tgan 5 ming yilligi voqealari tahlili va sinteziga bag'ishlangan mumtoz etnosotsiologik asar, deb baholash mumkin. Mazkur kitobda ulug' mutafakkir asar yozilishi jarayonida olib borgan sotsiologik tadqiqotlari, qo'llagan usullari xususida so'z yuritib shunday yozgan:

«Mazkur asarni yozish asnosida o'zimga ishonch hosil qildim-ki, aqliy narsalardan dalil keltirish, kuzatilgan narsalarga qiyos qilish yo'li bilan haqiqiy ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin emas. Bunga faqat «kitob ahllari» va turli din arboblari, shu (e'tiqodlarga) amal qiluvchi har xil maslak va ishonch egalariga ergashish, ularning tushunchalarini hamisha asos tutish bilan belgilanadi. So'ngra ularning isbot uchun keltirgan so'z va e'tiqodlarini bir-biriga solishtirish bilan bilinadi»¹⁵.

Abu Rayhon Beruniy dunyoning sotsiologik manzarasi evolyusion jarayon natijasida tarkib topganligini alohida qayd etadi. «Tuzilish va buzilish natijasida unsur bo'laklari bir-biriga qo'shilib, dunyo obod bo'lgan va olam tartibga tushgan»¹⁶.

Ayni chog'da Beruniy olamni ijtimoiy taraqqiyotga olib keluvchi kuch ziddiyat va qarama-qarshiliklar emas, balki turli ijtimoiy darajalardagi murosa va konsensus ekanligini uqtiradi. «Qarama-qarshiligi ravshan ayon bo'lgan narsaga qanday ishonib bo'ladi»¹⁷, deb ulug' mutafakkir qarama-qarshiliklardan xoli bo'lgan jarayonlarida o'zgarish ehtiyoji kuchayishiga ishora qiladi.

Beruniy sotsiologiyadagi muhim soha ijtimoiy tabaqalashuv haqida ham fikr yuritib, shunday deydi: «Tillarning turlicha bo'lishiga sabab odamlarning guruhlariga ajralib ketishi, bir-biridan uzoq turishi, ularning har birida turli hoxishlarni ifodalash uchun (zarur) bo'lgan so'zlarga ehtiyoj tug'ilishidir. Uzoq zamonlar o'tishi bilash haligi iboralar ko'payib, yodda saqlanishi va takrorlanishi natijasida tarkib topib, tartibga tushgan».¹⁸

Ulug' mutafakkir Abu Ali Ibn Sinoning sotsiologik qarashlari o'zining ilmiy teranligi, voqelikka xushyor baho berish xususiyati bilan ajralib turadi. Ibn Sino olamning barqaror amal qilishi jamiyat va tabiatning sinergetik, ya'ni o'z-o'zini idora qilish, mustaqil boshqarish xususiyatining ishga tushishi va harakatlanishi bilan izohlanadi, deb izohlaydi. Konservativ teologiya nazariyasida mavjud bo'lgan hamma narsalarning yuz berishida taqdiri azalning roli, ilohiy hukmning mutloqlashuvi g'oyasiga qarshi chiqib, Ibn Sino dunyo kamoloti uchun jamiyat a'zolarining erkin faoliyatiga ham katta ehtiyoj borligini asoslab beradi.

Ibn Sino Ollohning aqldan tashqari faoliyatlarga ham qobilligi g'oyasiga qarshi chiqib, Olloh faoliyati aqldan tashqari bo'lishi mumkin

¹⁵ Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar, 1-tom. T. 1968, 406-bet.

¹⁶ Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar, 1-tom, 51-bet.

¹⁷ Shu yerda, 44-bet.

¹⁸ Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar, 1-tom, 231-bet.

emasligi, yaratilgan narsalarning barchasi insoniy aql tomonidan idrok etilinishi kerakligini ham asoslab beradi.

Ibn Sino dunyoning abadiyligi har bir yuz beruvchi narsaning albatta bir kun kelib yaratilishi mumkinligi bilan izohlanishini, dunyoda g'ayri tabiiy narsalarning yo'qligini ta'kidlaydi. Bu fikr bo'lajak sotsiologlarni jamiyat xodisalarini o'rganishda faqat isbot etilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy jarayonlar va ijtimoiy guruhlar muammolarini tadqiq etish maqsadga muvofiqligi g'oyasi bilan ham qurollantiradi.

XI asrda yaratilgan turkiy xalqlar uchun muqaddasi obida xisoblanuvchi kitob Yusuf Hos Hojibning «Qutadg'u Bilig» - «Saodatga yo'llovchi bilim» deb atalgan asari ham sotsiologik qarashlarga boydir. Bu kitob axloq-odob, ta'lim va tarbiya hamda ma'naviy kamolotning yo'l yo'riqlarini, usullarini, chora-tadbirlarini mujassamlashtirib, o'zida jam qilgan buyuk qomusiy asardir.

Yusuf Hos Xojib jamiyat va tabiat borasidagi barcha bahslarni ta'lim atrofida olib borar ekan, o'z davri, mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzum, ma'naviy-moddiy hayot jarayonlari xususida mufassal ma'lumotlar beradi. U o'sha davrning turli ijtimoiy tabaqalari, toifalari va guruhlari, ularning turmush tarzi, rasm-rusumlari, qonun-qoidalar, hunar va kasbu-korlari, jamiyatda tutgan mavqelari, davlat tuzumini qanday asoslarda qurilganligi, har bir tabaqaning dunyoqarash xususida atroflicha sotsiologik asoslangan ma'lumotlarni o'rtaga tashlaydi.

Yusuf Xos Xojib jamiyatning tom ma'nodagi kamoloti faqat ta'lim vositasida amalga oshadi, deb hisoblaydi. Dunyodagi barcha boyliklar mavaqqatdir, o'tkinchidir, sarflansa tugab bitadi, faqat bilim boyligigina qancha sarf etilsa, shuncha ko'payaveradi, deb o'rgatadi ulug' mutafakkir.

Sotsiologiyani donishmandlik talabi yuqori bo'lgan fan ekanligi uchun ham ulug' ajdodlarimizning jamiyatni bevosita o'rganishga doir vazmin umumlashmalarga, xulosaviy mushohadalarga boy asarlari ularni ma'naviy-aqliy kamolotga erishgan yillarida, sermazmun umrlarning so'nggi davrlarida yaratilgandir. Masalan Amir Temurning «Tuzuklari» Mirzo Ulug'bekning «To'rt ulus tarixi», Alisher Navoiyning «Majolis un nafois», «Mahbub ul-Qulub» asarlari shular jumlasidandir.

Alisher Navoiyning «Mahbub ul - qulub» asarida bevosita o'z davridagi deyarli barcha ijtimoiy guruh va tabaqalarga tavsif beriladi va ularning qaysi biri yaxshi yoki yomon, qaysi biri insoniylikka, xalqqa, mamlakatga foydali yoki zararli ekanligi bayon etiladi.

Alisher Navoiy jamiyatning miqdor va sifat jihatidan ijtimoiy bo'linganligi umuman olganda ijobiy xodisa ekanligi, bu tasniflanish doirasining qanchalik kengligi mamlakat farovonlik darajasining ifodasi ekanligi xususida e'tiborga sazovor sotsiologik qarashni asoslab beradi. Ulug' mutafakkir jamiyatdagi yuzdan ortiqroq ijtimoiy tabaqa xususiyatlarini aniqlab, ularning mamlakat ijtimoiy tizimidagi o'rni va faoliyat imkoniyatlarini ravshan ifodalab beradi. Mazkur sotsiologik tasniflashdan maqsad, ularni ijtimoiy foydalilik darajalarini oshirish ekanligi asarning mazmunini tashkil etadi. Zero, jamiyatdagi tasnifning qanday ekanligini bilish ularning mazmunini yaxshilashga yo'l ochadi. «Shu

jihatdan, - deb yozadi Alisher Navoiy, - hamsuxbatlarni va do'st-yoronlarni bu hollardan ogoh va xabardor qilmoq vojib ko'rindiki, toki ularda har toifani xislati haqida bilimlar va har tabaqaning ahvoli haqida tushunchalari bo'lg'ay»¹⁹.

2-MAVZU: SOTSIOLOGIYADA SHAXS MUAMMOSI

Reja:

1. Shaxs tushunchasining mazmun-moxiyati va strukturasi.
2. Shaxsning sotsial mavqeyi, roli va ma'nfaati.
3. Shaxs to'g'risidagi sotsiologik nazariyalar.
4. Shaxning ijtimoiylashuvi.

Har qanday ijtimoiy tizimning bo'laklari odamlar hisoblanadi. Odamlarning jamiyatga kiritilishi turli birliklar orqali amalga oshiriladi. Har bir aniq shaxs sotsial guruhlar, sotsial institutlar, sotsial tashkilotlar jamiyatda qabul qilingan qoida va qadriyatlar tizimi, ya'ni madaniyat orqali gavdalanadi. Shunga muvofiq inson ko'p sotsial tizimlarga tortilgan bo'lib, ularning har biri unga shakllantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, odam faqat sotsial tizimning bo'lagi bo'libgina qolmay, uning o'zi ham murkkab tuzilmali tizimda aks etadi. **Sotsiologiya shaxsni barcha xilma-xillikdagi majmuida emas, ya'ni tabiat mahsuli sifatida emas, balki ijtimoiy munosabatlaryig'indisi, jamiyat mahsuli sifatida qarab chiqadi.** «Jamiyatni isloh qilish va yangilash bo'yicha ko'p qirrali faoliyatimiz markazida inson, suveren O'zbekistonning fuqarosi turadi. Islohotlarning mazmuni ayni har bir fuqaro o'z qobiliyatini, o'z iste'dodini namoyon etishiga, shaxs sifatida o'zini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lishiga qaratilgan»²⁰.

Shaxs sotsial o'zaro ta'sir va munosabatlarning birlamchi omili bo'lib hisoblanadi. Shu jihatdan qaraganda **shaxsning o'zi nima?** Bu savolga javob berish uchun, avvalo, «**inson**», «**individ**», «**shaxs**» tushunchalarini bir-biridan farqlab olish kerak. «**Inson**» tushunchasi, **umumiy, hamma uchun xos bo'lgan sifat va qobiliyatini izohlash uchun qo'llaniladi.** Bu tushuncha dunyoda mavjud bo'lgan, tarixan o'ziga xos shunday rivojlanayotgan birlikki, insoniyatni anglatib, u boshqa hamma moddiy tizimlardan farqli o'laroq o'ziga xos ijtimoiy faoliyat usullari bilan farq qiladi.

Ushbu hayotiy faoliyat usuli tufayli inson tarixiy rivojlanishning hamma bosqichlarida, dunyoning barcha nuqtalarida o'ziga o'xshash bo'lgan antologiyaga oid holatni saqlab qoladi.

Inson tushunchasi bioijtimoiy-ruhiy mavjudlikni ifodalaydigan tushuncha. Unda insonning **zohiriy va botiniy sifatlari** o'z aksini topadi. Insonning umumiy sifatlari uning konkret holat va murakkab hayot sharoitlari namoyon bo'ladigan xilma-xil kayfiyat, ruhiyat va munosabatlarning yig'indisidir. Har bir

¹⁹ Alisher Navoiy. Majbub ul Kulubyo Toshkent, o'afur o'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1983, 3-bet.

²⁰Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т.3. – Т.: «Ўзбекистон», 1996, 352–353-бетлар.

insondagi alohida bu hususiyatlar betakror, o'ziga xos holatlarda namoyon bo'lishi mumkin.

Demak, **insoniyat o'ziga xos moddiy voqelik sifatida mavjud bo'ladi. Ammo, insoniyat o'z holicha mustaqil mavjud bo'lmaydi.**

Aniq insonlar yashaydilar va harakat qiladilar. **Insoniyat alohida vakillarining mavjud bo'lishi «individ» tushunchasi bilan ifodalanadi.**

Bshkacha aytganda, alohida insonning o'ziga xos tabiiy-biologik va ijtimoiy ehtiyojlari, manfaatlari, aqli, irodasi va hokozolar yig'indisi ekanligi nazarda tutib, «individ» tushunchasi qo'llaniladi. Individ «mohir odam» turiga mansub yaxlitlikni o'zida gavdalantirgan alohida insondir.

Individ - bu insoniyat zotining yakka vakili, insoniyatning hamma sotsial va ruhiy jihatlarini idrokiy, irodasi, ehtiyojlari, manfaatlari va hokozolarning sohibi hisoblanadi. **«Individ» tushunchasi bu vaziyatda «aniq inson» sifatida foydalaniladi.**

«Individ» tushunchasini ayrim olimlar insonning tarixi ibtidoiy jamoa tuzumi davriga to'g'ri kelishini bayon etgan. Ikkinchi xil fikrga ko'ra, individ sifatida inson o'zining jismoniy mavjudligini ta'minlashni birinchi o'ringa qo'yadi.

Masalaning bunday qo'yilishida turli biologik omillar (yosh jihatlari, jinsiy mijozlarining o'ziga xos tomonlari), shuningdek, **inson hayotiy faoliyatining sotsial sharoitlardagi tafovutlarbelgilamaydi.**

Har qanday inson individi o'ziga xos salohiyati bilan dunyoga keladi. Hammaga gap bu salohiyatni qay tarzda ruyobga chiqarishdan iboratdir. Inson rivojlanishining individ bosqichi eng uzoq davom etadigan, izchilliknio taqozo qiladigan davrdir. Bu bosqichda uning asta-sekin shaxsga aylanish jarayoni boshlanadi. Individning shaxsga aylanishida, boshqacha aytganda, insonning individ bosqichidan shaxs bosqichiga o'tish jarayonida sotsiumning u yoki bu darajasida olingan jamoa a'zosi sifatida uning imkoniyatlari, ijtimoiy-ahamiyatli belgilari kat'iy tizim shaklida karor topadi. Ya'ni fe'l-atvori shakllandi.

Insonni turli darajada: yakka tarzda va tarixiy rivojlanishining aniq-tarixiy o'ziga xosligini aks ettirishda «individ» tushunchasi bilanbir qatorda «shaxs» tushunchasi ham qo'llaniladi. «Shaxs» bir qator gumanitar fanlarning falsafa, ruhshunoslik, pedagogika va sotsiologiyaning o'rganish ob'ekti hisoblanadi.

Falsafa shaxsni faoliyat sub'ekti, ong va ijodiyot sifatida tutgan o'rni, nuqtai-nazaridan qarab chiqadi. **Ruhshunoslik - shaxsni** ruhiy jarayonlar, xususiyat, qobiliyat, iroda sifatleri va boshqa jihatlardan barqaror yaxlit holda o'rganadi.

Sotsiologik yondashuv shaxsning sotsial-tipik jihatini ajratadi. Shaxs sotsiologik nazariyasining asosiy masalasi shaxsning shakllanish jarayoni va uning ehtiyojlarini qondirish, sotsial birlikda rivojlanishi va amal qilishi, jamiyat bilan shaxs aloqalari, shaxs va guruhlar, shaxsning sotsial fe'l-atvorini, tartibga solish qonuniyatlarini o'rganish bilan chambarchas bog'langan.

Bu yerda, sotsiologiyada shaxsni o'rganishga ayrim umumiy tamoyilar nuqtai-nazaridan yondashuv ifodlangan.

Sotsiologiya shaxsga oid ko'pgina nazariyalarni o'z ichiga olgan bo'lib, ular bir-birlaridan qat'iy metodologik ko'rsatmalar orqali farq qiladilar.

Insonning qaysi jihati shaxs tushunchasida nomoyon bo'ladi? **Insonning 2 xil ehtiyoji mavjud: tabiiy va ijtimoiy. Tabiiy** - bu barcha biologik ehtiyojlar: **Ijtimoiy** - mehnat faoliyati, ijtimoiy faollik, ma'naviyat va boshqalar.

Shaxs bu insonning jismoniy tabiati emas, balki uning ijtimoiy sifatidir. Shaxs ehtiyojlari uning manfaatlari orqali nomoyon bo'ladi. Manfaatlar esa uni maqsadli faoliyatga yo'llaydi. Kishilarning ijtimoiy munosabatlari ularning xulqlarida, eng avvalo, manfaatlar tarzida nomoyon bo'ladi. Bu esa o'z navbatida shaxs faoliyatining maqsadini, mazmunini va mohiyatini ifodalaydi. Manfaatlarning maqsadga aylanishi shaxs faoliyati motivining oliy darajasidir.

Sotsiologiya tarixida o'zining metodologik qurilmasi jihatidan farq qiluvchi shaxs to'g'risidagi nazariyalar ishlab chiqilgan.

Karl Marks va F. Engels tomonidan asos solingan shaxs ijtimoiy faoliyat va munosabat sub'ekti va ob'ekti to'g'risidagi nazariyasi, Ch.Kuli, R.Darendorf, R.Milton, R.Mertonlarning shaxs roli nazariyasi va boshqa shu kabilar.

1. Shaxs ijtimoiy faoliyat, munosabat sub'ekti va ob'ekti to'g'risidagi **marksistik nazariyada asosiy e'tibor shaxs va jamiyatning** o'zaro munosabatiga qaratilgan. Marksistik sotsiologiyada shaxsning moddiy faoliyati jarayonida yuzaga keluvchi va ongining muayyan xususiyatlarini aks ettiruvchi sub'ektiv jihatlari ko'proq tadqiq qilingan.

2. Amerika sotsiologlari: T.Znaneskiy va Ch.Tomaslar asos solgan **shaxsijtimoiy hulqini o'z-o'zini boshqarishining dispozision nazariyasida** shaxs hayotidagi dunyoqarashlik va qadryatli - normativ omillarga ko'proq ahamiyat beriladi. Bu nazariyaga ko'ra, shaxs ongi uning hayotiy o'rnini belgilaydi. Shaxs dunyoqarashi, ijtimoiy qadriyati, g'oyaviy va ma'naviy normalar uning faoliyatini belgilovchi asosiy omillardir. Ko'rinib turibdiki, shaxs to'g'risidagi bu nazariyada shaxsning sotsiologik va ijtimoiy psixologik xususiyatlari bir qilib olingan.

3. Sotsiologiyada Amerikalik D.J.Mid va G.R.Mintonlar tomonidan asos solingan **shaxsning roli nazariyasi ham diqqatga** sazovordir. Keyinchalik bu nazariya G.Merton va T.Parsons, G'arbiy Olmoniya sotsiologi G.Darendorflar tomonidan yanada rivojlantirilgan. Bu nazariya ikki asosiy tushunchalar: shaxsning ijtimoiy mavqei va ijtimoiy roli orqali tushuntiriladi. Unga ko'ra, har bir inson muayyan ijtimoiy tizimda bir necha o'rinni egallashi mumkin. Har bir egallangan o'rin **ijtimoiy mavqe deb ataladi**. Shaxs o'z hayoti davomida bir necha ijtimoiy mavqega ega bo'lishi mumkin. Binobarin, bu o'rinlardan qaysi biridir uning asosiy ijtimoiy mavqeini belgilaydi. Bosh mavqe shaxsning egallab turgan mansabi (masalan, direktor, rais, professor kabi) bilan belgilanadi.

Shaxs ijtimoiy mavqei uning tashqi xulqida, tashqi qiyofasida, yurish turishida va hatto muomalasida ham o'z ifodasini topadi.

Shaxsning **ijtimoiy roli** nazariyasida **belgilangan** va **erishilgan ijtimoiy mavqelari** o'zaro farqlanadi. Belgilangan mavqe - bu shaxs xizmati va xatti-harakatidan qat'iy nazar, jamiyat tomonidan belgilab qo'yiladi. Shaxsning etnik kelib chiqishi, tug'ilgan joyi, oilasi, jinsi va boshqalar shular

jumlasidandir. **Erishilgan mavqe deganda**, shaxsning o'z xatti-harakati, qobiliyati bilan erishgan mavqei tushuniladi. Masalan, yozuvchi, firma boshlig'i, direktor, professor va shu kabilar. Bulardan tashqari, yana shaxsning tabiiy va kasbiy lavozim mavqei ham o'rganiladi. Shaxsning erkak va ayol, bolalik, o'smirlik, yoshlik, o'rta yosh, keksalik davrlarini bildirsa, kasbiy lavozim mavqei shaxsning ijtimoiy - iqtisodiy va ishlab chiqarish - texnik holati (muhandis, temirchi, haydovchi va boshqalar)ni bildiradi.

Ijtimoiy mavqe shaxsning muayyan ijtimoiy tizimida egallagan konkret o'rnini ifodalaydi. **Ijtimoiy rol** esa shaxsning ijtimoiy tizimida egallagan mavqe bilan bajaradigan faoliyati majmuini ifodalaydi. Masalan, ma'muriy - buyruqbozlikka asoslangan Sobiq sovet tizimi buyruqboz shaxslar tipini shakllantirib qo'ydi. Bunday shaxs tipiga «yuqori»ga ko'r-ko'rona, so'zsiz bo'ysunish, dunyoqarashi tor, bir tomonlama, o'z mansabini saqlab qolish va yuqori mansablarga erishish yo'lida har qanday qabihlikdan qaytmaydigan, munofiqlik kabi xususiyatlarga ega bo'lganlar kiritildi. Bunday kishilarning shaxs xususiyatlari ular bajaradigan vazifasiga o'z o'rnini bo'shatib beradi. Shaxs tipining bunday ko'rinishi hozirda ham ba'zan jamiyat hayotini yangi sharoitda erkin rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Shaxs faoliyati deganda, uning ichki va tashqi tendensiyalarining ijtimoiy hayotda namoyon bo'lishi xususiyatlariga aytiladi. Ijtimoiy faollik inson shaxs sifatidagi darajasining asosiy ifodasi bo'lib uning yuksak qadriyatli ehtiyojlarini qondirishlari va sifat ko'rsatkichidir. Demak, ijtimoiy faollik shaxsning muhim sifatidir.

Shaxs faolligi deb, uning hayotini boshqarish bilan, bog'liq bo'lgan va qadriyatlarining nomoyon bo'lish xususiyatlariga aytiladi. Ijtimoiy faollik inson shaxsi sifati darajasining asosiy ifodasi bo'lib, uning yuksak qadriyadagi ehtiyojlarini qondirish usuli va sifat ko'rsatkichidir. Shu jihatdan shaxs faoliyati sotsiologiyada keng va kichik (tor) ijtimoiy darajalarda o'rganiladi. Shaxsning bunday darajalarda o'rganilishi metodologik ahamiyat kasb etadi.

Shu boisdan ham shaxs sotsiologiyasini o'rganish Vatan, xalq farzandi, haqiqiy chin insonga xos bo'lgan shaxs darajasiga yetishini anglab olishimizga yordam beradi. Vatanni sevish, Vatan farzandi bo'lish g'ururini o'stiradi. Vatan uchun, xalqi uchun kerak bo'lsa jonini fido qilishga shay turish – buyuk insoniy (fazilatdir. Shaxs sotsiologiyasi ana shunday yetuk shaxslarni yetishtirib berishga xizmat qiladi.

«Shaxs» - odamning ijtimoiy xususiyatlarining yaxlit majmui bo'lib, ijtimoiy taraqqiyot va individning faol xatti-harakati hamda muomalasi vositasida ijtimoiy munosabatlar tizimiga qo'shilishining mahsuli hisoblanadi. Shaxs tushunchasi ijtimoiy munosabatlar va ongli faoliyat sub'ekti sifatidagi individni ham ifodalaydi.

«Shaxs» tushunchasida uning atrof-muhitga munosabatni bildiradigan ijtimoiy-ruhiy sifatlarining ichki muayyan yaxlitligi ifodalanadi. Shaxs bo'lish degani, birinchi navbatda, o'zining ichki qadriyatlar dunyosini shakllantirishni, tevarak-atrofga, eng avvalo, ijtimoiy hodisalarni anglash,

uning mohiyatini tushunish orqali qadriyatiy-tanqidiy munosabatga ega bo‘lishni bildiradi.

Insonning shaxs sifatidagi qadriyati uning o‘zligidan, fiziologik mavjudligidan ajratib olingan tarzda mavjud emas. Shu bilan birga, aytish mumkinki, istagan inson shaxs bo‘lolmaydi, lekin har qanday shaxs- insondir. U tashqi muhitga faqat biologik moslashuv natijasi sifatida shakllana olmaydi. Balki sotsiumda, aniqrog‘i, uning turli darajalarida qaror topadi va unga ma‘lum darajada bog‘liq bo‘ladi. Ya‘ni shaxsning kelib chiqishi va uning imkoniyatlarini ro‘yobga chiqishi kishilik jamiyati tomonidan ta‘minlanadi. Demak, shaxsda insonning jamiyatda tutgan o‘rni va bajaradigan vazifalari ifodalanadi. Shunga ko‘ra, sotsiumning turli darajalarini o‘rganadigan barcha fanlar doirasiga shaxs masalasi ham kiradi. Xususan, inson tanasi tuzilishi va faoliyatini o‘rganadigan biologiya va boshqa fanlardan farqli o‘laroq, jamiyatshunoslik, ruhshunoslik, ta‘limshunoslik kabi qator fanlar shaxs masalasini o‘rganishga ehtiyoj sezadi.

Muayyan ma‘noda shaxs yaxlit sotsiumning ajralmas bo‘lagidir. Unda dastavval kishilar o‘rtasidagi mavjud munosabatlar jamuljam bo‘ladi. Lekin bu o‘inda shaxs bilan sotsium aynanligi to‘g‘risida gapirishga asos yo‘q. Ibtidoiy tuzumning sodda jamoachiligi inqirozga yuz tutishi tufayli kishilar bir-biridan «ichki» dunyosi va manfaatlari bilan o‘zaro farqlanib, shaxs bosqichiga ko‘tarilib boradilar. Buning natijasida esa shaxs bilan sotsium manfaatlari nisbati masalasi kun tartibiga qo‘yiladi.

Shaxsning sotsium bilan munosabatlari o‘ziga xos jihatlariga ega. Shaxsning o‘zligi, dastavval, uning muayyan darajadagi mustaqilligidir. U shu holati bilan sotsium hayotining barcha sohalarida ishtirok etadi. Albatta, gap bu borada ko‘proq shaxs to‘g‘risida boradi. Lekin Yangi tug‘ilgan insonning shaxs bo‘lish imkoniyati faqat sotsiumda vujudga keladi. Demak, shaxsni sotsiumning turli darajalaridagi tashkiliy sifatleri voyaga yetkazadi.²¹

Inson bilan sotsium aloqadorligi jihatidan uning shaxs sifatleri shakllanishini aniqlab olish muhim. Shaxs shakllanishiga qaysi omillar ta‘sir ko‘rsatadi va konkret shaxs boshqa oddiy insondan nimasi bilan farqlandi,- degan savol qo‘yilsa, unga javob berish xiyla qiyin. Negaki, shaxs shakllanishida juda ko‘p omillar ishtirok etadi. Ularning ichida ijtimoiy muhit katta mavqega ega.

Individ sifatida namoyon bo‘lgan mavjudot ijtimoiy muhit ta‘sirida shaxs sifatida shakllanadi. Individning jamiyat bilan o‘zaro munosabati uni ma‘lum bir sotsial jamoa vakiliga aylantiruvchi turli guruhlardir. Bu munosabatni amalga oshirishda muloqat asosiy rol o‘ynaydi, sotsial guruhlar orqali amalga oshadi. Chunki muloqat shaxsning asosiy ijtimoiy munosabatlar sistemasida nazariy va Amaliy bilimlarni egallashida uning shu sistemadagi o‘zining maqomiga ega bo‘lishida, faoliyat jarayonida va kundalik turmush tarzida asos sifatida xizmat qiladi,²² Shu bilan birga shaxs muloqot orqali o‘zining shaxs sifatida shakllanganligini va boshqa shaxslarning ijtimoiy muhitining haqiqiy sub‘ekti yoki uning ijrochisi sifatida shakllangani to‘g‘risida tushunchaga ega bulishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli shaxs jamiyatdagi barcha

²¹ Жўраев Н., Азизов Ш. Ижтимоият асослари. -Т.: «Маърифат-мадаккор», 2003. -62-63-б.

²² Умумий социология. Тошкент: ТошДУ, 1999, 42-бет.

munosabatlarning shakllanishi va sotsial dinamik harakterini belgilashda asos bo'lib xizmat qiladi.

Demak, shaxs kishining hayot kechirish sharoitlarida sotsial guruhlar, sotsial institutlar, sotsial tashkilotlar ta'sirida faoliyat jarayonida shakllanadi. Shaxsning shakllanishida guruhlar va jamoalar yetakchi rol o'ynaydi.

Demak, shaxs - **o'ziga xos intellektual, emotsional, irodaviy-shaxsiy belgi va sifatlar ega bo'lgan sub'ekt**. Bu belgi va sifatlar muayyan sotsial-iqtisodiy formasiyaning mahsulidir. Shaxs o'tmish tarixiy tajribani, o'tmishdagi madaniy boyliklarni o'zida to'playdi. **«Shaxs - barcha ijtimoiy munosabatlarning yig'indisidir»**. Jamiyatdan tashqari-dagi shaxs norealdir. **Shaxsning shakllanishida:**

1) shaxsning rivojlanish davriva uning natijasi.

2) shaxsni maqsadga yo'naltirilgan tarzda tarbiyalanishidan iboratdir.

Shaxsning rivojlanishini uning faoliyatida o'zgarib turuvchi ehtiyojlari bilan ularni qondirishning imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlarda aniqlanadi.

Hozirgi sharoitda insonga ijtimoiy muhit ko'rsatayogan ta'sirini quyidagicha tasnif etish mumkin:

Birinchidan, har bir insonga bo'lgan global ta'sir, ya'ni radio, televidenie, matbuot, kino va hokazolar orqali axborot almashinuvi;

Ikkinchidan, mamakat va mintaqa miqyosidagi ijtimoiy ta'sir insonni mavjud shart-sharoitlar doirasida inson dunyoga kelishidan to hayotdan ko'z yumgunigacha o'z orbitasida tutib turadi;

Uchinchidan, insonni avval boshidan o'rab turgan mikromuhit – oila, maktab, ko'cha va hokazolar o'z ta'siriga oladi.

Anna shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, **inson shaxsning shakllanishidagi birinchi bosqich – oiladir. Oila bioijtimoiy sifatga ega bo'lgan tuzilma sifatida jamiyatning barqaror va dastlabki bo'g'inidir**. Oilada go'dak ilk bor ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni anglamagan holda o'zlashtiradi va ular zamirida faolligini asta-sekinlik bilan oishirib boradi. **Maktab, turli ijtimoiy guruhlar** (masalan, tengdoshlar, sport uyushmalari va boshqalar) **bilan muloqat davomida madaniy ideallik qaror topa borib, shaxs shakllanishining muhim manbaiga aylanadi**.

Hozirgi davr sotsiologiyasida «inson» deganda Yerda yashayotgan mavjudot turlaridan biri tushuniladi. Inson alohida olingan tur (Homo sapiens) vakilini ifodolovchi umumiy tushunchadir. Inson, umuman inson zotining yig'iq obrazi sifatida bioijtimoiy mavjudot bo'lib, u bir vaqtning o'zida ham tabiatga, ham ijtimoiy hayotga mansubdir. Gegel ta'biri bilan aytganda, «insonning o'zida bevosita mavjudligi qandaydir tabiiydir, bu uning o'z tushunchasiga binoan tashqidir; faqat o'ziga tegishli tana va ruhini takomillashtirish vositasida, mohiyatan o'zi o'zi anglashi sababli ham u o'zini erkin tutadi, u o'ziga o'zi egalik qilishga kirishadi va ham o'ziga, ham boshqalarga nisbatan bo'lgan munosabatlarda o'ziga o'zi egalik qiladi. Bu o'ziga o'zi egalik qilishga kirishish, shuningdek, bu holatni voqelik deb bilish shuni ko'rsatadiki, inson o'z tushunchasiga binoan (imkoniyat, qobiliyat, moyillik), endi o'zini o'ziniki deb bilishi, o'zini xudi predmetdek hisoblashi – oddiy o'zini o'zi anglashdan farq

qilib, u haqiqatda narsa (buyuk) shaklida namoyon bo'la olish qobiliyatiga erishadi »²³.

Individ inson zotining alohida olingan nusxasi, uning vakillaridan biridir. Shaxs esa u yoki bu inson sifatida namoyon bo'lib. U ma'lum va betakror individuallikka ega bo'ladi. Individning jamiyatga kirish jarayonlari uning ijtimoiylashuvini ta'minlaydi. Ijtimoiy munosabatlarga kirishish natijasida uning jamiyatdagi qadriyatlar va me'yorlarni o'zlashtirib borishi uchun zamin yaratadi. Bu jihatdan u ijtimoiy ta'sir ob'ektidir. Shuningdek, individ ijtimoiylashuv oqibatida jamiyatdagi turli munosabatlarda faollashadi va bunda u ijtimoiy munosabatlar sub'ekti sifatida harakatlanuvchi shaxsga aylanadi.

Mustaqil O'zbekistonning buyuk kelajagini barpo qiladigan, unga munosib shaxs bo'la oladigan kishini tarbiya qilib yetishtirish hozirgi davrning asosiy vazifasi ekanligi shaxs sotsiologiyasida o'rganiladi.

Hozirgi davrda jamiyatimizda shaxsning quyidagi belgilari mavjud:

1. **Birinchi grupp shaxs belgisi:** jamiyatga, siyosatga munosabati bilan bog'liq, (Vatanga sadoqat, o'lka boyligi xo'jayini ekanligini anglash, optimizm, maqsad sari intilish, intizomlilik, uyushqoqlilik, aktiv hayotiy pozitsiya va boshqa).

2. **Ikkiichi grupp shaxs belgisi:** uning o'z faoliyatiga bo'lgan munosabati bilan harakterlanadi (Mehnat qilish, so'z bilan ish birligi, bilim olishga intilish, madaniyatga intilish, mehnatda tashabbuskorligi va boshqa).

3. **Uchinchi grupp shaxs belgisi:** uning boshqa kishilarga bo'lgan munosabati bilan bog'liq (Kishilarni hurmat qilish, qardoshlik, tug'rilik, axloqiylik).

Shaxsning asosiy xislatlari, bular:

- onglilik;
- ma'naviy boylik;
- ijtimoiy munosabatlar;
- jamiyatga nisbatan nisbiy mustaqillik;
- javobgarlik.

Insonning ijtymoiy sifatlarini belgilovchi omillar:

1) ijtimoiy maqsadi:

- a) egallab turgan maqomi;
- b) bajarayotan ijtimoiy roli;
- v) normalar va qadriyatlar;
- madaniyat;
- inson foydalanadigan belgilar tizimi;
- bilimlar;
- bilim va maxsus tayyorgarlik darajasi;
- ijtimoiy-psixologik o'ziga xosliklar;
- yechimni qabul qiladigan mustaqillik;
- faollik.

²³ Гегел Г.В. Философия права. Москва, «Мысль», 1990, с.113.

Bugungi kunda, ayniqsa Iilom Karimov 2000 yil Oliy Majlis 2-chaqiriq 1-sessiyasining 2-yig'ilishida (11 fevraldagi) rahbar kadrlar quyidagi xislatlarga ega bo'lishini alohida ta'kidlagan edi²⁴:

1. Shaxsiy xislatlar:

- 1) ijtimoiy manfatlarni uz shaxsiy manfatidan yuqori qo'yishi;
- 2) adolatlilik;
- 3) o'z qo'l ostidagilarga hurmat bilan qarash;
- 4) mehnat jamoasida qulay psixologik munosabatni vujudga kel-tirish
- 5) odamlar bilan osonlikcha til topisha bilish;
- 6) umumiy madaniyat saviyasining yuksakligi;
- 7) bosiq bo'lish;
- 8) o'ziga ishonch va hokazo.

2. Amaliy xislati:

- 1) fikrining tiniqligi;
- 2) yangilikni qabul qila bilish;
- 3) tashabbuskorlik qobiliyati;
- 4) tashkilotchiligi;
- 5) o'z so'zi ustidan chiqa bilish;
- 6) puxtaligi va hokazo.

3. Professional, xislati:

- 1) ishlab chiqarishni bilish;
- 2) kadrlarga e'tibor;
- 3) o'z malakasini oshirish;
- 4) ishbilarmonlik va hokazo;

Jamiyat va individning integrasiyalashuv jarayoni va ijtimoiy birliklarining turli tiplari ham mavjud bo'lib, bular:

- 1) guruh;
- 2) ijtimoiy institutlar;
- 3) ijtimoiy tashkilotlar va boshqalardan iborat.

Shaxsning asosiy sotsial sifatlari konkret sotsial guruhlar, jamoalar faoliyati va munosabatidan tarkib topadi. Shu sababli **shaxsning sotsial sifatlari 3 ta kichik tizimdan iboratdir:**

1. Shaxsning individualligi.
2. Shaxslararo munosabatlari.
3. Munosabatlar sub'ekti.

1. **Shaxsning individualligi** undagi harakter, irodadunyoqarash, faoliyat jarayonidagi ba'zi bir xususiyatlar bilanelgilanadi. Undagi individual xususiyatlaruning amaliy faoliyatida namoyon bo'ladi.

2. **Shaxsning shaxslararo munosabati**, avvalo shu munosabatlar sistemasi elementlaridan biri ekanligini bildiradi. Shaxslararo munosabat shaxs rivojlanishining, uning komil inson sifatida tarkib topishining asosi sifatida xizmat qiladi, shu sababli shaxsning shaxslararo munosabatlar shaxsda

²⁴ Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Т.8. Т.: «Ўзбекистон», 2000, 358–361-бетлар.

insoniylik, poklik, rostgo'ylik, samimiylik kabi xislatlarning shakllanishida va takomillashuvida alohida o'ringa ega.

3. **Munosabatlar sub'ekti.** Shaxsning ijtimoiy munosabatlar sub'ekti sifatida mavjud bo'lishi uning shu munosabatlardagi sub'ekt sifatidagi maqomini belgilaydi.

Shaxs ma'lum sotsial xususiyatli hodisalarning oqibatigina emas, balki sababi hamdir. Har bir shaxsning sotsial sifatlari uning amaliy faoliyatining mazmun va harakterini belgilaydi. Aynan faoliyat jarayonida kishi atrofdagi muhitning o'ziga xos xususiyatlarini ishlab chiqadi. Sotsial xususiyatlar shaxsning ichki holat ta'sirida uning faoliyatida o'rab turgan voqelikka shaxsiy munosabat sifatida namoyon bo'ladi. Sotsial xususiyatlar bu ma'lum sotsial muhit sharoitlarida individlar orasidagi o'zaro ta'sirlar jarayonida yuzaga kelgan aloqalar tizimidir. Shaxsning sotsial xususiyati kishining faoliyati, xatti-harakatida, uning sotsial sifati shaklida ko'rinadi. Shaxsning sotsial sifatlarini tashkil etuvchi elementlarga (shaxs sotsial maqsadi):

- o'z faoliyati jarayonida amal qiluvchi norma va qadriyatlar;
- foydalanadigan belgilar tizimi;
- o'z rolini bajarish va tashqi dunyoga nisbatan erkin harakat qilish uchun yordam beruvchi bilimlar majmuasi: bilim va qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi kiradi.

Shaxs sotsiologiyasida shaxs manfaati alohida o'ringa ega. **Shaxs manfaati** - bu individ faoliyatining u yoki bu ehtiyojini qondirish bilan bog'liq yo'nalganligidir. Manfaatlar asosida kishilarning ehtiyojlari yotadi. Ular sotsial qonunlar talablarini ifodalaydi, buning natijasida manfaat ehtiyojini anglashda muhim rol o'ynaydi. Manfaatning 4 turi mavjud:

1. **Munosabat manfaati:** - shaxs faoliyatida u yoki bu ob'ektdagi voqea va hodisalarga nisbatan qiziquvchanligini anglatadi. Munosabat manfaati 2 ko'rinishda kechadi: a) asosiy munosabat manfaati - bu shaxsning hayotida maqsad va vazifasini, harakatlarini o'z ichiga oladi. b) yordamchi yoki ikkinchi darajali munosabat manfaatidir. Bu shaxs faoliyatining maqsad va vazifalaridan tashqari uning boshqa voqelikka qiziqishini bildiradi.

2. **Harakat manfaati:** - shaxsning u yoki bu faoliyatida qatnashishi-da ko'rinadi. Aktiv yoki passivligini bildiradi. Harakat manfaati: a) maqsadli va b) maqsadsiz bo'lishi mumkin. (boshlang'ich faoliyati bilan cheklanib qolgan, tor doiradagi harakat).

3. **Tayanch manfati:** - shaxsning boshqa shaxslar, guruhlar bilan uzoq sotsial ta'sirlashuvida shakllangan va turli vaziyatlarda o'z yo'nalishini saqlab qolgan manfaatdir. Shaxslararo va guruhlararo munosabatlarda shakllanadi..

4. **Yunalish manfaati:** - bu yo'nalish manfaatlar ichida juda murakkab bo'lib u shaxs manfaatlaridan birini tanlashi bilan bogliq.

Demak, shaxsning tipi u yashaydigan jamiyatning ijtimoiy tuzilishiga bog'lik. Shaxsning shakllanishini belgilovchi omillar quyidagilardan iborat:

- 1) Ijtimoiy siyosiy tuzum.
- 2) Tarbiya va maorif tizimi.
- 3) Turmush.

- 4) Mehnat faoliyati.
- 5) Ijtimoiy faoliyat.
- 6) Oila va boshqalardir.

9.2. Shaxs ijtimoiylashuvining ikki fazasi, ijtimoiy faoliyat hamda o'z-o'zini anglash holati

Shaxs shakllanishida uni o'rab turgan muhit va u intiladigan madaniy-ijtimoiy ideallar hamda bajarilishi lozim bo'lgan vazifalarining ham ahamiyati kattadir. Bunday hodisani fanda insonning ijtimoiylashuvi yoki sotsializasiya yo'li bilan shaxsga o'tishi, deb atash qabul qilingan. Buni izohlaydigan ko'pgina qarashlar mavjud.

Ijtimoiylashuv umumiy ma'noda insonning bio va ruhiy ehtiyojlariga maqsadga muvofiq, oqilona ta'sir o'tkazishdir. Buning oqibatida inson shaxsi qaror topishining ikkinchi tomoni – uning sub'ektiv «MEN»i ham shakllanadi. Shaxsning «MEN»i ota-onalari, qarindosh-urug'lar, tanish-bilishlar, mahalla-kuy va boshqalardan o'zlashtiradigan sifatlardir. Bu sifatlari aniq olingan joyi va vaqtiga ko'ra ijobiy yoki salbiy shaxsiy xususiyatlar tarzida shakllanishi mumkin. Ijobiy holatda shaxsda o'zi to'g'risida odillik, epatchilik, qobiliyatlilik, uddaburonlik kabi tasavvurlar tug'ilsa, salbiy holatda uning layoqatsizligi, noshudligi, zaifligi kabi xususiyatlari qaror topishi mumkin. Albatta, bu xususiyatlar inson sub'ektivining o'z «MEN»i to'g'risidagi fikrlaridir. Ularning voqelikka muvofiq kelishi, ya'ni haqiqiymi yoki yo'qligi masalasini ham nazardan qochirmaslik lozim.

Sub'ektiv «MEN» yuzaga kelishi bilan nisbiy mustaqillik tarzini oladi va shaxs sifatida o'zini ko'rsata boshlaydi. Shu bilan birga shaxs «MEN»i doirasida uning ikkinchi jihati-boshqalarning bu «MEN»ga bo'lgan munosabatiga javoblari masalasi kuzga tashlanadi. «MEN»ning bu jihati o'zga harakatlari, fikr-o'y, siyosiy mavqei, turmush tamoyillari va hokazolar to'g'risida jamoatchilik fikrlarini hisobga olish yoki olmaslik bilan bog'liq holatlar ifodalanadi.

O'zga «MEN» quyidagi holatlardan tashkil topadi. Bular-boshqalarning aynan shu shaxs to'g'risidagi qarashlari asosidagi fikrlar; Ayni shu shaxsning xatti-harakati va faoliyatini boshqalar tomonidan baholash bilan bog'liq omillar; boshqalarning qarashlari va bergan baholariga javoban qoniqish, g'urur, o'ziga ishonchining kuchayishi, o'zini bekamu ko'st deb xisoblash, uyalish, afsuslanish, ehtiyotkorlikka moyillik kabi holatlardir. Shaxsning ob'ektiv «MEN»i bilan uning to'g'risidagi «o'zga MEN» bir-birini to'ldirgandagina insonning ijtimoiy tabiati haqidagi fikrlar ham to'laroq bo'ladi.

- Jamiyat va shaxs maqsadlari orasidagi bog'lovchi u yoki bu sotsial tizim bo'lishi mumkin. Demak:

Shaxsning ijtimoiylashuvi deb, shaxsning jamiyatga, sotsial jamoalarning turli, tiplariga madaniyat elementlari, sotsial norma va qadriyatlarni o'zlashtirish orqali sodir bo'ladigan jarayon (ijtimoiylashuv deb ataladi)ga aytiladi.

Shaxsning (individdning) sotsial tashkilot elementi bo'lishi 2 muhim jihatga bog'liq: 1) sotsial tashkilotning shaxsga ta'sir etishi bilan qobiliyatining shakllanishiga va 2) shaxsning boshqa odamlar ta'siriga berilishi bilan qobiliyatining shakllanishiga bog'liq.

Shaxs ijtimoiylashuvning 2 fazasi mavjud:

1. **Sotsial adaptasiya (moslashish).** Bunda individdning sotsial sharoitlarga, funksiyalarga, sotsial normalarga, sotsial guruhlariga, tashkilot va institutlarga, ya'ni muhitga moslashishdir. Sotsial adaptasiya jarayoni, asosan oilada boshlanadi va shakllanadi. Oiladagihar qanday munosabatlar shaxsning ijtimoiylashuvida o'z aksini topadi. Shu boisdan individdningshaxs sifatida shakllanishida oila asosiy rol o'ynaydi.

2. **Sotsial interiorizasiya**, ya'ni sotsial norma va qadriyatlarning individd ichki dunyosiga kirishish jarayonidir. Shaxs sotsial muhitga qorishib ketmaydi, balki unga mustaqil birlik sifatida kiradi, Ko'pgina nazariyalarda shaxsning ijtimoiylashuvi, tashqi ta'sir ob'ekti sifatidagina qaraladi. Bu nazariyalarda asos qilib faqatgina ijtimoiylashuv yordamida sotsial o'zgaradigan insonning tabiiy mohiyati olinadi; shaxsning aktivligi va unga beriladigan biologik xususiyatlar hisobga olinmaydi.

Ijtimoiylashuv shunga asoslanadiki, odam ijtimoiy faoliyatchi sifatida o'zi va ham ijtimoiy hayotining, hamda sharoit va vaziyatlarini belgilovchi omildir. Shaxs sotsial ta'sirlanishning ob'ekti va sub'ektidir. Ijtimoiylashuv jarayonida belgilar tizimi muhim ahamiyatga ega. Belgilar yordamida jamiyat individdlar faoliyatini boshqaradi. Individd sotsial faoliyat kursatish uchun sotsial jamoada qabul qilingan belgilar va ularni ishlatish usullarini o'zlashtirgan bo'lishi kerak.

Individd faoliyat qiluvchi mavjuloqtdir. U tashqi muhitga shunchaki javob bermaydi, balki amaliy faoliyat jarayonida ham inson sifatidagi o'zining taraqqiyotva faoliyati qonuniyatlarni angelaydi va anglash asosida o'zining sotsial faoliyatini belgilaydi. Shaxs tomonidan o'z faoliyatini boshqarish faqat ob'ektiv va sub'ektiv qonuniyatlarni bilishgina emas, balki shu qonuniyatlarni, uning elementlarini, xususiyatlarini ham bilishni taqozo etadi.

Shaxslarning sotsial faoliyati va sotsial harakatining boshlang'ich nuqtasi ma'lum ehtiyoj va manfaatlarni yuzaga keltiruvchi ob'ektiv hayot sharoitlaridir. Faoliyat turlari ko'p, lekin eng muhimi ularning barchasi shaxsning moddiy va ma'naviy asosini tashkil qiluvchi, ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, ehtiyojlar shaxsning tashqi muhitga ob'ektiv bog'liqligini bildiradi. Shu sababli shaxsning amaliy faoliyat ehtiyojlarni qondirish shakli sifatida qaralishi ob'ektiv sharoitlarning in'ikosi va ularni qondirishning real imkoniyatlarini anglash sifatida qaralishi mumkin.

Ehtiyojlarining 2 ko'rinishi mavjud: **1) tabiiy va 2) jamiyat tomonidan paydo qilingan ehtiyojlar.**

1) **Tabiiy ehtiyojlar** sifatida kishilarning kundalik ehtiyojlari: ovqat, kiyim, turar-joy va boshqalar tushuniladi.

2) Sotsial ehtiyojlar esa odamning mehnat qilish ehtiyoji, sotsial aktivligi, ruhiy madaniyati, ya'ni nima ijtimoiy hayotmahsuli shunga bo'lgan ehtiyojdir. Tabiiy ehtiyojlar asos bo'lib, ularda sotsial ehtiyojlar paydo bo'ladi, rivojlanadi va qoniqtiriladi.

Shaxsning ijtimoiylashuv davri: quyidagilar asosida kechadi:

1) Bolalik:

- agentlar va ijtimoiylashuv turlari.

2) Ota-onalik:

- otalar va bolalar: ikki dunyo;

- «otalar va bolalar» munosabatlarining mutanosibligi.

3) Uspirinlik:

- qadriyatlarparallel tizimi.

4) Balogat yoshi:

- voyaga yetgan inson maqomining asosiy mezoilari;

- voyaga yetganlar - shaxs ijtimoiylashuvining faol payti.

5) Keksalik:

- ijtimoiylashuv ushbu davri maqomi va muammolar.

Ijtimoiy faoliyatva ijtimoiy fe'l-atvor mexanizmlari:

1) Faoliyat turlari.

2) Ehtiyojlar:

- tabiiy ehtiyojlar;

- biologik ehtiyojlar;

- ijtimoiy ehtiyojlar.

3) Ijtimoiy faoliyatni asoslovchi mexanizmlar:

- ehtiyojlar;

- qadriyatlar;

- manfaatlar va ularning o'zaro ta'siri;

4) Ijtimoiy nazorat.

5) Sanksiyalar.

6) Ijtimoiy buyruq.

7) O'z-o'zini nazorat.

8) Tashqi nazorat.

9) Jamoatchilik fikri.

10) Deviant (jinoiy bo'lmagan) fe'l-atvor.

11) Delinkvent (jinoiy) fe'l-atvor.

12) Shaxsning muhim ijtimoiy-psixologik xislati - o'z-o'zini anglash kabilardir.

Umuman ijtimoiy muhit ta'siri ostida shaxsning shakllanish jarayonini tasvirlash uchun «ijtimoiylashuv» tushunchasi XIX asr oxirida - paydo bo'ldi. Ijtimoiylashuv deganda shaxsning o'z hayot mobaynida o'zi mansub bo'lgan jamiyatning ijtimoiy me'yorlari va madaniy qadriyatlarini o'zlashtirish jarayonini tushuniladi. «Ijtimoiylashuv» tushunchasi «shaxsni tarbiyalash», «shaxsni shakllantirish» tushunchalari bilan chambas bog'liq, biroq u kengpoq

tushuncha bo'lib, insonga barcha mumkin bo'lgan ta'sirlarni qamrab olishga imkon beradi.

Siyosiy ijtimoiylashuv individ tomonidan o'zining siyosatga qo'shiluvini ta'minlovchi siyosiy bilimlarni, qadriyatlarni, me'yorlarni, qoidalarni, xatti-harakat odobini o'zlashtirish jarayonidan iboratdir.

XX asr 90-yillarning boshlarida siyosiy ijtimoiylashuv jarayoniga hokimiyat muassasalariga ishonchning yo'qolishi, ularni siyosatida shaxsan qatnashishni istamaslik, buzg'unchilik, siyosiy norozilikning quporuvchilik usullari katta ta'sir ko'rsatib keldi. Rasmiy siyosat ko'pincha ko'pchilik kishilar uchun ma'naviy tayanch bo'lmay qolgan edi.

Turmush tarzidagi, ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlar shaxs mavqeini ancha murakkablashtirdi. Iqtisodiy jarayon xarakterida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Yangi texnologiyalarning joriy qilinishi jiddiy o'zgarishlarga olib kela boshladi. O'tmishda siyosiy ijtimoiylashuv ikki tamoyil qarama-qarshiligi asosida kechdi:

1) Shaxsning ijtimoiy rivojlanishiga, uning siyosatda faol qatnashishiga jiddiy ijtimoiy ehtiyoj borligi ma'lum bo'ldi.

2) Ikkinchi tomondan inson hokimiyatdan, uning tashkilotlaridan siyosiy begonalashuvga olib kelgan edi.

Begonalashuv turlari:

1. **Iqtisodiy begonalashuv:** a) faoliyatdan begonalashuv; b) faoliyat boshqaruvdan begonalashuv; v) faoliyat natijalaridan begonalashuv.

2. **Siyosiy begonalashuv:** Siyosiy hokimiyatdan begonalashuv.

3. **Madaniy begonalashuv:** ma'naviyatdan, madaniyatdan begonalashuv.

4. **Ijtimoiy begonalashuv:** muloqotdan, insonlarning bir-biridan begonalashuv.

5. **Ruhiy begonalashuv:** o'z-o'zidan begonalashuv, o'z mohiyatidan uzoqla-shuv.

Shaxsni siyosatga tortish mexanizmi murakkab va ko'p bosqichlidir. Siyosiy ijtimoiylashuv davrida shaxsga ham anglashilgan, ham tashqi muhitning tabiiy ta'siri bo'ladi.

Shaxsning dastlabki ijtimoiylashuvi uning kelib chiqishi bilan bog'liq. Inson ongiga oila katta ta'sir ko'rsatadi. Mashg'ulot turi, turmush darajasi, ma'lumoti, siyosiy io'nalishi kabi omillar ta'sir qiladi.

Siyosiy ongni qayta qurishkupincha ilgari qoidalarni o'zgartirish natijasida yuz beradi. Siyosiy ong shakllanishida:

Siyosiy madaniyat o'sishi:

- turli, siyosiy tashkilotlar faoliyati;
- ommaviy axborot voistalari;
- norasmiy guruhlar;
- korxona jamoatlari;
- uyda yashovchilar;
- siyosiy partiyalar;
- kasaba uyushmalari;
- yoshlar tashkilotlari katta ta'sir ko'rsatadi.

Siyosiy ijtimoiylashuvda mafkura katta rol o'ynaydi. Shaxs siyosiy ijtimoiylashuvda siyosiy ong tuzilishi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ehtiyojlar va ijtimoiy kuzatishlar tizimini shakllantirish;
- o'z ijtimoiy guruhinitenglashtirish;
- o'z manfaatlarini anglash;
- siyosiy faoliyat imkoniyatlariga baho berish;
- ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar va dasturlar tizimini qabul qiladi.

O'z-o'zini anglash: o'z-o'zini anglashda iqtisodiy, siyosiy, huquqiy axloqiy va madaniy muhitning ta'siri katta. O'z-o'zini anglash millatlar uchun siyosiy onglikning oshishigina emas, shu millat birga milliy mustaqillik va milliy ozodlik hamdir. O'z-o'zini anglash jahon tarixida ozodlik harakatlarning kuchayishiga, sotsializm va imperializning yemirilishiga, parchalanishiga olib keldi. Portugaliya, Ispaniya, Gollandiya, Angliya, Fransiya, sobiq SSSR kabi imperiya davlatlari o'z mustamlakalaridan mahrum bo'ldi. O'zbek millatining o'z-o'zini anglashi moddiy kuch sifatida millat sha'ni, qadr-qimmat, obro'-e'tibori, or-nomusi tiklanishiga olib keldi. O'z-o'zini anglash millatning moddiy va ma'naviy manfaatlarini himoya qilishdir. Mustaqillik sharoitida o'zbek xalqning o'z-o'zini anglashini rivojlantirish davlat siyosati darajasigacha ko'tarildi.

O'zbekiston Konstitusiyasida shaxsning huquq va erkinliklari (24-31 - modda) o'z ifodasini topdi: 1) siyosiy huquqlar 2) Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar 3) inson huquqlari va erkinliklari kafolatlanishi 4) fuqarolar burchlari o'z ifodasini topgan.

Sotsial o'zaro ta'sir va munosabatlarning birlamchi agenti bo'lib shaxs hisoblanadi. SHaxsning kim ekanligini bilish uchun "inson", "indivud", "shaxs" tushunchalarining chegaralarini aniqlab olish kerak bo'ladi. "**Inson**" tushunchasi hamma kishilarga xos bo'lgan umumiy sifat va qobiliyatlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Bu tushuncha dunyoda inson zoti deb atalmish shunday o'ziga xos tarixiy jamoa mavjudligini anglatadi. Bu insoniyat qolgan hamma moddiy sistemalardan o'ziga xos hayotiy faoliyat usuli bilan farq qiladi. Insoniyat o'ziga xos moddiy reallik sifatida mavjud bo'ladi. Ammo insoniyat bu kabi yashay olmaydi. Konkret odamlar yashaydi va harakat qioadi. Insoniyatning konkret vakillarining bo'lishi individ tushunchasi orqali ifodalanadi. **Individ** – bu insoniyatning hamma sotsial va psixologik xususiyatlari: aqd, idrok, ehtiyojlar va boshqalarning konkret tashuvchisi, insoniyat urug'ining yagona vakilidir. Bu holatda individ tushunchasi "konkret kishi" ma'nosida ishlatiladi.

SHaxs–insonning nisbatan ijtimoiy-tarixiy va ontogenetik rivojlanishining mahsuli, maxsus insoniy tuzilma. Insonning biologik tabiati uning sotsial dunyosining rivojlanish bazasidir. Insonning ongi ham, insonning ehtiyojlari ham ijtimoiy munosabatlar orqali yaratiladi, bu individning tug'ilganidan boshlanib va to o'limigacha davom etadi.

Individning jamiyatga qo'shilishi turli sotsial jamoalar orqali amalga oshiriladi. Har bir alohida kishi sotsial guruhlar, sotsial muassasalar, sotsial institutlar, jamiyatda hukmron norma va qadriyatlar ya'ni madaniyatlar orqali shakllana boshlaydi. Buning natijasida individ ko'p miqdordagi turli darajadagi

sotsial tizimlarga qo'shiladi, ularning har biri oila, do'stlar davrasi, ijtimoiy muassasalar, ishchilar guruhi, milliy jamoalar va hokazolar unga ta'sir o'tkazadi. SHunday qilib inson mazkur sistema strukturalarining qismiga, ularning elementlariga aylanadi.

Hamma psixologik fanlar ijtimoiy sababiylikdan va shaxs faolligi prinsipidan kelib chiqadilar. Mana shu erda ijtimoiy psixologiya nuqta qo'yadi, keyin esa o'zining sotsial-psixologik muammolarini echishga kirishadi. Sotsial psixologiya esa umumiy psixologiya tomonidan ishlab chiqilgan shaxs ta'rifidan foydalanib, shaxs qaysi konkret guruhlarda, birinchidan, sotsial ta'sirini (uning qaysi faoliyat tizimi orqali) o'zlashtirishini, ikkinchidan, o'zining sotsial mohiyatini (o'zaro faoliyatning qaysi konkret turi orqali) amalga oshirishini tushuntiradi. Bu yondashuv aynan sotsiologik yondashuvdan farq qiladi. Sotsiologik yondashuv qanday qilib sotsial-tipik xususiyatlari shakllanadi, nima uchun shaxs hayot faoliyatining bir xil sharoitlarida ular katta hajmda ifodalanadi, nima uchun boshqa sharoitlarida qandaydir boshqa sotsial-tipik xususiyatlar insonning mazkur sotsial guruhga, sotsial muhitga tegishliligidan qat'iy nazar paydo bo'lishini ko'rsatib beradi. SHunga muvofiq sotsiologiyada asosiy e'tibor shaxsning sotsial tiplarini (faoliyat tiplarini) sotsial sifatlarini aniqlashga qaratiladi. Aynan sotsiologik o'rganadigan alohida individlar faoliyati va ong strukturasida sotsial tizim, jamoa, guruhlarining umumiy va o'ziga xos sifatleri namoyon bo'ladi.

Bundan kelib chiqib, shaxsni individning boshqa kishilar bilan bevosita va bilvosita o'zaro ta'siri jarayonida jamlanadigan va o'z navbatida uni mehnatning, anglashning va muloqotning sub'ektiga aylantiradigan individning sotsial xususiyati, unda yaxlitlangan sotsial ahamiyatli xususiyatlarning majmuidir, deb ta'riflash mumkin.

SHaxsni tushunishdagi bunday yondashuv maqsadga muvofiqdir. CHunki, u insonni o'zida turli sotsial-tipik belgilarni mujassamlashtirgan ma'lum jamiyatning, sotsial jamoaning, guruhlarining vakili sifatida namoyon bo'ladigan sotsiologik xususiyatni ifodalaydi.

SHaxsning sotsiologik konsepsiyasi bir qancha turli nazariyalarni o'z ichiga oladi. Ularning hammasi shaxsni u yoki bu sotsial omillarning ta'siri ostida shakllangan o'ziga xos tuzilma ekanligini tan olishadi. Muammoni bu kabi qo'yish shaxsni faqat sotsiologiya nuqtai nazaridan tahlil etishga olib boradi. Bu yondashuvning ildizlari sotsial falsafa ildizlariga borib taqaladi.

SHaxsning sotsiologik konsepsiyasi XIX asrning ikkinchi yarmi -XX asrning boshlarida rivojlana boshladi. Umumiy shaxsning sotsiologik nazariyasiga bo'lgan ehtiyoj doimiy o'zaro munosabatni, boshqacha aytganda, sotsial makrostrukturada sodir bo'layotgan jarayonlarni belgilaydigan doimiy o'lchamni topish kerakligini tushunishdan kelib chiqadi. Individlar va jamiyat o'zaro ta'siridagi bu jarayonlarni tushuntirayotib, biz har doim bu individning xususiyatlarining qandaydir tashkiliy butunligini topamiz, u jamoalardan kelib chiqadigan ta'sir va stimullarni "boshqacha tushunadi" va muhitga insonning reaksiyasini qat'iy ravishda aniqlaydi.

XIX asrning 30-yillarida sotsiologiyada ilmiy yo‘nalish strukturaviy yo‘nalish (yoki oddiy aytganda funksionalizm) paydo bo‘ldi. Bu yo‘nalishning asoschilari bo‘lib, E.Dyurkgeym, A.R.Redkliff-Braun (1881-1995) va boshqa tadqiqotchilar bo‘lishgan. Bu ilmiy maktab turli holatlarda kishi o‘zini qanday tutishi to‘g‘risidagi normalarni tadqiq qilishni boshladi. Funksionalizm rol deb ataladigan institutsional normalar muammosiga asosiy e‘tiborni qaratdi. Funksionalistlar fikricha, sotsiologiyada sotsial taxlilning birligi harakat qilayotgan individ emas, balki roldir. Turli guruhlardagi har bir kishi qandaydir ma‘lum maqomga ega bo‘ladi. Bu maqomlarda xatti-harakat namunalari ko‘rsatilgan bo‘ladi. Bunda individ a‘zo bo‘lgan guruh individidan ushbu namunalarga mos keladigan xatti-harakatni kutadi. SHu asosda biz otaning, onaning, do‘stning roli to‘g‘risida gapirishimiz mumkin.

SHunday qilib, sotsial rolni guruh o‘z a‘zolaridan kutayotgan qat’iy ko‘rsatilgan namunalarga muvofiq chiqadigan, xatti-harakatlarning nisbatan doimiy va ichki aloqali tizimi sifatida ta’riflash mumkin.

Agar biz mazkur tushunishdan kelib chiqadigan bo‘lsak, individning hatti-harakat rolini insonning turli sotsial birliklarda bajarayotgan funksiyasidan kelib chiqib tahlil qilish mumkin. SHuning uchun amerikalik olimlar Jan Moreno (1892-1974) va Robert Merton (1910t) shaxsni individ jamiyatda bajaradigan sotsial rollar majmuining funksiyasi sifatida ta’rifladilar.

Rollarni amalga oshirish jarayoni ko‘pgina omillarga bog‘liq:

- insonning biopsixologik imkoniyatlari. Ular u yoki bu sotsial rollarni bajarishga imkon berishi yoki imkon bermasligi mumkin.

- ideal xususiyatlar kompleksini belgilaydigan shaxs o‘rnaklari. Individ bu o‘rnaklarni rollarni bajarish chog‘ida, hamda individidan guruh kutayotgan hatti-harakatning ideal usullarni namoyon etishi kerak.

- guruh tomonidan qabul qilingan rollar va sotsial nazorat xarakteri.

- guruh strukturasi, uning mustahkamligi va individning o‘sha guruh bilan mos kelish darajasi.

Garchi sotsial rol sotsiologik tahlilning yagona birligi deb hisoblanmasada, (chunki u individarning o‘zaro harakatidan kelib chiqadi) lekin rol jamiyatdagi institutsional munosabatlarni o‘rganishda juda foydali hisoblanadi.

SHaxs konsepsiyasidan interaksionistik yondoshuv metodologik prinsiplarga asoslanadi. Bunga binoan na shaxs omillari, na tashqi muhit, agar ularni alohida qaraladigan bo‘lsa, inson xatti-xarakatini to‘la darajada tushuntirib bera oladi. Inson xatti-harakatining asosiy determinantlari (belgilovchilari) sifatida bu omillar o‘rtasidagi doimiy o‘zaro ta’sir namoyon bo‘ladi. O‘zaro harakat jarayoni olimlar tomonidan har doim bir xil tushunilmaganligidan, interaksionizm doirasida cheklangan qo‘llash nazariyasi deb ataladigan bir nechta turli yo‘nalishlar paydo bo‘ldi.

Nemis-amerika psixologi K.Levin (1890-1947) 1936 yilda shaxsning muhit bilan o‘zaro harakati prinsipga muvofiq u muhitni fizik (tabiiy) va psixik muhitlarga bo‘ladi. Levin fikricha, xatti-harakat na o‘tmishga, na kelajakka bog‘liq, u hozirgi muhitga bog‘liq bo‘ladi. Levinning aytishicha, tabiiy va

sotsial muhit sub'ekt uchun psixologik fenomenlar ko'rinishida real namoyon bo'ladi. SHuning uchun har xil individlar uchun ob'ektiv muhit uning shaxsiy muhimligidan qat'iy nazar turli tuman bo'ladi. Bu erda psixologik reallik shaxsning muhit bilan o'zaro harakatida ko'proq ahamiyatga ega.

Amerikalik sotsiolog E.Merreyning shaxs konsepsiyasida individning muhit bilan o'zaro ta'sir muammosi tahlil qilinadi

Merrey muhitning xossasini "bosim, tazyiq" tushunchasi bilan belgilaydi. SHaxsning muhit bilan o'zaro ta'sirini tadqiq qilishda asosiy birliklar bo'lib, ehtiyojlarning turli birikuvlari va sotsial muhitning ta'siri hisoblanadi.

Interaksionalizm g'oyasi shaxsning bixeviorizm va psixoanalitik nazariyalarida har xil namoyon bo'ladi. Bixevioristik maktabda interaksionizm g'oyalari amerikalik psixolog E.Tolmenning shaxs konsepsiyasida bayon qilingan. Bixeviorizmning ortodoksol tizimida "anglash (yoki pognetiv) kartalari" tushunchasi kiritilgan. Uning mohiyati shunga asoslanadiki, har bir shaxs muhitdan kelib chiqadigan stimullarga nafaqat mexanik ravishda javob qaytaradi, hamda ularni "karta maydoni" tajriba asosidagi shakllangan ongdagi stereotiplar bilan solishtiradi. SHunga muvofiq, inson muhit bilan o'zaro ta'sirda faollik va xatti-harakatning shaxsiy elementini yuzaga keltiradi.

Tolmenning fikrlari "haqiqiy" bixeviorizmning kognetiv psixologiya bilan ajralishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

SHaxsning psixoanalitik konsepsiyasi Z.Freyd fikrlarida yaqqolroq ifodalangan. Z.Freyd individ va jamiyat o'zaro ta'siri jarayonini sotsiopsixologik konflikt sifatida, shaxsni esa irratsional, g'ayriixtiyoriy mayllarining ansambli (uyg'un birlik) sifatida qaraydi. Freyd fikricha, sivilizatsiya o'zining taqiqlari va sanksiyalari bilan, bir tomondan, katta manfaat va zaruriyatdir, aks holda insoniyat seksual (jinsiy) va letal (o'limga olib boradigan) instinktlarga bo'ysunib, yashay olmagan bo'lardi. Ammo ikkinchi tomondan, sivilizatsiya inson uchun xavf va g'am tashvishdir, chunki mayllarning yanada ko'proq siqib chiqarilishi nevrozlarning rivojlanishiga, qoniqmaslik, xavotir, begonalashuv, anglanmagan munofiqlik va hokazolarning ko'payishiga olib keladi. Jamiyatga dizintegratsiya xavf solar ekan sotsializatsiya va sotsial nazoratga ehtiyoj bo'ladi.

Umuman shuni aytish mumkinki, shaxs konsepsiyasining zamonaviy interaksionizmi shakllanish pallasida turibdi, turli konsepsiya va nazariyalarning ta'sirini boshdan kechirmoqda.

SHaxs termini turli mualliflar tomonidan har xil tahlil etiladi. SHaxsga berilgan hamma ta'riflar 2 ta bir-biriga qarama-qarshi nuqtai nazarlar bilan u yoki bu darajada asoslanadi. Bir nuqtai nazar bo'yicha, har bir shaxs o'zining tug'ma sifatleri va qobiliyatlariga muvofiq shakllanadi va rivojlanadi. Sotsial muhit bu holatda juda ham kam rol o'ynaydi. Boshqa nuqtai nazar vakillari shaxsning ichki xususiyatlari va qobiliyatlarini to'laligicha inkor etishadi. Ularning fikricha, shaxs bu sotsial tajriba davomida to'laligicha shakllanadigan qandaydir mahsuldir. Ko'rinib turibdiki, shaxsning shakllanish jarayonidagi bu fikrlar unchalik absolyut to'g'ri emas. Fikrimizcha, shaxsni tahlil qilishda, ham tug'ma biologik xususiyatlarni, ham sotsial tajribani hisobga olish kerak. SHu

bilan birga amaliyotdan ma'lum bo'lishicha, shaxs shakllanishida sotsial omillar ko'proq ahamiyatga ega. V.YAdov fikricha, "SHaxs - bu inson sotsial xususiyatlarining butunligi, ijtimoiy rivojlanish mahsuli va individni aktiv faoliyati va muloqoti vositasida sotsial munosabatlar tizimiga qo'shilishidir".(Sotsiologiya. Slovar- spravochnik.M.1990 T 2.S-71). Bu qarashga muvofiq, shaxs biologik organizmdan faqatgina sotsial va madaniy tajriba tufayli rivojlanadi. Bunda shaxs xususiyatlarining shakllanish jarayoniga sezilarli ta'sir etadiki, shaxsdagi tug'ma qobiliyatlar, temperament va mayllar inkor etilmaydi.

SHaxs xususiyatlarining paydo bo'lishi va rivojlanishini tahlil etish uchun shaxsning shakllanishiga ta'sir etadigan omillarni quyidagi tiplarga bo'lamiz.

- 1) biologik irsiyat
- 2) tabiiy muhit
- 3) madaniyat
- 4) guruh tajribasi
- 5) ulkan individual tajriba

Bu omillarning shaxsga ta'sirini birma-bir ko'rib chiqamiz.

Biologik irsiyat; G'ishtli uyni toshdan qurish mumkin emas, ammo ko'p g'ishtlardan uyni, buning ustiga turli ko'rinishda qurish mumkin. Har qanday kishining biologik irsiyati xom-ashyo materiallarini etkazib beradi, ular keyinchalik har xil usullar bilan inson zoti, individ, shaxsga aylanadilar.

Hayvonlarning ko'pgina turlaridan farqli ravishda inson mavjudoti yilning hamma vaqtida jinsiylikni namoyon etadi, bu esa ko'proq yoki ozroq darajada bolalar tug'ilishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bola tug'ilganda yordamga muhtoj bo'ladi va hayotining dastlabki yillarid shunday holda qoladi. Bu kabi biologik faktlar insonlar sotsial hayotiga asos soladi. Bundan tashqari, inson monogam jinsiy hayot instinktiga ega bo'lmaydi va har qanday jamiyatda bu belgi oila instituti shakllanishiga va bolalar tarbiyasiga ta'sir qilib, har xil namoyon bo'ladi. Biologik irsiyat xususiyatlari havo, suv, ovqat, uyqu, xavfsizlik singari ehtiyojlarni o'z ichiga oladigan insonning tug'ma ehtiyojlari bilan to'ldiriladi. Agar sotsial tajriba asosan inson ega bo'lgan o'xshash umumiy xususiyatlarni tushuntirib bersa, biologik irsiyat ko'pincha shaxsning individualligini, uning boshqa jamiyat a'zolaridan dastlabki farqini tushuntirib beradi. SHu bilan birga, guruhiiy farqlanishni endi biologik irsiyat tushuntirishi mumkin emas.

SHu asosda biologik irsiyat shaxsni to'raligicha yarata olmaydi, chunki na madaniyat, na sotsial tajriba genlar orqali o'tadi. Ammo biologik omilni hisobga olish lozim. CHunki u birinchidan, sotsial jamoalar uchun cheklashlar (yordamga muhtoj go'dak, suv ostida uzoq tura olmaslik, biologik ehtiyojlar majmui va hokazo) yaratadi, ikkinchidan, biologik omil yordamida temperament, xarakter, qobiliyatlarning cheksiz turli ko'rinishlari paydo bo'ladi, ular har qanday kishi shaxsida individuallik, ya'ni takrorlanmas ulkan siymo vujudga keltiradi.

Tabiiy muhit;Ko'pgina olimlar shaxsning rivojlanishida tabiiy muhitga asosiy e'tibor qaratadilar. Mashhur sotsiolog P.Sorokin 1928 yilda chop etilgan asarlarida ko'pgina olimlarning – Konfutsiy, Aristotel, Gippokratdan tortib

o'ziga zamondosh bo'lgan geograf Elmiot Xantingtonlarning nazariyalarini boyitdi. Bu olimlarning fikri bo'yicha, shaxslar xulqidagi guruhiiy farqlar asosan iqlimdagi farqlar, jug'rofiy xususiyatlar va tabiiy resurslar bilan belgilanadi. Bu toifa olimlar qatorida faylasuf Plexanov va tarixchi A.N.Gumelyovlarni kiritish mumkin. Bu tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan nazariya etnomarkaziy, milliy ongni oqlash uchun yaxshi asos hisoblanadi. Lekin tabiiy omilning shaxs rivojlanishidagi asosiy ta'sirini oqlab ololmaydi. Haqiqatdan ham bir-biriga o'xshash tabiiy va jug'rofiy sharoitlarda shaxsning turli tiplari shakllanadi va aksincha ko'p hollarda o'xshash guruhiiy xususiyatga ega shaxslar turli tabiiy muhit sharoitlarida rivojlanadi.

Bunga bog'liq ravishda tabiiy muhit sotsial guruhning madaniy xususiyatlariga ta'sir etishi mumkin, lekin uning alohida shaxs shakllanishdagi ta'siri unchalik emas va shaxsga guruh madaniyatining, guruhiiy yoki individual jarayonning ta'siri bilan solishtirib bo'lmaydi.

Madaniyat; Sotsial muhit; Insonni o'rab turgan guruh, insonlar, madaniyat, urf-odat, din, iqtisodiy holat va b. nazarda tutiladi. Eng avvalo shuni aytish lozimki, ma'lum madaniy tajriba butun insoniyat uchun umumiy hisoblanadi va u yoki bu jamiyatning rivojlanishining qay darajasida turganligiga bog'liq emas. Masalan, har bir bola yoshi bo'yicha o'zidan katta kishilardan ovqat oladi, til orqali muloqot qilishga o'rganadi, jazo va mukofot qo'llash tufayli tajribaga ega bo'ladi va hamda bir qancha boshqa umumiyroq madaniyat namunalarini o'zlashtiradi. SHu bilan birga har bir jamiyat amalda o'zining hamma a'zolariga ma'lum o'ziga xos tajriba, boshqa jamiyat bera olmaydigan muhim madaniyat namunalarini hadya etadi. Mazkur jamiyatning hamma a'zolari uchun bir xil sotsial tajribadan o'sha jamiyatning ko'p a'zolari uchun xos bo'lgan shaxs qiyofasi paydo bo'ladi. Masalan, musulmon madaniyati sharoitlarida shakllangan shaxs xristian davlatida tarbiyalangan shaxsga nisbatan boshqa xususiyatlarga ega bo'ladi. Amerikalik tadqiqotchi K.Dyuboyshaxsni mavjud jamiyat uchun umumiy xususiyatga ega modallik deb atadi. ("moda" statistika terminidan olingan uzunlikni bildiradi, u ob'ekt parometrlari qatorida ko'p uchraydi). Modal shaxs deganda Dyuboysh butun jamiyat madaniyatiga xos bir qancha fazilatlarga ega bo'lgan ko'p uchraydigan shaxs tipini tushunadi. SHunday qilib, har bir jamiyatda o'rtacha rasm bo'lib qolgan xususiyatga ega shaxslarni topish mumkin. Modal shaxs o'zida madaniy tajriba davomida jamiyat o'zining a'zolariga singdirgan hamma umummadaniy qadriyatlarni mujassamlashtiradi. Bu qadriyatlar ko'proq yoki ozroq darajada mazkur jamiyatning har bir shaxsida mavjud bo'ladi.

Guruhiiy tajriba; Insonning biror guruh a'zosi sifatida oladigan tajribasi tushuniladi.

Individual tajriba deyilganda kishining o'z hoxish irodasi, intilishi qiziqishi orqali egallaydigan hayotiy tajribasi nazarda tutiladi.

Sotsializatsiya so'zi ijtimoiylashuv ma'nosini anglatadi. Sotsializatsiya jarayoni insonning jamiyatga qo'shilishi uchun jamiyatda mavjud bo'lgan va shakllangan hatti-xarakatlar, me'yorlar, qadriyatlar, madaniyat, din, tarbiya, bilim va malakalarni, urf-odatlarini o'ziga singdirib borishi va o'zlashtirishiga

aytiladi. Sotsializatsiya murakkab jarayon hisoblanadi va insonning butun umri davomida sodir bo‘ladi. Bu jarayon 2 davrga bo‘linadi:

1. Adaptatsiya – shaxsning jamiyatda mavjud bo‘lgan voqelikka ko‘nikishi yoki moslashishi;

2. Interiorizatsiya – shaxsning o‘z hoxishi, intilishi va irodasi orqali jamiyatga qo‘shilishi.

Sotsiologiyada sotsializatsiya davrlariga yana 2 yondoshuv mavjud.

1-yondoshuv. Sotsializatsiya jarayoni 3 davrga bo‘linadi:

1. mehnatgacha bo‘lgan davr

2. mehnat davri

3. mehnatdan keyingi davr.

2-yondoshuv. Sotsializatsiya jarayoni quyidagi davrlarga bo‘linadi:

1-davr – go‘daklik davri (1 yoshdan 4 yoshgacha)

2-davr – bolalik davri (4 yoshdan 10 yoshgacha)

3-davr – o‘spirinlik davri (10 yoshdan 13 yoshgacha)

4-davr – o‘smirlik davri (13 yoshdan 18 yoshgacha)

5-davr – mehnat davri

6-davr – mehnatdan keyingi-nafaqa davri

Sotsiologiyada shaxs haqida turli nazariyalar mavjud. Ulardan:

-CH. Kulining “Ko‘zgudagi “Men”” nazariyasi. Ushbu nazariya 3 tamoyilga asoslanadi:

1. SHaxs ma’lum xatti-harakatni amalga oshiradi.

2. O‘sha xatti-harakatga kishilar reaksiya bildiradi.

3. SHaxs shu reaksiyaga ma’qul keladigan xatti-harakatlarni amalga oshiradi.

CH. Kuli “ko‘zgu” deganda aynan atrofdagi insonlarni reaksiyasini nazarda tutgan.

-Amerika sotsiologi Djordj Midning “boshqalar tomonidan umumlashtirilgan” nazariyasi. Bu nazariyaga muvofiq kishi o‘z shaxsini, o‘z xatti-harakatini boshqalar nuqtai nazaridan, ya’ni o‘zini boshqalarning o‘rniga qo‘yib baholaydi.

-“Boshqalar uchun ahamiyatli” nazariyasining asoschisi amerika sotsiologi Xaller bo‘lib, bu nazariyaga ko‘ra kishining shaxsi to‘g‘risida boshqa ahamiyatli, obro‘li kishilarning munosabati xulosa chiqarishga imkon beradi. Masalan, ayrim kishilar uchun ota-onasining bergan bahosi, ba’zilar uchun esa o‘qituvchining, boshqalar uchun esa mansabdor shaxslarning bergan bahosi yoki munosabati uning shaxsi to‘g‘risida xulosa chiqarishga imkon beradi.

Shaxsning paydo bo‘lishi, uning jamiyatdagi o‘rni va mohiyati doimo sotsiologiya fanining muhim va baqs talab sohalaridan biri bo‘lib keldi. Insonning mohiyatini dastlabki o‘rgangan olimlar Xitoydagi Konfusiylar va uning izdoshari edi. Eramizdan ilgari 298-238 yillarda yashagan olim Sen-szi shunday deb yozgan edi: «Tug‘ma xususiyatlar - bu samoviy munosabatlar hosili bo‘lib, ularga ta’lim yoki ularni odamning o‘zi yaratishi vositasida erishib bo‘lmaydi. Inson yovuz tabiatga ega. Insondagi ezgulik manfaatlar uchun orttirilgan fazilatdir. Hozirgi inson tug‘ilishidan boshlab foyda olishga intiladi. Bu shunga

olib keladiki, kishilar o'zaro raqobatlashadilar va bir-birlariga yon bermaydilar. Shuning uchun ham tarbiya yo'li bilan inson tabiatini o'zgartirish, yaratilgan qoidalar asosida ta'lim berib, ularni adolatlilikka va mas'uliyatlilikka o'rgatish lozim.»²⁵

Abu Nasr Forobiy «Falsafatu Aristutolis» («Arastu falsafasi») asarida qadimgi yunon olimining inson haqidagi fikrlarini quyidagicha sharhlagan edi: «Arastu insonda, qayvonlarda bo'lmagan boshqa imkoniyatlar, ruh va ruhiy kuchlardan paydo bo'lolmaydigan sabab va asoslarni topadi. Inson tabiati va unda mavjud bo'lmish tabiiy kuchlarni tushuntirish borasida ular, faqat ruh faoliyati (harakatlari, ta'sirlari) ga qaraganda yuksakroq faoliyat (harakatlar) uchun moslashganlar, degan fikrga keladi...» Bu o'rinda Arastu, nega bunday bo'lishini o'rganishga majbur bo'ldi va inson nutq egasi ekanligini topdi, nutq esa aql bilan bog'liqdir.... Aqlning holati xuddi ruh va uning tabiiy holati kabi ekanligi, aql qismlarga yoki kuchlarga bo'linishi, inson mohiyat kasb etishiga vosita bo'luvchi faol (ta'sirchan) asos ekanligi xuddi tabiatda bo'lgani kabi u - aql o'z maqsadi (Qarazi) ning sabab va asosi ekanligi Arastuga ravshan bo'ladi.»²⁶

Insonning muhim xususiyatlaridan biri - uning ijtimoiy mavjudot ekanligidir. Inson o'zining eqtiyojlarini qondirish maqsadlarida o'zi kabi insonlar bilan birlashishga intiladi. Insonning ijtimoiylashuvi sun'iy xarakter kasb etib, u shaxs sifatida boshqa insonlar o'rtasidagina shakllana oladi. Agar u insoniy munosabatlardan holi bo'lsa, o'zidagi yovuzlik yoki hayvoniy tabiatidan xalos bo'la olmaydi. Insondagi bu tabiiy xususiyatni Abu Nasr Forobiy quyidagicha ifodalaydi: «Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi.... Shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarni bir-birlariga yetkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko'paydilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o'rnamshdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi.»²⁷

Shu bilan birga inson fikrlovchi mavjudotdir. U ko'rgan va eshitganlarini yodda saqlaydi, o'z xayoloti, tasavvurlash qobiliyati vositasida bilimlarni, ma'lumot va axborotlarni tahlil qiladi, umumlashtiradi, ularni transformasiyalaydi, boshqalarga uzatadi, bilim va tajribalarni takomillashtiradi, o'z maqsadlari, orzulari va istaklarini tasavvurlay oladi. Insondagi bu xususiyatlarni Ibn Sino shunday talqin etadi: «Inson umumiy qarashlarga nuqtai nazar bildirish va alohida narsalar to'g'risida fikrlash qobiliyatlariga egadir: u foydali yoki zararli ishni qilish va qilmaslik, go'zallik va xunuklikni farqlash, yaxshi va yomonni ajratish qobiliyatlariga ega. Ular qiyoslash va tafakkurlash

²⁵Antologiyamirovoyfilosofii. V 4-xt. - Moskva, 1969. T.1. Ch.1 S. 230-231.

²⁶ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shaqri. - Toshkent: A.Jodiriy nomidagi xalq meros nashriyoti, 1993, 102-bet.

²⁷ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shaqri, 186-bet.

vositasida shakllanadi.... Shunday qilib, inson ruhining birinchi kuchi aqliy mushohadaga taalluqli bo'lib, u aqliy tafakkur deb ataladi. Ikkinchi kuch esa tajribaga taalluqli bo'lib, u tajribaviy fikrlash, deb ataladi. Ular haqiqat yoki yolg'onni, shuningdek, xususiy narsalarga nisbatan yaxshi va yomonni aniqlash uchun xizmat qiladi.²⁸

Hozirgi davr sotsiologiyasida «inson» deganda Yerda yashayotgan mavjudot turlaridan biri tushuniladi. Inson alohida olingan tur (Homo sapiens) vakilini ifodolovchi umumiy tushunchadir. Inson, umuman inson zotining yiqi obrazi sifatida bioijtimoiy mavjudot bo'lib, u bir vaqtning o'zida ham tabiatga, ham ijtimoiy hayotga mansubdir. Gegel ta'biri bilan aytganda, «insonning o'zida bevosita mavjudligi qandaydir tabiiydir, bu uning o'z tushunchasiga binoan tashqidir; faqat o'ziga tegishli tana va ruhini takomillashtirish vositasida, mohiyatan o'zini o'zi anglashi sababli ham u o'zini erkin tutadi, u o'ziga o'zi egalik qilishga kirishadi va ham o'ziga, ham boshhalarga nisbatan bo'lgan munosabatlarda o'ziga o'zi egalik qiladi. Bu o'ziga o'zi egalik qilishga kirishish, shuningdek, bu holatni voqelik deb bilish shuni ko'rsatadiki, inson o'z tushunchasiga binoan (imkoniyat, qobiliyat, moyillik), endi o'zini o'ziniki deb bilishi, o'zini xuddi predmetdek hisoblashi - oddiy o'zini o'zi anglashdan farq qilib, u haqiqatda narsa (buyum) shaklida namoyon bo'la olish qobiliyatiga erishadi»²⁹

Individ esa inson zotining alohida olingan nusxasi, uning vakillaridan biridir. Shaxs esa u yoki bu inson sifatida namoyon bo'lib, u ma'lum va betakror individuallikka ega bo'ladi. Individning jamiyatga kirish jarayonlari uning ijtimoiylashuvini ta'minlaydi. Ijtimoiy munosabatlarga kirishish natijasida uning jamiyatdagi qadriyatlar va me'yorlarni o'zlashtirib borishi uchun zamin yaratadi. Bu jihatdan u ijtimoiy ta'sir ob'ektidir. Shuningdek, individ ijtimoiylashuv oqibatida jamiyatdagi turli munosabatlarda faollashadi va bunda u ijtimoiy munosabatlar sub'ekti sifatida harakatlanuvchi shaxsga aylanadi.

An'anaviy jamiyatlarda insonning yaratuvchilik ijodiy qobiliyati ancha chegaralangan edi. Chunki, an'anaviy jamiyatda mehnatning tabiiy taqsimoti va ixtisoslashuvi, shaxslararo munosabatlarning o'ta tabaqalashuvi, o'zaro harakatlar va munosabatlarni norasmiy muvofiqlashtirish, jamiyat a'zolarini bir-biriga tobelik, uruqchilik va qon-qarindoshlik munosabatlari bilan bog'liqligi, boshqaruvdagi primitiv tizimlar imtiyozsiz jamiyat a'zolarining faolligini cheklab qo'ygan bo'lib, bu holat shaxsning ijodiy faoliyat ko'rsatish va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yo'l bermas, o'zaro munosabatlarning esa biqiq bo'lishini taqozo etar edi.

Zamonaviy jamiyatning paydo bo'lishi bilan insonning ijtimoiy va siyosiy munosabatlardagi o'rni yuksalib bordi. Bu jamiyatlarda o'zaro munosabatlarning bir-biriga ta'sir etish darajasi va mehnat taqsimotining chuqurlashuvi - uning sekinlik bilan yuksak ta'lim va tajribaga, shuningdek, yuqori kasbiy malakaga asoslanishi, ijtimoiy munosabatlarning qonunlar,

²⁸ Ibn Sino (Avisenna). Izbrannie filosofskie proizvedeniya. - Moskva, 1980, s. 472-473.

²⁹ Gegel G.V.F. Filosofiya prava. - Moskva: Misl, 1990, s. 113.

me'yorlar, shartnomalar asosida muvofiqlashtirishning rasmiy tizimini shakllanishi, ijtimoiy boshqaruvning takomillashgan tizimini yaratilishi, dini davlat va boshqaruvdan ajratilishi, ijtimoiy institutlarning ko'payishi va rivojlanishi kabi omillar natijasida insonlararo munosabatlar yuksalib, siyosiy institutlarni nazorat etish, inson huquq va erkinliklarini himoya etish, jamiyatda tenglik o'rnatish imkoniyatlari paydo bo'ldi. XX asrga kelib eng takomillashgan va zamonaviy kishilik birliklari fuqarolik jamiyati, deb atala boshlandi.

Fuqarolik jamiyati g'oyasi oliy maqsad sifatida bir necha asrlardan beri yashab kelmoqda. Fuqarolik jamiyati shunday jamiyatki, unda aholining biron-bir guruhi boshqa bir guruhni o'ziga bo'ysundira olmaydi, shuningdek, erkaklar bilan ayollarni bir-biri bilan bo'qlab turuvchi ko'plab ijtimoiy, fuqaroviy, diniy, iqtisodiy, madaniy aloqa va munosabatlar yanada rivojlanadi. Bu g'oya 80-yillarda avj olgan demokratiyalashtirish jarayoni natijasida alohida mazmun kasb eta boshladi va u totalitar davlatlarga qarama-qarshi bo'lgan ijtimoiy andoza sifatida talqin qilina boshlandi.

Fuqarolik jamiyati shaxs uchun keng imkoniyatlar yaratib, unda har bir shaxs boshhalar bilan birlashishi yoki boshqalar bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsata olishi mumkin. Fuqarolik jamiyati shu tarzda inson ulug'vorligini yuksaklikka ko'taradi.

Hozirgi zamon rivojlangan mamlakatlarida barpo etilgan fuqarolik jamiyatlari to'g'risidagi tasavvurlardan kelib chiqadigan bo'lsak, u qolda fuqarolik jamiyati bu:

- avvalo, jamiyat hayoti faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarida ixtiyoriy ravishda shakllangan, boshlang'ich nodavlat tizimlarini o'z ichiga qamrab olgan insoniy birlikdir;

- ikkinchidan, jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, oilaviy, milliy, ma'naviy, aqloqiy, diniy, ishlab chiqarish, shaxsiy va nodavlat munosabatlar majmuasidir;

- uchinchidan, erkin individlar, ixtiyoriy ravishda shakllangan tashkilotlar va fuqarolarning turli davlat organlari tazyiqlari yoki bir qolipga solishlaridan qonunlar vositasida himoyalangan jamiyat bo'lib, unda ular o'zligini namoyon qila olishlari uchun doimiy imkoniyatlarga ega bo'ladilar.

Shu bilan bir qatorda, hozirgi davrda fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari shakllandi. Bular asosan quyidagilardan iborat:

Iqtisodiy sohada: nodavlat tashkilotlar; kooperativ-shirkatlar; ijara jamoalari; aksiyadorlik jamiyatlari; uyushmalar; korporasiyalarning mavjudligi.

Ijtimoiy sohada: oila; partiyalar, jamoat tashkilotlari va harakatlar; ish va yashash joylaridagi o'z-o'zini boshqarish organlari; nodavlat ommaviy axborot vositalari; jamoatchilik fikrini aniqlash, shakllantirish va ifoda etishning zamonaviy shakllari, ijtimoiy ixtiloflarni kuch ishlatmasdan, tazyiqsiz, qonunlar doirasida hal qilish amaliyotining mavjudligidir.

Ma'naviy sohada: so'z, vijdon va fikrlar erkinligi; o'z fikrini ochiq bildirishning real imkoniyatlari; ijodiy, ilmiy va boshqa uyushmalar mustaqilligining ham qonuniy, ham amaliy jihatlardan ta'minlanganligi.

Shuningdek, fuqarolik jamiyatining barharorligini ta'minlovchi shart-sharoitlar ham borki, ularsiz bu jamiyatning institutlari rivojlanmaydi. Bular jumlasiga jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlarning turlicha manfaatlarini ifoda etuvchi rivojlangan ijtimoiy strukturalar mavjud bo'lishi lozimligi kiradi. Qolaversa, jamiyat a'zolarining to'la mustaqillik bilan faoliyat ko'rsata olish qobiliyati, ularning eng rivojlangan darajadagi ijtimoiy, intellektual, ruhiy jihatlaridan yuksalishi sodir bo'lishi ham taqozo qilinadi.³⁰

So'nggi shart-sharoit esa har bir fuqaroning o'z mulkiga ega bo'lishi, bu mulkni o'zi istagan tarzda tasarruf qila olishi uchun uning shaxsiy yoki jamoaviy huquqi ta'minlagan bo'lishi lozimligidir.

Fuqarolik jamiyatining belgilari, mezonlari va institutlarini tasavvur qila olgan har bir kishiga ko'rinib turibdiki, bunday demokratik jamiyatning asosini o'z-o'zini boshqarish va jamoat tashkilotlari o'zaro munosabatlarining majmuasi tashkil qilgan ekan.

Fuqarolik jamiyatida davlat va hukumatning alohida o'z vazifalari, nodavlat va jamoat tashkilotlarining esa alohida o'z vazifalari bo'ladiki, ular bir-birini to'ldirib, yuksak rivojlangan demokratik jamiyatning yashovchanligini ta'minlaydi. Davlatning ham, nodavlat tashkilotlarning ham o'z harakat doirasini o'zlari uchun belgilagan faoliyati u yoki bu tomonga ozgina o'zgarganda ham bunday ijtimoiy-siyosiy muvozanatlar buzilib, demokratik me'yordan chekinish yoxud chetga chiqib ketish ro'y berishi mumkinligini asrimizning so'nggi davrdagi rivojlanish amaliyoti ko'rsatdi.

Fuqarolik jamiyati insonlardagi o'z-o'zini anglash, ularning ob'ektiv ravishdagi mas'uliyat hissini sezish qobiliyatining yuksalishiga hamohang ravishda shakllanib boradi. Bu jamiyatda shakllangan mamlakatlar fuqarolari siyosiy, axloqiy va huquqiy madaniyatlari darajasining yuqoriligi bilan ajralib turadi.³¹

Ma'lumki, fuqarolik jamiyatining asosi - jamoat tashkilotlari. Va shu bilan bir qatorda, fuqarolik jamiyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri - bu nodavlat tizimidagi barcha jamoat tashkilotlariga a'zolikning ixtiyoriy shaklda bo'lishidir. Bu qoida, birinchidan, shu jamiyatdagi demokratiyaning yuqori darajasini namoyon qilsa, ikkinchidan, jamiyat a'zolarining ijtimoiy ongi va faolliklari yuksakligini bildiradi. Qolaversa, har bir fuqaro o'zi kirmoqchi bo'lgan tashkilot faoliyatida o'zining manfaatlarini va ehtiyojlariga mos maqsadlarga erishishiga ishonch hosil qilganidan so'nggina shu tashkilotga ixtiyoriy ravishda a'zo bo'la oladi.

Qadimgi davrdan boshlab to o'rta asrlargacha bo'lgan zamonda davlat keng talqin qilingan, lekin u o'zi tashkil qiladigan va ifodalaydigan jamiyatdan alohida emas edi. Birinchilardan bo'lib Nikkolo Makiavelli «davlat» terminining keng va tor ma'nodagi ahamiyatlarini talqin etgan edi. Bu paytgacha bo'lgan davrda davlat turli va ancha aniq tushunchalarni anglatgan. N. Makiavelli adabiyotlarga «Stato»

³⁰JirQizboev M. Fuqarolik jamiyati. «Yoshlik» jurnali, 1996, №6, 3-4 betlar.

³¹JirQizboev M. Fuqarolik jamiyati. «Yoshlik» jurnali, 1996, №6, 3-4 betlar.

degan maxsus terminni kirgazib, u davlatni uning qandaydir aniq shaklidan qat'iy nazar jamiyatning alohida siyosiy tashkiloti sifatida talqin etdi.

Davlat, jamiyat va individlarning bir-biridan chegaralashni liberalizm o'zining davlatning shartnomaviy nazariyalarida (Gobbs, Lokk, Russo va boshqalar) amalga oshirdilar. Bu nazariyaga binoan, uchta tushuncha (individ, davlat, jamiyat) tarixan bir-biridan bo'lingandirlar. Dastavval erkin va yarim yovvoyi yashagan individlar iqtisodiy va boshqa sohalarida o'zaro harakatlarda bo'lish oqibatida jamiyatni tashkil etdilar va keyinchalik, o'zlarining xavfsizliklarini va tabiiy huquqlarini shartnomalar tuzish yo'li bilan himoya qilish maqsadlarida maxsus organ - davlatni tuzdilar.

«Davlat» tushunchasi odatda ma'lum bir hududda oliy hokimiyatga ega tashkilotni anglatadi. Davlatning mohiyatini yanada chuqurroq va har tomonlama anglash uchun uning muhim belgilarini bilish lozim.

Minglab yillar jamiyatning rivojlanishi bilan birga davlat ham uning bir qismi sifatida rivojlanib keldi. Davlat bilan shaxsning o'zaro munosabati xususiyatlari, davlat tuzimida rasionallik, erkinlik va inson erkinligi prinsiplarining tatbiq etilishiga qarab davlatni rivojlanishini ikkita global etapga bo'lish mumkin: an'anaviy va konstitusion. Shuningdek, an'anaviy va konstitusion davlatning belgilari namoyon bo'lishiga qarab oraliq bosqichlarga ham bo'linadi. Masalan, totalitar davlatchilik. An'anaviy davlatlar tarixiy meros bo'lgan urf-odat, me'yorlar asosida stixiyali ravishda rivojlandi. Bu davlatlarda xalq ustidan institutlashgan va cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lib, ular kishilarning teng huquqli ekanligini inkor etib, erkin insonni davlat hokimiyatining manbai ekanligini tan olmaganlar. Bunday davlatlarga tipik misol sifatida monarxiyani ko'rsatish mumkin.³²

Konstitusion va nokonstitusion davlatlar o'rtasidagi chegaralar erkinlikka nisbatan munosabat, shuningdek, inson huquqlarini saqlash amaliyoti, shaxs, jamiyat va davlat o'zaro munosabatlaridagi ustivor yo'nalishlar asosida belgilanadi. Davlat rivojlanishining konstitusion bosqichi davlatning jamiyatga va fuqarolarga bo'ysunishi, davlatning aralashuv vakolati va yo'nalishlarining konstitusion belgilab qo'yilishi, davlat faoliyati va inson huquqlarining kafolatlarini huquqiy reglamentasiya qilinishi bilan bog'liqdir. Konstitusion davlatlar an'anaviy davlatlardan shakllanishi, ichki tuzilishi va funksiyalari bilan keskin farqlanadi.

Huquqiy davlat - konstitusion davlatchilikning real amalga oshirishidir. Uning asosida insonni davlat terrori, uning e'tiqodi ustidan kuch ishlatishi, hokimiyat organlari tomonidan mayda homiylik qilishidan himoya qilishga intilish yotadi. Huquqiy davlat - suveren xalq irodasiga bo'ysunuvchi, insonning erkinligi va boshqa huquqlarini himoya qiluvchi, o'z faoliyatini qonunlar doirasida amalga oshiruvchi davlatdir. Bunday davlatda shaxs bilan hokimiyat o'rtasidagi munosabatlar konstitusiyada belgilab qo'yiladi, shuningdek, bu xalq bilan hokimiyat o'rtasidagi munosabatlar «ijtimoiy bitimlar» asosida ro'y beradi.

³² Chetvernin V.A. Konsepsiya sovetского правового государства. // Pravo i vlast. - Moskva, 1990, s. 129-131.

Davlat bilan fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarda ustivorlik inson huquqlariga haratiladi, qonunlar davlat va uning hatti - harakati bilan buzilmaydi.

Hozirgi davrda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat o'rtasida qat'iy chegara o'tkazish qiyin masala. Turli huquqiy davlatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi tajribasini e'tiborga olib, huquqiy davlatning quyidagi belgilarini keltirish mumkin:

- rivojlangan fuqarolik jamiyatining mavjudligi;
- shaxsning erkinligi, huquqi va jamoatchilik tinchligini himoya qilish, xo'jalik faoliyati uchun huquqiy shart-sharoitlar yaratib bergan holda davlat faoliyati sohasini cheklash;
- har kimning o'z shaxsiy farovonligi uchun mas'ulligini oshirish;
- barcha fuqarolarning huquqiy tengligi;
- huquqning umumiyligi, uning barcha fuqarolar, tashkilotlar, muassasalar, jumladan, davlat hokimiyati uchun ham teng taalluqli bo'lishi;
- xalq va davlat suverenitetining konstitusion - huquqiy jihatlardan muvofiqlashganligi;
- qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatlarining bo'linishi, ular faoliyatining hamkorlikdagi birligi;
- davlatning fuqarolik munosabatlarini muvofiqlashtirishda ta'qiqlash metodining chegaradan chiqish metodiga nisbatan ustivorligi. Buning ma'nosi shuki, huquqiy davlatda «qonun bilan ta'qiqlanmagan barcha narsalarga ruhsat etiladi» tamoyiliga amal qilinadi. Bunda chegaradan chiqish metodi faqat davlatga nisbatan qo'llanilib, davlat faqat rasmiy qabul qilingan vakolatlar doirasidan chetga chiqmasligi lozim;
- individ erkinligini cheklash faqat barcha kishilar erkinligi va huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Huquqiy davlat shaxsning mutloq erkinligini bildirmaydi. Har bir shaxsning erkinligi boshqa kishining erkinligiga zid kela boshlasa, xuddi shu yerda uning erkinligi tugaydi.³³

Huquqiy davlat sharoitidagi erkin raqobat natijasida mulkdorlar qatlami vujudga kelishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Davlatlar rivojlanish tajribasi ko'rsatdiki, faqat shaxslarning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish bilan umumiy farovonlikka erishib bo'lmaydi. Chunki, jamiyatdagi har bir shaxsda mulkdor bo'lish, tashabbuskorlik ko'rsatish qobiliyati bo'lavermaydi. Baribir ijtimoiy tengsizlik davom etaveradi. Shuning uchun ham hayotda ijtimoiy davlat nazariyasi va amaliyoti (umumiy farovonlik davlati) paydo bo'ldi.

Ijtimoiy davlat - har bir fuqaro uchun munosib hayot tarzi, ijtimoiy himoya, ishlab chiqarishni boshqarishda ishtirok etishi, shaxsni o'z-o'zini realizatsiya qilishi, hamma uchun teng hayotiy imkoniyatlar yaratish uchun intiladigan davlatdir.

Bunday davlatning faoliyati umumiy farovonlik, jamiyatda ijtimoiy adolat o'rnatishga qaratilgan bo'ladi. Davlat mulkiy va boshqa ijtimoiy tengsizliklarni tekislashga harakat qiladi, kuchsiz va ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilarga

³³Jarang: Osnovi politicheskoy nauki. - Moskva: MGU im. M.V.Lomonosova, 1996, s. 217-220.

yordam beradi, har bir fuqaroni ish yoki boshqa hayot kechirish manbasi bilan ta'minlashga harakat qiladi, jamiyatda tinchlikni saqlaydi, inson uchun qulay hayot muhitini shakllantiradi.

O'zbekiston Respublikasida milliy istiqlol sharofati bilan bozor munosabatlariga o'tish, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan islohotlar tobora chuqurlashib bormoqda. Davlat va hukumat milliy mustaqillikning dastlabki davridan boshlab kuchli ijtimoiy siyosat yuritib kelmoqda.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard maqsadi ham huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishdir. Hozirgi davrda bunday davlat va jamiyat barpo etishning konstitusion va qonuniy asoslari yaratildi. Demokratik tipdagi milliy davlatchilik shakllandi. Fuqarolik jamiyatining belgisi sifatida ko'p partiyaviylik va o'z-o'zini boshqarish organlari - jamoat birlashmalari tizimi shakllandi.

3-MAVZU: JAMIYAT YAXLIT TIZIM SIFATIDA.

Reja:

1. Jamiyat va ijtimoiy tizim tushunchalari.
2. Jamiyat to'g'risidagi qarashlar xilma-xilligi.
3. Hozirgi kun jamiyatining ko'rinishlari va turlari.

Jamiyat – kishilar hayotiy faoliyatining tarixiy rivojlanish shakli bo'lib, o'z tuzilishi jihatidan murakkab tizimni tashkil qiladi. Jamiyatni sotsial tizimning muayyan konkret shakli sifatida, uning funksional va rivojlanish qonuniyatini, har bir bo'lakchalarning o'ziga xos tomonlarini, o'zaro munosabatlarini ilmiy jihatdan o'rganib, to'g'ri boshqarish muhim ahamiyatga ega.

Chunki, o'z vaqtida keyingi oqibati o'ylanmagan, oldindan sotsiologik asosda tahlil qilinmagan va oldi olinmagan nuqsonlar jamiyat taraqqiyotida salbiy asoratlar qoldiradi.

Sotsiologiya tarixida jamiyat – o'z ijtimoiy ehtiyojlarini qondiruvchi kishilar birligi sifatida tushunilgan. Shu bilan birga, jamiyat ayrim ijtimoiy birlikgina emas, balki ijtimoiy munosabatlar majmuasi hamdir.

Sotsiologiya jamiyat to'g'risidagi ta'limot bo'lib, ijtimoiy tizimlar rivojlanishi va funksional qonuniyatlar, harakatlantiruvchi kuchlarni o'rganuvchi fan hamdir. U turli ijtimoiy hodisalar, jamiyat va tabiat o'rtasidagi aloqadorlikni, shuningdek, shaxs, kishilarning ijtimoiy xulqi, uning elementlari va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi.

Hozirgacha jamiyat hayotini sotsiologik jihatdan tadqiq qilish asosan, ikki yo'nalishda rivojlanib keldi. Birinchi yo'nalish O.Kontdan fransuz sotsiologi E.Dyurkgeym orqali rivojlantirilgan, amerikalik sotsiolog T.Parsonslarning sotsiologik ta'limotlarini o'z ichiga oladi. Bu yo'nalishda ijtimoiy tizim o'zgarishi tashqi kuchlar ta'siri orqali tushuntirilib, ko'proq psixologik omillarga e'tibor berilgan.

Ikkinchi yo'nalish: marksistik sotsiologik ta'limot bo'lib, unda ijtimoiy tizim ichki ziddiyatlar asosida ichki kuch ta'siri orqali tushuntirilib, materialistik mohiyatga ega bo'lgan moddiy munosabatlarning belgilovchi roliga asosiy e'tibor qaratilgan.

Har ikki ta'limot ham jamiyat hayotida muhim belgilarni o'zida mujassamlashtirib keldi.

Sotsiologik amaliyot funksional o'zgarishlarsiz, evolyusiyasiz, revolyusiya tushunchasi bilan, funksional munosabatlar tahlilisiz ijtimoiy tizimlar rivojlanishini faqat ziddiyat va konfliktlar orqali asoslashga urinuvchi bu ta'limot jamiyat hayotini bir tomonlama o'rganishga olib kelganligini davr ko'rsatmoqda.

Burjua sotsiologiyasi nomi bilan atalgan g'arb sotsiologik ta'limotida ham o'ziga xos ijobiy jihatlar bilan bir qatorda, ijtimoiy tizimlar rivojlanishining ichki ziddiyatli xususiyatlarini hisobga olmaslik ham jamiyatni bir tomonlama tushuntirishni bildiradi.

«Jamiyat hayotining industrlashuvi ob'ektiv ravishda, qaysi ijtimoiy tizimlar bo'lishidan qat'i nazar, ijtimoiy ierarxiyaning bir xil (yagona) tipiga olib boradi» degan amerika sotsiologlarining fikri tarixiy rivojlanish amaliyotida tasdiqlanmoqda.

Ijtimoiy tizim – o'zaro bog'langan individlar, ijtimoiy guruhlar va institutlarni o'z ichiga oluvchi, murakkab tashkil bo'lgan va tartiblangan ijtimoiy yaxlitlik. Alohida shaxs ham uning tashqi dunyo bilan munosabatlarining serqirraligi va o'z-o'zinitashkil qilishining yaxlitligi nuqtai nazaridan ijtimoiy tizim hisoblanishi mumkin.

Ijtimoiy tizim – murakkab ichki tuzilishga ega bo'lib, tartibli, bir butun, o'ziga xos ijtimoiy aloqadorlik va turli ijtimoiy munosabatlar birligini tashkil qiladi. Har qanday ijtimoiy tizim tarkibiy tizimlar, masalan, iqtisodiy, siyosiy, xuquqiy, ma'naviy, ijtimoiy turmush, fan va shu kabi sohalar danto alohida olinganinsongacha bo'lgan ijtimoiy tizimlar shular jumlasidandir.

Avvalo biz jamiyatni sotsiologik nuqtai nazardan quyidagicha o'rganamiz:

1. Jamiyat tuzulishi va tarkibi o'rganiladi (Jamiyat qanday kishilardan iborat, ular qancha va qanday sinf yoki tabaqalarga mansub?).

2. Jamiyatda yashayotgan kishilarning xatti-harakatlari nimalardan iborat. (ularning o'zaro munosabatlaridagi xarakterlari)?

3. Jamiyat taraqqiyoti uning rivojlanishi nuqtai nazaridan o'rganiladi. Dunyodagi barcha hodisalar vaqtlar o'tish bilan o'zgaradi.

Jamiyatni to'liq tushinish uchun faqat uning tuzilishi varivojlanishinigina emas, balki o'tmishini, tarixini ham sinchiklab o'rganish bu jamiyatning qanday tarkib topganligini, qanday shakllanganligini, rivojlanganligini bilishga, jamiyatni to'liq tushunishga imkon yaratadi.

Jamiyat ijtimoiy hodisaning umumiy va murakkab sistemasidir. Jamiyat elementlari:

- ijtimoiy faoliyatning belgilangan sotsial statusiga ega;
- o'zida ijtimoiy me'yor va qadriyatlarni aks ettiradi;

- individual sifatlar (shaxs ijtimoiy belgisi, qiziqishlari, qadriyatlari yo'nalishi, shaxs motivlari)dir.

Jamiyatning har bir sohasi ishlab chiqarish tarakqiyotida ma'lum bir funksiyalarni bajaradi:

- iqtisodiy munosabatlar – moddiy ishlab chiqarish funksiyasi;
- ijtimoiy munosabatlar – ijtimoiylashuvni – sotsializasiya;
- siyosiy munosabatlar – ijtimoiy boshqaruvni (eleientar nazorati);
- mafkuraviymunosabatlar – ma'naviy ishlab chiqarish funksiyasi va boshqalardir.

Ijtimoiy struktura – jamiyatning ijtimoiy asosidir. Sotsiologiya nazariyasida barcha ijtimoiy tizimlar 2 xil munosabatda mavjud bo'ladi:

1. Sosietal munosabatlar;
2. Ijtimoiy munosabatlar.

1. Sotsial munosabatlar sistemasiga jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va mafkuraviy munosabatlari kiradi. Ular bir-birlari bilan uzviy aloqador tizimga ega. Sotsial sistemasida ierarxik qaramlik mavjud. Ya'ni, bunda iqtisodiy munosabat belgilovchi omil bo'ladi. Demak, Sotsial munosabatlar sistemasi tuzilishi:

- iqtisodiy: (asoschisi A.Smit: «Dunyodagi barcha narsalar mehnatning mahsuli, mehnat taqsimoti natijasida har bir individ o'zi uchun ishlaydi va boshqalar uchun ham ishlashga majbur bo'ladi, u boshqalar uchun ishlaganda o'zi uchun ham ishlaydi);
- ijtimoiy: a) ijtimoiy munosabatlarning asosiy elementini ijtimoiy jamoalar tashkil etadi (sinflar, millatlar professional, demografik, hududiy, siyosiy guruhlar); b) elementi kishilar (jamoaga birikadigan insonlar); v) oila tashkil etadi.
- siyosiy;
- mafkuraviy.

2. Ijtimoiy munosabatlar: («ijtimoiy» sistema elementi –kishilar).

Ijtimoiy munosabatlar - kishilarning faoliyati jarayonida yuzaga kelgan o'zaro munosabatlardir. Ular turli jamoalar, ijtimoiy guruhlar, sinflar va ularni tashkil qilgan kishilar o'rtasidagi munosabatlar bo'lib, ularni bir butun sotsial organizm bog'laydi. Ijtimoiy munosabatlar jamiyatda ijtimoiy ishlab chiqarish vujudga kelishi bilan paydo bo'ladi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishning paydo bo'lishi jamiyat taraqqiyotida chorvachilik paydo bo'lishi, dehkunchilik, savdoning yuzaga kelishi bilan bog'lik. Ijtimoiy munosabatlarning turlari: hamfikrlilik, kooperasiya, konfliktlar, kurash, befarqlik, begonalashuv, krizis, kamsitish, tengsizlik.

Ijtimoiy munosabatlarda sohalarga doir ijtimoiy institut turlari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- 1) iqtisodiy institutlar;
- 2) siyosiy institutlar;
- 3) nikoh, oila va qon-qarindoshlik;
- 4) tarbiya institutlari;
- 5) madaniyat sohasi institutlari.

Jamiyat taraqqiyotning ma'lum bosqichida paydo bo'lgan, o'zining ishlab chiqarish munosabatlariga asoslangan, tili, hududi, madaniyati bilan farqlanadigan, kishilar o'rtasida bevosita yoki bilvosita ijtimoiy munosabatlarga amal qiladigan uyushmadir. Jamiyat insonlar o'rtasida sotsial aloqalar, o'zaro ta'sir va munosabat tashkil etishning universal usulidir. Ushbu munosabatlar? o'zaro aloqalar «ehtiyotlar», »motivlar», «qadriyatlar» asosida shakllanadi.

M. Veber fikricha, jamiyat – sotsial, ya'ni boshqa insonlarga yo'naltirilgan harakatlar mahsuli bo'lgan insonlar munosabatidir. T. Parsons fikricha esa, jamiyat qadriyatlar va me'yorlar orqali tuziladigan munosabatlar tizimi. K. Marks fikricha esa, jamiyat – insonlarning birgalikdagi faoliyati jarayonida paydo bo'luvchi munosabatlar majmuasidir. Ingliz olimi G. Spenser jamiyatni tirik biologik organizmga analogiya qiladi. Uning fikricha, o'xshashliklar quyidagilardan iborat:

- 1) Jamiyat tirik biologik organizm singari o'z mavjudligi jarayonida o'sadi va rivojlanadi;
- 2) biologik evolyusiya jarayonida tirik organizm strukturasi rivojlangani singari jamiyat ham vaqt mobaynida strukturaviy o'zgarishlarga yuz tutadi;
- 3) biologik organizm kabi sotsial organizmda har bir a'zo o'z funksiyasini bajaradi;
- 4) biologik organizmning biror a'zosi o'z funksiyasini bajara olmasligi butun organizmga ta'sir qilganidek, jamiyatning biror bo'lini faoliyatini olib bormasa, butun jamiyat krizisga uchrashi mumkin.

Ba'zan davlat va jamiyat tushunchalari bir ma'noda ishlatiladi. Lekin ular o'rtasida muayyan farqlar mavjud. Jamiyat davlatga nisbatan kengroq tushuncha hisoblanadi. Davlat taraqqiyotning mehnat taqsimoti davrida vujudga kelgan, jamiyat hayotini tartibga solish maqsadida paydo bo'lgan, ma'lum kishilardan tashkil topgan katta sotsial guruhdir. K. Marks fikricha, davlat-ko'pchilikni ozchilikka bo'ysindiruvchi apparatdir. **Mamlakat** – davlat suverenitetidan foydalanuvchi va hududiy chegaralarga ega bo'lgan dunyoning bir qismi yoki hududi.

Davlat – ma'lum mamlakatning aniq siyosiy rejimga asoslangan, boshqaruv bo'g'inlari va hukumat strukturasi ega xokimiyat.

Davlat quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Iqtisodiy funksiya.
2. Mudofaa funksiyasi.
3. Boshqaruv yoki siyosiy funksiya.

Jamiyatlar asosan 2 sistemaga bo'linadi:

1. ochiq sistema.
2. yopiq sistema.

Yopiq sistemada kishi o'z sotsial holatini o'zgartira olmaydi, o'zgartirsa ham qiyinchilik bilan o'zgartiradi. Bunday sistemalarda belgilanadigan statuslar hukmronlik qiladi. Informasion filtr kuchli bo'ladi.

Ochiq sistemalarda kishi o'z mehnati, harakati, qobiliyati orqali o'z sotsial statusini o'zgartira oladi va ularda demokratiya tamoyillari amal qiladi.

Jamiyatlarning zamonaviy ko'rinishlari:

- 1) agrar jamiyatlar
- 2) industrial jamiyatlar
- 3) postindustrial jamiyatlar

Agrar jamiyatlarda iqtisodiyot qishloq xo'jaligiga asoslanadi, asosiy sotsial institutlari armiya va cherkovlar (maschitlar) hisoblangan.

Industrial jamiyatlarda iqtisodiyot sanoat va ishlab chiqarishga asoslanadi, asosiy tashkilotlar korporasiya va firmalar bo'lib, insonlar intiladigan qadriyat pul hisoblanadi. Jamiyatni mulkdorlar boshqaradi.

Postindustrial jamiyatlarda barcha sohalarda yetakchi kompyuter texnologiyalaridan keng ko'lamda foydalaniladi, asosiy tashkilotlari universitetlar bo'lib, asosiy qadriyat va insonlar intiladigan narsa bilim va malaka hisoblanadi. Jamiyatni ziyoli va yuqori intellektual salohiyatga ega insonlar boshqaradi.

Jamiyatlar siyosiy jihatdan avtoritar, totalitar va demokratik turlarga bo'linadi.

Hozirgi kunda jamiyatning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1. Farovonlik (mo'l-ko'llik) jamiyati: – (Ko'proq G'arbda; Skandinaviya davlatini misol keltirish mumkin).

2. Iste'mol qilish jamiyati (AQShda XX asr 40–50-yillarda yuzaga kelganligi bilan xarakterlanadi).

3. Ochiq va yopiq jamiyat. Ochiq jamiyat – demokratik jamiyat bo'lib, tashqi muhit sharoitlarida oson o'zgaruvchi va moslashuvchi, tanqidni yorib o'tmoqqa moslashgan jamiyat. Yopiq jamiyat – dogmatik-avtoritar rejim asosida bo'lib, sehrli (magik) tafakkur, dogmatizm va kollektivizm tamoyillari bilan xarakterlanadi.

4 Industrial (sanoat) jamiyati. (XX asr 50-60 -yillarida yuzaga keldi. Bu konsepsiya o'z mohiyatiga ko'ra, markscha ijtimoiy-iqtisodiy formasiya to'g'risidagi ta'limotlarga qarshi qaratilgan.

Industrial jamiyat ta'limotiga ko'ra, jamiyat turi texnikaviy, industrial-rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Jamiyat tipini sinfiy strukturadan ajratib olib qaraydi. Industrial jamiyat 2 bosqichda kechadi:

- 1) Industrial sanoat jamiyati;
- 2) An'anaviy jamiyatdan sanoat jamiyatiga o'tib boradi.

5. Postindustrial jamiyat. U 3 bosqichda yuzaga keladi:

- 1) industrial jamiyatgacha bo'lgan davr;
- 2) industrial sanoat jamiyati davri;
- 3) postindustrial jamiyat davri.

Postindustrial jamiyati ta'limotiga ko'ra davlat monopolistik kapitalizm o'rnini bosadi. Xizmat ko'rsatish sohasida fan va maorifga e'tibor beradi. Olim, mutaxassis roliga yuksak baho ko'rsatiladi. Sinflarga munosabati, uning ishlab chiqarishga egaligini inkor qiladi. Jamiyatni boshqarish olimlar va mutaxassislar qo'lga o'tishi tarafdori. Sotsial tengsizlik saqlanib qolishini e'tirof etadi.

Jamiyatning tuzilishi quyidagicha:

1. **Totalitar jamiyat** (lot. umumiy, butun, jamiki) – avtoritar shakllaridan biri. Jamiyat hayotining barcha sohalari ustidan yalpi nazorat o'rnatiladi.

2. **Avtoritar jamiyat** (lot. boshlovchi, asoschi, ijodkor, muallif) – demokratik bo'lmagan siyosiy rejimga asoslangan yoki siyosiy ongning avtoritar shakli. Bu siyosiy hukmronlik qilishning o'ta reaksion davlat tizimi. Shaxsning diktatorlik elementlari bilan uyg'unlashib ketadi.

3. **Demokratik jamiyat** (yunon. xalq hokimiyati) – xalqning hokimiyat manbai ekanligi, davlat ishlarini hal qilishda qatnashishini bildiradi. Ijtimoiy tuzilma – jamiyatning ijtimoiy asosini tashkil qiladi.

Hozirgi sotsiologlar va iqtisodchilar jamiyatning quyidagi ko'rinishlarini tatqiq etmoqdalar:

1. An'anaviy jamiyat.
2. Industrial jamiyat.
3. Postindustrial jamiyat.

1. An'anaviy jamiyatda yerga bo'lgan mulkchilik asosiy o'rinni egallaydi. Boylik tashqi manbalar asosiga qurilib, tabiat manbaalarini egallash, o'zlashtirish kuchayadi.

2. Industrial jamiyatda mulkning barcha ko'rinishlariga bo'lgan munosabat shakllanadi. Yirik mashina ishlab chiqarishi qo'l mehnati o'rniga kelib, yuksak mehnat unumdorligiga asoslangan ishlab chiqarishni izohlaydi. Avtomatik ishlab chiqarish vujudga keladi. Ommaviy ishlab chiqarish belgiga aylanadi. Ishlab chiqarishda yuksak malakali ishchilarning roli ortib boradi, ular mutaxassislashadilar. Natijada mashina yordamida standartlashgan operatsiyalar bajariladi. Xo'jalik sohasida sanoat va moliyaviy kapital ustunlik qiladi. Mahsulot bozor uchun mo'ljallangan bo'ladi. Industrial jamiyatni iqtisodiy jamiyat deb atash ham mumkin. Chunki real borliq iqtisodga qartilgan bo'ladi. Natijada erkin xalqaro iqtisodiy hamkorlik mamlakat davlatlari qatoriga qo'shila boradi. Urbanizatsiyalashuv ta'lim tizimiga yangicha yondashuvni, ommaviy madaniyatni vujudga keltira boradi.

3. Postindustrial jamiyatda intellektual mulk, insonning aql-zakovati, bilimi asosiy o'ringa chiqib qoldi. XX asr o'rtalaridan qator G'arb davlatlari jamiyatning uchinchi bosqichi – postindustrial jamiyatga o'ta boshladi. Sotsiologiyada bu jamiyat nomi har xil, jumladan, «informasion» jamiyat bo'lib, u inson bilimi va informatsiya zahiralarga ko'ra jamiyatning asosiy manbai bo'lib qoladi. Zamonaviy mikroelektronika va kompyuter texnikasiga asoslanmoqda. Bular ommaviy axborotlarni vujudga keltiradi va qayta ishlab chiqaradi. Kommunikatsiya tizimida xo'jalik tizimi tubdan o'zgaradi. Tabiat manbalaridan, ishlab chiqarish, metallurgiya, qishloq xo'jaligi qisqaradi, mashina ko'lami kengayadi, aholining deyarli 50 foizi shu sohani band etadi. Postindustrial jamiyat – maishiy xizmat qilish jamiyati, deb ham yuritiladi. Ishlab chiqarish (moliyaviy, bank, sug'urta, savdo, ilmiy maslahat, dastur) va noishlab chiqarish sohalarida xizmatlar (fan, ta'lim va boshqa) o'sib boradi. Bunda urbanizatsiya jarayoni industrial jamiyatga nisbatan teskari ravishda yuz beradi. Qishloqqa sanoat kirib boradi.

Teylor fikriga ko'ra, intellektual omil birinchi o'ringa chiqadi. Inson yuksak kapital emas, balki o'z mohiyatini, bilim va iqtidorini, qadriyatlarini namoyon qiluvchi ijtimoiy kuchga aylanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, an'anaviy jamiyatda iqtisodiy masalalar insonning tabiatga bevosita munosabati orqali hal qiligan bo'lsa, industrial jamiyatda inson tomonidan yaratilgan sun'iy ishlab chiqarish vositalari iqtisodning asosini tashkil etadi. Shu boisdan ham bu jamiyat iqtisodiy jamiyatdir. U iqtisodiy munosabatlarni belgilaydi. Hozirgi iqtisodiyot ijtimoiylashib bormoqda. Intellectual salohiyat asosiy o'ringa chiqib boradi.

Zamonaviy sotsiologiyaning diqqat markazida jamiyat tushunchasi turadi. U mamlakatning ijtimoiy tashkil etilishini xarakterlaydi. Sotsiolog N. Smelzer jamiyat haqida shunday deydi: «Muayyan geografik chegara, umumiy qonunchilik tizimi va muayyan milliy (ijtimoiy-madaniy) tenglikka ega bo'lgan kishilar birlashmasi jamiyat hisoblanadi».

Sotsiologiyada jamiyat an'anaviy va zamonaviy jamiyatga ajratib o'rganiladi.

An'anaviy jamiyat quyidagi xususiyatlarga ega:

- 1) mehnat tabiiy taqsimlanadi va ixtisoslashadi (asosan, yosh va jins belgilariga ko'ra);
- 2) shaxslararo munosabat bevosita individlar orqali namoyon bo'ladi;
- 3) o'zaro aloqalar norasmiy ravishda tartibga solinadi, (din va axloq qonunlari yordamida);
- 4) jamiyat a'zolari qarindoshchilik aloqalari bilan bog'liq bo'ladi;
- 5) ham jamiyat oddiy boshqaruv tizimiga ega (hokimiyatning meros bo'lib qolishi, oqsoqollar boshqaruvi).

Ko'rinib turibdiki, an'anaviy jamiyatda insonning yaratuvchilik, moddiy qobiliyati ancha cheklangan edi. Chunki an'anaviy jamiyatda mehnatning tabiiy taqsimlanishi va ixtisoslashuvi, shaxslararo munosabatlarning tabaqalashuvi, ijtimoiy aloqalar va munosabatlarni norasmiy muvofiqlashtirish, jamiyat a'zolarining bir-biriga tobelik, urug'chilik va qon-qarindoshlik munosabatlari bilan bog'liqligi, boshqaruvdagi primitiv tizimlar imtig'zsiz jamiyat a'zolarining faolligini cheklab qo'ygan bo'lib, bu holat shaxsning ijodiy faoliyat ko'rsatish va fikr yuritishini rivojlantirishga yo'l bermas, o'zaro munosabatlarning esa biqiq bo'lishini taqozo etardi.

An'anaviy jamiyat kabi zamonaviy jamiyat ham bir qator xususiyatlarga egadir:

- 1) o'zaro ta'sir rasmiy xarakterga ega (kishilarning xulq-atvori va intilishlari ijtimoiy maqom va individlarning ijtimoiy funksiyalari bilan belgilanadi);
- 2) mehnat taqsimoti chuqur amalga oshadi (ta'lim va ish tajribasi bilan bog'liq kasb-malaka asosida);
- 3) munosabatlar rasmiy tizimda tartibga solinadi (qonun, tartib, bitimlar asosida);
- 4) ijtimoiy boshqaruv murakkab tizimga ega (boshqaruv instituti, boshqarishning maxsus organlari);
- 5) din boshqaruv tizimidan ajralgan ;
- 6) ko'plab ijtimoiy institutlar mavjud.

Demak, hozirgi paytda **jamiyat** kishilararo munosabatlarning rasmiylashuviga olib keluvchi ijtimoiy aloqalar tizimining murakkablashuvi bilan xarakterlanuvchi ijtimoiy tashkilotning zamonaviy shaklidir. Umuman olganda, shaxslararo munosabat va his-tuyg'ularning bog'lanishi jamiyatni ifodalaydi.

Jamiyat tushunchasiga atroflicha yondoshuv «jamo» va «hamjamiyat» (ijtimoiy guruh) tushunchalariga to'xtalishni taqozo etadi.

Jamo - bu an'anaviy jamiyatdir. Jamo va jamiyat o'rtasidagi aloqalar asosida 3 gipoteza yotadi:

- evolyusion o'sib o'tish (jamo rivojlanib, murakkablashib, jamiyatga aylanadi);
- integratsiyaviy qo'shiluv (turli darajada bo'lgan tizimlarning o'zaro ta'sirida arxaiik ijtimoiy tashkilot zamonaviylashib boradi);
- parallel birga mavjud bo'lish (turli-tuman jamoalar integratsiyalashmaydi, balki o'z xususiyatlarini saqlagan holda zamonaviy jamiyat tarkibida alohida-alohida bo'ladi).

Demak, **jamo** urug'chilik aloqalari asosida vujudga kelgan va ijtimoiy munosabatlarning bevosita turi bilan xarakterlanuvchi ijtimoiy tashkilotning dastlabki shaklidir.

«Jamiyat» tushunchasi (E.Shilzga ko'ra)ni agar u quyidagi talablarga javob bersa, kishilar birlashmasiga nisbatan qo'llash mumkin:

- 1) birlashma katta bir tizim (jamiyat)ning bir qismi bo'lmasa;
- 2) nikoh ushbu birlashma namoyandalari orasida tuzilsa;
- 3) birlashma bolalar tug'ilishi bilan to'ldirib borilsa;
- 4) shaxsiy hisoblangan hududga egalik qilinganda;
- 5) o'z nomi va tarixiga ega bo'lish;
- 6) o'z boshqaruv tizimiga ega bo'lish;
- 7) birlashma qadriyatlarining umumiy tizimi (urf-odat, an'ana me'yorlar, qonun-qoidalar) - madaniyat asosida tashkil topadi.

Sotsiologiya jamiyatni tizim sifatida uning strukturasi, funksiyalari va tizimi elementlarini o'rganadi. Jamiyatga nisbatan tizimli munosabatning mohiyatini aniqlash uchun, avvalo, tizim nima ekanligiga to'xtalishimiz kerak.

Tizim - o'zaro bir-biri bilan bog'liq va funksional munosabatlar hamda aloqalarda bo'lgan elementlarning bir butun majmuidir.

Ijtimoiy tizim - o'z ichiga ayrim individlar, guruhlar, tashkilotlar, institutlar, hamjamiyatlarning ijtimoiy aloqa va munosabatlarda birlashgan, tartibga solingan bir butunlikdir.

Tizimlarning umumiy nazariyasida (L. fon. Bertalanfiga ko'ra) jamiyat murakkab, bir butun tashkil etilgan tizim sifatida talqin qilinadi.

Sotsiologiyada, odatda, ijtimoiy tizim 4 aspektda o'rganiladi:

- 1) individlarning o'zaro ta'siri;
- 2) guruhlarning o'zaro ta'siri;
- 3) ijtimoiy maqomlar ierarxiyasi;
- 4) individlar xulq-atvorini belgilaydigan ijtimoiy me'yor va qadriyatlarining majmui.

Ijtimoiy tizim dinamikasi. Tizimning tinch holatini bayon qilish u haqda to'la ma'lumot bermaydi. Tizim dinamikasi unga yo'nalishi, xususiyatlarining o'zgarish sur'ati, shuningdek, rivojlanish tendensiyalarini o'rganishni taqozo qiladi. Tizimlarning turli-tumanligi, to'g'ri chiziqli va to'g'ri chiziqli bo'lmagan dinamik tizimlar, rivojlanish manbai hamda harakatlantiruvchi kuchlari tizimli dinamikaning tadqiqot predmeti hisoblanadi.

Demak, ijtimoiy tizim dinamikasi tushunchasi ijtimoiy voqelikni o'rganishdagi turli munosabatlarni ifodalaydi. Ijtimoiy tizim dinamikasi voqelik o'zgarishidagi jarayonlarni, ularning bog'liqligi, yo'nalishi va oqibatlarini o'rganadi. Uning doirasida bu o'zgarishlarga ta'sir qiluvchi omillar, ijtimoiy munosabatlarga individlarning moslashish qonuniyatlari kiradi.

Tabiatshunoslikda dinamik tizim deganda, tizimning holatini aniqlash mumkin bo'lgan har qanday ob'ekt yoki jarayon tushuniladi.

Dinamik tizimlar to'g'ri chiziqli yoki siklli bo'ladi.

To'g'ri chiziqli dinamik tizim hatti-harakati bir joyda turadigan narsa atrofida (masalan, mayatnikning tebranishi) bo'ladi, u vaqtga bog'liq emas.

To'g'ri chiziqli bo'lmagan tizim barqaror va beqaror statsionar holatga ega. Barqaror statsionar holat tizimning o'ziga xos, beqaror statsionar holat tizimdagi o'zgarishlarni ko'rsatadi.

To'g'ri chiziqli bo'lmagan tizim tushunchasi ko'p variantlilikni, taraqqiyotni va orqaga qaytmaslikni o'z ichiga oladi.

Jamiyat rivojining asosiy manbai kishilarning xatti-harakatida mujassamlangan energiyadir. U jamiyatning institutsional va madaniy tizimida o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Bu o'zgarishlar ichki o'z-o'zini tartibga solish va nazorat qilish mexanizmi yordamida amalga oshiriladi.

Murakkab tizimlarda evolyusiya va involyusiya, integratsiya va dezintegratsiya namoyon bo'ladi. Masalan, qadimgi sivilizatsiyalar asrlar davomida gullab-yashnadi va halokatga uchradi. A. Toynbi so'nggi 3000 yil ichida bo'lgan 21 sivilizatsiyani o'rganib, o'rtacha progressiv taraqqiyot o'rtacha regressiv taraqqiyotga o'tishni ko'rsatadi. Sivilizatsiyalar, ularning rivojlanishi, inqirozi to'xtovsiz va to'planib boradigan tarzda namoyon bo'ladi.

Barcha jamiyatlar turli nuqtai nazarlardan kelib chiqib, bir necha turlarga bo'linadi. Masalan, marksistik an'ana bo'yicha jamiyat ishlab chiqarish usuliga qarab turlarga bo'linadi, ya'ni ibtidoiy jamoa tuzumi, quldorlik, feodal, kapitalistik va kommunistik tuzumlar.

Jamiyatni tasniflash undagi hukmron dinlar (masalan, islom jamiyati), yoki tiliga ko'ra (ingliz tilida yoki fransuz tilida so'zlashuvchi jamiyat) amalga oshirilishi mumkin.

1970 yil G. Lenski va Dj. Lenskilar jamiyatni yashash uchun zarur vosita olish usuliga ko'ra tasnif qiladi:

a) **ovchilik va yig'ish bilan shug'ullanuvchi jamiyat.** Bunday jamiyatlar (asosan, Afrika qabilalari, Avstraliya aborigenlari) da ijtimoiy hayot qarindoshchilik aloqalariga asoslanadi. Ularda siyosiy struktura deyarli yo'q, jamoaga oqsoqol, yo'lboshchi bosh bo'ladi. Mehnat qurollari toshbolta, pichoqlar.

b) **bog‘bonchilik bilan shug‘ullanuvchi jamiyatlar**, dastlab, yaqin sharqda vujudga keldi, keyin Xitoydan Evropagacha yoyildi. Mehnat qurollari – omoch, oddiy buyumlar. Siyosiy struktura ikki, ba‘zan to‘rt ijtimoiy qatlamdan iborat. Urug‘chilik aloqalari ijtimoiy strukturaning asosini tashkil etadi. Urug‘jamoasi o‘ziga xos qoida asosida nikoh munosabatlarini tartibga soladi.

v) **agrar jamiyatlar** dastavval Misrda tashkil topdi, ular omoch va hayvonlardan ishchi kuchi sifatida foydalanishni yo‘lga qo‘ydilar. Ularning ishlab chiqarishdagi mahsuldorligi ham yuqori bo‘lgan. Agrar jamiyatda qo‘shimcha mahsulotning to‘planishi natijasida davlat vujudga keldi, ma‘muriy apparat va armiya tashkil topdi. yozuv kashf qilindi, pul tizimi shakllandi, savdo kengaydi. Nisbatan murakkab siyosiy tashkilotlar tarkib topdi, urug‘aloqalari jamiyat ijtimoiy strukturasining asosi bo‘lmay qoldi. SHunday bo‘lsa, urug‘chilik munosabatlari siyosiy hayotda muhim rol o‘ynadi: fuqarolik va harbiy amallar otadan meros bo‘lib qolardi.

g) **sanoat (industrial) jamiyatlari**. XVIII asr oxirlaridagina Buyuk Britaniyada industrializatsiyaning vujudga kelishi natijasida barpo bo‘ldi. Eng zamonaviy sanoat jamiyatlari SHimoliy Amerika, Evropa, SHarqiy Osiyoda tashkil topdi. Texnologiyaning takomillashuvchi, energiyaning yangi manbalaridan foydalanish sanoat jamiyatlari rivojlanishida asosiy rol o‘ynadi. Sanoat ishlab chiqarishi ushbu jarayonni boshqarish uchun zarur bo‘lgan ilmiy bilimlarning qo‘llanilishi bilan bog‘liq; inson va hayvonning ish kuchi o‘rniga issiqlik energiyasidan (avval tosh ko‘mirni g‘qish orqali), keyinchalik elektr va atom energiyasidan foydalaniladi.

XX asrga kelib eng takomillashgan va zamonaviy kishilik birliklari fuqarolik jamiyati, deb atala boshlandi.

Fuqarolik jamiyati shaxs uchun keng imkoniyatlar yaratib, unda har bir shaxs boshqalar bilan birlashishi yoki boshqalar bilan hamkorlikda faoliyat ko‘rsata olishi mumkin. Fuqarolik jamiyati shu tarzda inson ulug‘vorligini yuksaklikka ko‘taradi. Fuqarolik jamiyatining barqarorligini ta‘minlovchi shart-sharoitlar ham borki, ularsiz bu jamiyatning institutlari rivojlanmaydi. Bular jumlasiga jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlarning turlicha manfaatlarini ifoda etuvchi rivojlangan ijtimoiy strukturalar mavjud bo‘lishi lozimligi kiradi. Qolaversa, jamiyat a‘zolarining to‘la mustaqilligi bilan faoliyat ko‘rsata olish qobiliyati, ularning eng rivojlangan darajadagi, intellektual, ruhiy jihatlardan yuksalishi sodir bo‘lishi ham taqozo qilinadi. Ko‘rinib turibdiki, demokratik jamiyatning asosini o‘z-o‘zini boshqarish va jamiyat tashkilotlari o‘zaro munosabatlarining majmuasi tashkil qilinadi.

Fuqarolik jamiyatida davlat va hukumatning alohida o‘z vazifalari, nodavlat va jamoat tashkilotlarining o‘z vazifalari ham bo‘ladiki, ular bir-birini to‘ldirib, yuksak rivojlangan demokratik jamiyatning yashovchanligini ta‘minlaydi. Davlatning ham, nodavlat tashkilotlarining ham o‘z harakat doirasini o‘zlari uchun belgilangan faoliyati u yoki bu tomonga ozgina o‘zgarganda ham bunday ijtimoiy-siyosiy muvozanatlar buzilib, demokratik me‘yordan chekinish yohud chetga chiqib ketishi ro‘y berishi mumkinligini asrimizning so‘nggi davrdagi rivojlanish amaliyoti ko‘rsatdi.

3-MAVZU: SOTSIAL GURUHLAR VA SOTSIAL INSTITUTLAR

Reja

- 1. Sotsial guruh tushunchasi.**
- 2. Sotsial institut tushunchasi va uning turlari.**
- 3. Jamiyat hayotida sotsial institutlarning o'rni va roli.**

Guruh – bu xatti-harakatlari rasmiy va norasmiy institutlar tomonidan boshqariladigan, ma'lum norma va qadriyatlarga ega bo'lgan, boshqa birliklardan o'z xususiyatlari bilan farq qiladigan, bir-birlari bilan ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan bog'langan kishilar yig'indisidan iborat bo'lgan sotsial birlikdir.

Guruhga xos xarakterli xususiyatlar quyidagilar: guruh soni, ichki tashkilot, ya'ni institutlar, nazorat shakllari; faoliyat namunalari; norma va qadriyatlar; farq qiladigan xususiyatlari.

Guruhlar eng avvalo miqdor jihatdan katta va kichik guruhlariga bo'linadi. Umuman, katta sotsial guruh deganda, a'zolar soni ko'p bo'lgan kishilar guruhlari tushuniladi. Katta sotsial guruhlarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- a'zolar sonining ko'pligi;
- yagona hududning mavjud emasligi;
- a'zolar o'rtasidagi aloqalarning asosan ommaviy aloqa vositalari orqali o'rnatilishi;
- guruh tuzilishining murakkabligi, aniqroq qilib aytganda, bu guruhlar ko'p rasmiy va norasmiy, uyushgan va uyushmagan guruhlarini o'z ichiga oladi.

Katta guruhlar ikki turga bo'linadi.

1. Tasodifiy, stixiyali paydo bo'ladigan va qisqa vaqt mavjud bo'ladigan guruhlar. Bularga olomon, xaloyiq (publika), auditoriya va boshqalarni kiritish mumkin.

2. Tarixiy rivojlanish natijasida vujudga kelgan va jamiyat ijtimoiy munosabatlari tizimida ma'lum o'ringa ega bo'lgan birliklar. Bu turdagi guruhlariga sotsial sinflar, turli etnik guruhlar (ellat, xalq, millat), kasbiy guruhlar, jinsiy va yoshga oid guruhlar (yoshlar, ayollar, keksalar) va boshqa guruhlarini kiritish mumkin.

Kichik guruhlar deganda, ko'pi bilan bir necha o'nlab a'zoldan iborat bo'lgan kam sonli guruhlar tushuniladi. Bu guruhlar ko'pincha samimiy do'stona munosabatlarda bo'ladi, guruh a'zolari o'rtasidagi bevosita o'zaro aloqalar ustun turadi, guruh a'zolari o'rtasidagi munosabatlar norasmiy institutlar yordamida tartibga solinadi. Bundan tashqari, maxsus vazifalarni bajarishga mo'ljallagan, yuqori darajada shakllagan kichik maqsadli guruhlar ham mavjud. Bu guruhlarda a'zolar o'rtasidagi munosabatlar maxsus xizmat ko'rsatmalari bilan tartibga solinadi. Yashirin ishlayotgan partiya yacheykasi bunga misol bo'la oladi. Kichik guruhlariga oilani, do'stlarni, qo'shnilarni, ishlab chiqarish brigadasini va boshqa guruhlarini kiritish mumkin.

Kichik sotsial guruhlarning turlari juda ko'p. Ular turli mezonlarga qarab turlarga ajratiladi. Guruh munosabatlari tuzilmasiga qarab kichik sotsial guruhlar rasmiy va norasmiy guruhlar, a'zolar o'rtasidagi munosabatlarning yaqinligiga qarab esa birlamchi va ikkilamchi guruhlar, guruhga a'zo bo'lish va bo'lmasligiga qarab a'zoli va referent guruhlar bo'linadi. Sanab o'tilgan guruhlarini birma-bir ko'rib chiqamiz.

Rasmiy va norasmiy sotsial guruhlar guruhlarini bunday tarzda turlarga bo'lish birinchi bo'lib amerikalik sotsiolog E. Meyo tomonidan taklif qilingan edi.

Rasmiy guruhlar – bu, huquqiy statusga ega bo'lgan sotsial institut, tashkilot qismi hisoblanadigan mavjud institut, tashkilotdagi mehnat doirasida aniq maqsadga ega bo'lgan sotsial guruhlardir.

Rasmiy guruhlar quyidagi belgilar xos: aniq va izchil maqsad, ierarxiyaga asoslangan aniq funksiyalar, ma'lum qoidalarga muvofiq keladigan huquq va burchlar, a'zolar o'rtasidagi rasmiy munosabatlar, guruh faoliyatini nazorat qiladigan rasmiy institutning mavjud bo'lishi va boshqalar.

Norasmiy guruhlar, ko'pincha bunday guruhlar «psixologik guruhlar» yoki «sotsial psixologik guruhlar» deb ataladi. Chunki bu guruhlarning tashkil topish zaminida guruh a'zolari o'rtasidagi psixologik, hissiy munosabatlar yotadi. Norasmiy guruhlarning paydo bo'lishida vaziyat va umumiy mafaatlari majmui muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham bu guruhlarini ba'zan, manfaat yuzasidan tuzilgan guruhlar ham deb atashadi. Odamlar ehtiyojlari turli-tuman bo'lganligi sababli norasmiy guruhlar mavjud.

Birlamchi guruh terminini fanga Ch.Kuli kiritgan. Birlamchi guruhga quyidagi xususiyatlar xos: a'zolar sonining kamligi, guruh a'zolarining hududiy yaqinligi, bevosita samimiy munosabatlar, yashashning uzoq davom etishi, maqsadlarning umumiyliigi, guruhga a'zo bo'lishning erkinligi, a'zolar xatti-harakati ustidan norasmiy nazorat.

Ikkilamchi guruh deb, biror bir aniq maqsadga erishish uchun tuzilgan har qanday turdagi guruhga aytiladi. Ularda moddiy aloqalar muhim ahamiyatga ega. Ularning faoliyati tartib-intizom qoidalari bilan boshqariladi. Ikkilamchi guruhlariga kasbiy, diniy, siyosiy guruhlarini kiritish mumkin.

Referent va a'zoli guruhlar. Kichik guruhlarini o'rganishning jihatlaridan biri bo'lib, «referent guruh» atamasi amerikalik sotsial psixolog Mustafu Sherif tomonidan kiritilgan. «Referent guruh» atamasi (inglizcha so'z, «mansub bo'lish» degan ma'noni anglatadi) individ ongli ravishda kiradigan sotsial guruhlariga (iqtisodiy, siyosiy, madaniy, kasbiy) nisbatan ishlatiladi.

Shaxsning «guruh normalariga» munosabati belgilariga muvofiq guruhlar referent guruhlar yoki «etalonli» (o'lchovli) guruhlariga bo'linadi. Referent guruhlar kichik guruhlar hamda katta guruhlar - sinf yoki ijtimoiy tabaqa bo'lishi mumkin.

«Referent guruh» atamasi to'rt xil ma'noda qo'llaniladi:

Individ xatti-harakati uchun namuna, etalon yoki mezon bo'lib xizmat qiladigan guruh.

Individ o'z harakatlarini shu guruhga yo'naltiradigan guruh.

Idivid a'zo bo'lishiga intilayotgan guruh.

A'zolarining qadriyat va fikrlari bevosita shu guruh a'zosi bo'lmagan kishi uchun o'ziga xos taqqoslash o'lchovi, sotsial «o'lchov doirasi» sifatida xizmat qiladigan guruh.

Real hayotda «referent guruh» nazariyasi shaxsning turli sotsial muhitlarga moslashuv jarayonida, sotsial harakatlarni o'rganishda qo'llaniladi.

Referent guruhlar real va ideal guruhlariga bo'linadi. Real referent guruhning shaxsga qulay sotsial norma va qadriyatlarni egallashi uchun etalon bo'lib xizmat qiladigan alohida kishilar yoki kishilar birligidir.

Ideal referent guruh – bu, ma'lum bir guruh qadriyatli va normativ yo'l-yo'riqlarining inson ongida aks etishidir. Shaxs bu guruhga o'z tasavvurlari va harakatlari bilan moslashishga harakat qiladi.

Masalan, muhandis o'zini real hayotda muhandislar guruhiga mansub deyish bilan birga o'zini guruh sifatida mavjud bo'lmagan «ma'naviy elita» ga ham mansub deb hisoblaydi.

Jamiyatning fundamental ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladigan muassasalar sotsial institutlar deb ataladi. Oila, din, ishlab chiqarish, ta'lim, davlat, mahalla-insoniy jamiyatning sotsial institutlari hisoblanadi. Sotsial institutlar majmuasi jamiyatning sotsial sistemasi deyiladi.

Ijtimoiy munosabatlarda sohalarga doir ijtimoiy institut turlari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- 1) iqtisodiy institutlar;
- 2) siyosiy institutlar;
- 3) nikoh, oila va qon-qarindoshlik;
- 4) tarbiya institutlari;
- 5) madaniyat sohasi institutlari.

Ta'lim-tarbiya sotsiologiyasining mustaqil tarmoq bo'lib rivojlanishi E. Dyurkgeym asarlari bilan bog'liq. SHundan beri u g'arb sotsiologlari (Amerikada K. Djenis, Dj. Koulmen, Fransiyada P. Burde, Angliyada Dj. Flaud va boshqalar)ning ilmiy ishlarini boyitdi.

Ta'lim - shaxsning yashash faoliyati va ijtimoiy-lashtirishning turli tabaqalari rivojlanishi va shakllanishida boshlang'ich omil bo'lgani uchun zarur ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim sotsiologiyasining ob'ekti bo'lib, ijtimoiy institut sifatida olingan ta'lim tizimi, butun bir jamiyatda va shu jamiyat hayotidagi sohalar va boshqa ijtimoiy institutlar bilan o'zaro harakati va o'zaro aloqasi hisoblanadi. Ta'lim sotsiologiyasi sotsiologiyaning shunday sohasiki, u ta'limni ijtimoiy institut (uning jamiyatdagi funksiyalari, boshqa institutlar bilan o'zaro aloqasi) sifatida, uning idoralari (maktab, oliy o'quv yurti va hokazo)ni ijtimoiy tashkilotlar sifatida, shuningdek ta'lim sohasidagi ijtimoiy siyosatni o'rganadi.

Ta'lim institutining alohida ajralishi industrialashtirilgan jamiyatgacha mehnat ijtimoiy taqsimotining chuqurlashuvi va kengayishi asosida, tabaqaviy tengsizlik rivojlanishi va davlat tizimi jamiyatning imtig'zli qatlamlari vakillarini maxsus tayyorgarlik bilan ta'minlash maqsadida boshlanadi.

Xozirgi zamon ilgʻor industrial davlatlarning taʼlim tizimi - shaxsning ijtimoiylashuvi, uning u yoki bu ijtimoiy maqomni olishga tayyorgarlikda va ijtimoiy tizimlarni takomillashtirishda, integratsiyasi va barqarorlashuvda muhim rolni bajaruvchi jamiyat aʼzolari bilimlari va mahoratlarini uzluksiz rivojlantiruvchi keng va yuqori darajada differensiatsiyalashgan ijtimoiy tizimdir.

Taʼlim sotsiologiyasi - taʼlim tizimini, yanada kengroq ijtimoiy tizimlarni kichik tizim sifatida va uning boshqa kichik tizimlar va butun bir jamiyat bilan oʻzaro nisbati va harakatini oʻrganuvchi sotsiologiya sohasidir, bu taʼlim ijtimoiy tamoyillarini, taʼlim tizimlarining oʻzaro harakati qonuniyatlarini ijtimoiy institut va jamiyat, ijtimoiy guruhlar va shaxslar boʻlgan ijtimoiy tashkilotlar sifatida oʻrganuvchi fandir.

Taʼlim sotsiologiyasi, dastavval, taʼlim tizimi va jamiyatning oʻzaro harakati va oʻzaro munosabatlari umumiy masalalari, uning oʻrni hamda ijtimoiy tizimidagi rolini oʻrganadi. Taʼlim sotsiologiyasi taʼlim va sotsiologiyaning chuqur va mustaqil oʻzaro bogʻliqligini tan olishdan kelib chiqadi. Bir tomondan, aynan ijtimoiy sharoitlar va omillar bevosita taʼlim tizimining xususiyati, turini aniqlaydilar va shuning sababli taʼlimning optimal tizimiga erishish uchun mos ijtimoiy dastlabki shart-sharoitlar va fikrlar zarurdir; boshqa tomondan ularning kerakli oʻzgarishsiz taʼlim tizimini takomillashtirmasdan erishib boʻlmaydi.

Taʼlimning ijtimoiy roli va ijtimoiy funksiyalarini oʻrganish ushbu sohaning quyidagi muhim funksiyalarini ajratib koʻrsatishga imkon beradi:

- a) madaniyatni tarqatish va avloddan avlodga oʻtkazish funksiyasi;
- b) jamiyat madaniyatini saqlash va generatorlik funksiyasi;
- v) shaxsning ijtimoiylashuvi funksiyasi;
- g) ijtimoiy tanlov hamda jamiyat aʼzolarini differensiatsiyalash funksiyasi;
- d) ijtimoiy madaniyat oʻzgarishlari funksiyasi, ayni paytda taʼlim tizimida yangi texnologiyalarni tadbiq qilishga qaratilgan nazariyalar;
- e) ijtimoiy nazorat funksiyasi va hakoza.

Taʼlim oʻziga xos strukturaga ega. Uning asosiy elementlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) Taʼlim-tarbiya muassasalari ijtimoiy tashkilotlar, ijtimoiy umumiyliklar (pedagoglar, oʻquvchilar);
- 2) oʻquv jarayoni ijtimoiy madaniy faoliyat sifatida.

Taʼlim tizimi, shuningdek, oʻz ichiga qator tizimlarni oladi:

- maktabgacha tarbiya tizimi;
- umumtaʼlim maktabi;
- kasb-texnik taʼlimi;
- oʻrta maxsus taʼlim;
- oliy taʼlim;
- oliy oʻquv yurtidan keyingi taʼlim;
- malakani oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash tizimi;
- qiziqishlarga koʻra taʼlim.

Mustaqil O'zbekistonda ta'lim sohasida bo'layotgan o'zgarishlar ta'limning ijtimoiy strukturasi katta ta'sir ko'rsatdi. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish, kadrlar tayyorlashni zamon talablari darajasiga ko'tarish sohasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston hukumati ta'limga islohotlarning barcha bosqichlari uchun ham ustuvor soha deb qarab kelmoqda. 1992 yil 2 iyulda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonun ijrosini ta'minlash maqsadida Respublika Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining 30 dan ziyod farmon va qarorlari e'lon qilindi.

1997 yil 27 avgust kuni Oliy majlisning IX sessiyasida "O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risida" Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida mamlakatimizda ta'lim islohoti o'tkazishdan ko'zda tutilgan maqsad, ta'limning vazifalari, dasturni rug'bga chiqarish bosqichlari, kadrlar tayyorlashning milliy modeli asoslab berildi. Milliy dasturda ta'lim islohotlarini uch bosqichda amalga oshirish nazarda tutildi.

Birinchi bosqich (1997-2001 yillar). Bu davrda mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish ko'zda tutilgan.

Ikkinchi bosqich (2001-2005 yillar). Bu davrda Milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarish, shuningdek, majburiy umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga, o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga qarab, tabaqalashtirilgan ta'limga o'tishni to'liq amalga oshirish maqsad qilingan.

Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar)da quyidagi masalalar rejalashtirilgan: To'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish; ta'lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlash; o'quv-tarbiya jarayonini yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash; ta'lim jarayonini axborotlashtirish, uzluksiz ta'lim tizimini jahon axborot tarmog'iga ulanadigan kompyuter tarmog'i bilan to'la qamrab olish kabilar.

Oliy mutaxassislik ta'limi ikki bosqichdan iborat: bakalavrluk - bazaviy oliy ta'lim berish bo'lib, o'qish kamida 4 yil, u oliy ma'lumot va tayanch mutaxassislik diplomini beradi; magistratura - aniq mutaxassislik bo'yicha oliy kasbiy ta'lim bo'lib, bakalavrluk negizida kamida 2 yil davom etadi. Undagi tahsil yakuniy kvalifikatsiyaviy davlat attestatsiyasi va magistrlik dissertatsiyasini himoya qilish bilan nihoyasiga etkaziladi.

Uzluksiz ta'lim tizimining yakunlovchi bosqichi aspirantura va doktorantura (oliy kvalifikatsiyali ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlarni shakllantirish) ni o'z ichiga oladi.

2. Oila sotsiologiyasi. Oilaning vazifalari, tarixiy rivojlanishi, turlari.

Oila sotsiologiyasi – umumiy sotsiologiyaning asosiy yo'nalishlaridan bo'lib, u oilani nikoh asosida tashkil topgan, jamiyat taraqqiyotiga muhim

ijtimoiy vazifalarni bajaruvchi sotsial institut sifatida o'rganadi. Oila sotsiologiyasining alohida vazifalari mavjud bo'lib, ular quyidagilardir:

- jamiyat taraqqiyoti davomida oilaning paydo bo'lishi va rivojlanishi, hamda mavjudlik qonuniyatlarini o'rganish;
- oilaning mohiyati va faoliyati o'zgarib borishini aniqlash;

- nikoh va oila turlari evolyusiyasini o'rganish;
- oila tashkil topishi va taraqqiyotida avlodlarning o'zaro ta'sirini aniqlash;
- oila tarbiyasi;
- oilaning rekreativ faoliyatini va oila huquqining ijtimoiy mohiyatini ochib berish;
- mehnat taqsimotida oila o'rnini o'rganish.

Oila sotsiologiyasi oilaning jamiyat bilan o'zaro bog'liqligiga ham e'tiborini qaratadi. Chunki jamiyat tashkil topishida, uning davomiyligini ta'minlashda oila asosiy ijtimoiy, demografik manba hisoblanadi.

Oila asosini erkak bilan ayol o'rtasidagi nikoh birligi va nasl tashkil etadi.

Oila taraqqiyoti to'g'risida qator nazariyalar mavjud. Quyida biz AQSHlik etnograf L.Morganning oila taraqqiyoti bosqichlari to'g'risidagi fikrini keltiramiz:

- Promiskuitet - g'vvoyilikning quyi bosqichiga xos bo'lib, bunda ayrim oilalar bo'lmagan, oilaviy hayot ijtimoiy hayotga teng bo'lgan.

- Qon-qarindoshlikka asoslangan oilada nikoh qabila va urug' a'zolari orasida bo'ladi. Bunday oila endogam birlikni tashkil qiladi (guruhiy nikoh).

- Punalual oila va ona avlodi bo'yicha yaqin qarindoshlar bilan nikoh man qilinad (guruhiy nikoh).

- Monogam oila bir erkak va bir ayol orasida bo'lib, u otalikni tan olish va oila mulkiga egalik qilishga asoslanadi. Monogam oila eski urug'chilik tuzumining emirilib, yangi kishilik hamjamiyatlarining vujudga kelishi bilan bog'liq.

Oilaning vazifasi uning strukturasi bilan uzviy bog'langan.

Oila funksiyasi sotsiolog M.S.Matskovskiy tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ularga quyidagilarni keltirish mumkin:

- 1) Reprodukativ (nasl qoldirish) funksiya;
- 2) Tarbiyaviy funksiya;
- 3) Xo'jalik-maishiy funksiya;
- 4) Iqtisodiy funksiya;
- 5) Birlamchi ijtimoiy nazorat funksiya;
- 6) Ma'naviy munosabat va aloqalar funksiyasi;
- 7) Ijtimoiy maqomiy funksiya;
- 8) Xordiq chiqarish funksiyasi;
- 9) Emotsional funksiya.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi oilaning jamiyat taraqqiyotidagi, ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom avlodni

tarbiyalashdagi katta ahamiyatini hisobga olib, oilaga daxldor boy hamda chuqur mazmunli milliy an'analarni asrash maqsadida 1998 yil 2 fevralda "Oila" respublika ilmiy-amaliy markazini tuzish to'g'risida qaror qabul qildi.

Markaz O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi huzurida Toshkent Davlat universiteti va Toshkent Davlat pedagogika universitetining oila muammolarini o'rganish bo'yicha laboratoriyalari negizida tuzilgan.

"Oila" markazining faoliyati quyidagi asosiy yo'nalishlar bilan belgilangan:

- boy milliy an'analarni, milliy qadriyatlar asoslarini, ajdodlarimizning oila va jamiyat, oila va mahalla bilan bog'liq merosini o'rganish hamda tarqatish;

- umuminsoniy qadriyatlarning milliy oilaviy tarbiyadagi rolini oshirish va ularning oilada uyg'unlashuvini ta'minlash;

- oilaning pedagogik, psixologik, ijtimoiy-psixologik, etnopedagogik, etnopsixologik muammolarini o'rganish, shuningdek ularni rivojlantirish bo'yicha takliflar va tavsiyalarni tayyorlash;

- oilaning ijtimoiy-iqtisodiy holatini, uning demografik xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish;

- oila, ayollar va bolalarning ijtimoiy-iqtisodiy maqomini aks ettiruvchi statistika axborotini to'plash va umumlashtirish;

- oilani rejalashtirishni, uning sog'lig'i tibbiy-biologik asoslarini ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etish, uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish;

- yoshlarni oila hayotiga tayyorlashni yaxshilash uchun nikoh ahdi saroylari va salomatlik markazlari huzurida maxsus o'quv-tarbiya kurslari tashkil etish;

- oilaning huquqiy bilimlarini tubdan oshirish va uni muhofaza qilish bo'yicha ilmiy-amaliy faoliyat olib borish;

- bolaning oiladagi qonuniy huquqlari va manfaatlarini muhofaza qilish, ota-onalarning bolalar sog'lig'ini mustahkamlash va ularni maktabga tayyorlash mas'uliyatini oshirishdagi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish;

- ma'naviyat, madaniyat va maorifni yanada rivojlantirish orqali oilada uyg'un kamol topgan avlodni tarbiyalashning samarali, maqbul usullarini ishlab chiqish;

- oila va jamiyat muammolari hamda ularni hal etish bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ilmiy-ommabop risolalar yaratish;

- oila va jamiyat muammolari bo'yicha xalqaro aloqalarni o'rnatish.

5-MAVZU: DEVIANT XULQ ATVOR VA YOSHLAR SOTSIOLOGIYASI

Reja:

- 1.Deviant xulq-atvor nazariyasining mazmun-mohiyati.
- 2.Deviant xulq-atvor turlari va ko'rinishlari.
- 3.Sotsial me'yor va sotsial nazorat.
- 4.YOshlar sotsiologiyasining maqsad va vazifasi
- 5.YOshlarning ijtimoiy muammolari

Deviant so'zi – lotincha “**deviatio**” so'zidan olingan bo'lib, chekinish, buzilish degan ma'noni anglatadi. Deviant xulq-atvor – mavjud jamiyatda o'rnatilgan axloq me'yorlariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki xatti-harakat, ijtimoiy xodisadir.

Ma'lumki, zamonaviy G'arb sotsiologiyasida deviant xulq-atvorga turlicha qarashlar mavjud. Deviant xulq-atvorning eng ko'p tarqalgan va jamiyatda yaqqol namoyon bo'lish turi jinoyatchilik bo'lib, ijtimoiy me'yorning buzilishi sifatida ushbu xodisa fanda juda qadimdan o'rganilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib. pozitivistik maktab shakllanishi bilan., jinoyatchilikni ham sababiylikda o'rganuvchi ta'limotlar paydo bo'la boshladi. Jumladan, italiyalik psixiatr **Ch. Lombrozo** Italiya qamoqxonalariidagi 14 ming maxbus ustida tekshirish olib borib, “jinoyatchilar tug'ma bo'lishadi” degan xulosaga kelishadi. Uning shogirdi **E.Ferri** jinoyatchilik sotsiologiyasi asarida ushbu omilga qo'shimcha ravishda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy omillarni ham ko'rsatadi. Keyinchalik ushbu ta'limotlar turli tanqidlarga uchragan bo'lsada, hozirgi kungacha ham G'arb sotsiologiyasining ba'zi namoyondalari ushbu ta'limotning u yoki bu yo'nalishlarini rivojlantirib kelishmoqda. Ularning ta'limotlariga ko'ra ichki sekresiya bezlari, aqliy rivojlanganlik darajasi, xromosomalarning tuzilishi va irsiy sabablar jinoyatchilik va shu kabilarni tug'ma yoki biologik omillarni shakllanishiga ta'sir qiladi

Ushbu ta'limotlarga qarama-qarshi o'laroq, sotsiologiyada ijtimoiy me'yor buzish jarayonlarini to'la ijtimoiylikda tushuntiruvchi dastlabki ta'limot **E.Dyurkgeymning anomiya g'oyasi** edi. Bunga ko'ra eski me'yorlar va qadriyatlar mavjud munosabatlarga mos kelmay qolishi va yangiliklarining o'rnatilmaganligi natijasida individlar xulq-atvorini tartibga soluvchi qat'iy axloqning mavjud emasligi tushuniladi.

R.Feris, Tiriakyan, T.Shibutani va boshqalarning fikricha, deviant xulq-atvor sotsial buzilishlar natijasidir. Ijtimoiy ziddiyatlar ta'limotiga ko'ra, sotsial tizimda begona madaniyatga asoslangan madaniy xulq-atvor namunalari me'yor buzuvchi xulq-atvordir.

Amerika sotsiologiyasida **E.Saterlendning** differensial, katta o'rin tutuvchi ta'limotlardan biri aloqalar ta'limotidir. Bunga ko'ra, har qanday xulq-atvorga, shu jumladan me'yor buzuvchi xulq-atvorga ham u ham o'rganiladi, ya'ni mavjud jamiyat a'zolari tomonidan mazkur xulq-atvor me'yorlari boshqalarga o'rgatiladi.

Fenomenologik sotsiologiya namoyondalarining e'tirof etishlaricha, sotsiologik taxlil “yorliq yopishtirishga” asoslanishi kerak. Ularning fikricha, me'yor buzish sotsial baho va sanksiya qo'llash natijasidir.

Interaksionizm nazariyasiga ko'ra, (vakillari **G.Bekker, D.Kitsus, K.Erikson va boshqalar**) xodisani salbiy va ijtimoiy xavfli deb baholash nisbiy bo'lib, buni jamiyatdagi hukmron guruhlar belgilaydi. Shafqatsiz jamiyat himoyasiz insonni jinoyatchi qilib qo'yib, ezaveradi.

Z.Freydning fikricha, inson xulq-atvorining asosida atrof-muhitni ongli baholash bilan ongsiz ishtiyoq orasida ziddiyat yotadi. Ongsizlik asosida esa insonga beshikdan to qabrgacha soyadek ergashib yuradigan, uning barcha fikr va istaklarini belgilaydigan jinsiy rag'bat – "**libido**" yotadi. Barcha atrofimizdagi voqea-hodisalarni jinsiy rag'bat belgilaydi. Inson ruhiyatidagi barcha jarayonlar hayot instinkti Eros va o'lim instinkti -tanatos o'rtasidagi kurash natijasi bo'lib, har qanday xulq-atvor, jumladan noto'ri xulq-atvor ham, jinsiy rag'bat va yashash uchun kurash natijasidir.

Deviant xulq-atvorga **R.Merton** ishlab chiqqan ta'limot zamonaviy sotsiologiyada yetakchi o'rin tutadi. **E.Dyurkgeymning** anomiyasini rivojlantirib, **Merton** deviant xulq-atvorga quyidagicha ta'rif beradi; "**Deviant xulq-atvor jamiyatda e'lon qilingan qadriyatlar va rasmiy xulq-atvor standartlari bilan aholi xulq-atvori motivlari va mavjud imkoniyatlarning bir-biriga mos kelmay qolishi natijasidir**". Jamiyatning rasmiy tuzilmalari tomonidan maqsadga erishishning turli guruhlar uchun turlicha imkoniyatlar yaratib berishi natijasi bo'lmish funksional kamchiliklar maqsadga erishishga xizmat qiluvchi norasmiy tuzilmalarning tashkil bo'lishiga olib keladi. Maqsad va vositalarga turlicha munosabat quyidagi xulq-atvor turlariga olib kelishi mumkin.

1. **Bo'ysunish** (maqsad va vositalarni qabul qilish).
2. **Innovasiya** (maqsadlarni qabul qilish va vositalarni inkor qilish).
3. **Ritualizm** (maqsadlarni inkor etish va vositalarini qabul qilish).
4. **Retretizm**, chekinish (maqsad va vositalarni inkor qilish).
5. **Isyon** (maqsad va vositalarni inkor qilib, yangilarini o'rnatish).

Deviant xulq-atvor nazariyasida ijtimoiy me'yor markaziy o'rin tutar ekan, avvalo ijtimoiy me'yorning o'zi nima va uning qanday turlari mavjudligini shuningdek, deviant xulq-atvorning eng ko'p uchraydigan va yaqqol namoyon bo'ladigan turlari; jinoyatchilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik va fohishabozlikning nima ekanligini aniqlab olishimiz kerak.

Ijtimoiy me'yor – jamiyat boshqaruvining ajralmas qismi bo'lib, ma'lum shart-sharoitlarda shaxs yoki ijtimoiy guruh xulq-atvorining morslashishi vositalaridan biri va ularning xulq-atvorlarini jamiyat tomonidan nazorat qilish vositasidir.

Ijtimoiy me'yorning bir qancha turlari mavjud;

1. **Xuquq**. Individda nisbatan ob'ektiv, tashqi uning xulq-atvorini boshqaruvchi qoidalar tizimi. Har qanday jamiyatda xuquq hukmron tabaqa demokratik ko'pchilik yoki butun xalqning yagona irodasini namoyon etuvchi va shu sababli hech qanaqa o'xshatmasi yoki muqobili bo'lmagan yagona me'yorlar majmuidir.

2. **Axloq**. Etika mutaxassislarining fikricha, umumiy va xususiy manfaatlarining moddiy determinasiyalashgan qarama-qarshiliklaridan kelib

chiqadi. Insonning o'zini takomillashtirish va o'z imkoniyatlarini rivojlantirish qobiliyatlarini anglatadi. Xuquqdan farq qilib, axloq birinchidan, baholash vazifasini bajaradi (yaxshi-yomon, adolatli-adolatsiz), ikkinchidan, uning me'yorlari birinchi navbatda nomus, burch, vijdon, adolat va shu kabi tushunchalarni mujassamlashtirgan ichki ruhiy kechinmalar orqali faoliyat yurgizadi.

3. **Urf-odatlar.** Ushbu me'yoriy tizim xulq-atvorning erkin moslashuvchi, shu sababli odatga aylangan tarixiy shakllangan namunalari, asosan kishilarning birga yashash qonuniyatlarini ifodalaydi. Axloqiy me'yorlardan farq qilib, urf-odatlar aniq va bir xil, ba'zan to'la shakllangan ko'rinishga ega bo'ladilar.

4. **Diniy me'yorlar.** Ushbu tizim juda qadimiy bo'lib, diniy ta'limot tavsifiga ko'ra diniy me'yorlar ham turlicha bo'ladi. Shuningdek, mazmuniga ko'ra diniy me'yorlar turli, xuquqiy, axloqiy, urf-odat, estetik va tashkiliy me'yorlarni o'z ichiga oladi va shu sababli ko'pincha yuqoridagi me'yoriy tizimlarning har birining boshqaruv xususiyatlarini qamrab olishi mumkin. Diniy me'yorlar ichki ta'qiqlar bilan birga tashqi ta'qiqlar orqali ham ta'sir qiladi. Tarixiy tajribada, hamda hozirgi jarayonlar, ayniqsa islom davlatlarida aksariyat diniy me'yorlar dindorlar uchun kuchli ta'sir vositalari hisoblanib, ularni turli jinoyatlar, fohishabozlik va ichkilikbozlik kabi illatlardan saqlab turuvchi vosita ekanligini ko'rsatmoqda.

Deviant xulq-atvorni fanda turlarga ajratib o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Fanda ushbu jarayonlarni turlicha tasniflash mavjud bo'lib, shulardan biri ularning ham ob'ektiv ham sub'ektiv tomonlari bilan bo'liq bo'lgan tasniflashdir. Bunga ko'ra deviant xulq-atvor turlari 2 guruhga bo'linadi;

a) tashqi muhitga yo'naltirilgan xulq-atvor (ekstravertiv (masalan, jinoyatchilik));

b) shaxsning o'ziga yo'naltirilgan xulq-atvor (intravertiv (masalan, ichkilikbozlik)).

Deviant xulq-atvorning bundan tashqari quyidagi turlari mavjud;

a) **jinoyatchilik.** Ma'lum bir xududda, ma'lum bir davrda sodir etilgan barcha jinoyatlardan iborat bo'lib, jamiyatdagi nisbatan ommaviy tarixan o'zgaruvchan ijtimoiy xuquqiy xodisadir.

b) **ichkilikbozlik.** Ilmiy adabiyotlarda bir necha qarashlar mavjud bo'lib, aksariyat mualliflar ichkilikbozlikni quyidagilarshga ajratadilar; 1) alkogolni xar -har zamonda iste'mol qilish. 2) alkogolni ko'p iste'mol qilish - spirtli ichimliklarni tez-tez (hafta bir martadan bir necha martagacha) yoki har -har zamonda bo'lsa ham ko'p miqdorda (200 ml dan oshiq). Bu ko'pincha alkogolizmga olib keladi.

3) **alkogolizm.** - spirtli ichimliklarga patologik (muttasil) o'rganib qolish bilan tavsiflanuvchi kasallik.

v) **giyohvandlik.** Giyohvand yoki unga tenglashtirilgan vositalarni tibbiy ko'rsatmalarsiz iste'mol qilish. Ijtimoiy tibbiy sohada giyohvandlik tushunchasining narkotik iste'mol qilish bilan bo'liq ikki turi mavjud; kasalliksiz, bunda narkoman ixtiyoriy ravishda giyohvand moddalar iste'molini

to'xtata oladi; kasal (odatiy), bunda narkoman giyohvan moddalar iste'molini ixtiyoriy ravishda to'xtata olmaydi.

g) fohishabozlik. Fanda nikohsiz jinsiy aloqaning ikkita turi mavjud. 1. Konkubinat - nikohsiz birga yashash. 2. Fohishabozlik- pul uchun o'z tanasini sotish. G'arbda asosan ikkinchisi qoralansada, bizda ikkila holatda ham axloqsizlik deb qaraladi.

Me'yor doimiy, o'rtacha tushuncha bo'lganligi sababli uning salbiy va ijobiy ma'noda buzilish mavjuddir. Jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi har qanday yangilik me'yorni ijobiy ma'nodagi buzilishidir.

Sotsiologiya predmetining asosiy tushunchalari sotsial status va sotsial rol hisoblanadi.

Status deb insonning guruhdagi yoki jamiyatdagi pozitsiyasi, o'rniga aytiladi. Guruhda lider bo'lish norasmiy yoki shaxsiy statusni bildiradi. Injener, erkak, er, o'zbek, rus, provoslav, musulmon, biznesmen bo'lish rasmiy statusni bildiradi. Sotsial status rol orqali amalga oshiriladi. O'qituvchi bo'lish "o'qituvchi" statusiga ega bo'lish va o'qituvchilik rolini bojarishni anglatadi. Har o'anday status huquq va majburiyatlar majmuasidan tashkil topgan. Ma'lum statusga birlashtirilgan rasmiy xuquq va majburiyatlarga mos keluvchi hatti-harakat modeli sotsial rol deb ataladi. Inson, odatda bir statusda bo'lib bir rolni bajarishi mumkin. Huddi shu inson bir qancha statusga ega bo'lishi mumkin. M-n, erkak, xarbiy, talaba. Demak, bir insonda bir qancha status va shuncha rol bo'lishi mumkin. Ibtidoiy jamoa tuzumida statuslar kam bo'lgan: qabila boshlig'i, erkak, ayol, qiz, shaman, qariya, ovchi, farzand, va h.k. Zamonaviy jamiyatda professional statuslarning o'zi, 40.000 ga yaqin, oila, nikoh-qorindoshlik munosabatlari 200 ga yaqin (qaynisingil, er, xotin, amma, tog'a, amaki...), yuzlab siyosiy, diniy, iqtisodiy statuslar mavjud. Ularning har birini orqasida esa etnik guruh-millat, elat, qabila va h.k. mavjud. Bular ham statuslar, ular demografik sistemaga kiradi. Rus sotsiologi A. Kravchenko jamiyatning sotsial strukturasini arining uyasiga qiyoslaydi. Ko'p sonli bo'sh yacheykalar bir biriga qapishgan. Sotsial uyalar bir biriga mustahkam fundament-sotsial funksiyalar bilan bog'langan. Sotsial rollarni ijro etayotgan individlar o'zaro sotsial harakatga kirishadilar. bu regulyar va takrorlanuvchi jarayon. Faqat takrorlanuvchi sotsial o'zaro harakatlar sotsial munosabatlarga aylanadi.

Katta sotsial guruhlarning yig'indisi aholining sotsial sostavi dab ataladi.

Har bir insonda qondirilishi shart bo'lgan fiziologik, sotsial, ma'naviy ehtiyojlar mavjud bo'ladi. Muhim yoki fundamental ehtiyojlar hammada bir hil bo'ladi, ikkinchi darajali ehtiyojlar esa turlicha bo'ladi. Jamiyatning fundamental ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladigan muassasalar sotsial institutlar deb ataladi. Oila, din, ishlab chiqarish, ta'lim, davlat, mahalla-insoniy jamiyatning sotsial institutlari hisoblanadi. Sotsial institutlar majmuasi jamiyatning sotsial sistemasi deyiladi.

Yoshlar sotsiologiyasining o'ziga xos xususiyatlari.

Yoshlar sotsiologiyasi XX asrning 20-yillarida Olmoniyada, AQShdava Fransiyadashakllandi. 1928 yilda K.Mangeymning«Avlod muammosi» asaribosilib chiqdi. Bu asar yoshlarning sotsiologik muammolari ilmiy asosda o'rganilgan dastlabki asarlardanedi.

XX asrning 60-yillaridan yoshlar muammolarini tahlil qilishga va yechishga qaratilgan asarlar ko'plab chop etila boshlandi. Olmoniyada yoshlar sotsiologiyasi bo'yicha G.Shelskiyning «Skeptik avlod» (1957), F.Tenbrukning «Yoshlar va jamiyat» (1962); Venadagi sotsiologik institut direktori L.Rozenmayrning «Empirik sotsial tadqiqot bo'yicha qo'llanma» (1969), Amerika sotsiologi D.Kempbellning «Sotsializasiya bo'yicha spravochnik» (1969), Amerika sotsiologi S.Eyzenshtadtning «Avloddan avlodga» (1966) asarlari yoshlar sotsiologiyasining keng rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi.

Hozirga davr yoshlar sotsiologiyasi doirasida yoshlar hayotini ilmiy-sotsiologik o'rganishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Yoshlar muammosini o'rganishda tarixiy yondoshish lozimligi. Yoshlarning ijtimoiy qarashlariga, hulqiga, qiziqishiga va boshqa jihatlarini tadqiq etishdamuayyan tarixiy davr, shart-sharoitlarning o'zigaxos xususiyatlaridankelib chiqib baho berish talab qilinadi. Masalan,hozirda, shakllanib kelayotgan bozor munosabatlari sharoitida yoshlarning ijtimoiy qarashlari, qiziqishlari va yuzaga kelayotgan muammolar avvalgi davr, ijtimoiy-iqtisodiy tuzumdagiga nisbatan o'zgarib, yangicha mazmunga va xususiyatlarga ega bo'lmoqda.

2. Yoshlarning o'zigaxos turmushtarzini tahlil qilish va o'rganish. Bunda yoshlarning ijtimoiy holati, hayot kechirish tarzi va uning rivojlanishini nazariy va empirik jihatdan o'rganish.

3. Yosh avlodni har jihatdan rivojlanib borishinitahlil qilish. Mavjud ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitning, muhitning o'zgarishi oqibatida avlodlar o'rtasida doimo muayyan rivojlanish ro'y beradi. Shu sababli, keksa avlod bilan yoshlar o'rtasidao'zaro ziddiyatvujudga keladi. Ko'pincha, yoshlarningmanfaat va qiziqishlari, faoliyati, tashqi ko'rinishi (moda) keksa avlodda norozilik, e'tiroz tug'diradi.

4. Yoshlarga tabaqaviy jihatdan yondashib.Bu metodologik tamoyil yoshlarni turli tabaqalardan iborat guruhlariga ajratib o'rganishni bildiradi. Bozor munosabatlariningtarkib topa borishi bilan yoshlar o'rtasida ham tabaqalanish yanada kuchayishi tabiiydir.hozirdanoq ularning turli ijtimoiy tabaqalarga ajralish jarayoni ro'y bermoqda. Birtomondan, jamiyat ijtimoiy rivojlanishigasalmoqli ta'sir ko'rsatuvchi yoshlar guruhlari: talabalar, yosh olimlar, ishchilar,fermerlar, ishbilarmon yoshlar, san'atkorlar, savdogar yoshlar kabi guruhlar salmog'i ortib borayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa yoshlar, bekorchi-sayok, giyoxvand, jinoyatchi kabi yoshlar jamiyat xayotida salbiy, disfunkional ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, hozirda O'zbekiston miqyosida jinoyatchilikning 85 foizga yaqini 25 yoshgacha bo'lgan yoshlar tomonidan sodir qilinayotganligini e'tiborga olsak, yoshlar

sotsiologiyasining jamiyat hayotida naqadar katta ahamiyatga egaekanligini anglash mumkin bo'ladi.

Sotsiologiyada yoshlik bolalik davridan so'ng ulg'ayish davrigacha bir necha bosqichlarga ajratilib ko'rsatiladi. Masalan, yoshlikning dastlabki, quyi chegarasi 14-16, yuqori chegarasi esa 25-30 yoshlarni o'z ichiga oladi. 20 yoshgacha bo'lgan yoshlarda asosiy muammo, ularning kasb tanlashi, ma'lumot olishi va hayotga mustaqil qadam qo'yishi bilan bog'liq vazifalarni o'z ichiga oladi.

Sotsiologiyaning bu maxsus nazariyasi jamiyatni barcha ijtimoiy sohalaridagi yoshlar bilan bog'liq muammolarni o'rganadi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoiti va yoshlar muammosi; xalq xo'jaligi, fan va madaniyatning yosh mutaxassis kadrlarga bo'lgan ehtiyoji; ta'lim tizimi va yoshlarni mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlash; demografik jarayonlar va yoshlarni ish bilan ta'minlash; yoshlarning ma'lumot olishi va kasb tanlashi muammosi; yoshlarning kasb tanlashi va sotsial mobillik; yoshlarni kasb tanlashida milliy, hududiy va mintaqaviy xususiyatlar; yoshlarning ma'lumot olish imkoniyatlarini oldindan prognoz berish; yoshlarda mehnat malakasini shakllantirish masalalari; shahar va qishloq yoshlari hayoti; yoshlarning turmush darajasikabi masalalar shular jumlasidandir. Ushbu ma'lumotlar bo'yicha empirik va nazariy jihatdan sotsiologik tadqiqot olib borish. ularning statik va dinamik xususiyatlarini o'rganish muhim hisoblanadi.

Yoshlar sotsiologiyasining o'ziga xos qiyin, murakkabligi ham, uning ko'p qirraligidadir. Ayniqsa, bozor munosabatlariga o'tish jarayonida yoshlarni ish bilan ta'minlash muammosi dolzarb masalalardan biridir. Bu muammoni hal etib borilishi yoshlar bilan bog'liq bo'lgan ko'plab masalalarning yechimini topishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu borada, viloyatlarda yoshlarni ish bilan ta'minlash borasida «Usta va shogird» tizimi asosida ko'plab ishlar qilinmoqda. Bundan asosiy maqsad, yoshlarni milliy hunarmandchilikka, qadriyatlarga, an'analarga hurmat va e'zoz bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash hamda ularni moddiy jihatdan ta'minlashni yaxshilashdan iboratdir..

Yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning tarkib topa borishi, ayniqsa, yoshlarning ijtimoiy qarashlarida jiddiy o'zgarishlar yasamoqda. Shuning uchun yoshlarning kelajak hayoti rejalarini, ularning qiziqishlarini aniqlash maqsadida empirik-sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish va nazariy xulosalar chiqarish yoshlar sotsiologiyasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozim, yoshlarning kelajak hayotini rejalashtirish eng avvalo oiladan boshlanadi. Bu jihatdan yoshlar oila sotsiologiyasi bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

Yoshlarning kasb tanlashi, ish joylariga ega bo'lishi ishlab chiqarishning intensiv ravishda rivojlanishi va yuksak texnologik takomillashuv jarayonida ko'p jihatdan ta'lim tizimining sifatiga ham bog'liq. Bu jihatdan esa yoshlar sotsiologiyasi ta'lim, ilm-fan sotsiologiyasi bilan yaqin aloqadadir.

Prezidentimiz Islom Karimov o'zining qator asarlarida, so'zlagan nutqlarida hozirgi davrda mamlakatimizda yoshlar hayoti va faoliyatiga doir qator muammolarni ko'rsatib o'tgan.

O'zbeki tonda yoshlar xayoti va faoliyatining ijtimoiy masalalari

O'zbekiston yoshlar mamlakati. Bugungi kunda mamlakatimizda o'ttiz yoshgacha bo'lganlar 17 million sakson ming nafarni yoki aholining 64 foizini tashkil etadi. Prezident I.A. Karimov yoshlarning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi muhim o'rniga alohida ahamiyat qaratgan holda, quyidagi fikrni aytganlar: "...Ta'lim-tarbiya va professional tayyorgarlik darajasi bilan kelajagimizni, demokratik va iqtisodiy taraqqiyotimizning taqdirini hal qiladigan, jamiyatimiz hayotida munosib o'rin egallashga layoqatli bo'lgan, mamlakatimizni isloh etish va yangilash bo'yicha belgilab olgan yuksak maqsadlarimizga erishish yo'lida tom ma'noda tayanch, suyanch va hal qiluvchi kuch – **yoshlar** hisoblanadi."

Demograflarning tadqiqotlariga qaraganda, mamlakatimiz aholisining yuqori suratlarda o'sishi yaqin chorak asrda ham davom etadi. 2015 yilga kelib O'zbekiston aholisi 1,5 barobarga ortib, jami 36 million 330 ming kishidan ortishi kutilmoqda. Shu davr mobaynida mehnatga yaroqli aholi soni ham ikki barobarga oshadiva 2015 yilda qariyb 20 million nafar kishini tashkil etadi.

Bu raqamlar faqat yurtimiz aholisining son jihatdan o'sishiniginako'rsatib qolmay. u navqiron millat sifatida katta intellektual imkoniyatlarga ega ekanini, ham, namoyon; etadi. Ana shu bois ham mamlakatimiz Prezidenti I Karimov istiqlolning ilk yillaridayoq «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat» degan g'oyani ilgari surdi.

Milliy mafkuramizning muxtasar shioriga aylangan ushbuso'zlar nafaqat ruhlantiruvchi da'vat, balki amaliy natijaga aylanish uchun davlat jamiyatning eng faol qatlamibo'lgan yoshlarga asosiy e'tiborni qaratmokda. «Sog'lom avlod uchun» ordenining ta'sis etilishi, «Kamolot», «Umid», «Mirzo Ulugbek» jamg'armalarining tuzilishi, yoshlar muammolari instituti faoliyatining yo'lga qo'yilishi, «O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni», «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» hamda «Yoshlar yili» Davlat dasturining qabul qilinishi va hayotga jadal joriy etilayotganligi yuqoridagi fikrlarning amaliy isbotidir.

Ta'kidlash joizki, «Yoshlar yili» Davlat dasturining eng muhim xususiyati, u nafaqat bir yilga mo'ljallangan maqsad va vazifalarni emas balki, davlatimizning yoshlar siyosatiga doir dolzarb vazifalarni bajarish bilan bog'liq butun bir davrning mazmun-mohiyatini o'zida mujassam etadi.

«Yoshlar yili» Davlat dasturi quyidagi to'qqiz bo'limdan iborat.

Uning birinchi bo'limi «Yoshlar manfaatlarini yanada to'liqroq ta'minlash va ularning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan normativ-xuquqiy bazani takomillashtirish deb yuritiladi».

Ikkinchi bo'lim ta'lim sohasida qabul qilingan umummilliy Davlat dasturining so'zsiz bajarilishini ta'minlash masalalariga qaratilgan.

Uchinchi bo'limda ta'lim va kadrlar sifatini tubdan oshirish, mustaqil fikrlaydigan, o'zining qat'iy hayotiy e'tiqodi va qarashlariga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash haqidagi masalalarga bag'ishlangan.

Dasturning to'rtinchi va beshinchi bo'limlarida kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar bitiruvchilarining ishga joylashishi, mehnat jamoalarida moslashuviga ko'maklashish, yoshlarning ayniqsa, kichik shahar va qishloq joylarida ish bilan ta'minlanishiga qaratilgan chora-tadbirlar o'z ifodasini topgan. Davlat dasturida iqtidorli yoshlar bilan ishlash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Bolalarning ijodiy qobiliyatlari, iqtidorini barvaqt aniqlash uchun shart-sharoitlar yaratishga dasturning oltinchi bo'limi bag'ishlangan.

«Yoshlar yili» Davlat dasturining yettinchi bo'limi yoshlaroda sog'lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, yoshlar sportini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan.

Sakkizinchi bo'limda yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab quvatlash ularning ma'naviy boy va jismonan sog'lom bolalarni tarbiyalashi uchun munosib uy-joy va maishiy turmush sharoitlarini yaratish haqida so'z boradi.

Yoshlar yili Davlat dasturining tadbiq etish muvaffaqiyati ko'p jihatdan jamiyat a'zolarining undan qay darajada xabardorligi, uni amalga oshirish mas'uliyatini qay darajada his qila olishiga bog'liq. Shuning uchun ham uning to'qqizinchi bo'limi yoshlar yili dasturining mazmun-mohiyatini jamoatchilikka yetkazish masalalariga bag'ishlangan.

O'zbekistonning o'z istiqbolini yoshlardako'rishi sotsiolog olimlar oldiga ham ulkan vazifalarni qo'yadiki, bu sharaflı yumush jamiyatimizdagi muhim ijtimoiy qatlamning ijtimoiy qiyofasi, tavsifini, o'rganish, orzu-niyatlarihaqida doimo boxabarlikni ta'minlashdan tashqari ular faoliyatini optimallashtirish, ezgulikka yo'naltirib turish, oxir oqibatda esa barkamol avlodni tarbiyalashga ham hissa qo'shishdan iboratdir. Shu boisdan ham yurtboshimizning «Biz iste'dodli, fidoyi bolalarimizga, farzandlarimizga bilimva kasb cho'qqilarini zabt etishi uchun qanot berishimiz kerak» degan fikrlari juda muximdir.

Ta'kidlash joizki, yoshlaring intellektual-ruxiy kamoloti ularning ma'naviy o'z-o'zini anglash jarayonlari bilan bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida yoshlar xarakterida ijtimoiy ideallarning susayib ketishiga yo'l qo'yilmaslik muximdir.

Yoshlarning milliy o'zligini anglash sharoitida ular ijtimoiy manfaatlarini o'rganish hamda nazariy jihatdan tadqiq etish muxim ahamiyatga ega bo'lib, bular quyidagilardir:

- fikrlar xilma-xilligi nuqtai nazaridan mustaqillik sharoitida ijtimoiy manfaatlar mavjud konsepsiyalar orqali tahlil etiladi va zamonaviy sharoitlarga xos bo'lgan qarashlar tarzida ifodalab beriladi;

- ijtimoiy manfaatlarning jamiyat taraqqiyotidagi oʻrni, ahamiyati zamonaviy siyosiy jarayonlarda siyosiy va iqtisodiy manfaatlar bilan oʻzaro uygʻun tarzda oʻrganiladi;
- ijtimoiy manfaatlar mohiyati, mazmuni hamda jamiyat rivojidagi oʻrni masalalarini sotsiologii jihatdan tahlil etadi;
- jamiyatda etnosiyosiy jarayonlarni tahlil etib, ularning millatlararo munosabatlarga taʼsirini hamda milliy manfaatlardagi oʻrnini koʻrsatadi;
- etnik masalalarning ijtimoiy taraqqiyot va jamiyat rivojidagi voqea-xodisalarga oʻzaro alokadorlik dialektikasini oʻrganib, ushbu jarayonning jamiyat taraqqiyoti bilan bogʻliq xususiyatlarini tahlil etadi;
- jamiyatda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va maʼnaviy omillarning ijtimoiy manfaatlarga taʼsirini oʻtkazadi;
- xozirgi davrda ijtimoiy taraqqiyotga xos jarayonlar rivojida etnik manfaatlarining uslubi, milliy va umuminsoniy mazmun kasb etish xususiyatlarini nazariy tadkit etadi.

Sotsiologiya fani yoshlarnijamiyatdagi ijtimoiy va ruxiy oʻziga xos holatga ega boʻlgan yirik ijtimoiy gurux sifatida oʻrganadi. Bu ijtimoiy va ruxiy xolatda ularningnafaqat yoshdagitafovutlari,balki ijtimoiy-iqtisodiy, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy mavqei ham oʻz ifodasini topadi. Yoshlar deganda,maʼnaviy dunyosishakllanish jarayonida boʻlgan, asosan16-30 yoshlardagi insonlar tushuniladi.

Biroq, yoshlarning ijtimoiy jihatdan bir-biridan farqlanishi ayrim mutaxassislarni yoshining yuqori chegarasini turli guruxlarningijtimoiy-iqtisodiy va kasbiy sifatleri shakllanishi davomiyligiga qarab aniqlashga undamokda. Jumladan, yosh ishchining bir kasb boshini qatʼiy tutishi asosan25 yoshlarda amalga oshsa, yosh olim 35 yoshida shakllanibulgʻayadi. Yosh chegaralari u yoki bu mamlakatdagi mavjud tarixiy sharoit hamda ijtimoiy tuzumga bevosita bogʻliqdir. Masalan,bolalarva oʻsmirlarmehnatini keng qoʻllash yoshlar deb ataladigan qatlamning pastkichegarasini ancha quyi yoshdan aniqlashni taqozo etadi.

Koʻpgina mamlakatlarda yoshlikning quyi chegarasi tegishli xuquqiy-meʼyoriy xujjatlarda yozib qoʻyilgan. Mustaqil kasb faoliyati bilan shugʻullanish xuquqi va imkoniyatlari, ijtimoiy-siyosiy hayotda qatnashish xuquqi, oʻz xatti-xarakatlari uchunfuqaro sifatidajavob berish qobiliyati, nikohga kirish huquqi mana shu quyi chegarani aniqlashni taqozo etadi.hozircha bu jaxon tajribasida 14-16yoshni tashkil etadi.

Yoshlar tarkibiga kiruvchi oʻquvchilar, talabalar, yosh ishchilarva boshqalar ijtimoiy-ruhiy yaqinligi, qiziqishlarining umumiyligi nafaqat bir mamlakat xududida, balki butun jaxon uzra ularning ommaviy chiqishlari, birgalikda harakatiga sabab boʻladi. Yetimlarning mustaqil hayotga qadam qoʻyish jarayonidagi murakkabliklarva qarama-

qarshiliklargohida ularning turli shakldagi, jumladan, aksil ijtimoiy (jinoyatchilik, giyoxvandlik kabi) noroziliklarini, shuningdek, o'ziga xos yoshlar «madaniyati»ni keltirib chiqaradi. Jamiyatni sinflarga bo'lishni odat qilgan sho'rolar zamonida ayrim mutaxassislar yoshlarnialoxida sinf deb qarashga moyilbo'lgan paytlarham bo'lgan. Biroq kommunistik mafkura mutaxassislari ham yoshlarni jamiyatdagi bir qatlam ekanini e'tirof etishga majbur bo'ldilar.

Yoshlik-bu ilohiy idealni izlash, maqsadlarniva hayotiy pozisiyani shakllantirish, kasb tanlash, oilaviy hayotga tayyorgarlik pallasidir. Xayotga qadamqo'yayotgan yigit-qizlar uchun ular faoliyati ijtimoiy foydali bo'lishgina emas, balki bu faoliyat shaxsiy maqsadlariga, intilishlariga muvofiqligi, hayot rejalarining amalga oshishiga mumkinqadar to'laroq ko'maklashishi ham g'oyat muhimdir.

Jamiyat o'z oldigamustaqil fikrlovchi erkin shaxsnishakllantirish vazifasini qo'ymoqda. Bu o'z qadr-qimmatini anglaydigan, irodasibaquvvat iymonibutun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash deganidir. Shundagina ongliturmush kechirish jamiyat hayotiningbosh mezoniga aylanadi. Prezident I.Karimov aytganidek, «Shuncha odam olomonbo'lib, har laxzada serqirraehtiyoy sezibemas, aksincha aqli, o'z tafakkuri, o'z mehnati, o'z ma'suliyati bilan ongli tarzda ozod va hur fikrli bo'lib yashaydi. Bundaodamlar uyushganjamiyatini, ular barpo etgan ma'naviy-ruhiymuhitni soxta aqidalar,baqiriq-chaqiriqlar, xavoyi shiorlar bilan aslo buzib bo'lmaydi. Ularni o'zlari aql-idrok va qalb amri bilan tanlab olgan hayotiy maqsadlardan chalg'itib bo'lmaydi.

Xorijdagiayrim siyosiy kuchlar jamiyatimizningistiqloli bo'lgan yoshlarimiznio'z ta'siriga olishga urinayotgan ayni zamonda ta'lim-tarbiyatizimizni, jumladan,sotsiologiya faninazariyasini yoshlarga qaratishimiz, ular muammolari, uy-tashvishlarini bilib, yoshlar siyosatini ilmiy asosga ko'chirishimiz asosida yuqorida ta'kidlangan ijobiynatijalarniqo'lga kiritishimiz mumkin bo'ladi.

Mamlakatimizda yoshlarningo'z kelajaginiqurishi uchun kengimkoniyatlar ochildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasidayoshlarningmehnat qilish, kasb tanlash va ma'lumot olish xuquqi kafolatlangan. O'zbekistan xukumatiyoshlarga alohida e'tibor qaratmoqda. Yosh mutaxassislar davlatboshqaruvining ma'suliyatli ishlariga ko'proq jalb etilmoqda. Ayniqsa, iqtidorli yoshlarga alohida e'tibor berilib, ularning faoliyati mavjud iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramasdan, moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlanmoqda.

“2001 yil 25 aprelda O'zbekiston Respublikasi “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining ta'sis quriltoyi bo'lib o'tdi. Bugungi kunda harakatning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida 201 ta tuman (shahar) – bo'limlari Kengashlari, 20 mingga yaqin boshlang'ich tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda. 7 mln. 200 mingdan ortiq 14 dan 28 yoshgacha bo'lgan yoshlarning 4mln. 700 ming nafari yoki 65,3 % harakat a'zolaridir. Harakat

tizimlarida 872 nafar yoshlar xizmat qilmoqda, 2068 yirik boshlang'ich tashkilotlarning 2435 nafar yetakchilariga xarakat tomonidan ish haqi to'lanmoqda, jami 3307 nafar faollar to'liq yoki qisman ish haqiga egadir”³⁴

“Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati tarkibida uning homiyligi asosida ishlaydigan 7 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan o'quvchilarni birlashtiruvchi bolalar tashkiloti tuzilgan. 2001 yil 21 may kuni bolalar tashkilotining ta'sis yig'ilishi bo'lib o'tdi, Nizomi qabul qilindi.”³⁵

Ammo, yoshlar bilan bog'lik muammolarni hal etish bo'yicha olib borilayotganishlarni yetarli darajada, deb bo'lmaydi. Bu borada faylasuflar, siyosatchilar, ruxshunoslar, axloqshunos olimlar va birinchi galda sotsiologlarning ilg'or g'oyalari hamda amalga oshiradigan aniq sotsiologiktadqiqotlari nixoyat muhimahamiyat kasb etadi.

6-MAVZU: JAMIYAT SOTSIAL STRUKTURASI VA STRATIFIKASION JARAYONLAR.

Reja:

1. Sotsial struktura tushunchasi.
2. Sotsial stratifikatsiya nazariyasi.
3. Sotsial mobillik va uning turlari.

Sotsial struktura – sotsial sistemadagi elementlarning mustahkam aloqasidir. Sotsial strukturaning asosiy elementlari ma'lum mavqeni(status) egallovchi, aniqlangan funksiyalarni (rol) bajaruvchi individlardir. Bu individlar ularning mavqeyi belgilari asosida sotsial-territorial, etnik va boshqa turdagi guruh va birlashmalarga birlashadi. Sotsial struktura jamiyatni jamoa, sinflar, qatlamlarga ob'ektiv bo'linishini anglatadi. Elementlarning qay biri muhimligiga qarab jamiyat strukturasini guruh, stratifikasion, jamoaviy, institusional, tashkiliy va h.k. larga bo'linadi. Sotsial sostav nuqtai nazaridan jamiyat strukturasining barcha elementlari gorizontal joylashgan, ya'ni real o'zaro ta'sirda rasman tengdir. Lekin real o'zaro aloqada ular teng emas. Har qanday jamiyatda turli individlar, guruhlar, sinflar, jamoalar, institutlar, tashkilotlar turlicha o'rinni egallaydi. Sotsial tengsizlik jamiyatda ierarxik strukturaning mavjudligini belgilaydi. Bir toifa individ, guruh, sinflar, jamiyatlar boshqalarga nisbatan yuqori yoki pastda joylashadi. Tengsiz tamoyilidan kelib chiqqan holda, sotsial sostav sotsial stratifikatsiyaga-vertikal ierarxik tarzda joylashgan sotsial shakllarga (guruhlar, sinflar, kastalar, zotlar va h.k.) aylanadi. Demak sotsial stratifikatsiya-vertikal tarzda joylashgan sotsial qatlamlar majmuasidir. Stratifikatsiya tushunchasi geologiya fanidan o'zlashtirilgan (stratum-qatlam, fasio-yasayman) Sotsial stratifikatsiya termini sotsiologiyaga rus-amerika sotsiologi Pitirim Sorokin tomonidan kiritilgan.

Sotsiologiyada stratifikatsiyaning 4 asosiy o'lchami mavjud:

³⁴УбайдуллаевБ. «Камолот» кеча, бугун, эртага “Ижтимоийфикр”. 2004. 3-сон. 13-бет

³⁵ Ўша матн

- 1.Daromad.
- 2.Ma'lumotlilik darajasi.
- 3.Hokimiyat.
- 4.Kasbning prestijliligi.

Daromad –alohida individning yoki oilaning ma'lum vaqt ichida so'md yoki dollarda oladigan puli bilan o'lchanadi.

Ma'lumotlilik darajasi davlat yoki xususiy maktab,OO'Yuda o'qigan yillari bilan o'lchanadi.

Hokimiyat-siz qabul qilayotgan qaror tegishli bo'lgan insonlar soni bilan o'lchanadi.

Jamoatchilik fikrida xurmatga ega bo'lgan mavqe.Shu mezon bo'yicha ba'zi kasblar obro'li,ayrimlari esa obro'ga ega emas deb hisoblanadi

Strata-stratifikatsiyaning 4 shkalasi bo'yicha o'xshash ob'ektiv ko'rsatkichlarga ega bo'lgan insonlarning sotsial qatlami.

Jamiyatda insonlarni 2 ko'rsatkich bo'yicha stratalarga ajratamiz:Nominal status(jins, irq,etnik kelib chiqish,tug'ilgan joyi va h.k.)-peshonaga bitilgan.

Erishiladigan status.

Jamiyatni ijtimoiy qatlamlar,guruhlarga bo'lish mezonlarini oldinga surgan sotsial stratifikatsiya teoriyasi **sotsial mobillik** teoriyasining shakllanishiga metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Sotsial mobillik deb individ yoki guruh tomonidan jamiyat stratifikasion tizimida egallagan sotsial maqomini,statusini o'zgarishi,ya'ni insonlarning sotsial ko'chishiga aytiladi.Mobillik inglizcha mobilite- «ko'chish», «safarbarlik» ma'nosini anglatadi. «Sotsial mobillik» termini sotsiologiyaga P.Sorokin tomonidan 1927 yilda kiritilgan.Sorokinga ko'ra, sotsial mobillikning 2 turi mavjud: vertikal va gorizontal sotsial mobillik.

Vertikal mobillik o'z o'rnida yuqoriga va pastga yo'naltirilgan bo'ladi.Yuqoriga yo'naltirilgan sotsial ko'tarilish,yuqoriga harakatni,pastga yo'naltirilgan-sotsial tushish,pastga harakatni anglatadi.

Gorizontal sotsial mobillik individning bir sotsial qatlamdan shu darajada joylashgan boshqa qatlamga o'tishini anglatadi. Mobillikning bu turi yashash joyi(migrasiya)ni,boshqa diniy guruhga(dinini o'zgartirishi va h.k.)bildiradi. Vertikal sotsial mobillik bir stratadan boshqasiga o'tishni nazarda tutadi. Vertikal sotsial mobillik hayot davomida insonning yuqori statusni quyiga, quyi statusni yuqori darajadagisiga almashishidir. M-n, vodoprovod ta'mirlovchisining korporasiya prezidenti darajasiga ko'tarilishi yoki teskari jarayon.

Sotsial mobillik boshqa mezonlarga ko'ra klassifikasiya qilinishi mumkin.Masalan,individual va guruhiy mobillik.

Individul mobillik-individning gorizontal yoki vertikal chiziq bo'yicha yuqoriga va pastga ko'chishi boshqalarga bog'liq bo'lmagan holda sodir bo'ladi. Guruhiy mobillikda ko'chishlar guruhiy,kollektiv holda sodir bo'ladi,u yoki bu strataning sotsial mavqei o'zgaradi.M-n, sotsialistik revolyusiyadan keyin xokimiyatdagi sinf o'z vakolatlarini yangi sinfga bo'shatib beradi.Bularga ilmfan revolyusiyalari,fuqarolar urushlari, to'ntarishlar,islohatlarni misol qilib olish

mumkin. Individual mobillik omillariga kasbiy-professional zinapoyada ko'tarilish (malaka oshirish natijasida), ta'lim darajasi, ma'muriyatda egallagan o'rni, ya'ni kasbiy karera bilan bo'liq bo'lgan omillar kiradi. Individual mobillik siyosiy va tadbirkorlik faoliyati, armiyada, va boshqa davlat institutlaridagi faoliyati bilan ham bo'liq bo'lishi mumkin. Individual sotsial mobillik omillari-oilaning ijtimoiy maqomi, millat, ta'lim darajasi, jismoniy va aqliy xususiyatlar, tashqi ko'rinish, tarbiya, yashash joyi va h.k. Individual sotsial mobillikning yuqoriga yo'naltirilgan turining eng samarali usuli-manfaatli nikohdir.

Sotsiologiyada yana avlodlararo va avlodlar ichidagi sotsial mobillik ham farqlanadi. Avlodlararo mobillikda farzandlar o'z ota-onalaridan ko'ra yuqoriroq sotsial pozisiyani egallashadi yoki ularga nisbatan quyi po'onaga tushib qoladi. Avlodlar ichidagi mobillik individning uning ota-onasining pozitsiyasiga solishtirmasdan turib o'zining sotsial statusini o'zgartirishini anglatadi. Individ sotsial maqomini o'zgartirganda o'zi uchun yangi statusni o'zlashtirishi va bunga bog'liq bo'lgan o'zaro harakat va munosabatga, muloqatga kirish muammosi yuzaga keladi. Madaniy to'siq va munosabat, muloqat to'siqlarini buzib o'tish uchun individ oldingi hayot tarzini o'zgartirishi, o'zi uchun yangi statusning hatti-xarakatlari namunalarini shakllantirishi, ijtimoiy muhitini o'zgartirishi lozim. Ammo hayotiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, barcha individlar ham bunday sotsiomadaniy nazoratdan muvoffaqiyatli o'tib yangi stratada qulay joylasha olmaydi. Barcha ob'ektiv mezonlarga ko'ra yuqoriroq po'onaga ko'tarilgan individ sotsiomadaniy shart-sharoitlarga ko'ra yangi strataga kiruvchi eshik ortida qoladi, lekin u eski stratani tark etgan bo'ladi. Uning yangi holati, yangicha tarzidagi hayot kechirishga intilishi va h.k. uni bu yerda «begona»ga aylantiradi. Individ 2 strata, 2 madaniyat orasida «osilib» qoladi. O'xshash xolat pastga yo'naltirilgan vertikal mobillikda ham sodir bo'lishi mumkin. Jamiyatning yuqori qatlamlarida bo'lish imkoniyatini yo'qotgan, sotsial ierarxiyaning quyi po'onasiga tushib qolgan inson yangi holatiga, yangi hayot tarziga moslashishga qiynaladi. Individ yoki sotsial guruhning sotsial ko'chish oqibatida 2 sotsial birlik, 2 madaniyat orasida bo'lish fenomeni **marginallik** deb ataladi. Individlar marginallashuvi ko'pincha gorizontal mobillik natijasida (avvalo, migrasiya, emigrasiya, shaxardan qishloqqa, qishloqdan shaharga) sodir bo'ladi.

Sotsiologiya fani tizimida sotsial munosabatlar juda muhim o'rin tutadi. Chunki u orqali jamiyat a'zolari bir-birlari bilan ma'lum bir muomala va ijtimoiy hamkorlikka intiladilar. Sotsiologiya dagi bu maxsus soha o'zining o'ta dolzarbligi va muhimligi bilan boshqa muammo va masalalardan ajralib tursada, u hali mutaxassislar tomonidan to'liq ilmiy va sistemali ravishda o'rganilmagan hamda ilmiy adabiyotlarda yetarli darajada yoritilmagan. Bu salbiy yo'lning asosiy sabablaridan birinchisi, avvalo, sobiq Ittifoq falsafiy – sotsiologik adabiyotlarida bu masalaning bir yoqlama talqin qilinganligi bo'lsa, ikkinchisi esa, ilg'or g'arb ijtimoiy adabiyotlarining, bu sohasi bo'yicha to'liq tadqiqot ma'lumotlarining bizda yo'qligidir.

Sotsial munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning bir xususiy ko'rinishi deb talqin qilinadi. Mavjud adabiyotlarni chuqurroq tahlil qilinadigan bo'lsa, shunday xulosaga kelish mumkinki, yuqorida ko'rsatilgan fikrlarda qimmatli asoslar borligini bilsa bo'ladi.

Sotsial munosabatlar tushunchasi ko'pgina adabiyotlarda 2 xil darajada: keng va tor ma'noda talqin qilingan. Keng ma'noda tushunish – sotsial munosabatlarni butun bir ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan tenglashtirishdir va ular orasidagi farqlarga ko'p e'tibor bermaslik bilan bog'liqdir.

Tor ma'noda sotsial munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning bir muhim elementi va turi deb interpretasiya qilinadi. Sotsial munosabatlar keng ma'noda quyidagicha ta'rif bilan belgilangan.

Sotsial munosabatlar – bu, tabiat hodisalaridan o'laroq bo'lib, unda ijtimoiy munosabatlarning butun bir tizimi mujassamlashgandir.

Albatta, bu ijtimoiy fikrlar vujudga kelgandan beri ancha vaqtlar o'tdi, yangi jug'rofiy-siyosiy maqomlar paydo bo'ldi. Eng muhimi esa, totalitar tuzum barham topib, yangi davlatlar vujudga keldi, yangi jamiyatda bir partiyaviylik hukmronligi yemirildi va mustaqil suveren davlatlar barpo bo'ldilar. Endi esa jamiyatdagi jarayonlarni, jumladan, sotsial munosabatlar muammolarini keng plyuralistik prinsip orqali tadqiq qilish davri keldi. Bu tamoyil orqali, sotsial munosabatlarning muammo va vazifalarini turlicha tahlil qilish imkoniyati tug'ildi. Ushbu ijobiy imkoniyatlarning hosili sifatida respublikamizda sotsial munosabat muammolari jahon ilmiy tafakkurining harxil yo'nalish natijalari asosida tadqiq qilinayotganligini ajratib ko'rsatish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, sotsial munosabatlar muammosini yangi, yuqori ilmiy darajada tadqiq qilish imkoniyatlari vujudga keldi. Endi bu muammoni konkret sotsiologik tadqiqot bilan o'rganish joizdir. Chunki Sotsiologiya nafaqat bu muammonigina emas, balki butun ijtimoiy hayot jarayonlarni keng qamrovda kompleks xarakterda va amaliy natijalar asosida chuqur tadqiqot qiladi.

Ijtimoiy struktura – jamiyatning ijtimoiy asosidir. Sotsiologiya nazariyasida barcha ijtimoiy tizimlar 2 xil munosabatda mavjud bo'ladi:

1. Sotsietal munosabatlar;

2. Ijtimoiy munosabatlar.

Jamiyat tarkibida sinflar, ijtimoiy guruhlarining bo'lishi, turli xil tabaqalar tuzish, millat va toifalarga ajratish hamda shu orqali boshqarish tajribasi insoniyat tarixidan ma'lum. Qadim Turonda aholi urug'-qabilaviy kelib-chiqishi, kasbiy mansubligi, diniy-e'tiqodiy qarashlari, sulolaviy kelib chiqishiga qarab tasnif etilgan. Bu esa har bir ijtimoiy guruhning ijtimoiy-siyosiy o'rni va rolini ob'ektiv belgilashga, ulardan samarali foydalanishga va siyosiy boshqarishga imkon bergan.

Jamiyatning rivojlanishi bilan birga uni o'rganish tamoyillari ham o'zgarib boradi. Sovet tuzumi davrida ijtimoiy taraqqiyotning sababini sinfiy kurashda deb hisoblanganligi sababli jamiyatdagi muammolarga umumiy nuqtai nazardan yondoshilgan. Ijtimoiy guruhlardan tabiiy amal qilish holati bo'lgan muammo va ziddiyatlarning sinflararo ziddiyatlarga ko'chishi, ziddiyatlarning

ijtimoiylashuvi, sinflararo, davlatlararo urushlarga olib kelgan. Bunday yondoshuv kishilarning voqelikning o'zgarish mohiyatini bilishga imkon bermasdan, ijtimoiy mulkka nisbatan yulg'ichlik, boqimandalik kayfiyatini tarkib toptirdi.

Stratifikatsiya kishilar orasidagi ma'lum ijtimoiy tafovut ierarxik ko'rinishda bo'lishini bildiradi. Bular qanday tafovutlar? Ma'lumki, odamlar bir-biridan ko'p jihatlari bilan farq qiladilar, lekin bu tafovutlarning hammasi ham jamiyat a'zolari o'rtasida tengsizlikni keltirib chiqarmaydi. Tengsizlik eng umumiy ko'rinishda moddiy va ma'naviy resurslardan bir xilda foydalana ololmasliklarini ko'rsatadi.

Ijtimoiy stratifikatsiya masalasini tahlil qilishni ayrim olingan bir shaxsni boshqa kishilar davrasidagi o'rnini o'rganishdan boshlash kerak. Xar qanday odam jamiyatda ko'plab mavqelarga ega bo'lishi mumkin. Misol tariqasida studentni ko'ramiz: student, yosh yigit, o'g'il, sportsmen. Bu mavqelarning har biri odamning o'zi uchun qandaydir bir ahamiyatga ega. Atrofdagilar ham ularni konkret individga nisbatan turlicha baholashlari mumkin. YAxshi sportsmennni ijtimoiy jihatdan atrofdagilar xuddi shu mavqeiga ko'ra baholaydilar. Uning student va kimningdir o'g'li ekanligi va boshqalar, atrofdagilar uchun ahamiyatli emas.

Stratifikatsiya nazariyasida doimo tenglik - tengsizlik muammosi muhokama etiladi. Tenglik tushunchasini quyidagicha tasnif etish mumkin:

- 1) shaxslar tengligi;
- 2) imkoniyatlar tengligi;
- 3) yashash uchun sharoitlar tengligi;
- 4) natijalar tengligi.

SHunga muvofiq ravishda tengsizlikni a)shaxslar tengsizligi; b) imkoniyatlar tengsizligi; v)yashash sharoitlari tengsizligi; g) natijalar tengsizligi ko'rinishida tasniflaymiz. Amaliyotda sotsiologiyalar daromadlar va farovonlikning taqsimlanishiga, ta'limning davomiyligi va sifatidagi tafovutga, xokimiyat strukturasida siyosiy hayotda ishtirok etishga, mulk egasi bo'lishiga katta e'tibor beradilar.

Xar qanday taraqqiyot tabiiy ravishda, bir tomondan, shaxsning individuallashuv jarayonlarini, o'zlikka uyg'unlashuv holatlarini kuchaytirib, shaxslarning yakka tarzda alohida faoliyat bilan mashg'ullik darajalarini oshirsa, ikkinchi jihatdan, jamiyat a'zolarining mulk, kasb, irq, millat, jins, hudud, mayl, maqsadlar, didlar asosida tabaqalanish jarayonlariga kuchli turtki beradi. SHu boisdan ham stratalar ko'pligi jamiyatning o'z-o'zini ichki boshqaruvi mahsuli va sivilizatsiya jarayonlarining tabiiy ifodasidir.

Ijtimoiy o'zgaruvchanlik quyidagicha turlanadi:

1. Reprodukativ.

2. Statusli — xizmat pillapoyalaridan yuksalish, hayot darajalarining farovonlashuvi.

3.Xududiy — qishlokdan shaharga, davlatdan davlatga ko'chishlar.

4. Ma'naviy qadriyatlar, fikrlar, tushunchalar, goyalar, his-tuyg'ularning o'zgarishi.

5. Jamiyatning siyosiy-ijtimoiy idora etilishi mohiyatiga ko'ra o'zgarishlar.

6. Ilmiy-texnikaviy o'zgarishlar. Ustuvor taraqqiyot mezonini sifatida yuksak texnologiyalar, informatsion boshqaruv sohalarining tobora mustahkamroq o'rin tuta boshlashi.

Stratalarni o'rganish xalqimiz tarkibidagi rang-baranglikni aniqlash imkonini beradi, zero, o'z tarixini avlod-ajdodlari kitobiga kiritgan, shajaraviy tizimni yozish an'analari sohiblari — sayyidlar, eshonlar, so'fiylar, podshohzodalar, xo'jalar umuman olganda, millatimiz o'tmishini ham aks ettirganlar. Xalqimiz o'z stratalarini himoya qilib ham kelgan, zero, bu himoya nafaqat qavmlar, shakllangan kasb va ijtimoiy guruhlar mavqeini muhofaza etish shakllarida, balki axloqiy yondoshuvlar tizimini, turmush tarzi yaxlitligini, xalq urf-odat va an'alarini saqlash uchun kurash lavhalarida ham namoyon bo'lib kelgan. Masalan, o'zbek xalqi butun yaxlitligicha erkaklar va ayollar stratasiga bo'linadi. O'zbek ayollari o'zbek erkaklaridan bir makon va bir zamonda istiqomat qilishlaridan qat'iy nazar, turmush tarzi, faoliyat yo'nalishlari, estetik qarashlari va urf-odatlariga ko'ra ma'lum darajada ajralib turadilarlar.

O'zbek xalqi stratalarining tarkibi va tizimi tahlili etno-regional xususiyatlarni ham hisobga oladi. Ma'lumki, o'zbek xalqi tarixan shakllangan 92 urug'-etnoelement mahsulidir. Bu etno — tasnif tarkibidagi har bir urug', xoh u mang'it bo'lsin, xoh u barlos bo'lsin, yoki qo'ng'iroq, yovmit bo'lsin, alohida stratifikatsion tadqiqot talab etuvchi etnik birliklardir. Mazkur urug'larning ijtimoiy-tarixiy o'rni tahlil etilganda, uning nafaqat o'zbek xalqi etnogenezisini o'rganishdagi ahamiyati oydinlashadi, balki uning umumturkiy makroetnosida tutgan tarixiy o'rni va ijtimoiy mavqei yuzaga chiqadi.

O'zbekistonda keng tarmoqli yaxlit stratifikatsion tadqiqot ishlarini amalga oshirish zaruriyati va dolzarbligi bugungi kunda o'zbek xalqi milliy o'zligini to'g'ri idrok etish, milliy mentalitet imkoniyatlaridan samaraliroq foydalanishga yo'l ochadi. O'zbekiston ijtimoiy jarayonlar tarkibi va tizimini xarakterlovchi stratifikatsion tizimlar tipini ajratib ko'rsatish mumkin. Ular quyidagilar:

- ijtimoiy-kasbiy tasnifga ko'ra tiplar;
- qavm-sulolaviy asoslarga ko'ra tiplar;
- madaniy-estetik darajalarga ko'ra tiplar;
- yosh davrlariga kura tiplar;
- jinsiy tasnifga kura tiplar;
- etno — hududiy tiplar; -
- diniy — konfessional tiplar;
- partiyaviy va e'tiqodiy farqlarga ko'ra tiplar;
- urug'-qabilaviy tiplar;
- muayyan manfaatlar doirasida uyushgan korporativ tiplar;
- huquqbuzarlikka moyillikka kura tiplar;
- madaniy-ramziy intilishlarga, qiziqishlarga ko'ra aholi tiplari.

O'zbekistondagi ijtimoiy stratifikatsiya jarayonlarni o'rganishda konkret sotsiologik tadqiqot metodlari, xususan, anketa, intervyu, test, hujjatlarni

o'rganish usullariga real holatlar taqozosi asosida yondashiladi va ular orqali olingan birlamchi ma'lumotlar kontent-analiz usulida qayta ishlanadi. SHuningdek, tadqiqot davomida ilmiy-amaliy ekspeditsiyalar uyushtirish, hududlarning obro'li kishilaridan iborat ekspertlar guruhi fikrlarini to'plash, Davlat statistika qo'mitasi manbalaridan foydalanish ham ko'zda tutiladi.

Jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalarni o'rganishning asosiy tamoyillari mavjud bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tadqiqot davomida ijtimoiy stratalarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, ularning ijtimoiy tarkib va tuzumdagi o'rni va mavqeini hurmat qilish;

- stratalar ijtimoiy statikasi va dinamikasi jarayonlarini ilmiy baholashda tizimiy va yaxlit yondashish;

- O'zbekistondagi ijtimoiy stratalarning milliy mentaliteti, xududiy xususiyatlarini alohida e'tiborga olish;

- ijtimoiy stratalar tarkib topishiga sezilarli ta'sir o'tkazuvchi siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy, diniy-konfessional, mafkuraviy omillarni o'rganish;

- ijtimoiy stratalar tasnifini tuzishda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanish.

Jamiyatdagi ijtimoiy stratalar mohiyatini o'rganish, pirovard natijada "turli qarash va fikrga ega bo'lgan ijtimoiy qatlamlar, siyosiy kuch va harakatlarning o'ziga xos orzu-intilishlarini uyg'unlashtiruvchi g'oya – Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, barcha yurtdoshlarimiz uchun muqaddas maqsadga aylanishiga" nazariy jihatdan ko'mak beradi.

7-MAVZU: SOTSIAL MUNOSABATLAR

Reja:

1. Sotsial munosabat tushunchasi.
2. Sotsial munosabat turlari.
3. Milliy g'oyaning sotsial munosabatlardagi o'rni va roli.

Sotsiologiya fani tizimida sotsial munosabatlar juda muhim o'rin tutadi. Chunki u orqali jamiyat a'zolari bir-birlari bilan ma'lum bir muomala va ijtimoiy hamkorlikka intiladilar. Sotsiologiya dagi bu maxsus soha o'zining o'ta dolzarbligi va muhimligi bilan boshqa muammo va masalalardan ajralib tursada, u hali mutaxassislar tomonidan to'liq ilmiy va sistemali ravishda o'rganilmagan hamda ilmiy adabiyotlarda yetarli darajada yoritilmagan. Bu salbiy yo'lning asosiy sabablaridan birinchisi, avvalo, sobiq Ittifoq falsafiy – sotsiologik adabiyotlarida bu masalaning bir yoqlama talqin qilinganligi bo'lsa, ikkinchisi esa, ilg'or g'arb ijtimoiy adabiyotlarining, bu sohasi bo'yicha to'liq tadqiqot ma'lumotlarining bizda yo'qligidir.

Sotsial munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning bir xususiy ko'rinishi deb talqin qilinadi. Mavjud adabiyotlarni chuqurroq tahlil qilinadigan bo'lsa, shunday xulosaga kelish mumkinki, yuqorida ko'rsatilgan fikrlarda qimmatli asoslar borligini bilsa bo'ladi.

Sotsial munosabatlar tushunchasi ko'pgina adabiyotlarda 2 xil darajada: keng va tor ma'noda talqin qilingan. Keng ma'noda tushunish – sotsial

munosabatlarni butun bir ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan tenglashtirishdir va ular orasidagi farqlarga ko'p e'tibor bermaslik bilan bog'liqdir.

Tor ma'noda sotsial munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning bir muhim elementi va turi deb interpretasiya qilinadi. Sotsial munosabatlar keng ma'noda quyidagicha ta'rif bilan belgilangan.

Sotsial munosabatlar – bu, tabiat hodisalaridan o'laroq bo'lib, unda ijtimoiy munosabatlarning butun bir tizimi mujassamlashgandir.

Albatta, bu ijtimoiy fikrlar vujudga kelgandan beri ancha vaqtlar o'tdi, yangi jug'rofiy-siyosiy maqomlar paydo bo'ldi. Eng muhimi esa, totalitar tuzum barham topib, yangi davlatlar vujudga keldi, yangi jamiyatda bir partiyaviylik hukmronligi yemirildi va mustaqil suveren davlatlar barpo bo'ldilar. Endi esa jamiyatdagi jarayonlarni, jumladan, sotsial munosabatlar muammolarini keng plyuralistik prinsip orqali tadqiq qilish davri keldi. Bu tamoyil orqali, sotsial munosabatlarning muammo va vazifalarini turlicha tahlil qilish imkoniyati tug'ildi. Ushbu ijobiy imkoniyatlarning hosili sifatida respublikamizda sotsial munosabat muammolari jahon ilmiy tafakkurining harxil yo'nalish natijalari asosida tadqiq qilinayotganligini ajratib ko'rsatish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, sotsial munosabatlar muammosini yangi, yuqori ilmiy darajada tadqiq qilish imkoniyatlari vujudga keldi. Endi bu muammoni konkret sotsiologik tadqiqot bilan o'rganish joizdir. Chunki Sotsiologiya nafaqat bu muammonigina emas, balki butun ijtimoiy hayot jarayonlarni keng qamrovda kompleks xarakterda va amaliy natijalar asosida chuqur tadqiqot qiladi.

Ijtimoiy struktura – jamiyatning ijtimoiy asosidir. Sotsiologiya nazariyasida barcha ijtimoiy tizimlar 2 xil munosabatda mavjud bo'ladi:

1. Sosietal munosabatlar;

2. Ijtimoiy munosabatlar.

1. Sosietal munosabatlar sistemasiga jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va mafkuraviy munosabatlari kiradi. Ular bir-birlari bilan uzviy aloqador tizimga ega. Sosietal sistemasida ierarxik qaramlik mavjud. Ya'ni, bunda iqtisodiy munosabat belgilovchi omil bo'ladi. Demak, Sosietal munosabatlar sistemasi tuzilishi:

- iqtisodiy: (asoschisi A.Smit: «Dunyodagi barcha narsalar mehnatning mahsuli, mehnat taqsimoti natijasida har bir individ o'zi uchun ishlaydi va boshqalar uchun ham ishlashga majbur bo'ladi, u boshqalar uchun ishlaganda o'zi uchun ham ishlaydi);
- ijtimoiy: a) ijtimoiy munosabatlarning asosiy elementini ijtimoiy jamoalar tashkil etadi (sinflar, millatlar professional, demografik, hududiy, siyosiy guruhlar); b) elementi kishilar (jamoaga birikadigan insonlar); v) oila tashkil etadi.
- siyosiy;
- mafkuraviy.

2. Ijtimoiy munosabatlar: («ijtimoiy» sistema elementi –kishilar).

Ijtimoiy munosabatlar - kishilarning faoliyati jarayonida yuzaga kelgan o'zaro munosabatlardir. Ular turli jamoalar, ijtimoiy guruhlar, sinflar va ularni tashkil qilgan kishilar o'rtasidagi munosabatlar bo'lib, ularni bir butun sotsial

organizm bog'laydi. Ijtimoiy munosabatlar jamiyatda ijtimoiy ishlab chiqarish vujudga kelishi bilan paydo bo'ladi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishning paydo bo'lishi jamiyat taraqqiyotida chorvachilik paydo bo'lishi, dehqonchilik, savdoning yuzaga kelishi bilan bog'lik. Ijtimoiy munosabatlarning turlari: hamfikrlilik, kooperasiya, konfliktlar, kurash, befarqlik, begonalashuv, krizis, kamsitish, tengsizlik.

Ijtimoiy munosabatlar o'z mohiyatiga ko'ra jamiyat tarakqiyotiga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir etadi.

Ijobiy munosabatlar ta'siri: hamfikrlilik, kooperasiya, kurash.

Salbiy ta'sirli munosabatlar: befarqlik, kamsitish, konfliktlar, begonalashuv, krizis, tengsizlik.

Ijtimoiy munosabatlar sistemasida plyuralizm (lot. ko'plik) katta ahamiyatga ega. Plyuralizm konsepsiyasiga ko'ra, borliq asosini bir necha yoki juda ko'p bir-biribila bog'lanmagan substansiyalar tashkil etadi. Plyuralizm nemis filosofi Volf tomonidan kiritilgan.

Substansiya (lot. mohiyat) - narsava hodisalarning asosini tashkil etuvchi omil. Substansiyaning ham materialistik ham, idealistik qarashlari bor.

Ijtimoiy munosabatlar 2turga bo'linadi:

1. Moddiy munosabatlar.
2. Mafkuraviy (ideologik) munosabatlar.

Moddiy munosabatlar - insonhayotining moddiy taraqqiyotidagi munosabatlar: inson yashashi, bor bo'lishi uchun, avvalo u moddiy ehtiyojini ta'minlashi kerak. U oziq-ovqat, kiyim, turarjoy bilan ta'minlanishi lozim. Ana shu ehtiyojini qondirish uchun u jamiyatda boshqa insonlar, guruhlar bilan munosabatda bo'ladi. Shuningdek, oila ham, guruhlar ham, xoli davlat ham nihoyat butun jamiyat hisoblanadi.

Mafkuraviy (ideologik) munosabatlar - siyosiy, huquqiy, axloqiy va diniy munosabatlar. Uning asosiy o'zagini moddiy munosabatlar tashkil etadi. Demak, moddiy munosabatlar bazis, ideologik munosabatlar ustqurma hisoblanadi.

Madaniy munosabatlar ham mavjud.

Ijtimoiy munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlik:

- 1) insonlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik;
- 2) turli ijtimoiy guruh, qatlam, toifalar o'rtasidagi hayotiy bog'liqlik;
- 3) insonlarning ijtimoiy-maishiy sohadagi o'zaro bog'liqligi mavjud.

Ijtimoiy aloqa va munosabatlar shaxsning ijtimoiylashuvini taqozo etadi.

Ijtimoiy muhit ta'sirida shaxs shakllanib borar ekan, shu jarayonni tavsiflash uchun "ijtimoiylashuv" tushunchasi ishlatiladi. Dastlabbutushunchafanda XIX asrningoxiridapaydobo'ldi. "Ijtimoiylashuv" deganda shaxsning o'z hayoti mobaynida o'zi mansub bo'lgan jamiyatning ijtimoiy me'yorlari va madaniy qadriyatlarini o'zlashtirish jarayoni tushuniladi. "Ijtimoiylashuv" tushunchasi "shaxsni tarbiyalash", "shaxsni shakllantirish"

tushunchalari bilan bog'liq, biroq u kengroq bo'lib, insonga qaratilgan barcha ta'sirlarni qamrab oladi.

Ijtimoiylashuv jarayonidagi ijtimoiy munosabatlarni tahlil qilish 2 – ruhiy va mantiqiy aspektga ega. Xar qanday ijtimoiy o'zaro ta'sirni shu 2 nuqtai nazardan o'rganish mumkin bo'lgani uchun, tahlil qilishni ijtimoiy o'zaro munosabatlarning eng umumiy va fundamental shakllaridan boshlab, undan maxsus – iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy o'zaro ta'sirning boshqa shakllariga o'tish maqsadga muvofiq.

Ijtimoiy o'zaro ta'sirni sotsiologik nuqtai nazardan tadqiq etishning 2 asosiy darajasi mavjud: mikrodaraja va makrodaraja. Kishilarning bir-biri bilan o'zaro ta'siri, kichik guruhlararo o'zaro aloqalar va interaksiya **mikrodarajada** o'rganiladi.

Ijtimoiy aloqalarning **makrodarajasi** o'z ichiga yirik ijtimoiy strukturalarni, jamiyatning asosiy institutlari din, oila, iqtisodiyotni oladi.

Odamlarning bir-biri bilan bog'liq bo'lishi natijasida ijtimoiy hayot vujudga keladi.

Ijtimoiy aloqa – odamlarning ijtimoiy ta'siri orqali amalga oshiriladigan bog'liqligi bo'lib, u odamning boshqalardan xuddi shunday munosabatni kutishiga asoslanadi. Ijtimoiy aloqa quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- aloqa sub'ektlari (ikkita yoki minglab bo'lishi mumkin);
- aloqa predmeti (nima sababdan aloqa amalga oshirilyapti);
- o'zaro munosabatlarni tartibga solish mexanizmi.

Ijtimoiy aloqa quyida ko'rinishda bo'ladi:

a) ijtimoiy kontakt (odamlar orasidagi aloqa yuzaki, tez o'tib ketadigan, ob'ektni boshqasi bilan almashtirish mumkin);

b) ijtimoiy o'zaro ta'sir (kishilarning bir-biriga qaratilgan doimiy, muntazam ijtimoiy ta'siri bo'lib, bunda bir tomon ikkinchisidan javob reaksiyasini kutadi). Ijtimoiy o'zaro ta'sir ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy institutlar, ijtimoiy umumiylik ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy munosabatlar - hamkorlarning barqaror o'zaro ta'siridir.

SHaxslararo o'zaro ta'sirni mikrodarajada, avval, ikki kishi orasida, keyin guruh ichida ko'rib chiqamiz.

P.Sorokin ta'kidlaganidek, ruhiy va ijtimoiy o'zaro ta'sir quyidagi hollarda amalga oshadi:

- ruhiyat va sezgi organlari mavjudligida (odamning kechinmasi va fikrini bilish uchun uning yuz va ko'z ifodasini ko'rish, ovozi va gapini eshitish kerak).
- o'zaro ta'sir qiluvchi odamlar bir xil ruhiy kechinmaga ega bo'lganda ruhiy ijtimoiy o'zaro ta'sir amalga oshadi.

Ikki va undan ortiq odamning kontakti turli shakllarda bo'lishi mumkin:

- 1) oddiy birgalikda ishtirok etish;
- 2) axborot almashuv;
- 3) hamkorlikdagi faoliyat;
- 4) teng faollik (ijtimoiy ta'sir, hamkorlik, raqobat, nizo va hokazo).

Bern ta'kidlaganidek, "Bir guruhda bo'lgan odamlar beixtiyor bir-birlari bilan so'zlashadilar, yoki bir-birlarining borligidan xabardorliklarini bildiradilar. Bu esa o'zaro munosabatni vujudga keltiradi".

O'zaro ta'sir natijasida bir odamning biron bir muammoga nisbatan bergan qayta javobi boshqa odamning javobiga yaqin bo'lsa, kishilarning xulq-atvori ham o'xshash bo'la boradi va u ijtimoiy ta'sirni anglatadi.

Ijtimoiy ta'sir muammosi bilan bog'liq konformlik va ishontirish, yoki suggestiyani ajratib ko'rsatamiz.

Konformlik – bu guruhning ta'siriga berilish, boshqa shaxslar ta'sirida o'z xatti-harakatini o'zgartirish, atrofdagilar bilan nizoga kirishmaslik uchun ongli ravishda ularga yon bosish.

Ishontirish, yoki suggestiya – shaxsning boshqa odamlar yoki guruh ta'siriga beixtiyor berilishi bo'lib, bunda odam o'z qarashlari yoki fikrining o'zgarganini sezmay ham qoladi.

Ijtimoiy birdamlik tushunchasi ijtimoiy munosabatlar tizimida muhim o'rin tutadi. Chunki birdamlik – bu ko'pgina ma'naviy omillar majmuasidan tashkil topgan sotsiologik kategoriya bo'lib, u ijtimoiy hayotda faoliyat ko'rsatayotgan insonlarning ijtimoiy taraqqiyot masalalarini hal qilishlaridagi hamkorligining ko'rinishidir. SHuni ta'kidlab o'tish joizki, sotsiologiya faniga ijtimoiy jipslashuvni bildiradigan tushuncha sifatida bu terminni birinchi bo'lib O.Kont kiritgan edi. Bu muammoga ko'pgina mutafakkirlar o'zlarining e'tiborlarini qaratganlar. Ayniqsa, E.Dyurkgeym, G.Spenserlar bu muammoni chuqur tahlil qilganlar. Lekin ular o'z tadqiqotlarini turli xil yo'nalishlarda olib bordilar. E.Dyurkgeymning fikricha, ijtimoiy birdamlik bu axloqiy tamoyil va oliy universal qadriyat bo'lib, u jamiyatning har bir a'zosi tomonidan tan olinadi. O.Kont va G.Spenserlarning tadqiqotlarida ijtimoiy hamjihatlikning asosini iqtisodiy manfaatlar tashkil qilishi markaziy o'rin egallaydi. G.Spenser o'zining birdamlik ta'limotida majburiy va ko'ngilli hamjihatlikni ko'rsatadi. Uning fikricha, kishilik jamiyati o'zining rivojlanish yo'lida ikki davrga - harbiy va sanoat davrlariga bo'linadi. Xarbiy turdagi jamiyat ierarxik tartibi va kuchli markazlashgan nazorati bilan xarakterlanadi. Sanoat turidagi jamiyat esa osoyishta ijtimoiy hamkorlikning erkin shakllarini ifoda etadi. Muammoni ikkita jihatga ajratib tahlil qilishni E.Dyurkgeymning ilmiy faoliyatida ham ko'rish mumkin. YUqorida e'tirof etilganidek, u o'z ta'limotida hamjihatlikning mexanik va organik turlarini ajratadi.

Sotsiologiyada begonalashuv muammosi muhim masalalardan hisoblanadi. Zamonaviy jamiyat haYOtida begonalashuvning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

- 1) iqtisodiy;
- 2) siyosiy;
- 3) madaniy;
- 4) ijtimoiy;
- 5) psixologik.

Ushbu begonalashuv turlari o'zlarining ma'lum bir shakllariga egadirlar. Masalan, iqtisodiy begonalashuv uchta shaklga ega: a) faoliyatdan begonalashuv; b) faoliyat boshqaruvidan begonalashuv; v) faoliyat natijalaridan begonalashuv.

Siyosiy begonalashuv siyosiy hokimiyatdan begonalashishdir; madaniy begonalashuv madaniyatdan va ma'naviyatdan begonalashish bo'lsa, ijtimoiy begonalashuv muloqotdan, insonlarning bir-biridan uzoqlashishi; psixologik begonalashuv odamning o'z-o'zidan begonalashishidan iborat bo'ladi.

Begonalashuv jarayoni va tanazzul bir-biriga bog'liq hodisalardir. Agar jamiyatda ishlab chiqarish sur'atlari keskin pasaysa, xo'jalik aloqalari uzilsa, pulning qadri tushib ketib, narxlar tez sur'atda oshib ketsa, boshqaruv tuzilmalari izdan chiqsa va siyosiy tangliklar vujudga kelsa, bir jamiyatning hamma sohalarini tanazzulga uchragan, degan fikrga kelishimiz mumkin.

SHaxslararo o'zaro ta'sir nazariyasi. Nizolar.

Odamlarning bir-biri bilan kontaktga kirishishi, ya'ni aloqada bo'lishi, yoki aloqani uzishiga nima ta'sir ko'rsatadi?

SHaxslararo o'zaro ta'sirning bir qancha nazariyalari mavjud:

- almashuv nazariyasi (Dj. Xomans, P. Blau);
- ramziy interaksionizm nazariyasi (Dj. Mid, T. Blumer);
- taassurotlarni boshqarish nazariyasi (E. Gofman);
- psixoanalitik nazariya (Z. Freyd) va boshqalar.

Almashuv nazariyasi ijtimoiy xulq-atvorni bir-biri bilan moddiy va nomoddiy uzluksiz ruhiy bixeviorizmga asoslangan almashuv jarayonida bo'lgan kishilarning o'zaro ta'siri deb biladi. Bixeviorizmga binoan insonning xatti-harakati quyidagi asosiy qonunga bo'ysunadi: shaxsning ijtimoiy faoliyati qanchalik ko'p taqdirlansa, u shu faoliyatni shunchalik ko'p amalga oshirishga harakat qiladi. Agar shaxs boshqa bir shaxs bilan bo'ladigan o'zaro ta'sirdan o'ziga ijobiy natija kutsa, u kontakt (aloqa)ni davom ettiradi, kutilgan natijaga erishmasa aloqani to'xtatadi. Kontakt muayyan sarf-harajatlar bilan kechadi. Agar odam aloqadan xarajatdan ko'ra ko'proq ijobiy natijaga erishsa, munosabatlar barqaror bo'ladi (M. Doych).

Qadriyat vaziyati shuni ko'rsatadiki, shaxs uchun ma'lum bir natijaga erishish qanchalik qimmatli bo'lsa, u natijaga erishishga shunchalik ko'p intiladi.

“To'yish – ochlik” vaziyati insonning o'tmishda qanchalik ko'p taqdirlansa, uning yana taqdirlanishi shunchalik kam qiymatga ega bo'lishini ko'rsatadi.

“Agressiya va qo'llab-quvvatlash” vaziyatiga ko'ra inson o'zi kutgan mukofotni olmasa yoki jazolansa (kutilmaganda), u agressivligini namoyon

qiladi, bunday hatti-harakat natijasi shu shaxs uchun qimmatlidir. SHunday qilib, ijtimoiy aloqa quyidagilar asosida o'rnatiladi va qo'llab-quvvatlanadi:

1) agar ijtimoiy aloqa shaxsiy maqsadga muvofiqlikka mos bo'lsa va

sarflangan harakat taqdirlanishdan ortiq bo'lmasa;

2) o'zaro bitimga kelish mumkin bo'lsa hamda to'lov mezonini va ijtimoiy o'zaro ta'sir barcha ishtirokchilarining taqdirlanishi birligi ta'minlanganda. Tomonlardan birining manfaatlari tazyiq ostiga olinganda, u bu aloqalarni qaytadan ko'rib chiqishga intiladi, ularni yangidan tartibga solishga harakat qiladi, natijada nizolar uchun asos paydo bo'ladi.

Ushbu vaziyatlar kishilarning o'zaro ta'siri o'zaro foydali va simmetrik bo'lgandagi xatti-harakatini tushuntirish uchun qo'l keladi, lekin bu nazariya orqali hokimiyat, zo'rlik, ijtimoiy tengsizlikni tushuntirish qiyin.

Nosimmetrik munosabatlarni tushuntirish uchun Xomans **engkam manfaat tamoyilini** ilgari suradi. Unga ko'ra, eng kam manfaatdor bo'lgan shaxs vaziyatning boshqa ishtirokchilariga almashuv (aloqa) shartlarini bajarishga majburlashi mumkin.

Natijada hukmronlik vujudga keladi. Chunki bir kishi aloqada boshqalarni ko'proq taqdirlash imkoniga ega. Xomans bunday munosabatlarni aloqaning nosimmetrik ko'rinishi deydi.

Nizolar – ijtimoiy faoliyatning keng tarqalgan shaklidir. Nizolar asosida odamlarning bir-biri bilan kelisha olmasligi, ziddiyatlar, shuningdek, talab, manfaat, maqsadlari turlicha bo'lgan kurashuvchi tomonlarning mavjudligi yotadi. Bunda bir tomonning maqsadlari boshqalarning o'z maqsadiga erishishiga xalaqit beradi, ya'ni raqobat nizoli vaziyatning tarkibiy qismini tashkil qiladi.

Nizolar quyidagi turlarga bo'linadi:

kognitiv nizo (kishilarning nuqtai nazari kurashi) **shaxslararo, shaxslar va guruhlararo**, so'ngra guruhlararo va **ijtimoiy** nizo (turli ijtimoiy hamjamiyatlar–sinflar, millatlar, davlatlar, ijtimoiy institutlar to'qnashuvi)ga o'sib o'tishi mumkin.

Nizolar realistik va norealistik bo'lishi mumkin. **Realistik** nizolar konkret natijalarga erishishga qaratilgan bo'lib, ular ishtirokchilarning ba'zi bir noto'g'ri talablari yoki muayyan imtizo'zlarning nohaq taqsimlanishi va resurslarning cheklanishi (hokimiyat, boylik, hudud) bilan vujudga keladi.

Norealistik nizolar to'planib qolgan salbiy emotsiya, hafagarchilik, dushmanlikning ifodalanishidir, bunda kuchli nizoli o'zaro ta'sir natijaga erishish vositasi emas, balki yolg'iz maqsad bo'lib qoladi.

Nizolar yana quyidagi guruhga ajraladi:

- destruktiv nizo samarali o'zaro ta'sirni izdan chiqarib, ikki tomonga zarar keltiradi;
- konstruktiv nizo ziddiyatlarni aniqlash, ularni xal qilish, ilgari harakat qilish, rivojlanishga turtki bo'ladi.

A.Kozer fikricha, nizo faqat ijobiy, yoki faqat salbiy oqibatga ega bo'lmaydi, balki bir paytning o'zida ham salbiy, ham ijobiy oqibatga ega bo'lishi mumkin. Nizo ijtimoiy o'zaro ta'sir shakli sifatida ijtimoiy strukturani shakllantirish, standartlashtirish va qo'llab-quvvatlash vositasi hisoblanadi.

Arastu, Gobbs, Gegel, Veber, Darendorf kabi mutafakkir va siyosatchilarning ko'plab asarlarida nizolar me'yordan chetga oqish emas, balki ijtimoiy munosabatlar me'yori, jamiyatning normal holati deb ta'riflanadi.

Nizolar nazariyasi nizoni ijtimoiy rivojlanish manbai, ijtimoiy dunyoni o'zaro kurashayotgan jang maydoni deb qaraydi.

Xokimiyat egalari uni saqlab qolishga, boshqalar esa vaziyatni o'zgartirishga intiladi. Darendorf fikricha rollar tarkibi ayni bir paytning o'zida ham hamkor, ham nizoli manfaatlarni keltirib chiqaradi.

Sotsiolog Djon Reks ijtimoiy tartib taqsimoti ustidan nazorat o'rnatuvchi ayrim guruhlarining shaxsiy hokimiyatini himoya qilishning ongli natijasi, degan xulosaga keladi.

Xar qanday ijtimoiy tizim resurslarni cheklash bilan to'qnashadi va ularni taqsimlash mexanizmiga ega bo'ladi:

- iqtisodiy taqsimot;
- hokimiyat munosabatlari iqtisodiy taqsimot tizimidagi har qanday tartibsizlikning oldini oladi;
- qadriyatlar hokimiyat taqsimotining qonuniyligini himoya qiladi;
- diniy e'tiqod va marosimlar qadriyatlarga qat'iy bo'ysunish mahsuli sifatida namoyon bo'ladi.

Integratsiya va ijtimoiy tartib taqsimot jarayonining natijasi hisoblanadi.

8-MAVZU:IJTIMOIIY TARAQQIYOT SOTSIOLOGIIYASI

Reja:

1. Ijtimoiy taraqqiyot tushunchasining mazmun-mohiyati.
2. Evolyusion, revolyusion va reformistik taraqqiyotlar.
3. Sotsial reformalar va ularning turlari.
4. Sotsial boshqaruv tushunchasi.

Ijtimoiy taraqqiyotning mohiyati - madaniyatni qayta tashkil etish: shaxsan an'anaviy tur, qotib qolgan ijtimoiy formalarni o'zgaruvchan, jo'shqinlikni ifodalovchi tuzumlar va munosabatlar bilan almashtirish zarurligini belgilab beradi.. Sub'ektiv sotsiologlar andozalarida shaxs, asosan harakatga keltiruvchi kuch sifatidagina emas, shuningdek, ijtimoiy hayotning o'lchovi hamdir.

Ijtimoiy taraqqiyotning oliy maqsadi shaxsning har tomonlama kamol topishi uchun xizmat qiladigan munosabatlarni yaratishdan iborat.

Kont nuqtai nazariga ko'ra, Sotsiologiya pozitiv mohiyatga ega fandir. «Pozitiv usul» ilmiy kuzatishlar, eksperiment va taqqoslash usuli yordamida to'plangan empirik ma'lumotlarni nazariy tahlil qilishni ifodalaydi.

O. Kont tomonidan 1839 yilda «Pozitiv falsafa kursi» asarining uchinchi tomi nashr etilganligi natijasida birinchi marotaba u jamiyatni ilmiy asosda o'rganish sifatida Sotsiologiya atamasini qo'lladi va bu Sotsiologiya ning shakllanishi va rivojlanishiga olib keldi.

Keyinchalik Sotsiologiya ijtimoiy munosabatlarni nazariy analiz qilishni sotsial faktlarni empirik tadqiq qilish bilan qo'shib olib boruvchi mustaqil fanga aylandi. O.Kont Sotsiologiya ni 2 qismga ajratadi: a) sotsial statika va b) sotsial dinamika. Sotsial statikada ijtimoiy tizimlarning shart-sharoiti va funksional qonuniyatlari o'rganilishini ko'rsatadi. Unda ijtimoiy institutlar: oila, davlat, din kabilar tadqiq etiladi. Sotsial dinamikada esa O.Kont ijtimoiy taraqqiyotni nazarda tutib, jamiyatning ma'naviy va aqliy rivojiga insoniyat taraqqiyotining hal qiluvchi omili, deb qaraydi. Bu tamoyil hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. O.Kont: «Har qanday bilim tafakkur mahsulidir va u insoniyat manfaatlariga xizmat qilishi kerak, aks holda bu bilimlardan g'arazli maqsadlarda foydalanilsa, jamiyatga katta zarar keltiriladi», degan edi.

O.Kontning ta'biricha, Sotsiologiya inson aqlini va psixikasini ijtimoiy hayot ta'sirida takomillashib borishini o'rganib boradigan yagona fandır. Bu fikrni Kont butun bir ta'limotga aylantiradi va unga muvofiq individ abstraksiyadir, jamiyat esa voqelik bo'lib, u tabiiy qonunlarga bo'ysunadi.

Empirik sotsiologiya jamiyat tarkibini alohida tizimiy bo'linmalar tarzida tadqiq etishni asoslab berdi. Garchi, empirik sotsiologiya tarafdorlari stratifikasion differensiasiyani absolyutlashtirib, ijtimoiy integrasiya jarayonlarini e'tibordan soqit qiladilar.

Bu oqimlar umuminsoniy qadriyatlarga asoslanuvchi qonuniyatlarga, ilmiy nazariyalarga asoslanilsa, shubhasiz, muhim ahamiyatga ega bo'lardi.

4. Strukturaviy funksionalizm oqimi. (T.Persons, R.Merton va bosh.). Bu oqim ijtimoiy tizim integrasiyasi va yaxlitli prinsipiga asoslanadi.

5. Industrial jamiyatdan so'nggi jamiyat konsepsiya. (Dj.Bell, Dj.Gelbrayt, E.Bzjezinskiy, O.Toftler va boshqalar).

6. Axborotga asoslangan jamiyat nazariyasi (Yaponiya, AQSh, Yevropa). Ular jamiyatning axboratlashuvi va kompyuterlashuvi g'oyasini ilgari suradi.

Hozirgi paytda rivojlangan mamlakatlar sotsiologiyasida jamiyatda bir-biriga zid, qarama-qarshi bo'lgan 2 model mavjud:

1. Muvozanatli integrasion model. Bu modelni AQSh olimi R.Appelbaum ishlab chiqqan. Uning tarkibiy elementlari:

a) har qanday jamiyat o'zini tashkil etuvchi uyg'un, mukamal integrasion elementlar yig'indisidan iborat;

b) jamiyat har bir elementi uning ish yuritishiga sharoit yaratadi;

v) har bir jamiyat o'z a'zolarining faolligi, yangiligiga tayanadi.

2. Jamiyatning konfliktli modeli (nemis tadqiqotchisi R.Darendorf ishlab chiqqan). U:

a) har bir jamiyat istalgan paytda ijtimoiy o'zgarishlarning doimiyliigi bilan harakterlanadi;

b) har bir jamiyat istalgan paytda doimiy ijtimoiy konfliktlarga ehtiyoj sezib turadi;

v) jamiyat har bir elementi o'zgaribborishga sharoit tug'dirib turadi;

g) har bir jamiyatda o'z a'zolarining bir qismi ikkinchi qismi tomonidan tazyiq ostida bo'lishi tabiiy holdir, deb biladi.

Shu boisdan ham G'arb mamlakatlarida o'tkazilayotgan sotsiologik tadqiqotlar ziddiyatlarni bartaraf etish maqsadlariga ham qaratilgandir.

Inson iqtisodiy faoliyati ma'lum bir uslublar, nazariyalar, amaliyotlar, institut, tashkilotlar orqali boshqarilib kelinsa, ijtimoiy jarayon, hodisalar va munosabatlar esa hali unchalik boshqarilish darajasiga o'tgani yo'q. «Ijtimoiy boshqaruv» faniga XX asr boshlarida Teylor, M.Veber, A.Fayol kabi olimlar asos soldilar. XX asr o'rtalaridan boshlab sistemali yondashuv usuli qo'llanila boshlandi.

Ijtimoiy jarayonlarni bashorat qilish va boshqarish quyidagi asosiy vazifalarni ko'zlaydi:

istiqbolni baholash, jamiyat ijtimoiy taraqqiyotining muhim ko'rsatkichlarini aniqlash va unga oqilona yetishishning samarali vositalarini belgilash.

me'yorlarni aniqlash, istiqboldagi asosiy ijtimoiy talab va uni qondirish imkoniyatlarini belgilash.

tahdidlarni taxminlash, jamiyat ijtimoiy taraqqiyotiga aks ta'sir etish mumkin bo'lgan o'zgarishlarni aniqlash va tahlil etish.

Ijtimoiy bashorat turlari:

Istiqboldagi holatlarni bashorat qilish: o'tgan, hozirgi va kelgusi zamon hamda istiqbol an'alarini bashorat etish.

Me'yoriy bashorat - ijtimoiy hayotga mos me'yorlarni topish, aniqlash.

Tahdidlar bashorati - ijtimoiy taraqqiyot izdan chiqish holatining tahliliga asoslaniladi.

Ijtimoiy bashorat o'zaro mantiqiy bog'langan 4 bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich - bashorat ob'ekti bo'yicha ma'lumotlar manbaini va ko'rsatkichlarini aniqlash, bashorat dasturini ishlab chiqish, bashorat maqsadi masalalarini belgilab olishdan iborat bo'ladi.

Ikkinchi bosqich - bashorat qilinuvchi ob'ektning dinamik modelini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Uchinchi bosqich - bashorat qilinuvchi jarayon modeliga kiruvchi boshqaruv ko'rsatkichlarini belgilash, ularning o'zgarish tendensiyalarini va chegaralarini aniqlab olish, turli taxmini variantlarini aniqlash.

Oxirgi bosqich - ko'p variantli bashoratni amalga oshirishni asoslash va tahliliy xulosalarni ishlab chiqishdan iborat.

Ijtimoiy bashorat masalasini yechishda matematik modellashtirish va ekspertiza usullardan foydalaniladi.

Axborot jamiyat faoliyatining ijtimoiy jihatdan o'ziga xos tamoyillarini ifodalaydi va uning yordamida ijtimoiy boshqaruv amalga oshiriladi. Ijtimoiy axborotning o'zi guruhlariga ajratiladi.

Birinchi guruhga ijtimoiy guruhlar tuzilmasi va holati haqidagi axborotlar kiradi.

Ikkinchi guruh odamlarning mehnat va turmush sharoiti haqidagi axborotlardan tashkil topadi.

Uchinchi guruh odamlarning hayot faoliyati, turmush tarzi va boshqa axborotlardan iborat.

Boshqaruv nuqtai nazaridan ijtimoiy axborot:

tashkiliy;

nazorat – hisobga olish;

natijaviy axborotlardan iborat.

Tashkiliy axborotlar ijtimoiy boshqaruv ob'ekti va sub'ekti o'zaro bog'lanishi, boshqaruv jarayoni, boshqaruv qarorlarining bajarilishi haqidagi ma'lumotlarni tashkil etadi.

Nazorat - hisobga olish, axborotlar, ijtimoiy jarayonlarni boshqarishning borishi va uning boshqaruv qarorlariga mosligi haqidagi ma'lumotlardir.

Natijaviy axborotlar - belgilangan boshqaruv tadbirlari, talablari, qoida va normalari haqidagi axborotlarni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy boshqaruv: sifat va miqdor ko'rsatkichlari orqali amalga oshiriladi.

Sifat ko'rsatkichlari - ijtimoiy hodisa va jarayonning ta'rifiy xususiyatlari va tarkibiy tuzilishi ko'rinishlari haqidagi ma'lumotlardir.

Miqdor ko'rsatkichli axborotlar – ijtimoiy hodisa va jarayonning miqdoriy o'lchov shaklida aniqlangan kattaliklaridan iborat. Bu axborotlar EHMga asoslangan holda matematik modellashirishni va u orqali ijtimoiy bashorat qilishni, tahlil qilish va baholashni amalga oshirishga imkon beradi.

Hozirgi davrda iqtisodiy hayotni ma'lum bir konsepsiyalarsiz, mafkuraviy maqsadlarga asoslanmasdan tasavvur qilib bo'lmaydi. Shunga ko'ra, Prezident Islom Karimovning bozor iqtisodiyotiga o'tish davri tamoyillaridan biri bo'lgan «iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi» tamoyili iqtisodiy hayotning ma'muriy- buyruqbozlik mafkurasidan xoli bo'lishini, iqtisodiyotni erkinlashtirishni ko'zda tutadi.

Iqtisodiy hayot inson ma'naviy hayoti bilan uzviy bog'liqdir.

Prezident I.Karimov ta'kidlaganlaridek, «Bizning bozor munosabatlariga o'tish modelimiz respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini, an'analar, urf-odatlar, turmush tarzini har tomonlama hisobga olishga, o'tmishdagi iqtisodiyotni bir yoqlama, beso'naqay rivojlantirishning mudhish merosiga barham berishga asoslanadi».

Iqtisodiy hayot sotuvchi va xaridor o'rtasida madaniy, ma'naviy munosabatlarsiz mavjud bo'lmaydi. Agar ishchining mafaatlari, ehtiyojlari inobatga olinmasa, ularning maqsadi va intilishlariga sharoit yaratilmasa, hech qanday texnik va texnologiya muammolarini hal qilishga imkoniyat bermaydi.

Ijtimoiy munosabatlarning unumli tarzda kechishini har-xil mezonlar yordamida o'rganadigan fan sotsiologik boshqaruv deb nomlanadi.

Bu fan umumsotsiologiya fanining ajralmas qismi bo'lib, uning barcha nazariya va amaliyotlaridan to'la foydalanadi.

Insonlarning iqtisodiy faoliyati har doim ma'lum bir uslublar, nazariyalar, amaliyotlar, institut va tashkilotlar orqali boshqarilib kelinayotgan bo'lsa

ijtimoiy jarayon, xodisalar va munosabatlar esa xali unchalik tarzda boshqarilish darajasiga o'tgani yo'q. Shuning uchun hozirgi davr talabiga binoan ijtimoiy boshqaruv fanining asoslari yaratilmoqdaki bu fan orqali insonlar uchun eng asosiy hisoblangan ijtimoiy jarayonlar unumli tarzda boshqariladi.

Ijtimoiy boshqaruv faniga XX asrning boshlarida F. Teylor, M. Veber, A. Fayolakabi olimlar asos soldilar. XX asr o'rtalaridan boshlab boshqaruv muammolarning yechilishida sistemali yondoshuv usuli qo'llanila boshlandi.

Hozirgi davrda tashkilot va korxonalarni (davlatniki yoki xususiy bo'lishidan qat'iy nazar) unumli boshqarish davr talabidan kelib chiqib, samarali boshqaruv mexanizmlarini yaratishni va joriy etishni taqozo qiladi. Zero, kuchayib borayotgan integrasion jarayonlar va axborotlar tizimining xalqaro darajaga yetib borishi, raqobatning kuchayishi va boshqalar ijtimoiy boshqaruvga bo'lgan munosabatni foydali tomonga keskin o'zgartiradi va boshqaruv tizimida ijtimoiy o'zgarishlarga bo'lgan moslashuvni tezlashtiradi.

Ijtimoiy boshqaruvning takomillashuv istiqbollari O'zbekistonda barcha islohotlarni yanada tezroq va samaraliroq amalga oshirish, demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, o'z-o'zini boshqarish tizimlarini takomillashtirish va oxir oqibatda aholining turmush darajasini oshirish imkonini yaratadi.

Axborotlarning inson tomonidan tez o'zlashtirilishi va uning yangi sharoitlarga moyillik qobiliyatlarini oshirib borishi har qanday boshqaruv tizimining dolzarb vazifalaridan biri bo'lib, «inson omili»ni doimo va aniq hisobga olishni taqozo qiladi.

Ijtimoiy jarayonlarni bashorat qilish va boshqarish quyidagi asosiy vazifalarni ko'zlaydi:

- istiqbolni baholash, jamiyat ijtimoiy taraqqiyotining muhim ko'rsatkichlarini aniqlash va unga oqilona yetishishning samarali vositalarini belgilash;

- me'yorlarni aniqlash, istiqboldagi asosiy ijtimoiy talab va uni qondirish imkoniyatlarini belgilash;

- tahdidlarni taxminlash, jamiyat ijtimoiy taraqqiyotiga aks ta'sir etish mumkin bo'lgan o'zgarishlarni aniqlash va tahlil etish.

Qo'yilgan vazifalarni xalq etish maqsadini ko'zda tutgan xolda ijtimoiy bashorat mos ravishda turlarga ajraladi.

Istiqboldagi xolatlarni bashorat qilish - jamiyatning ijtimoiy taraqqiyoti haqida olimlarining o'tgan zamon, hozirgi zamon va istiqbol an'alarini bashorat etishdir.

Me'yorlar bashorati - istiqboldagi kutilayotgan ijtimoiy xolatga mos me'yorlarni topish, ya'ni shu xolatga olib keluvchi shart-sharoitlarni aniqlash.

Taxdidlar bashorati- ijtimoiy taraqqiyot jarayonining izdan chiqish xolatining taxliliga asoslangan bashorat turi.

Ijtimoiy bashorat to'rt o'zaro mantiqan bog'langan bosqichlarda amalga oshiriladi. **Birinchi bosqich** bashorat ob'ekti bo'yicha ma'lumotlar manbaini va ko'rsatkichlarini aniqlash, bashorat dasturini ishlab chiqish, bashorat maqsadi masalalarini belgilab olishdan iborat. **Ikkinchi bosqich** bashorat qilinuvchi ob'ektning dinamik modelini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Xususan, model ijtimoiy jarayonini aks ettiruvchi matematik formulalar ko'rinishda bo'lishi mumkin. **Uchinchi bosqich** bashorat qilinuvchi jarayon modeliga kiruvchi boshqaruv ko'rsatkichlarini belgilash, bu ko'rsatkichlarning bashorat davrida o'zgarish tendensiyalarini va chegaralarini aniqlab olish, turli talqindagi tahminlar asosida variantlarni aniqlash. **Oxirgi bosqich** ko'p variantli bashoratni amalga oshirishni asoslash va taxliliy xulosalarni ishlab chiqishdan iborat.

Ijtimoiy bashorat masalasini yechishda matematik modellashtirish va ekspertiza usullardan foydalaniladi.

Axborot jamiyat faoliyatining ijtimoiy jihatdan o'ziga xos tamoyillarini ifodalaydi va uning yordamida ijtimoiy boshqaruv amalga oshiriladi. Ijtimoiy axborotning o'zi guruhlariga ajratiladi. Birinchi guruhga ijtimoiy guruhlar tuzilmasi va xolati haqidagi axborotlar kiradi. Ikkinchi gurux odamlarning mehnat va turmush sharoiti haqidagi axborotlardan tashkil topadi. Axborotlarning uchinchi guruhi odamlarning hayot faoliyati, turmush tarzi va boshqa axborotlardan iborat.

Boshqaruv nuqtai nazaridan ijtimoiy axborot - tashkiliy, nazorat - xisobga olish, natijaviy axborotlardan iboratdir. Tashkiliy axborotlar ijtimoiy boshqaruv ob'ekti va sub'ekti o'zaro bog'lanishi, boshqaruv jarayoni, boshqaruv qarorlarining bajarilishi haqidagi ma'lumotlarni tashkil etadi. Nazorat - xisobga olish axborotlar ijtimoiy jarayonlarni boshqarishning borishi va uning boshqaruv harorlariga mosligi haqidagi ma'lumotlaridir. Natijaviy axborotlar belgilangan boshqaruv tadbirlari, talablari, qoida va normalari haqidagi axborotlarni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy boshqaruv jarayoni ham sifat ko'rsatkichli ham miqdor ko'rsatkichli axborotlar orqali amalga oshiriladi. Sifat ko'rsatkichli axborotlar ijtimoiy xodisa va jarayonning ta'rifiy xususiyatlari va tarkibiy tuzilishining ko'rinishlari haqidagi ma'lumotlardir. Miqdor ko'rsatkichli axborotlar ijtimoiy hodisa va jarayonning miqdoriy o'lchov shaklida aniqlangan kattaliklaridan iboratdir. Bu axborotlar EXMga asoslangan xolda matematik modellashtirishni va u orqali ijtimoiy bashorat qilishni, tahlil qilish va baholashni amalga oshirishga imkon beradi.

9-MAVZU: EMPIRIK SOTSIOLOGIK TADQIQOT VA UNING METODLARI.

Reja:

1. Empirik sotsiologik tadqiqot va uning asosiy bosqichlari.
2. Sotsiologik tadqiqot dasturi va uning tuzilishi.
3. Sotsiologik ma'lumotlarni yig'ish usullari.
4. Sotsiologik tadqiqot natijalarini amaliyotga tadbiq etish usul va shakllari.

Sotsiologik tadqiqotlar natijalarini biz radio, televidenie, gazeta va jurnallar, ilmiy adabiyotlar orqali bilamiz. Ba'zida esa o'zimiz sotsiologik tadqiqot ishtirokchisi-responent, ya'ni o'rganilayotgan hodisa va jarayonlar haqida birlamchi ma'lumot manbasi sifatida qatnashamiz.

Empirik sotsiologik tadqiqot – o'rganilayotgan ob'ekt haqida aniq ma'lumot olish maqsadida tashkil etilgan, mantiqiy ketma-ketlikdagi metodologik, metodik va tashkiliy muolajalar tizimidir. Har qanday sotsiologik tadqiqot o'tkazilishidan oldin biz uning dasturini tuzib olishimiz lozim.

Sotsiologiya fanini empirik sotsiologik tadqiqot jarayonisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Empirik so'zi qadimiy yunoncha bo'lib, tajriba ma'nosini anglatadi. Empirik sotsiologik tadqiqot deganda, yangi dastur va uslubiyat bilan amaliy asosda ijtimoiy hayot, hodisa va jarayonlar to'g'risida olingan empirik ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish asosida zarur amaliy takliflar, tavsiyalar ishlab chiqish tushuniladi. Empirik sotsiologik tadqiqotda ijtimoiy

faktlarni izlash, tasnif qilish, to'plash muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy fakt deb, ilmiy asoslangan, muayyan vaqt davomida real ijtimoiy voqelikning alohida jihatlarini tasnif qilish orqali olingan ma'lumotlarga aytiladi.

Bozor munosabatlariga o'tish jarayonining hozirgi bosqichida jamiyatda ro'y berayotgan muhim o'zgarishlarni, kishilar o'rtasidagi munosabatlarni amaliy sotsiologik tadqiqotlarsiz ilmiy asosda o'rganib bo'lmaydi. Jamiyatni ilmiy boshqarish doimo amaliy sotsiologik tadqiqot natijalariga tayanmog'i zarur. Mavjud ijtimoiy muammolarni hal etib borishda, jamiyatning ijtimoiy rivojlanishida va unga rejali prognoz berish bilan uni ilmiy asosda boshqarishda amaliy sotsiologik tadqiqot natijalari muhim vazifalarni bajaradi.

Sotsiologik tadqiqotlarning sifat darajasini va samaradorligini oshirish, empirik ma'lumotlarning ishonchli ekanligini, ilmiy asoslanganligini ta'minlash uchun uning metodologik asosiga alohida e'tibor qaratilmog'i lozim. Ushbu bo'limda amaliy sotsiologik tadqiqot ishlari olib borishning metodologiyasi, uslubiyati, asosiy usul va vositalari xususida to'xtalib o'tamiz.

Amaliy sotsiologik tadqiqot jarayonini 4 asosiy bosqichga bo'lib qo'rsatish mumkin. Bu bosqichlarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga va muhim jihatlariga ega. Bular quyidagilardan iborat:

1. BOSQICH. Sotsiologik tadqiqotni tayyorlash va tashkil qilish:

Amaliy sotsiologik vazifani belgilash va tadqiqot predmetini tanlash.

Sotsiologik tadqiqot o'tkazish bo'yicha byurtma qabul qilish va uni o'tkazish bo'yicha shartnoma to'zish.

Bajariladigan ishlar bo'yicha kalendar reja, texnik vazifalarni va byudjet (sarf qilinadigan xarajatlar smetasini) tuzish.

Dastur ishlab chiqish.

Tadqiqot uslubiyati, texnikalari va vositalarini ishlab chiqish.

2. BOSQICH asosiy bosqich bo'lib, amaliy tadqiqot ishlari olib borish jarayonini o'z ichiga oladi:

Sotsiologik tadqiqot tanlovini o'tkazish.

Pilotaj.

Dastlabki sotsiologik ma'lumotlarni yig'ish.

Empirik ma'lumotlarning sifat va aniqlik darajasini nazorat qilish.

3. BOSQICH. Empirik ma'lumotlarni qayta ishlash:

Olingan empirik ma'lumotlarni guruhlariga ajratish.

Taqsimiy jadval tuzish.

Empirik ma'lumotlarni kompyuterga kiritish va modellashtirish.

4. BOSQICH yakunlovchi bosqich bo'lib olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, ulardan ilmiy xulosalar chiqarish va amaliy takliflar, tavsiyalar ishlab chiqishni o'z ichiga oladi:

Tadqiqot ma'lumotlarining dastlabki tasnifi va nazariy jihatidan fahmlamoq.

Ilmiy-nazariy xulosalar, muayyan ilmiy-amaliy takliflar, tavsiyalar va tadbirlar ishlab chiqish.

Berilgan vazifa bo'yicha ilmiy matnlar, hisobotlar tayyorlash.

Germaniyalik sotsiologlar amaliy sotsiologik tadqiqotlarni 3 bosqichdan iborat deb qo'rsatadilar:

1. Asosiy bosqich: amaliy tadqiqotni tayyorlash va tashkil etish bosqichi. Bu bosqichda 4 ta vazifa bajariladi:

Empirik tadqiqot maqsadini aniqlash va belgilash.

Empirik tadqiqot g'oyasini ishlab chiqish.

Empirik tadqiqot jarayonini tashkil etish.

Analitik muolaja tayyorlash.

Ikkinchi bosqich: asosiy bosqich: empirik tadqiqot va eksperiment o'tkazish.

Uchinchi bosqich: Olingan empirik ma'lumotlarni qayta ishlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish. Bu bosqichda 3 ta vazifa bajariladi: 3.1. Olingan empirik tadqiqot natijalarini statistik qayta ishlash. 3.2. Nazariy jihatdan qayta ishlash. 3.3. Olingan natijalarni amaliyotda qo'llash.

Har qanday tadqiqot biron muammoning qo'yilishidan boshlanadi. Bunday muammo tashqaridan, buyurtmachi tomonidan berilishi yoki jamiyat hayotida o'zining ilmiy yechimini kutayotgan muammo bo'lishi mumkin. Shulardan kelib chiqib, sotsiologik tadqiqotlarni tashkil qilishning asosiy shakllari: davlat buyurtmasi asosida, xo'jalik shartnomasi asosida, jamoatchilik va aralash tartibda bo'lishi mumkin.

Empirik sotsiologik tadqiqot ob'ekti bo'yicha o'tkazilgan dastlabki tahlillar asosida mavjud muammoni tahlil qilish dasturi ishlab chiqiladi. Ilmiy dastur har qanday amaliy, nazariy sotsiologik tadqiqotning dastlabki zarur hujjati hisoblanadi. Dastur sotsiologik tadqiqot ob'ekti bo'yicha ishchi farazni tekshirishga qaratilgan, shuningdek, tadqiqot bo'yicha ilmiy faraz, bajariladigan asosiy vazifalari va sotsiologik tadqiqotning metodologik asosi bayonlaridan iborat. Dastur mazmuni haqida qisqacha ma'lumot berilishi annotasiya deb ataladi. Har qanday empirik sotsiologik tadqiqot dasturining umumiy talablari mavjud. Bularga, tadqiqotning asosiy maqsad va vazifalarini aniqlash; ishchi farazni ishlab chiqish; dasturni ishlab chiqish jarayonida kompyuter texnikasidan foydalanish kabilar kiradi. Sotsiologik tadqiqot dasturi ichki tuzilishi jihatidan quyidagi qismlardan iborat bo'ladi:

1. Nazariy - metodologik qism. 1.1. Sotsiologik muammoni ishlab chiqish, tadqiqot maqsadi va vazifasini belgilash. 1.2. Tadqiqot ob'ekti va predmetini belgilash. 1.3. Asosiy tushunchalarni ishlab chiqish. 1.4. Tadqiqot predmetining dastlabki taxminiy tahlili. 1.5. Ishchi farazni ishlab chiqish.

2. Amaliy sotsiologik tadqiqotni ish jarayoni qismi: 2.1. Tadqiqotning umumiy rejasi. 2.2. Asosiy amaliy ish jarayonlari. 2.3. Tanlov ishlari. 2.4. Dastlabki olingan sotsiologik ma'lumotlarni tahlil qilish usullarining tasnifi. 2.5. Tadqiqot natijalarini umumlashtirish nazarda tutilgan yo'nalishlar.

3. Xulosa qismi. 3.1. Tadqiqot natijalarining mazmunan tasnifi. 3.2. Buyurtmachiga tadqiqot natijalarini taqdim qilish shakllari (asosiy xulosalardan iborat hisobot, amaliy takliflar, tavsiyalar va tadbirlardan iborat).

Sotsiologik tadqiqot dasturida muammo qo'yiladi va uning nazariy sxemasi tuziladi, tushunchalar operasionalizasiya qilinadi, ya'ni abstrakt

tushunchalar aniq kuzatilayotgan xususiyatiga ko'ra birlashtiriladi. So'ngra gipoteza oldinga suriladi.

Gipoteza-ilmiy tushunchalar o'rtasidagi aloqaning xarakteri haqida tahminiy qarash, ilmiy farazdir. Aniq gipoteza tadqiqot metodlari orqali tekshiriladi.

Mavjud muammo bo'yicha ilmiy faraz ishlab chiqish empirik sotsiologik tadqiqotni nazariy jihatdan tayyorlashning yakunlovchi qismi hisoblanadi. Tadqiqot farazi o'rganilayotgan ijtimoiy hodisa tarkibi va uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik xarakteri to'g'risidagi ilmiy asoslangan farazdan iborat bo'ladi. Ilmiy faraz tadqiq etilayotgan ob'ekt to'g'risidagi mavjud ma'lumotlarga asoslangan holda ishlab chiqiladi. Faraz – bu, tadqiqot uchun boshlang'ich nuqta bo'lib, keyingi olib boriladigan amaliy sotsiologik tadqiqotlarda ilgari suriladigan farazga bog'liq bo'ladi. Shuni ta'kidlash lozimki, farazni ishlab chiqish-empirik ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishdagi mantiqiy asosni ishlab chiqish, demakdir. Agar tadqiqotchi tomonidan ilmiy faraz ishlab chiqilgan bo'lsa, empirik ma'lumotlar va tadqiqot natijalari shu ishchi farazi to'g'ri ekanligini tekshirishga, uni tasdiqlashga yoki bekor qilishga xizmat qiladi. Empirik tadqiqot farazi bo'lmasa, unda sotsiologik tadqiqotning ilmiy darajasi past bo'ladi.

Birlamchi ma'lumotlarni yeg'ishda sotsiologiyada 4 asosiy metod qo'llaniladi:

1. So'rov metodi.

2. Hujjatlarni tahlil qilish metodi.

3. Kuzatish metodi.

4. Sotsial eksperiment.

So'rov metodi deyilganda kishilarning sub'ektiv dunyosi, ya'ni ularning biror hodisa va jaryon haqidagi fikrlarini, nuqtai nazarni o'rganishga qaratilgan metod tushuniladi. So'rov metodi 2 turga bo'linadi:

1. Anketali so'rov

2. Intervyu

O'tkazish texnikasiga ko'ra so'rovlar telefon orqali, matbuot orqali, pochta orqali, internet tarmog'i orqali kabi turlarga bo'linadi.

Anketali so'rov eng keng tarqalgan usul hisoblanadi. Anketa ko'pchilik respondentga mo'ljallangan. O'rtacha 20-30ta savoldan iborat bo'lgan, kompyuterda, tipografiyada, kseroksda ko'paytirilgan hujjatdir. Anketalarda savollar Ochiq, yopiq, yarim ochiq, shuningdek nazorat, filtr, jadval savollar bo'lishi mumkin. Yopiq savollarda savol matnidan so'ng sotsiolog javobning bir necha variantini taklif etadi, m-n: **Oilaviy daromadingiz qancha?**

A) 25000dan 40000 so'mgacha

V) 40000dan 80000so'mgacha

S) 150000dan ko'p

Ochiq savollarda savol matnidan so'ng sotsiolog respondentdan o'z shaxsiy fikrini izhor qilishini so'raydi, m-n:

Kutubxonadagi kitoblar miqdori va sifatdan ko'nglingiz to'ladimi? _____

Har bir savolni ham ochiq, ham yopiq qilish mumkin. Filtr savollar ma'lum toifadagi insonlarni tanlab olish uchun ishlatiladi. m-n:

3. Siz ta'limning qaysi turida o'qiysiz?

A) shartnoma asosida

B) byudjet -5-savolga o'ting

4. Shartnoma asosida ta'lim olish sizga qiyinchilik tug'dirmaydimi?

A) qiyinchilik tug'dirmaydi

B) ota-onamga qiyin

Nazorat savollari respondentning samimiyligini tekshirish uchun ishlatiladi.

Jadval shaklidagi savollar bir vaqtning o'zida bir necha ko'rsatkich bo'yicha javob olish uchun ishlatiladi, shu bilan birga anketada joyni tejashda ham qo'l keladi.

Intervyu mashhurligiga ko'ra ikkinchi o'rinda turadigan metod bo'lib, anketali so'rovda anketani respondentning o'zi to'ldirsa, intervyuda savollar intervyuer tomonidan o'qib beriladi va to'ldiriladi.

Sotsiologiyada kuzatish deganda hozir ro'y berayotgan hodisa yoki jarayon haqida ma'lumot beruvchi metod tushuniladi va u 3 usulda olib boriladi:

1. bevosita kuzatish

2. bilvosita kuzatish

3. qo'shib kuzatish

Sotsiologik tadqiqotlarda kuzatish – dastlabki empirik ma'lumotlarni yig'ish usuli bo'lib, muayyan maqsadga qaratilgan, oldindan puxta o'ylab, muntazam olib boriladigan, hissiy qabulga asoslangan bo'ladi. Bu usuldan foydalanishning o'ziga xos afzalligi shundaki, tadqiqotchi muayyan darajada tadqiqot olib borayotgan ob'ektdan mustaqil bo'ladi va unga bo'ysunmaydi. Kuzatish usulidan olinadigan ilmiy ma'lumotlarda ob'ektiv, xolis va hayotiy bo'lishi bilan o'zining ilmiy qimmatiga egadir. Shu bilan birga, kuzatish usulidan olingan ilmiy ma'lumotlarda sub'ektiv jihatlar ham bo'lishi mumkin. Chunki, sotsiologik tadqiqot tadqiqotchining ijtimoiy voqelikka, jarayonga nisbatan qanday munosabatda bo'lishi va qay yo'sinda tavsiflashi asosida boradi. Kuzatish usulining yana bir o'ziga xos jihati; uning muayyan darajada chegaralanganligi bo'lib, ko'pincha tadqiq etilayotgan voqelikni qayta kuzatish imkoniyati bo'lmasligidadir. Bu usulning yana bir zaif jihati shundan iboratki, kuzatish orqali tadqiqotchini savolga qiziqtirish, kuzatiluvchining fikr va hukmini bilish juda qiyin. Barcha hollarda kuzatish hozircha so'z bilan ifodalanadi. Ammo ba'zi xulqiy-ehtirosli munosabatlarni, holatlarni bir tarzda yozish va so'z orqali ifodalash qiyin. Kuzatish jarayonining xarakteriga qarab uni quyidagi tiplarga ajratib ko'rsatish mumkin: nazoratsiz, to'la qamrovli va qamramaydigan, dala va laboratoriya sharoitida muntazam va tasodifiy kuzatish.

Sotsiologik tadqiqotlarda kuzatish usuli o'rganilayotgan ob'ektga nisbatan

chetdan yoki ichkaridan qo'llanilishi mumkin. Tadqiq etilayotgan ob'ekt chetdan kuzatilganda tadqiqotchi ob'ektga nisbatan mustaqil bo'ladi va unga bo'ysunmaydi. Ichkaridan kuzatishda tadqiqotchi kuzatayotgan ob'ektda ro'y berayotgan ijtimoiy jarayonlarda bevosita ishtirok etadi va bo'ysunadi.

Sotsiologik tadqiqotlarda faqatgina kuzatish usulidan foydalanish bilan kifoyalanib qolmaslik kerak. Chunki, kuzatish usuli orqali olingan natijalar o'rganilayotgan ob'ekt to'g'risida to'liq ma'lumot bera olmaydi. Bu usuldan ko'pgina sotsiologik tadqiqotning dastlabki bosqichlarida, ob'ekt to'g'risida dastlabki tasavvurga ega bo'lish uchun yoki sotsiologik tadqiqotlarning boshqa usullari yordamida olingan ma'lumotlarni, statistik hujjatlarni qo'shimcha ravishda tekshirish maqsadida foydalaniladi.

Sotsiologiyada hujjat deganda yozma ravishda qayd etilgan har qanday informatsiya, ma'lumot tushuniladi. Hujjatlarning turlari:

1. Rasmiy va norasmiy
2. Shaxsiy
3. Statistik ma'lumotlar
4. Audio- va videotasmalar
5. Rasmlar, ikonalar.

Sotsiologiyada hujjatlarning ham miqdoran, ham mazmunan tahlil qilinishi kontent-analiz deyiladi.

1. Sotsiologik tadqiqotlarning dasturi

Sotsiologik tadqiqotlar bo'lajak izlanishlarning ilmiy asoslangan reja va dasturi nitayyorlashdan boshlanadi. Dastur haqiqatdan kelib chiqqan va ilmiy-nazariy jihatdan puxta ishlangan bo'lishi lozim. Zero, tadqiqot natijalari qanday bo'lishi anashu omillarga bevosita bog'liqdir.

Dastur bo'lajak tadqiqot materiallarini to'plash, qayta ishlash va ma'lumotlarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Dastur tadqiq etiluvchi ijtimoiy muammo mohiyatini aniqlash, tadqiqot ob'ekti va predmetini belgilash, maqsad va vazifalarini xarakterlab berish, ish farazi (ilmiy taxmin)ni belgilash, usullarni aniqlash, ma'lumotlarni to'plash va tahlil etish tarxini chizib olish kabi qismlarni o'zida mujassamlashtiradi. SHunday qilib, dastur, asosan ikki katta bo'lim, ya'ni nazariy metodologik va amaliy-uslubiy bo'limlardan iboratdir.

Nazariy-metodologik bo'lim mavzu tanlash, tadqiqot ob'ektini xarakterlash, maqsad va vazifalar, faraz hamda predmetni aniqlash kabi qismlarni o'z ichiga olsa, amaliy-uslubiy bo'lim ma'lumotlarni to'plash usullarini bayon etish, yig'ilgan materiallarni qayta ishlash, tahlil qilish va tavsiyalar singari amaliy faoliyatlarni mujassamlashtiradi.

Dasturni ishlab chiqish jarayonida ikki asosiy talabga rioya qilish muhimdir. Birinchidan, ishlab chiqilgan nazariy uyushmalardan real tadqiqot jaryonlariga o'ta bilish va ikkinchidan, olingan natijalar, faktlar, yig'ilgan empirik materiallardan nazariy umumlashmalarga, ilmga qayta bilish, ko'nikmalarga ega bo'lish ana shu talablar mazmunidir. Bu ikki talabga rioya

qilish, bir jihatdan, sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishni tizimli yo'lga qo'yish, jamiyat ijtimoiy muammolarini tadqiq etish ishlarini uzluksiz amalga oshira borishni ta'minlasa, ikkinchi jihatdan, ilm-fan turli sohalarining uzviy rivojlana borishi uchun keng imkoniyatlar ochadi.

Sotsiologik tadqiqotlarda ilmiy maqsad muhim ahamiyat kasb etib, tadqiqotlarning nazariy yoki amaliy yo'nalishlarda borishini ko'rsatali. Maqsadning amalga oshirilish jarayonida tadqiqotchi uch an'anaviy vazifani o'z oldiga qo'yadi. Avvalo mavzuni ilmiy-nazariy jihatdan atroflicha tadqiq etish, ikkinchidan, bu ilmiy - amaliy mavzuning boshqa ilm va hayot jabhalari bilan nechog'lik bog'liqligi, ularga ta'siri masalalarini o'rganish va nihoyat, uchinchidan, ijtimoiy ziddiyatli holatlardan chiqishning mantiqli asoslangan yo'llarini belgilab berishdan iborat.

Sotsioloik tadqiqotlar ilmiy atamaları va tushunchalari qatorida ob'ekt va predmet tushunchalariga alohida to'xtalib o'tish lozim. Tadqiqotchi ijtimoiy muammo vaziyatini samarali hal etishi uchun ob'ekt va predmetni to'g'ri belgilashi muhim ahamiyatga ega. Ob'ekt odatda mustaqil tushuncha sifatida tadqiqotchi ilmiy-amaliy faoliyatlarining umumiy sarhadlarini ifodalaydi. Predmet esa tadqiqotchi tomonidan muayyan shaklga solinadi va maxsus tadqiqot ko'lamı sifatida o'rganiladi. Ob'ekt predmetdan ma'no jihatidan ancha keng, predmet ob'ektning hosilasidir. Ob'ekt bu sub'ekt o'rganishi kerak bo'lgannarsa yoki voqelikni anglatga, predmeti esa ob'ektning qay jihatlarini o'rganishimiz kerakligini bildiradi. Zero, birgina ob'ekt zamirida bir necha alohida tadqiqot predmetlarini ajratib olib o'rganish mumkin.

Ilmiy muammo ob'ektini tizimli tahlil etish tadqiqotchi uchun uch faoliyat yo'nalishini ochib beradi. Ular quyidagilar: tadqiqot predmetini aniqlab olish, asosiy tushunchalarni ajratib olish va ularga izoh berish hamda tadqiqot uchun ish gipotezasini yaratishdir. Ko'pincha ana shu talabning uchchalasi bir paytda yuzaga keladi, shu boisdan ham yuqoridagi uch talabning dastur bosqichlari deb emas, balki dasturning uzviy qismlari deb qarash maqsadga muvofiqdir.

Izlanishga qaratilgan tadqiqot rejasi uch bosqichdagi tadqiqot turini (hujjatlarni o'rganish, ekspertlar bilan maslahatlashuv, kuzatish o'tkazishni) o'z ichiga oladi. Bu bosqichlarning birinchisida ilmiy muammo xususidagi ma'lum bo'lgan barcha ilmiy, publitsistik va arxiv ujjatlarini chuqur o'rganib chiqish nazarda tutilsa, ikkinchi bosqichda shu soha bo'yicha taniqli olimlar, tajribali kishilardan iborat ekspertlar guruhi fikrini o'rganishga e'tibor qaratiladi. So'nggi bosqichda esa tadqiqotchi muayyan ilmlar tasavvurlariga ega bo'lgan holda ob'ekt xususida kuzatish ishlarini olib borishni ko'zda tutadi. Izlanish rejasi ilmiy muammoni aniq nomlab olish va asoslaydigan gipotezani ilgari surish bilan yakunlanadi.

Bayon etish rejasi bir qator sotsiologik tadqiqot rejalarini qo'llash, olingan ma'lumotlarni tahlil etish orqali qabul etilgan farazning hayotiyligini tekshirib ko'rish va o'rganilayotgan ob'ekt xususida aniq miqdoriy va sifat xarakteristikasiga ega bo'lishni taqazo etadi. Bayon etish rejasi asosida ish ko'rilganda ilgari ma'lum bo'lgan ko'pgina faktlarni tartibga tushirish va ular

o'rtasidagi o'zaro munosabatlar qanday ekanligi xususida ko'pgina ma'lumotlar qo'lga kiritiladi. Bunday tadqiqotlar ob'ekt tuzilishiga aloqador barcha empirik ma'lumotlarni klassifikatsiya qilish bilan yakunlanadi. Sotsiologik tadqiqotlarning eksperimental rejasi ob'ekt haqida ma'lumotlar asosida izohlovchi farazni ilgari surish imkonini beradi. Mazkur tadqiqot rejasidan maqsad ob'ekt zahiridagi sabab oqibat aloqalarini aniqlash, ob'ektning ayni holati va rivojlanishi xususidagi shart-sharoitlarini aniq bilib olishdan iboratdir. Sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishning real tajribasida muayyan ilmiy tadqiqot jarayonida yuqorida tilga olingan har uch reja ham o'zaro uyg'un holatda ketma-ket qo'llanilib boradi.

2. Sotsiologik tadqiqot usullari

Sotsiologik tadqiqot usullari ichida hozirgi kunda eng ko'p tarqalgani so'rov usulidir. So'rov usulining qulayligi shunda namoyon bo'ladi, tadqiqotning kuzatish va eksperiment usullarini faqat mutaxassis sotsiologlar qo'llashi mumkin bo'lsa, so'rov usulida tadqiqot o'tkazishga qisqa muddatli tayyorgarlikdan o'tgan yordamchilarni ham jalb qilish va ular yordamida respondentlarning katta miqdorini qamrab olish mumkin. So'rov usuli boshqarish uchun qulay usuldir. Bundan tashqari, tadqiqot ko'lamini kengaytirishda so'rov usulining imkoniyatlari juda katta. Bu usul qo'llanilganda katta korxona va muassasalar, sohalar, mintaqalar va hatto, mamlakat miqyosida ham tadqiqot o'tkazish mumkin. Kuzatish usuli faqat hozirgi davrda yuz berayotgan hodisalar haqida ma'lumot bersa, so'rov usuli respondentga bevosita murojaat qilib, uning xulq-atvori, harakatdan ko'zlagan niyatlari o'tgan davrda qilgan va hozir qilayotgan ishlari, kelajakka mo'ljallagan rejalari to'g'risida batafsil ma'lumot olish imkonini beradi. Ayniqsa, kishining his-tuyg'ulari, kechinmalari, harakat motivlari to'g'risida ma'lumot to'plash kerak bo'lganda bu usul qo'l keladi. chunki bu hodisalar kuzatuvchi nigohidan yashirin bo'lib, ularni kuzatish usuli bilan aniqlab bo'lmaydi.

So'rov usulining mohiyati shundan iboratki, tadqiqot olib boruvchi savol beradi va respondent o'zining dunyoqarashi, ma'lumoti, bilimi va xohishidan kelib chiqib, savollarga javob beradi. Tadqiqotchi respondentga savol berishdan avval o'zi bir necha savollarga javob topishi kerak. Bu savollar quyidagilar:

1. Savolni kimga yoki kimlarga bermoqchi?
2. Respondent savollarga javob berishni xohlaydimi yoki yo'qmi?
3. Respondent qo'yilgan savollarga javob bera oladimi, yo'qmi?
4. Respondent haqqoniy javob berishi uchun savollarni qay yo'sinda, qay tarzda va qay shaklda berish kerak?

Mana shu savollarga javob topa olgan sotsiolog tadqiqotning muvaffaqiyatli chiqishini ko'p jihatdan ta'minlagan bo'ladi.

To'planishi kerak bo'lgan ma'lumot xarakteri va uni to'plash usuliga qarab so'rovlar ikki turga bo'linadi:

1. Anketa so'rovi.
2. Intervyu.

Savol berilishi mumkin bo'lgan odamlar yoki potensial

respondentlarni qay darajada qamrab olishiga qarab so'rovlar yana ikki turga bo'linadi:

1. YAlpi so'rovlar.
2. Tanlab o'tkaziladigan so'rovlar.

Bulardan tashqari, ochiq va g'apiq so'rovlar, yuzma-yuz va sirdan so'rov singari turlari ham mavjud.

Sotsiologiyada keng qo'llaniladigan usullardan biri intervyu bo'lib, u anketa bilan ko'p umumiylikka ega. Anketada savollar yozma tarzda berilsa, intervyuda og'zaki savollar beriladi. Intervyu respondent bilan bevosita muloqotni taqozo qiladi. Intervyuning oddiy suhbatdan farqi yana shundaki, suhbatdoshlar bir-birini qiziqtirgan masalalalar to'g'risida gap yuritisa, intervyu jarayonida faqat bir tomon – tadqiqotchi savol va respondent javob beradi. Intervyu bilan oddiy suhbat o'rtasida tafovut yana shunda ko'rinadiki, suhbatdoshlar, odatda, tanish odamlar bo'ladi, intervyu esa deyarli ikki notanish odamning suhbatidir.

Kuzatish usuli faqat sotsiologiya yoki ijtimoiy fanlardagina emas, balki fanning barcha sohalarida ham keng qo'llaniladi. Kuzatish turli maqsadlarda, turli shaklda, turli qamrovda, turli vositalar yordamida olib boriladi. Barcha odamlar o'z hayotlarida kuzatish usulidan u yoki bu darajada foydalanadilar. Lekin ular foydalanadigan usul ilmiy kuzatish usuli emas, balki oddiy kuzatish usulidir. Oddiy turmushdagi kuzatish ham aksariyat holda muayyan maqsadga yo'naltirilgan va muayyan darajada tashkil etilgan bo'ladi. Lekin bu kuzatishlar ilmiy maqsadni ko'zlamagani va itmiy muammoni hal etishga qaratilmagani uchun ilmiy kuzatish bo'la olmaydi.

Ilmiy kuzatishlar muayyan nazariya yoki farazni tasdiqlash, to'ldirishni, yoki bo'lmasa rad etishni maqsad qilgan holda olib boriladi. Ilmiy kuzatishning maishiy turmushdagi kuzatishdan tub farq qiladigan xususiyatlaridan yana biri uning nazariy, ilmiy asoslaridir. Kundalik turmushdagi kuzatish kishilarning hayot tajribasiga asoslanib olib borilsa, ilmiy kuzatish ilmiy bilimlar asosida olib boriladi.

Ijtimoiy fanlarda kuzatish usulining qo'llanilishi uning tabiiy fanlarda qo'llanilishidan ancha farq qiladi. Tabiatda tadqiqotchining kuchli his-tuyg'ularini uyg'otadigan voqealar yuz bermaydi. Jamiyatda yuz berayotgan hodisalarni kuzatayotganda esa tadqiqotchi his-tuyg'ularga berilib ketishi, bo'layotgan hodisalarga ijobiy yoki salbiy munosabatda bo'lishi va bu hol tadqiqot natijalariga, xulosalarning ilmiy va ob'ektiv bo'lishiga ta'sir o'tkazishi mumkin. SHuning uchun ijtimoiy hodisalarni kuzatishga harakat qilayotgan tadqiqotchi o'z his-tuyg'ularini tizginlay olishi, xulosa chiqarish paytida shu his-tuyg'ulardan yuqoriroqqa ko'tarila olish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Sotsiologik kuzatish olib borishning shart va talablari quyidagilar:

1. Kuzatish kerakli saviyada va darajada tashkil qilinishi kerak. Bu shart sotsiologik tadqiqotlar taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lib natijalarning ob'ektivligini ta'minlashga qaratilgan. Kuzatish olib borilganda shunday holatlar

vujudga keladiki, ularni texnika vositalarida tasvirga tushirilmasa yoki ovozlarga'zib olinmasa, bu holatlarni tabiiy holda qaytarish mumkin emas. SHuning uchun kuzatishni texnik jihatdan ta'minlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Kuzatishning muntazamliligi. Bu shart ham tadqiqot natijalarining ob'ektivligini ta'minlashga qaratilgan. Kuzatish muntazam olib borilmay, o'lda-jo'lda va ahyon-ahyonda olib borilsa tadqiqot ob'ekti uchun xarakterli holatlar kuzatilmay qolishi va oqibatda kuzatish natijalari ob'ektiv bo'lmay qolishi mumkin.

3. Kuzatuvchining xolisligi. Bu shart ta'minlanmasa, tadqiqot jarayonida kuzatuvchi o'zi o'rganayotgan jarayonlarga ijobiy yoki salbiy munosabat bildirishi va buning oqibatida voqealarni sub'ektiv talqin qilishi mumkin.

4. Kuzatilayotgan ob'ekt to'g'risida mumkin qadar ko'proq ma'lumot to'plash. Ob'ekt qanchalik batafsil kuzatilsa, chiqarilgan xulosalarning haqiqatda shunchalik yaqin bo'lishi uchun imkoniyat yaratiladi. Xulosalar etarli bo'lmagan ma'lumot asosida chiqarilsa, ob'ektning ma'lum xususiyatlari kuzatuvchi e'tiboriga tushmay qolgan bo'lishi mumkin. Bu esa xulosalarning noto'g'ri bo'lishiga olib keladi.

5. Kuzatishning borishini va natijalarini batafsil qayd qilib borish. Agar shunday qilinmasa, xulosa chiqarish paytida kuzatishning muayyan natijalari e'tibordan chetda qolishi mumkin. Bu esa xulosaning chala yoki noto'g'ri bo'lishiga olib keladi. YUqorida aytilganidek, kuzatish jarayonini qayd qilib borishda texnika vositalari katta yordam berishi mumkin.

Sotsiologik kuzatishlarni shartli ravishda ikki turga bo'lish mumkin:

1. CHetdan kuzatish.
2. Ichkaridan kuzatish.

Ob'ekt chetdan kuzatilganda undagi jarayonlarning ishtirokchilari o'zlari kuzatish ob'ekti ekanliklaridan mutlaqo bexabar bo'ladilar. Masalan, xaridorlar xulqini o'rganmoqchi bo'lgan tadqiqotchi sotish zalida yoki peshtaxta ortida turib xaridorlarni ko'proq qaysi buyum qiziqtirayotgani, ularning belgilangan narxlarga munosabati va boshqalarni kuzatishi mumkin. Bunda xaridorlar o'zlarining kuzatish ob'ekti bo'lganliklarini bilmaydilar. Agar ular o'zlari sotsiologik kuzatish ob'ekti bo'lganliklarini bilib qolsalar, ularning xulqida ma'lum o'zgarishlar yuz berishi, demak, bu xulq tabiiy bo'lmay qolishi mumkin.

CHetdan turib kuzatayotgan tadqiqotchi o'rganilayotgan ob'ektga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi va uni tabiiy holda o'rganadi. Ichkaridan kuzatilganda tadqiqotchi ikki xil usuldan foydalanishi mumkin:

1. Ochiq kuzatish.
2. YAshirin yoki xufya kuzatish.

Ilmiy bilishning boshqa usullari singari kuzatish usulining ham afzalliklari va kamchiliklari mavjud. Bu usulning eng asosiy afzalliklaridan biri shuki, u tadqiq qilinayotgan ob'ektdagi jarayonlarning kechishiga ta'sir o'tkazmay yoki juda kam ta'sir o'tkazgan holda o'rganish imkonini beradi. Sotsiologik kuzatish ilmiy empirik bilish usuli sifatida va mohiyat e'tibori bilan

murakkab jarayon bo'lgani uchun reja asosida olib boriladi. Kuzatish rejasi usulning xususiyatlari va asosiy bosqichlarini nazarda tutgan holda tuziladi.

3. Sotsiologik ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish

Ma'lumotlarning tahlil bosqichi o'rganilayotgan ob'ekt haqida olingan axborotni shu ob'ekt haqida oldindan mavjud bo'lgan axborot bilan solishtirishdan iboratdir. Sotsiologik ma'lumotlarni tahlil etish bosqichining ma'nosi va maqsadi natijalarining ma'nosini tushuntirib berish, fikrlarni umumlashtirish va yagona nazariy tizimga keltirishdir. SHuning uchun tahlil natijasida hosil bo'ladigan hisobot, birinchidan, o'rganilayotgan ijtimoiy ob'ektning miqdoriy parametrlarini o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi, ikkinchidan, uning rivojlanish sur'atlarini va yo'nalishlarini (o'sish yoki pasayish) ko'rsatishi, uchinchidan, ijtimoiy xodisalar orasidagi o'zaro aloqadorlik qonuniyatlarini ishonchli ko'rsatkichlar g'raida ochib berishi kerak. Yana shuni ta'kidlash zarurki, ishlov berish va matematik tahlil qilish bosqichidan keyin ma'lumotlarni o'rtacha qiymatlari hosil bo'ladi, ular umumiy tasnif etilib, tadqiq etilayotgan ob'ektning xilma-xil elementlarini yaxlit tizimda ifodalaydi. To'plangan empirik axborotlarni to'g'ri izohlash va ma'lumotlar mantig'iga mos xulosa va tavsiyalarni shakllantirish tadqiqotchidan katta aql hamda ilmiy-nazariy abstraksiyalash qobiliyatini talab etadi.

Sotsiologik tadqiqotning natijalarini to'g'ri izohlab beruvchi qator ilmiy-uslubiy echimlar tizimi mavjuddir, ammo har bir konkret holatda bu narsa bir butun kishilar jamoasi (sotsiologlar, tashkilotlar ma'muriyati, ma'muriy va ma'rifiy sohalarda ishlovchi shaxslar, so'raluvchilarning o'zlari) ishtirokida amalga oshiriladi. Sotsiologik tadqiqot natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish jarayonidagi ayrim bosqichlarni ajratib tavsiflashga harakat qilamiz.

Birinchisi - tadqiqot gipotezalariga mos va muvofiq hosil qilingan empirik ma'lumotlarni tartibga solish, guruhlariga ajratish, tasniflashdir. Bu bosqichda tadqiq etiluvchi hodisalarning miqdoriy tasniflari tadqiqot tomonidan qamrab olinadigan, ob'ektlar tez-tez takrorlanishi empirik ma'lumotlarni statistik guruhlariga ajratish imkonini beradi.

Ijtimoiy axborotlardagi ma'lumotlar, hamda sotsiologik tadqiqotlarning vazifalari va maqsadlari xilma-xilligini inobatga olib, har xil guruhlariga ajratish usullarini qo'llash mumkin. Guruhlarga ajratishning eng sodda ko'rinishlaridan biri - tipologik qurilmalar, ya'ni kuzatiluvchi birliklarni biron bir alomat bo'yicha maxsus sinchiklab o'rganishdir (masalan, yoshi, jinsi va h.k.). Xozirgi paytda EXMdan foydalanish natijasida bu usulning imkoniyatlari ancha kengaydi. O'zgaruvchilarning tipologiyasini amalga oshirish va barqaror guruhlarini ajratib olish uchun faktorli, dispersion tahlil usullari qo'llanilayapti.

Interpretatsiya va tahlilning ikkinchi bosqichi - sonli tasniflarning ishonchliligini va o'rtacha qiymat xolisligini tekshirish, ma'lumotlarni umumlashtirishdir. Bu bosqichda turli tasodifiy tasnifga ega bo'lgan axborotlar bir-biridan ajratib olinadi.

Uchinchi bosqichda hosil qilingan sonli tavsif orqali mavjud bo'lgan tadqiqotning gipotezalari tekshiriladi. Eslatib o'tamizki, taxmin (gipoteza) deganimizda biror-bir dalil, hodisa va jarayonni tushuntirib (yoki rad etiladi, yoki qabul qilinadi) beradigan ilmiy mulohazani tushunamiz.

Sotsiologik tadqiqotni tashkil qilishga va o'tkazilishiga katta sarf-xarajatlar ketishi tufayli o'rganilayotgan muaammoni iloji boricha to'laroq qamrab oladigan bir nechta gipoteza ilgari suriladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va gipotezalarning hayotiyligi eng samarador vosita sifatida kishilarning ijtimoiy faoliyatini yaxshilashga xizmat qiladi. SHu sababli gipotezani sinash jarayonda tadqiqotchi ko'proq real hodisalarga tayanishi, xilma-xil ma'lumotlarni birlashtirishi, empirik materiallardan o'rganilayotgan ob'ektning zaruriy, muhim jihat va xossalarini ajratib berishga intilishi kerak.

Gipotezalarni empirik sinashning eng yaxshi usullaridan biri sotsiologik eksperimentdir. U gipotezalarni sinash usullaridan eng ishonchlisi bo'lsada, o'rganilayotgan sub'ektlar orasidagi bog'lanishlar murakkab va ko'p qirrali bo'lganligi sababli hozirgi paytda kam ishlatiladi.

Xozirgi zamon soiologiyasida eng ko'p qo'llaniladigan usullardan biri statistik usuldir. Gipotezalarning ishonchliligini aniqlashning tipik usuli sifatida miqdorlarning o'rtacha qiymatlarini hisoblash, o'zaro bog'liq koeffitsientlarni aniqlash va h.k. ni ko'rsatib o'tish mumkin.

Ilmiy hisobotni tuzish. Sotsiologik tahlilning natijalari tizimlashgan va guruhlariga ajratilgan ko'rinishda ilmiy hisobotda namoyon bo'ladi. Xisobotni tayyorlashda shuni esda tutish kerakki, u keyinchalik nazariy ishlarni davom ettirishga asos bo'lishi va ijtimoiy boshqaruv amaliyotida sotsiologk tadqiqotlarnatijalarini aks ettiruvchi mohiyat va shaklga ega bo'lishi kerak. Xisobotga izohlovchi xat kiritilishi ilmiy taomilga kirgan bo'lib unda qisqacha asosiy xulosalar va natijalar keltiriladi.

Xisobotning ilovasi sifatida jadvallar, grafiklar, so'rovnomalar, blanklar, testlar va boshqalar keltiriladi.

Xisobotning bo'limlari. Xisobotning tarkibi tadqiqotning turiga, nazariy yoki amaliy ekanligiga bog'liqdir.

Dastavval hisobot tuzilayotganda muaamoning qo'yilishi, tadqiq etiluvchi masalalarning ta'rifi, asosiy tushunchalarning nazariy interpretatsiyasi, muammoning qay darajada o'rganilganligi va uning echimiga e'tibor beriladi. Alohida e'tiborni tadqiqotning uslublar tasnifiga, tanlovning tuzilishi, axborotlarni yig'ish tartiblariga ajratish kerak. Oxirida alohida bo'lim orqali o'tkazilgan tadqiqot natijalarining har tomonlama tahlili va qo'yilgan masalalarning echim darajasi tasniflanadi. Bu bo'limning oxirida tadqiqotning mavjud bo'lgan amaliy natijalari ko'rsatiladi va aniq xulosalar shakllanadi, yangi axborotni olish zarurligi aniqlanadi va uni hosil qilish uchun texnikaviy uslubiy tavsiyalar beriladi.

Ikkinchidan, hisobotning har bir bo'limida tadrijiy bir-birini to'ldiruvchi ikki qismning o'zaro mutanosibligini ta'minlash zarur. Birinchi qismda muammolar va natijalarni, ikkinchi qismda esa xulosalarni chuqur ilmiy asoslab

berishi shart. Bu esa, tadqiqotchini hozirgi ahvolni sharhlash va umumlashtirishdan tashqari, uni tahlil va bashorat qilishga undaydi.

Uchinchidan, hisobot so'rovnomadagi savollar ketma-ketligidan mustasno, respodentlarning sotsial-ruhiy portreti, intellektual imkoniyatlari voqelikka munosabati umumiy manzarasining ifodasidan iborat bo'lishi kerak. Xisobotda so'rovnomaning barcha savollari va ularga mos natijalari ilmiy mantiq talablariga binoan tahlil etib beriladi.

To'rtinchidan, hisobotning texnik jihatdan yuqori saviyada rasmiylashtirilishi va to'g'ri tuzilishi katta ahamiyatga ega. Ko'pi bilan hisobot (ilovasiz) 50-60 betdan iborat bo'lganligi ma'qul. Xisobotga doir tushuntirish xati 10 betgacha bo'lishi mumkin. Xisobotda tadqiqot ishlariga jalb etilgan barcha tashkilotlar, o'tkazilish muddati va joylari, tadqiqot uslubiyoti bo'yicha ko'rsatma beruvchilarni tayyorlashning tartibi va tarkibi, ma'lumotlar yig'ishning takomillashtirilishi, axborotlarni kodlashtirish uchun ishlatilgan tizim va matematik ishlov berishda qo'llanilgan usullar ko'rsatilishi lozim. Jadvallar keragidan ortiqcha raqamlarga ega bo'lmasligi kerak.

Bundan tashqari hisobot yozish jarayonida buyurtmachiga tadqiqotning eng muhim natijalari bo'yicha tezkor axborotlarni ekspress-revyu ko'rinishida topshirish maqsadga muvofiqdir.

O'z-o'zini tekshirish uchun muammoli savollar:

1. Sotsiologik tadqiqotlarning rejalashtirilishi.
2. Sotsiologik tadqiqot dasturi.
3. Respondentlarni tanlash usullari.
4. Ijtimoiy buyurtma.
5. So'rov usuli nima?
6. Kuzatish va uning shakllari.
7. Sotsiologik kuzatishning zarur shartlari.
8. Intervyu usulining xillari.
9. Analitik tahlilning o'ziga xosligi.
10. Ilmiy hisobot tuzish.

IZOXLILUG'AT – GLOSSARIY

Авлодлар ичидаги мобиллик- бир индивиднинг ота-онасининг тутган ўрни билан таққосламаган ҳолда, бутун умри давомида ижтимоий ҳолатини ўзгартиришни билдиради.

Авлодлараро мобиллик- фарзанднинг ўз ота-онасининг ижтимоий ҳолатидан ўзиб кетиши ёки тушиб кетишини билдиради.

Адаптация- инсоннинг янги фаолият шароитларига, маълум бир ижтимоий

гурухлардаги муносабатлар тизимига мослашуви.

Анкеталаштириш- бу езма шаклдаги сўров бўлиб, техникасига кура, таркатиладиган(анкета тадқиқотчи томонидан таркатилади ва йигиб олинади), матбуот

орқали, телефон еки телескоп орқали, яъни техник воситалар ердамида (телевизор, телефонга

оид кушимча сифатида) амалга ошириладиган сўров тури.

Анъанавий жамият- ерга бўлган мулкчилик асосий ўринни эгаллайдиган жамият.

Анъаналар- жамият ҳаёти турли соҳаларининг моддий ва маънавий фаолият

шакллариининг, кишилар ўртасидаги алоқалар ва муносабатларнинг авлоддан -авлодга ўтиши,

аждодлар ҳаёти белгилари ва хусусиятларининг такрорланиш тарзи, дунёда анъаналар ва

урф-одатларга эга бўлмаган миллат ёки элат йўқ.

Аристотель – Юнон фалсафасининг юксак намоёнчаси. (эр. авв. V-IV асрлар)

Ахлоқ- ижтимоий онг сифатида муайян халқ, элат ёки уюшманинг асрлар давомида

шаклланган ҳуқ-атвор, хатти-ҳаракатлар, ҳис-туйғу ва кишилар ўртасидаги ўзаро реал

муносабатлар тизимини ифода этади.

Белгиланган мавқе-инсоннинг жамият ёки ижтимоий гуруҳ томонидан тан олинган

мавқеи

Буддавийлик– Мил.авв. VI асрда Ҳиндистонда пайдо бўлган дин.

Ватан– кишиларнинг яшаб турган, уларнинг авлод ва аجدодлари туғилиб ўсган жойи,

худуди, ижтимоий муҳити, мамлакати.

Вертикал мобиллик- бир ижтимоий қатламдан бошқасига ўтишни ифодалайди

Геродот – (эр. авв. 490-430.) Юнон тарихчиси. —Тарих фанининг отаси|| ҳисобланади.

Гипотеза- ижтимоий объектининг тузилиши ҳақидаги назарий асосланган илмий

тахмин бўлиб, мазкур объектни ташкил этувчи турли хил элементлар ва алоқалар характери,

уларнинг фойлият юритиши ва таракиетни ўзида ифодалайди.

Горизонтал мобиллик- эса бир ижтимоий гуруҳдан бошқасига ўтишни билдиради

Дастур- турли илмий воситаларни асосли тавсифи бўлиб, социолог булар ёрдамида

зарур билимларга эга бўлади ва аниқсизликдан аниқликка ўтади.

Девияция- ҳуқ-атвордан оғиш деган маънони билдиради.

Дин —луғавий маъноси —ишонч, эътиқод

Жамият-табиатнинг бир қисми, борлиқнинг алоҳида шаклини ифодаладиган
фалсафий тушунча, одамлар уюшмасининг махсус шакли, кишилар ўртасида амал қиладиган
кўплаб муносабатлар мажмуи.

Жамоатчилик фикри-ижтимоий онгнинг, манфаатлар, кайфиятлар, синфлар ва
жамиятдаги социал гуруҳларнинг хис-туйғуларини реал ҳолатини ифодалайди.

Ижтимоий бошқарув социологияси- ижтимоий муносабатларнинг унумли тарзда
кечишини ҳар хил мезонлар ёрдамида ўрганадиган фан.

Ижтимоий гуруҳ- одамларнинг ижтимоий муҳим мезонлар асосида ташкил топган
тузилмаси.

Ижтимоий институт-жамиятнинг асосий эҳтиёжларини қондиришга қаратилган
ташкилот.

Ижтимоий меъёр- ижтимоий мақбул ҳуқ-атвор талаблари, шартлари, истаклари
мажмуи.

Ижтимоий мобиллик- кишиларнинг ижтимоий кўчиши, ўз
мавқеларининг ўзгариши
мажмуи.

Ижтимоий рол- ижтимоий мавқенинг амал қилинишини билдиради.

Ижтимоий санкциялар-ижтимоий меъёрларни қўриқловчи асосий восита бўлиб,
натижада меъёрлар бир томондан қадриятлар, иккинчи томондан эса санкциялар ёрдамида
муҳофаза этилади.

Ижтимоий статус(мавқе)-шахсларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятларини ифодалайди.

Ижтимоий стратификация-одамларнинг турли қатламларга бўлиниб келиши
сабабларини тушунтиради.

Ижтимоий ташкилотлар-кишилар ўртасидаги муносабатлар ривожига
маҳсули бўлиб,
муайян дастур ёки мақсадни бажаришга қаратилган, белгиланган тартиб ва қоидалар асосида
фаолият кўрсатувчи кишилар бирлиги.

Ижтимоий тизим- бир-бири билан ўзаро алоқада бўлган ва муайян бутунликни ташкил

этувчи алоҳида тарзда тартиблашган ижтимоий институт, ижтимоий ташкилот, ижтимоий бирликлар мажмуи.

Индивидуал меҳнат- меҳнатнинг технологик тақсим ланиши. ўз объекти мажбуриятлари ва функцияларидан алоҳида бўлган меҳнат ҳудудини билдиради.

Индустриал жамият- мулкнинг барча кўринишларига бўлган муносабат шаклланадиган жамият.

Иқтисод - мулоқот, гаплашиш, келишиш, савдолашиш, икки томонга тўғри келадиган умумий нархни, рақамни, ҳулосани топиш демакдир.

Катта ижтимоий гуруҳлар-умуман жамият миқёсида мавжуд синфлар, ижтимоий катламлар, касбий гуруҳлар, ижтимоий этник бўлган гуруҳлар, ижтимоий - этник бирликлар

(қабила, халқ, миллат), ёш гуруҳлари (ёшлар,нафақахўрлар) ва хоказо.

Кичик ижтимоий гуруҳлар-оила, бошланғич ишлаб чиқариш ячейкалари (бригада),

кўни кўшнилар, яъни маҳалла фуқаролари, дўстлар уюшмалари, мактаб синфи ва хоказо.

Кузатиш-билишнинг энг фаол шаклларида бири сифатида ташқи олам объектлари

ҳақидаги дастлабки тасавурлар мажмуаси.

Маданият —Маданийл —шаҳарликл деган маъноларни билдиради.

Кейинчалик

—Маърифатли бўлишл, —Тарбиялил, —Билимли бўлишл маъноларида ишлатилган, узок тарихий

тараққиёт жараёнида инсоният томонидан яратилган моддий ва маънавий бойликлар, асори - атиқалар йиғиндиси.

Маданият социологияси-одамларнинг интеллектуал, ахлоқий, эстетик фазилатлари, амалий саъй-ҳаракатларига интилиш, қизиқиш ҳамда эҳтиёжлари муҳим аҳамиятга эга.

Маҳобҳорат, Рамаяна – Қадимги Ҳиндистондаги халқ оғзаки ижоди.

Маънавий мерос – Қадим замонлардан бери аجدодларимиздан бизгача етиб келган

маънавий бойликлар-сиёсий, фалсавий, ҳуқуқий ва диний қарашлар, ахлоқ-одоб меъёрлари,

илм-фан ютуқлари, тарихий, бадий ва санъат асарлари мажмуидир.

Маънавият- инсонни жамаки бошқа мавжудотлардан ажратувчи ижтимоий ходиса

Маърифат – билиш, таниш, яъни билим демакдир.

Менталитет— инсоннинг ижтимоий-иқтисодий маданий дунёқараши.

Мехнат жамоаси– инсонларнинг социал -сиёсий ва иқтисодий бирлашмаси,
ижтимоий аҳамиятга ва шахсий кийматга эга бўлган мақсадларни амалга ошириш учун
ташкилланган жамоа.

Мехнат социологияси-мехнат соҳаси бўйича барча ижтимоий маълумотларни
туплашга, ишлаб чиқариш воситаларидан тула фойдаланишга, меҳнатни бошқаришга
асосланган фан.

Меҳнатни ташкил қилиш- жонли ва ашёвий бирикмаларнинг тартиби ва усуллари
формалари.

Миллат- «ўзак», «туб моҳият», «негиз» деган маънони билдиради.

Миллий мафкура - ўзликчимизни, муқаддас анъаналаримизни англаш
туйғуларини,
халқимизни кўп асрлар давомида шаклланган эзгу орзуларини,
жамиятимиз олдида қўйилган
олий мақсад ва олий ғоядир.

Миллий тарбия- у ёки бу миллатни, элатни ташкил этувчи кишиларни
миллий

маданиятини мерос, қадриятларни, урф-одатларни, анъаналарни
ўзлаштиришдаги фаолиятни
ривожлантиришдир, у миллий онг ва миллий ўзликни англашнинг
субъектидир.

Миллий қариятлар - миллий мафкуранинг тарбиявий элементи.

Миллий ғоя- миллатнинг ўтмиши, бугуни, истиқболи, манфаат ва
мақсадини
ифодаловчи ижтимоий ғоя.

Низо– вужудга келадиган зиддиятларни хал этишнинг самара бермайдиган
йули.

Никоҳ-жамият томонидан тасдиқланган (санкцияланган), жинсий
муносабатларнинг
мақсадли, мустаҳкам социал ва шахсий формаси.

Номинал гуруҳ- аҳолининг статистик ҳисоби учун зарур гуруҳлар.

Норасмий салбий санкциялар-расмий _____идоралар томонидан
кўзда тутилмаган жазо

турлари:танбех, устидан қилиш,қалтис ҳазил,лақаб қўйиш, менсимаслик,
қўл бермаслик ва
қўллаб-қувватламаслик, миш-миш тарқатиш, бўхтон, ёмон фикр
билдириш, шикоят қилиш,
фельетон ва фош этувчи мақола ёзиш ва хоказо.

Норасмий позитив санкция- дўстона мақтов, ширин сўз, қарсак, шухрат,
яхши фикр

билдириш, жилмайиш, лидерлик ёхуд экспертлик хислатларини тан олиш ва хоказо.

Норасмий ташилот- хусусиятлари, қизиқишлари, шахсий сифатлари, рухий

ҳолатлари бир-бирига тўғри келган кишилар ўртасидаги алоқалар

Огюст Конт-француз файласуфи, социология фани асосчиси.

Оила социологияси- умумий социологиянинг асосий йўналишларидан бўлиб, у

оилани никоҳ асосида ташкил топган, жамият тараққиётида муҳим ижтимоий вазифаларни

бажарувчи социал институт сифатида ўрганади.

Панел сўровлар-бу кишиларнинг доимий доирасига мўлжалланган сўров бўлиб, у

орқали муайян ижтимоий ҳолат мазмунининг маълум вақт оралигида нечоғлик

